

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NOORGANIK VA ANALITIK KIMYO KAFEDRASI

**UMUMIY KIMYO FANIDAN
LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI**



TERMIZ-2018

Mazkur uslubiy qo'llanma 5140100 – Biologiya ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabalari uchun tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:
kat.o‘q. Alimnazarov B.X
o`q. Babamuratov B.E.
o`q. Umirova G.
o`q. Pardayev O.T.

Taqrizchi: PhD. Qosimov Sh.A

Noorganik va analistik kimyo kafedrasining 2018 yil __ avgustdagি __-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: dots. Muqimova G.J.

Mazkur uslubiy qo'llanma TerDU Texnika fakulteti Ilmiy Kengashining 2018 yil ____ avgustdagি ____ -sonli yig'ilishida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Fakultet dekani : Qarshiyev F.

Uslubiy qo‘llanma Termiz davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2018 yil _____ dagi ___-sonli yig‘ilishida muhokama etilgan va nashr etishga tavsiya etilgan.

LABORATORIYA ISH №1

Laboratoriya ishlarini bajarishda ishlatiladigan asbob-anjomlar bo'yicha umumiyo ko'rsatmalar va texnika xavfsizlik qoidalari.

Kimyo laborotoriyasida ishlaganda ko'ngilsiz xodisalar ro'y bermasligi uchun quyidagi ehtiyyot choralari qoidalariiga amal qilish shart:

1. Zaharli va qo'lansa hidli moddalar bilan qilinadigan tajribalarni mo'rili shkafda bajaring.
2. O'qituvchining ruxsatisiz biror moddaning mazasini tatib ko'rish yoki hidlash, shuningdek, berilgan ishga taa'luqli bo'limgan boshqa biror ishni qilib ko'rish qat'yan man etiladi.
3. Moddaning hidini aniqlashda yoki gazlarni hidlab ko'rishda havo oqimini idishdan o'zingiz tomon yelpitib ohista hidlang.
4. Kuchli kislotalarni, ayniqsa kontsentrlangan sulfat kislotani suyultirishda suvni kislotaga quymasdan, kislotani suvga tomchilatib ohista quying.
5. Probirkaga biror suyuqlik solib qizdirayotganningizda uning og'zini o'zingizga yoki yoningizda turgan odamga qaratib ushlamang .
6. Efir, benzin, spirt, benzol kabi oson o't oluvchi suyuqliklarni olovga yaqin keltirish yoki ochiq alangada isitish mumkin emas .
7. Yonuvchi gazlarning havo bilan aralashmasi portlorvchi bo'ladi, shuning uchun vodorod va shunga o'xshash gazlarni yoqishdan oldin ularning tozaligini sinab ko'rish kerak.
8. Simob va uning bug'i kuchli zahar. Shuning uchun u bilan ishlaganda juda ehtiyyot bo'lish lozim.
9. Elektr asboblari bilan ishlashda ularning izolyatsiyasiga e'tibor bering.Ular yaxshi izolyatsiyalangan bo'lishi kerak.
10. Ish joyingizdan bajaraladigan ish uchun keraksiz buyumlarni (kitob , daftар, portfel shuningdek ortiqcha idish, asbob va reaktivlarni) boshqa, maxsus joyga olib qo'yish lozim.
11. Natriy metali va ishqoriy metallar bilan ishlaganda suvdan uzoqroq bo'lishi kerak.
12. Qizdirilayotgan eritmaga yoki parlanayotgan suyuqliklarga yuzingizni yaqinlashtirmang, yuzingizga sachrashi mumkin.
13. Laboratoriya mashg'uloti tugagach, ish stolini tartibga solish, gaz va vodoprovod jo'mraklarining berkligini hamda elektr asboblarining o'chirilganligini albatta, tekshirishni unutmang.

KIMYO TAJRIBA XONASIDA MODDALAR BILAN SHIKASTLANGANDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH

Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya tajribalarini bajarayotgan vaqtida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan noxush hodisalarini oldini olishga tayyor bo'lish kerak. Ayniqsa ishqoriy moddalar, kislotalar va zaharli gazlar bilan ishlaganda kutilmagan tasodiflar yuz berishi ehtimoldan holi emas. Shuning uchun har bir kimyoviy moddaning zararli va zaharli xususiyatlarini yaxshi bilib olgan holda yoningizda tajriba bajarib turgan o'rtog'ingizga zarur bo'lib qolsa yordam berish talab etiladi.

Buning uchun quyidagi umumiy ko'rsatma va qoidalar talab etiladi:

- Laboratoriyada protivogaz, yuzga taqib ishlanadigan organik shishadan yasalgan qalpoqcha bo'lishi shart;
- O'ta xavfli moddalar (xlor, brom, konsentrangan kislotalar) bilan bajariladigan ishlarni o'qituvchi nazorati ostida bajarish kerak.

Zaharli moddalar, yengil alangalanadigan suyuqlik va gazlar bilan faqat mo'rili shkafda ishslashga ruxsat beriladi, bunday sharoitda:

- a) mo'rili shkaf eshiklarini o'qituvchi aytganidek qilib berkitish;
- b) boshni mo'rili shkaf ichiga tiqmaslik zarur;

Oleum va konsentrangan kislotalar bilan ishlaganda quyidagilarga amal qilish kerak:

- a) mazkur suyuqliklarni voronka orqali quyish va bu ishni mo'rili shkafda bajarish kerak;

b) Konsentrangan kislotalarni suyultirishda kislotani tomchilatib suvga quyish kerak;

- c) Sulfat va nitrat kislota aralashmalarini faqat yupqa shishadan yasalgan idishlarda saqlang;

- d) Issiq suyuqliklarni qalin shishadan yasalgan idishlarga quymang;

Ishqoriy metallar bilan ishlaganda ham juda ehtiyot bo`lishi kerak:

- a) ko'zingizga ko'zoynak va himoya ekrani bo'lishi kerak;

- b) natriy va boshqa ishqoriy metallar kerosinda saqlanishi kerak, idish qopqog'i yopiq bo'lishi kerak;

- c) natriyni suvga yaqinlashtirmang, aks holda u yonib ketadi;

- d) natriyni kesganda quruq qog'ozdan foydalaning;

- e) natriyni qo'lga olish mumkin emas, uni penset yoki qisqich bilan olish kerak;

- f) natriy qoldiqlarini rakovinaga also tashlamang, ularni etil spirtli yoki amil spirtini ishlatib yo'qoting

- g) natriy bilan bajariladigan ishlarni suv hammomida bajarish man etiladi, zarur hollarda qum hammomi yoki yog' hammomidan foydalilanadi.

— Teri yengil kuyganda uni spirt bilan artib, glitserin yoki vazelin surtish kerak.

Ko'proq va kattaroq kuygan bo`lsa kaliy permanganat hamda spirt bilan yuvib, maxsus surtish moyi (masalan, sulfidin emulsiyasini)ni qo'llash kerak.

— Brom kuydirgan terini benzol bilan yuvib, keyin natriy tiosulfatning 10%li eritmasi bilan artish kerak. Brom bug'ini ammiak hidlash yoki toza havoda nafas olish bilan ketkazish mumkin.

— Kuchli kislotalar bilan kuygan terini ko'p miqdordagi suv bilan yuvib, keyin sodaning 3%li eritmasi bilan artish lozim.

Ishqor kuydirgan terini esa suv bilan yuvib, keyin borat kislotasining 1%li eritmasi bilan neytrallash zarur.

— Ichingizga tasodifan ketib qolgan reaktivni ko'proq toza suv ichib, agar kislota bo'lsa sodaning 2%li eritmasidan bir stakan ichish tavshiya etiladi. Zaharlangan kishini toza havoga olib chiqish, sun'iy nafas oldirish va shifokor chaqirish kerak.

— Probirka, kolba yoki shisha naychadan foydalanganda qo'lingizni kesib olsangiz, jarohatlangan joyni yodning 3%li eritmasi bilan artib, sterillangan doka


bilan bog'lab qo'yish kerak. Qon ko'p oqsa vodorod peroksiddan foydalanish hamda zarurat tug'ilsa, shifokorga murojaat qilish zarur.

KIMYO LABORATORIYASIDA ISHLATILADIGAN JIHOZLAR

1. SHISHA IDISHLAR. Kimyoviy tajribalar o'tkazishda ko'pincha shisha idishlardan foydalaniladi. Laboratoriya da ishlatiladigan shisha idishlar temperatura ta'siriga chidamli bo`lib, odatda maxsus belgi qo'yiladi. Probirka, stakan, kolba, yassi kolba, konussimon kolba, Vyurs kolbasi, retorta, o'lchov kolbalari, menzurka, pipetkalar, kristallizator, soat oynasi, termometr, voronka laboratoriya da ko'p ishlatiladi.

Probirkalar. Kimyo laboratoriyasida ko'pchillik tajribalar, asosan, probirkalarda olib boriladi. Probirkalar har xil hajmda bo'ladi.

Kolbalar. Shakliga qarab tubi tekis, tubi yassi, tubi yumaloq kolbalar bo'ladi.



Kimyo laboratoriyasida ishlatiladigan jihozlar:

1- probirka; 2- kamyoviy stakan; 3- tubi yassi kolba; 4- tubi dumaloq kolba; 5- Vyurs kolbasi; 6- konussimon kolba; 7- o'lchov kolbalar; 8- qopqoqli chinni tigel; 9,10,11- filtrlash, tomizgich, ajratish voronkalari.


Tubi yumaloq kolbalar kimyo xonasida kamroq foydalaniladi. Bu kolbalar, asosan, uzoq vaqt davomida kuchli qizdirish talab etadigan tajribalarda, ko'pincha organik kimyoda ishlatiladi. Uzun bo'g'izli tubi yumaloq kolbalar past temperaturada qaynab

sachraydigan suyuqliklarni isitish uchun ishlatiladi. Alovida ishlar uchun ishlatiladigan kolbaVyurs kolbasidir. Vyurs kolbasidan, asosan, Cl_2 , HCl , SO_2 olishda foydalaniladi.

Stakanlar. Laboratoriya amaliyotida tajribalar ko'rsatish, filtrlash, filtratni yig'ish va shu kabi ishlarda kimyoviy stakanlar ishlatiladi.

Voronkalar. Qisqa nayli konussimon voronkalar filtrlashda, suyuqliklarni bir idishdan ikkinchi idishga quyishda ishlatiladi. Tomizgich voronkalardan suyuqliknini tomchilatib quyish, ajratish voronkalaridan bir-biriga aralashmaydigan suyuqliklarni bir-biridan ajratish uchun foydalaniladi.

Retortalar. Nitrat kislota olishda ishlatiladi.



Kimyo laboratoriyasida ishlatiladigan jihozlar:

12- pi petkalar; 13- o'lchov silindrleri; 14- menzurkalar; 15- retortalar; 16- allonj; 17- kristallizator; 18- soat oynasi; 19-chinni kosacha; 20- hovoncha.

O'lchov idishlari. Har xil hajmda bo'lib, ular asosan normal va molyar eritmalar tayyorlashda ishlatiladi.

Menzurkalar. Ular asosan tajriba uchun kerak bo'lgan eritmalarini o'lchab olishda ishlatiladi.

Pipetkalar. Cho'kma ustidagi suyuqliklarni va eritmalarini o'lchab olishda ishlataladi.


2.CHINNI IDISHLARga qopqoqli va qopqoqsiz chinni tigel, chinni kosacha, chinni hovoncha va boshqalar kiradi.

Chinni tigellar asosan moddalarni qizdirib parchalashda ishlataladi.

Chinni kosacha asosan eritmalarini bug'latib moddalarni tozalashda, har xil moddalarni sintez qilib olishda ishlataladi.

Chinni hovoncha asosan qattiq moddalarni maydalashda ishlataladi.

3. METALL BUYUMLARga asosan uch oyoq, metall shtativ, asbestoslangan



Kimyo laboratoriya-sida ishlataladigan jihozlar:

21- yuvgich; 22- chinni naylar kiydirilgan uchburchak; 23- asbestoslangan to'r; 24- shtativ; 25- probirka qisqich; 26- a- gaz, b- elektr bilan isitiladigan shkaflar.

to'r, chinni naylar kiydirilgan uchburchak, quritish shkaflari, probirka ushlagich, temir qoshoqcha va boshqalar kiradi.

Temir shtativlar asosan probirka, kolbalarni temir shtativga o'rnatib tajribalar o'tkazish, stakan va chinni kosachadagi eritmalarini temir shtativning halqasiga qo'yib, qizdirish va eritmani bug'latish maqsadida islatiladi.

Uch oyoq asosan stakandagi va chinni kosachadagi eritmlarni asbestlangan to'r ustiga qo'yib, qizdirish va eritmani bug'latish maqsadida ishlatiladi.

Chinni naylar kiygizilgan uchburchak asosan chinni tigellarni qizdirishda ishlatiladi.

Astbestlangan to'r ustida stakan va chinni kosachalar qo'yib qizdiriladi.

Quritish shkaflari asosan har xil moddalarni (tuzlarni) quritish uchun ishlatiladi.

Probirka qisqich asosan probirkalarni qistirib qizdirish uchun ishlatiladi.


Temir qoshiqcha asosan uglerod, fosfor, oltingugurt kabi moddalarni yondirib tajriba o'tkazishda ishlatiladi.

Gaz gorelkasi va u bilan ishlash

Laboratoriyada issiqlik manbai sifatida tabiiy gazdan foydalilanadi. Uning tarkibi asosan 93–98% metan CH₄ dan iborat.

Laboratoriyada amalda Bunzen gorelkasi (muftali) va Teklyu gorelkasi (diskli) ishlatiladi (1-rasm). Bu gorelkalar metalldan tayyorlangan naycha va taglikdan iborat. Taglikda yonaki nay gaz kirish nayi bo`lib, u rezina nay vositasida gaz quvuri jo`mragiga ulanadi. Bunzen gorelkasida metall naychaning pastki qismidagi doira shaklidagi teshik orqali havo beriladi (havoning berilishi mufta yordamida boshqarib turiladi). Teklyu gorelkasida mis nayning voronkasimon qismi bilan vintli disk orasida tirqish hosil bo`ladi va bu tirqish orqali gorelkaga havo o`tadi: diskni burab tirqishni kengaytirish yoki toraytirish va gorelkaga kiradigan havo miqdorini o`zgartirish mumkin.


Gorelkada havo yetishmay qolsa, gaz chala yonadi va dudli alanga hosil bo`ladi. Bu holda gaz gorelkasiga kelayotgan havo miqdorini oshirish kerak, aks holda chala yongan gaz havoga chiqib, atrofni zaharlashi mumkin. Gaz gorelkalari buyumlarga yaqin bo`lmasligi kerak.




1-rasm Gaz gorelkasi

Tarozi va tarozida tortish


Laboratoriyalarda foydalilanadigan eng zarur asboblardan biri - tarozidir. Chunki tarozi yordamida asbob va moddalarning massalari aniqlanadi M.V. Lomonosov 1748 yilda birinchi bo`lib tarozida foydalandi va moddalar massasining saqlanish qonunini kashf qildi.



2-rasm Texnik-kimyoviy tarozi



3-rasm. Dorixona tarozisi




4- r a s m. Analitik-dempfer tarozisi

Kimyo laboratoriylarida hozirda, asosan, texnik-kimyoviy tarozi (2-rasm), “dorixona tarozisi” (3-rasm) hamda analistik dempfer tarozi (4-rasm) laridan foydalilaniladi. Texnik-kimyoviy tarozida $\pm 0,01$ g ga, dempfer tarozida esa $\pm 0,0002$ g (0,2 mg) ga qadar aniqlik bilan tortish mumkin.

Juda aniq tortish qilinganda mikrotarozilardan ham foydalilaniladi. Mikrotarozilar tashqi ta'sirlarga juda sezgir bo`lgani uchun termostatlangan maxsus xonalarda saqlanadi.

Tarozilarning tuzilishi. Texnik-kimyoviy va analitik tarozilarning asosiy qismi metall shayindan iborat. Shayinning o`rta qismiga bitta va ikki chekkasiga ikkita prizma o`rnataladi. Prizmalar agat yoki yaxshi po`latdan yasaladi. O`rtadagi prizma tarozi ustuni ustidagi plastinkaga taqalib turadi. Ikki chekkadagi prizmalarga ilmoqlar osilib, ularga pallalar o`rnataladi. Shuningdek, shayinga uzun ko`rsatkich o`rnatilib, u shayin gorizontal holatdan qaysi tomonga qanchaga oqqanligini shkalada ko`rsatib turadi. Shayin gorizontal holatda bo`lganida ko`rsatkich nolni ko`rsatadi Tarozi ishlamay turganda uning shayini arretir yordami bilan ko`tarib qo`yiladi va prizmalarga yuk tushmaydi. Analitik tarozi oynali shkaf-g`ilof ichiga joylashtirilgan bo`ladi. Shkafning old tomonidagi eshigi yuqoriga ko`tarilib ochiladi. Uning ikki yon tomonida ham ikkita eshik bor, undan taroziga yuk va tosh qo`yishda foydalilaniladi. Old eshik faqat tarozini tuzatish maqsadida ochiladi.



5- r a s m. Tarozi toshlari

Analitik tarozi bilan ishlaganda 50, 20, 10, 5, 2, 1 grammli va 500, 200, 200, 100, 50, 20 va 10 mg li toshlardan foydalaniladi(5-rasm).

Texnik-kimyoviy tarozida bulardan ham yirikroq toshlardan foydalanish mumkin.

Tarozini toshlari tartib bilan «toshlar qutisi»ga joylangan bo`ladi. Ular qutidan qisqich – pintset yordamida olinishi va ishlatilganidan keyin yana o`z joyiga qo`yilishi lozim. Milligrammli toshlarning pintset bilan ushlab olinadigan «quloqlari» har doim o`ng tomonga qaratib qo`yilishi kerak.

Tarozida tortish qoidalari

1. Tarozini bir joydan ikkinchi joyga ko`chirishga ruxsat etilmaydi.
2. Tarozida tortishdan avval uning to`g`ri ekanligiga ishonch hosil qilish kerak; buning uchun arretir dastasini (diskini) sekin, siltamasdan o`ngga burab, ko`rsatkich harakati kuzatiladi. Agar ko`rsatkichning nol nuqtaga nisbatan o`ng va chap tomonga harakat qilishi bir xil bo`lsa yoki bir-biridan yarim darajaga farq qilsa, uni «to`g`ri tarozi» deyish mumkin. Agar tarozi muvozanat holatga kelmasa, uni qo`l bilan ushlab nolga keltirish yaramaydi, bunday holatda tarozi ostidagi maxsus vintlarni burab, tarozini gorizontal vaziyatga keltirish tavsiya etiladi.
3. Taroziga issiq yoki iflos buyum yoki moddalarni qo`yish va toshlarni qo`l bilan olish mumkin emas; tosh o`ng pallaning o`rtasiga, tortiladigan modda tarozi chap pallasining o`rtasiga qo`yiladi. Tortiladigan modda to`g`ridan-to`g`ri pallaga qo`yilmaydi, bunda ma'lum bir idish, byuks, soat oynasi yoki qog`ozdan foydalanish kerak.
4. Taroziga yuk va tosh qo`yishda, shuningdek ularni tarozidan olish vaqtida tarozi arretirda bo`lishi kerak. Aks qolda prizmaning qirrasi tez yeyilib, tarozining aniqligi kamayadi.
5. Tarozi pallasiga toshlarni ma'lum tartibda, eng og`iridan boshlab qo`yish va shu tartibda olish tavsiya qilinadi.
6. Bir tajribani ohirigacha bajarishda bitta tarozi va bitta qutichadagi toshlardan foydalanish tavsiya etiladi.
7. Tortish tugagandan keyin tarozining arretirini burab, g`ilofning eshigini berkitish zarur.

MODDALARNI TOZALASH USULLARI

Ishning maqsadi: Kimyoviy moddalarni tozalash usullari bilan tanishish va amalda bajarib o`rganish.


Reaktivlar: H_2O -distillangan suv, KNO_3 -kaliy nitrat tuzi, $K_2Cr_2O_7$ -kaliy dixromat, $NaCl$ -natriy xlorid, $KMnO_4$ -kaliy permanganat, $BaCl_2$ -bariy xlorid eritması, I_2 -yod kristallari, KI -kaliy yodid, CaO -kalsiy oksid, filtr qog`oz, loyqa suv, $CaCO_3$ -kalsiy karbonat, HCl -xlorid kislota.

Asbob uskunalar: texnik-kimyoviy tarozi, shisha stakanlar, konussimon kolba, shisha tayoqcha, voronkalar, chinni kosacha, laboratoriya shtativi, asbestos setkasi, o`lchagich silindr, menzurkalar, pipetkalar, maxsus tozalagichlar, gaz gorelkasi, Vyurs kolbasi, Byuxner voronkasi, sovitgich, allonj, turli o`lchamdagи tiqinlar, haroratni o`lchovchi termometr, Kipp apparati, Tishchenko va Dreksel shisha idishlari.

Sublimatlanish -bu qizdirilganda moddaning qattiq holatdan bevosita bug`ga (ya`ni suyuqlanmasdan turib) aylanishidir. Sublimatlanish yordamidagi moddalarni

tozalash usuli qizdirilganda suyuqlanmasdan bug‘ga o‘tadigan, lekin sovitilganda uchuvchan bo‘limgan aralashmalardan holi bo‘lgan kristallarni hosil qiladigan qattiq moddalarga nisbatan ishlatilishi mumkin.

Suyuqlikdagи qattiq aralashmalarni filrlash yordamida, erib ketgan moddalarni esa haydash yoki distillash yordamida tozalanadi. (6- rasm).



Rasm. 6.
Suyuqliklarni xaydash
uchun moslama: 1-Vyurs
kolbasi; 2-termometr;
3-sovitgich; 4-allonj; 5-
kolba.

Haydash orqali moddalarni tozalash usuli qizdirilganda suyuqlikning bug‘lanishi va hosil bo‘lgan bug‘ni kondensatlanishi (qayta suyuqlanish)ga asoslangan gaz holatidagi moddalarni aralashmalardan tozalash qattiq yoki suyuq yutuvchi moddalar tutgan yutuvchi idishdan gaz oqimini o‘tkazishga asoslangan. Gazni tozalash jarayoni uni quritishni va gaz olish jarayonida hosil bo‘ladigan o‘ziga xos aralshmalar va havoni yo‘qotishni o‘z ichiga oladi.

Absolyut toza moddalar deyarli mavjud emas. Lekin ayrim namunalardagi aralashmalarning massasi turlicha bo‘lishi mumkin. Kimyo sanoati tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun ularning tozalik darajasini belgilaydigan maxsus nomlanishlar qo‘llaniladi. Ko‘p miqdorda aralashmalar tutgan mahsulotni «texnik» deb ataladi. Moddaning tozalanishi sari quyidagi sotilish sortlari mavjud: «toza», «analiz uchun toza», «kimyoviy toza».

1.Kaliy dixromatni qayta kristallah

Kaliy dixromat $K_2Cr_2O_7$ ko‘pincha kaliy sulfat aralashmasini tutadi, uni qayta kristallah orqali tozalash mumkin. Texnik kimyoviy tarozida 9 gramm kaliy dixromat tortib oling va kimyoviy stakanga soling. $80^{\circ}C$ da to‘yinadigan eritma hosil qilish uchun qo‘shiladigan suv hajmini hisoblab toping. O‘lchov silindri bilan suvni o‘lchab oling va uni tortib olingan tuz solingan stakanga quying. Tayyorlangan stakandagi eritmani shisha tayyoqcha yordamida aralashtirgan holda qaynaguncha qizdiring.

Agar hosil bo‘lgan eritmada erimay qolgan qo‘shimchalar bo‘lsa, unda eritmani issiq holda filrlash voronkasidan foydalanib filrlash kerak. Issiq eritmali stakanni sovuq suv solingan idishda sovuting. Sovutilgan eritmaning temperaturasini o‘lchang. Hosil bo‘lgan kristallarni Byuxner voronkasida filrlab oling (50-rasm), filtr qog‘oz bilan quriting va $100^{\circ}C$ gacha qizdirilgan quritish shkafiga 30-40 daqiqaga qo‘ying. Sovutilgandan so‘ng hosil bo‘lgan dixromatni torting. Unumini nazariyga nisbatan foizda hisoblang.

Tozalangan tuz va eritmasida ulardagi kaliy sulfatni bor yoki yo‘qligini tekshiring. Bunda hosil bo‘lgan eritmalarga SO_4^{2-} ioniga mos reaktivdan tashqari 1-

2 tomchi xlorid kislota qo'shing. (Xlorid kislota bariy sulfat bilan birga bariy xromat cho'kmaga tushmasligi uchun solinadi).

Qayta kristallahash usuli bilan kaliy dixromatning tozalik darajasi haqida xulosa chiqaring.

2. Sublimatlanish

(Ish mo'rili shkafda bajarilsin).

Yod ko'pincha namlik va quyidagi moddalarni-yod (I) xloridi ICl , yod (I) bromidi IBr , yod (III) xloridi ICl_3 , va b. tutadi. Ushbu aralashmalardan yodni tozalash uchun kaliy yodid va kalsiy oksid ishtirokida sublimatlanish o'tkaziladi.

Tarozida 1 g kristall holdagi yodni, kaliy yodid va 0,5 g kalsiy oksidlarni oling. Barcha moddalarni chinni kosachaga soling va shisha tayoqcha bilan aralashtiring. Kosachani 1/3 qismi sovuq suv bilan to'ldirilgan konussimon kolba bilan yoping. Kosachani asbest setkaga qo'ying va ehtiyyotlik bilan qizdiring. Sublimatlangan yod kristallarini kolbaning tashqi devorlaridan shisha tayoqcha bilan sidirib oling va torting. Yodning foizdagi unumini hisoblang.

3. Suvni haydash (distillash)

Suyuqliklarni haydash uch turga bo'linadi: normal bosimda, kamaytirilgan bosimda va suv bug'i bilan haydash.

Qizdirilganda hech qanday o'zgarishlarga uchramaydigan moddalar yoki tozalanayotganda yuqori qaynash temperaturasiga ega bo'limgan suyuqliklarni haydash uchun normal bosimda haydash usullaridan foydalaniladi.

6- rasmda ko'rsatilgan suvni haydash asbobini yig'ing.


Asbob Vyurs kolbasi, sovitgich va yig'uvchi kolbadan iborat. Vyurs kolbasining 1/3 qismiga vodoprovod suvidan quying va mis kuperosi eritmasidan oz miqdorda qo'shing. Tozalanayotgan suyuqlikning bir tekis qaynashi uchun kolbaga bir tomoni kavsharlangan shisha kapilyarlaridan bir nechtasini soling. Kolbani lapka yordamida shtativga o'rnating, kolbaning tagiga asbestlangan setkali dumaloq tutqichni mahkamlang. Boshqa shtativga sovitgichni o'rnating. Kolbaning o'tkazuvchi trubkasini sovitgichning ichiga 4-5 sm ga (probkani ham hisoblaganda) mahkam holda birlashtiring. Sovitgichni suv bilan to'ldiring. Kolbani termometr tigelgan probka bilan shunday yopingki, termometrning simobli sharchasi kolbaning o'tkazuvchi trubkasidan pastroqda bo'lsin. Asbob yig'ilgandan so'ng termometr to'g'ri turganligini va probkalar to'g'ri tanlanganligini tekshirib ko'ring. Shundan so'ng distillat uchun yig'uvchi kolbani qo'ying va eritmani qaynaguncha qizdiring. 5-10 ml suvni haydash oling. Uning xossalari bilan tanishing. Buning uchun soat shishasiga olingan distillangan suvning bir necha tomchisini tomizing va gorelka bilan bug'lating. Boshqa idishda shunday tajribani boshlang'ich suyuqlik bilan o'tkazing.

Bug'latish natijalarini solishtiring. Xulosa chiqaring.

4-tajriba. Uglerod (IV) oksidni tozalash.

Uglerod (IV) oksid Kipp apparatida hosil qilinadi (7-rasm). Kipp apparati uchta sharsimon rezervuardan iborat. Ustki idish uzun nayli sharsimon voronka bo`lib, u o`rtancha idishga shrif orqali o'rnatiladi. Ustki idish og`ziga ehtiyyot voronka qo'yiladi. O`rtancha idish tubusga ega; uning teshigi orqali o`rtancha idishga qattiq


modda joylash mumkin; qattiq modda solib bo`lgandan keyin tubusni gaz yuradigan jo`mrakli naycha o`rnatilgan rezina tiqin bilan berkitiladi; bu jo`mrak yordamida gazning ko`p-kam chiqishini boshqarib turish mumkin.



7-rasm.Kipp apparati.

Pastki idishda ham tubus bo`lib, uning og`zi shliflangan shisha tiqin bilan berkitiladi. Bu tubusdan ishdan chiqqan kislotani to`kib tashlash uchun foydalaniladi. Uchala idish bir-biri bilan birlashtiriladi, o`rtancha idish uchinchi pastki idish bilan nay orqali birlashadi.

Uglerod (IV) oksid olish uchun o`rtacha idishga tubus orqali kalsiy karbonat bo`laklari tashlanadi. Uni naycha o`rnatilgan tiqin bilan berkitilganidan keyin ustki idishga 20% li (1:4) xlorid kislota solinadi. Agar jo`mrak ochiq bo`lsa, kislota eritmasi pastki idishga va o`rtacha idishga o`tadi. U yerda kalsiy karbonat bilan xlorid kislota orasida quyidagicha reaksiya sodir bo`ladi:



Hosil bo`ladigan CO_2 vodorod xlorid va suv bug`lari bilan ifloslanadi. CO_2 ni suv bug`i va HCl dan tozalash uchun u Tishchenko va Dreksel shisha idishlaridan o`tkaziladi; bularning biriga natriy bikarbonatning to`yingan eritmasi (yoki toza suv), ikkinchisiga kontsentrlangan sulfat kislota solingan bo`ladi. Bu ikki idishdan o`tib tozalangan uglerod (IV) oksid kolbaga yig`iladi.

LABORATORIYA ISHI № 2-3

Kimyoviy reaksiya tezligini kontsentratsiya va temperaturaga bog'liqligini aniqlash. Kimyoviy muvozanatni siljитish omillari.

Ishning maqsadi: Kimyoviy kinetika haqidagi tushunchalarni o`zlashtirish, kimyoviy reaksiyalarni tezligini, unga turli omillarning ta'sirini va muvozanat siljishini o'rganish.

Reaktivlar: H_2O -distillangan suv, $Ca(OH)_2$ -oxakli suv (rangsiz eritma), $CaCO_3$ -kalsiy karbonat (bo'r), $NaCl$ -natriy xlorid (oq kristall modda), $FeC1_3$ -temir (III)xlorid (qizg'ish qo'ng'ir rangli eritma), $KSCN$ -kaliy radonid (rangsiz eritma), NH_4SCN -ammoniy radonid (rangsiz eritma), $Na_2S_2O_3$ -natriy tiosulfat (rangsiz eritma), H_2SO_4 - sulfat kislota (rangsiz eritma), 10%-li HCl -xlorid kislota (rangsiz eritma).

Indikatorlar- neytral lakmus (siyox rang eritma), fenolftalein (rangsiz eritma), metiloranj (sarg'ish eritma), universal indikator va lakkus qog'ozlari.

Asbob uskunalar: Probirkalar, shisha stakanlar, o'lchov byuretkalari, shtativlar, harorat termometri, issiq suv, vaqt o'lchash uchun sekundomer.

Tajriba-1.

Reaksiyaga kirishuvchi moddalar kontsenratsiyasining reaksiya tezligiga ta'siri

Kimyoviy reaksiya tezligiga kontsentratsiyaning ta'siri natriy tiosulfat bilan sulfat kislota o'rtaсидиги reaksiya misolida о'рганилди:



Bunda avval kuchsiz opalestsensiya xodisasi sodir bo'lib, so'ngra oltingugurt cho'kmaga tushishi natijasida eritma loyqalanadi.

Tajribani boshqarish vaqtida eritmalarini o'zaro aralashtirish reaksiyaning boshlanishi, oltingugurt cho'kmasi hosil bo'lishi esa reaksiyaning tugashi deb hisoblanadi. Shuning uchun reaksiya boshlanishidan to oltingugurt cho'kmasi hosil bo'lgunga qadar ketgan vaqt kimyoviy reaksiya tezligini xarakterlaydi.

Bitta quruq probirkaga tajriba uchun 1-jadvalda (hisobotga qarang) ko'rsatilgan millilitrda natriy tiosulfatdan va suvdan, ikkinchi probirkaga sulfat kislotadan quyiladi. Natriy tiosulfat eritmasiga sulfat eritmasini tezda quyib vaqt belgilanadi, probirkada qancha vaqt dan so'ng (sekund hisobida) loyqalanish hosil bo'lishini sekundomer yordamida aniqlanadi. Shu tartibda jadvalda ko'rsatilgan № 2,3 hajmda eritmalaridan olib tajriba yana qaytariladi. Olingan natijalarni 1-jadvalga yoziladi.

Bajarilgan reaksiya uchun massalar ta'siri qonunining matematik ifodasini yozing. Kuzatish natijalarini grafik tarzida ifodalang.

Tajriba-2.

Kimyoviy reaksiyalar tezligiga haroratning ta'siri.

Ikkita probirkaning biriga natriy tiosulfat eritmasidan 2 ml , ikkinchisiga sulfat kislota eritmasidan 2 ml quyiladi. Bitta stakan 1/3 hajmigacha suv quyib, ikkala probirkani suvli stakanga solib qo'yiladi va probirkalardagi eritmalar suvning haroratini o'ziga qabul qilguncha 4-5 minut kutiladi. Stakandagi suvning haroratini termometr yordamida o'lchab yozib olinadi. Natriy tiosulfatli probirkaga sulfat kislota eritmasi quyiladi va loyiqlanish vaqt belgilab olinadi. Stakandagi suvning haroratini issiq suv yordamida boshlang'ich haroratga nisbatan 10°C va 20°C ga oshirib tajribani yana ikki marta qaytariladi.

Olingan natijalarni 2-jadvalga yozing. Harorat koefitsientini tezlik qiymatlaridan foydalanib hisoblang. Reaksiya tezligining haroratga bog'liqligini grafigini chizing.

Tajriba-3 Geterogen kimyoviy reaksiyalar tezligiga chegara sirtining ta'siri

CaCO₃ dan (bo'r) tarozida tortib, har biri tahminan 0,5 g bo'lgan ikkita namuna oling. Namunalardan birinchisi kukun xoligacha maydalangan, ikkinchisi esa kichkina bo'lakchalar xolida bo'lsin. Ikkita probirkaga 1/4 hajmigacha 10% xlorid kislota eritmasidan quying va ularga bir vaqtda bo'r namunalarini soling. Probirkalarning qaysi birida reaksiya tezroq tugaydi.

Reaksiya tenglamasini yozing. Nima uchun ikkala xolda ham reaksiya tezligi har xil bo'lish sababini izohlang.

Tajriba-4 Kimyoviy muvozanatning siljishi

Probirkaning yarim hajmigacha distillangan suv quying va unga bir tomchidan temir(III)xlorid bilan kaly rodanid yoki amoni y rodanidning kontsentralangan eritmalaridan qo'shing. Hosil bo'lgan rangli eritmani to'rtta probirkaga bo'ling va ulardan birini tajriba natijalarini solishtirish uchun etalon sifatida olib qo'ying.

So'ngra birinchi probirkaga 3-4 tomchi FeCl₃ ikkinchisiga 2-3 tomchi KSCN yoki NH₄SCN eritmasidan tomizing, uchinchisiga esa ozgina KC1 yoki NaC1 kristallidan soling va probirkalarni yaxshilab chayqating. Hosil bo'lgan eritmalar rangini etalon sifatida olib qo'yilgan probirkadagi eritma rangi bilan solishtiring.

Reaksiya tenglamasini va reaksiyaning muvozanat konstantasini ifodasini yozing. Eritmalar rangining o'zgarishi bilan muvozanatning qaysi tomonga siljishini aniqlang va natijalarini hisobotga yozing.

1. Kimyoviy reaksiya tezligiga katalizatorning ta'siri


Gomogen kataliz

1. Ikkita probirkaga indigokarmin eritmasidan soling va biriga ikki tomchi FeCl₃ eritmasidan quying. Ikkala probirkada indigokarminning rangsizlanish vaqtini yozib oling. Bajargan ishingizni izohlab bering.

2. Ikkita probirkaning har biriga 3 ml dan KCNS eritmasi va uch tomchidan FeCl₃ eritmasidan quying. Bu probirkalarning biriga katalizator simfatida mis (II) sulfat eritmasidan ikki tomchi qo'shing. So'ngra ikkala probirkaga Na₂S₂O₃ eritmasidan 3 ml dan soling. Har ikkala probirkada rangsizlanish qancha vaqt o'tganidan keyin kuzatilishini taqqoslab ko'ring. Natriy tiosulfat temir (III) rodanidni temir (II) rodanidga qadar qaytaradi, o'zi esa Na₂S₄O₆ ga o'tadi; reaksiya tenglamasini yozing.

3. Ikkita probirkaga HNO₃ eritmasidan 3 ml dan, Mn(NO₃)₂ ning 2% li eritmasidan 2 tomchi soling. Probirkalarning biriga katalizator sifatida ikki tomchi kumush nitrat AgNO₃ eritmasi quying. So'ngra har ikkala probirkaga ammoniy persulfat (NH₄)₂S₂O₈ ning 30% li eritmasidan 5 ml dan soling. Ikkala probirkani suv solingan stakanga tushurib qo'ying. Stakandagi suvni qaynaguncha qizdiring. Probirkalarning qaysi birida avvalroq qizil rang paydo bo'lishini kuzating.

Reaksiyalarning tenglamasi:



4. 0,5g quruq NH_4NO_3 ni probirkada qizdirib suyuqlantiring. So‘ngra suyuq holatdagi ammoniy nitrat ustiga FeCl_3 kristali tashlang. FeCl_3 ning suyuqlantirilgan NH_4NO_3 da erishini va bu vaqtida ammoniy nitratning parchalanib ketishini kuzatasiz. Reaksiya tenglamasi quyidagidan iborat:



Shu tajribani katalizator ($\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$) ishtirokida takrorlang va tegishli xulosalar chiqaring.

Geterogen kataliz

Vodorod peroksid H_2O_2 eritmasidan 2 ml olib, unga ozgina MnO_2 qo‘shing. Vodorod peroksidning shiddatli parchalanganini kuzatasiz. Shu tajribani MnO_2 o‘rniga PbO_2 olib ham takrorlang.

Manfiy kataliz

(tajriba mo‘rili shkafda bajariladi).

Kichikroq kolbaga 15 ml distillangan suv solib, unga 2-3 minut oltingugurt (IV) oksid (SO_2) gazi yuboring. Hosil qilingan sulfit kislota (H_2SO_3) eritmasini ikki probirkaga 5 ml dan quying. Probirkaning biriga bir necha tomchi glitserin qo‘shing. Ikkala probirkani 60°C ga qadar isitilgan suvli stakanga botiring. Probirkalar orqali baravar hajmda (30-40 pufakcha) kislorod o‘tkazing (kislorodni gazometrdan yuborish kerak). So‘ngra ikkala probirkaga baravar miqdorda bariy xlorid eritmasi soling (bariy xlorid eritmasiga bir necha tomchi HNO_3 qo‘shilgan bo‘lishi kerak). Glitserin qo‘shilgan probirkada kam miqdorda loyqa paydo bo‘lganini kuzatasiz. Bajarilgan tajribada sodir bo‘lgan reaksiyalar tenglamalarini yozib bering.

Avtokataliz.

Konus shaklidagi kolbaga 10 ml oksalat kislotaning ($\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$) 5% li eritmasidan solib, uning ustiga H_2SO_4 ning 0,1 n eritmasidan 5 ml qo‘shing. So‘ngra bu eritmaga byuretkadagi KMnO_4 eritmasidan 1 ml soling. KMnO_4 eritmasi ancha uzoq vaqtdan keyin rangsizlanadi (rangsizlangan vaqtini sekundlar hisobida yozib oling). So‘ngra yana 1 ml KMnO_4 eritmasini qo‘shing; u ancha tez rangsizlanadi, yana 1 ml qo‘shsangiz, u yanada tez rangsizlanadi va hokazo. Buning sababi shundaki, bu tajribada sodir bo‘ladigan:

$$5\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 + 2\text{KMnO}_4 + 3\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow 10\text{CO}_2 + \text{K}_2\text{SO}_4 + 2\text{MnSO}_4 + 8\text{H}_2\text{O}$$

reaksiyada hosil bo‘ladigan Mn^{2+} ionlari katalizatorlik vazifasini bajaradi. Bunga ishonch hosil qilish maqsadida probirkaga avval MnSO_4 eritmasi solib, yuqoridaq reaksiyani amalga oshiring. Bu erda ham avtokataliz ro‘y beradimi?

2-3-laboratoriya ishini H I S O B O T I

Quyidagi tushunchalarni izohlang:
Massalar ta’siri qonuniva uning matematik ifodasi _____

Vant-Goffqoidasi va uning matematik ifodasi _____

Aktivlanish energiyasi _____

Katalizator _____

Qaytar kimyoviy reaksiyalar _____

Kimyoviy muvozanat _____

Le Shatele printsipi _____

Tajriba-1. Reaksiyaga kirishuvchi moddalar kontsenratsiyasining reaksiya tezligiga ta'siri

Reaksiya tenglamasi _____


Kuzatish_____

Reaksiya tezligining matematik ifodasi _____

Jadval-1

Tajriba №	Eritmalar hajmi V(ml)			$\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ning shartli kontsentratsiya si	Cho'kma hosil bo'lish vaqtি (sek) τ	Reaksiya- ning shartli tezligи $V = 100/\tau$
	$\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$	H_2O	H_2SO_4			
1	1	2	1	1C		
2	2	1	1	2C		
3	3	-	1	3C		

Kontsentratsiya ta'siri haqida xulosa



Tajriba-2.


Kimyoviy reaksiyalar tezligiga haroratning ta'siri.

Reaksiya tenglamasi_____

Jadval-2

Tajriba №	Eritmalar hajmi V(ml)		Harorat, $^{\circ}\text{C}$	Cho'k ma hosil bo'lish vaqtি (sek) τ	Reaksiya-ning shartli tezligи $V = 100/\tau$
	Na ₂ S ₂ O ₃	H ₂ SO ₄			
1	2	2	T ₁ =		
2	2	2	T ₂ =		
3	2	2	T ₃ =		

Grafikni izohlang:



Tajriba -3 Geterogen kimyoviy reaksiyalar tezligiga chegara sirtining ta'siri

Reaksiya tenglamasi_____

Kuzatishlar_____

Xulosa_____

Tajriba-4
Kimyoviy muvozanatning siljishi

Qaytar reaksiyaning tenglamasi_____

Eritma rangi_____

Eritmaga rang beradigan moddaning formulasi_____

Muvozanat konstantasi K_m=_____


Jadval-3

	Qo'shilgan moddaning formulasi	Eritmaning rang o'zgarishi	Fe(SCN) ₃ Kontsentratsiyasi-ning o'zgarishi	Muvozanat siljishi
	FeCl ₃			
	KSCN			
	KCl			

Kontsentratsiya o'zgarishi muvozanat siljishiga ta'sirini asoslang

Nazorat savollari.

1. Quydaga reaksiyalar tezligining matematik ifodasini yozing:



2. $2\text{A}+\text{B}=\text{C}$ reaksiyaning tezlik konstantasi $0,5 \cdot 10^{-3}$ ga teng. $[\text{A}]=0,6 \text{ mol/l}$ va $[\text{B}]=0,8 \text{ mol/l}$ bo`lgandagi reaksiya tezligini hisoblang. J: $1,44 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l sek}$

3. $\text{A}+2\text{B}=\text{C}$ reaksiyaning tezligi $[\text{A}]=0,5 \text{ mol/l}$ va $[\text{B}]=0,6 \text{ mol/l}$ bo`lganda $0,018 \text{ mol/l sek}$ ga teng. Reaksiyaning tezlik konstantasini hisoblang. J: 0,1

4. Quyidagi reaksiya $\text{CO}+\text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{CO}_2+\text{H}_2$ uchun olingan moddalarning dastlabki kontsentratsiyasi $[\text{CO}]=0,6 \text{ mol/l}$, $[\text{H}_2\text{O}]=0,4 \text{ mol/l}$, CO ning kontsentratsiyasi $2,4 \text{ mol/l}$ ga, suvni esa $0,8 \text{ mol/l}$ ga ortganda to`g'ri reaksiyaning tezligi necha marta ortadi? J: 8 marta.

5. $2\text{NO}+\text{O}_2=2\text{NO}_2$ reaksiyada qatnashuvchi moddalarning 3 marta kamaytirilsa, reaksiya tezligi qanday o`zgaradi?

6. Agar temperatura koeffitsienti 2 ga teng bo`lib, temperatura 40°C dan 70°C gacha ko`tarilsa, reaksiya tezligi necha marta ortadi? J: 8 marta.

7. Harorat 40°C dan 70°C gacha ko`tarilganda reaksiya tezligi 54 marta ortishi ma'lum. Shu reaksiya tezligining harorat koeffitsientini hisoblang. J: 4

8. Harorat koeffitsienti 2,5 ga teng bo`lsa, harorat 25°C dan 45°C ga oshirilganda reaksiya tezligi necha marta ortadi? J: 6,25 marta

9. Harorat 50°C ga ko`tarilganda reaksiya tezligi 1200 marta ortishi ma'lum. Shu reaksiya tezligining harorat koeffitsientini hisoblang. J: 4,18

LABORATORIYA ISHI № 4

Eritmalar tayyorlash , ularning protsent, molyar, normal, kontsentratsiyalarini aniqlash.

Ishning maqsadi: Laboratoriya qo'llaniladigan ayrim ishlarni bajarish usullari bilan tanishish (filtrlash, tortish, eritma zichligini aniqlash), aralashma tarkibidagi moddalar miqdorini aniqlash va hisoblashlarni o'zlashtirtish.

Reaktivlar: H_2O -distillangan suv, NaCl-natriy xlorid (oq kristall modda), BaCl₂-bariy xlorid (oq kristall modda), NH₄Cl-ammoniy xlorid (oq kristall modda), NaOH- o'yuvchi natriy (oq kristall modda).

Asbob uskunalar: Menzurka, stakanlar, shisha tayoqcha, eritma zichligini o'lchovchi areometr, laborator-texnik tarozi.

Tajriba 1.

Tuz va suvdan iborat eritma tayyorlash.


O'qituvchi sizga qaysi tuzdan eritma tayyorlash va uning massa ulushi nechaga teng bo'lishi haqida topshiriq bergandan so'ng, ishni quyidagi tartibda bajaring:

1. Tuzning massasini hisoblang va uni tarozida tortib oling.
 2. Suv massasini uning hajmiga teng deb hisoblab, kerakli miqdor suvni o'lchov silindrda o'lchab oling va uni tuz solingan stakanga quying.
 3. Stakandagi tuz to'liq erib ketguncha eritmani aralashtirgich bilan aralashtiring.
 4. Eritmani silindrga quyib, hajmini o'lchang.

Tajriba 2.

Tayyorlangan eritmani kontsentratsiyasini aniqlash.

1. Eritma zichligini areometr yordamida aniqlash (Rasm 10).



10-rasm. Areometr asbobi

Buning uchun eritmani toza silindrga quyib, ehtiyotlik bilan quruq areometr tushiriladi, bunda areometr silindr tubiga tegib turmasligi kerak (rasm 101a). Zichlikning qanday qiymatga ega bo'lganligini bilish uchun areometrining shkalasining silindragi suyuqlikning pastki meniskiga to'g'ri keladigan shkala chizig'i aniqlanadi. Shkalaning darajalari suyuqlikning zichligini ko'rsatadi (rasm 101b).

Eritma zichligini aniqlangandan so'ng unga to'g'ri keladigan massa ulushi qiymati quyida keltirilgan jadvaldan olinadi.

Jadval 4. Tuzlarning suvli eritmalarini 20°C dagi nisbiy zichliklari

Massa ulushi C(%)	NaCl	$(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$	BaCl ₂	NaNO ₃	NH ₄ Cl	H ₂ SO ₄	NaOH	HNO ₃
3	1,027	1,022	1,034	1,025	1,011	1,020	1,032	-
6	1,041	1,034	1,053	1,039	1,017	1,041	1,065	1,038
8	1,056	1,046	1,072	1,053	1,023	1,055	1,087	1,044
10	1,071	1,057	1,092	1,067	1,029	1,069	1,109	1,056
12	1,086	1,069	1,113	1,082	1,034	1,088	1,131	1,068

Agar jadvalda o'lchangan zichlikning qiymati bo'lmasa, u xolda uning qiymati interpolyatsiya usuli bilan topiladi.

Interpolyatsiya usuli.

Masalan: NaCl uchun o'lchangan zichligi $\rho_{o'lch.} = 1,045 \text{ g/ml}$ ga teng, jadvalda bu miqdor yo'q, shuning uchun jadvaldan katta va kichik qiymatlarni olamiz:

$$\begin{aligned}\rho_{katta} &= 1,056; & C_{katta} &= 8 \% ; \\ \rho_{kichik} &= 1,041; & C_{kichik} &= 6 \% ;\end{aligned}$$

bularning ayrimasini aniqlamiz -----

$$\Delta \rho = 0,015 \quad \Delta C = 2\%$$

So'ngra $\rho_{o'lch.}$ bilan ρ_{kichik} o'rtaqidagi farq aniqlanadi:

$$\Delta \rho^1 = \rho_{o'lch.} - \rho_{kichik} = 1,045 - 1,041 = 0,004$$

Nixoyat, $\Delta \rho^1 = 0,004$ ga to'g'ri keladigan ΔC^1 ning qiymatini topish uchun proporsiya tuziladi:

$$\Delta \rho - \Delta C \quad 0,015 - 2\%$$

$$\Delta \rho^1 - \Delta C^1 \quad 0,004 - \Delta C^1 \% \quad \Delta C^1 = \frac{0,004 * 2}{0,015} = 0,53$$

Topilgan ΔC^1 ning qiymatini jadvaldan olingan kontsentratsiyaning kichik qiymatiga qo'shib, haqiqiy massa ulushi topiladi

$$C_{haq} = C_{kichik} + \Delta C^1 = 6 + 0,53 = 6,53 \%$$

Aniqlangan qiymatlardan foydalanib eritmani molyal, molyar va normal kontsentratsiyalari hisoblab toping.

4-laboratoriya ishini

H I S O B O T I

Quyidagi tushunchalarni izohlang:

Eritma _____

Eritmaning massa ulushi C% _____

Molyal kontsentrasiya C(m) (mol/kg erituvchiga) _____

Molyar kontsentrasiya C(M)(mol/litr) _____

Normal kontsentrasiya C(n)(mol ekv./litr) _____

Tajriba 1 ga Topshiriq: %-li (tuzning formulasi).....eritmasini tayyorlang

Kuzatish natijalari

Jadval-5

Tajriba №	Tuzning formula si	Tuzning molyar massasi, M g/mol	Tuzning ekvivalentini molyar massasi M _e g/mol	Eritma zichligi, ρ _{o'lch} , g/ml	Eritmani hajmi, V ml
1					

Tajriba 2 natijalari

Jadval-6

Eritmaning xaqiqiy massa ulushi (%) (interpolyatsiya-usuli)			
Eritmaning massasi, m(er-ma)			
Tuzning massasi, g; m(tuz)			
Suv massasi,g ; m(H ₂ O)			
Eritmaning molyar kontsentratsiyasi Mol/l; C(M)			
Eritmaning normal kontsentratsiyasi, Mol-ekv/l; C(n)			
Eritmaning molyal kontsentratsiyasi, Mol/kg; C(m)=			

Nazorat savollari.

1.Quyidagi eritmalarining har birida erigan moddaning mollar sonini hisoblang:

- a) Ca(NO₃)₂ ning 0,358 M li 256 ml eritmasida;
- b) HBr ning 0,0567 M li 4,0 · 10⁴ l eritmasida;
- v) Osh tuzining 0,565% -li NaCl ning 450 g suvli eritmasida;

J: a) Ca(NO₃)₂ ning 0,0916; b) HBr ning 2,27 · 10³; v) NaCl ning 4,35 · 10⁻² moli.

3.10 g kaliy nitrat 80 g suvda eritildi. Eritmadagi KNO₃ ning massa ulushini toping: J: 11% .

4.Kaliy xlорид тузининг a) 10% ли еритмасидан 100 g; b) 15% ли еритмасидан 200 g тайyorlash учун неча gramm туз ва неча gramm suv kerak? J: a) 10 g va 90 g; b) 30 g va 170 g.

5.CuSO₄ ning suvsiz тузга hisoblangan 5% ли еритмасидан 200 g тайyorlash учун неча gramm mis kупороси CuSO₄ · 5H₂O ва suv kerak?

J: 15,625 g CuSO₄ · 5H₂O; 184,375 g suv.

6.2kg 3% li Na_2SO_4 eritmasini tayyorlash uchun necha gramm kristallogidrat $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ va necha gramm suv kerak? J: 136 g $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$; 1864 g suv.

7.10% li eritmadan 250 grammiga 150 g suv qo'shildi. Hosil qilingan eritmaning massa ulushini toping. J: 6,25% .


Laboratoriya ishi № 5 Elektrolitik dissotsialanish.

Ishning maqsadi: elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasining asosiy qoidalari o'zlashtirish va elektrolit eritmalarida boradigan jaryonlarni o'rganish.

Reaktivlar: H_2O -distillangan suv, shakar, NaCl -natriy xlorid (oq kristall modda), CH_3COOH -sirka kislotasi (kontsentrlangan rangsiz eritma), CH_3COONa -natriy atsetat (oq kristall modda), NH_4OH -ammoniy gidroksid (rangsiz eritma), indikator- fenolftalein (rangsiz eritma), CaCO_3 -marmar bo'lakchasi, HCl -xlorid kislotasi (rangsiz eritma), FeCl_3 -temir (III) xlorid (qizg'ish qo'ng'ir rangli eritma), Na_2SiO_3 -natriy silikat (rangsiz eritma), H_2SO_4 -sulfat kislotasi rangsiz eritma, 2 n li KOH rangsiz eritma, BaCl_2 -bariy xlorid tuzi ransiz eritma, Na_2CO_3 -natriy karbonat tuzi (rangsiz eritma), $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$ -qo'rg'oshin(II) nitrat tuzi (rangsiz eritma), NaI -natriy yodid tuzi (rangsiz eritma).

Asbob uskunalar: Elektr o'tkazuvchanlikni o'lchovchi asbob, menzurka, stakanlar, shisha tayoqcha, elektrodlar, probirkha.

Tajriba 1. Eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini aniqlash.



11-rasm . Elektr o'tkazuvchanlikni o'lchovchi asbob.

Tajriba 11- rasmida tasvirlangan abobda bajariladi. Asbob stakandan (1), ketma-ket ulangan elektrodlardan (3) , elektrodga ulangan izolyatsiyalangan simdan (4), elektr lampochkadan (5), ebonit qopqoqdan (2) va stakan hamda lampa o'rnatilgan dastgoxdan (6) iborat.

a) Stakanga 40-50 ml distillangan suv quyib, asbobni tok manbai bilan vilka (7) orqali ulang. Lampochka yonadimi? Endi suvga ozgina shakar soling va aralashtirib , lampochka yonishini kuzating. Keyin suvga ozgina osh tuzi kristallidan soling va lampochka yonganini kuzating. Bu xolda eritma elektr tokini o'tkazadimi? Sababini

tushuntiring. Tajribadan so'ng asbobni tok manbaidan uzib, elektrodlarni distillangan suv chayqab qo'ying.

b) Bu tajribada ko'rsatilgan asbobga 40-50 ml kontsentrlangan sirkal kislota (CH_3COOH) eritmasidan quying va unga elektrodlarni tushuring. Asbobni tok manbaiga ulang. Lampochka yonadimi? Sirkal kislotaga asta sekin distilangan suv qo'shib, uni suyultira boshlang. Nima kuzatiladi? Nima uchun sirkal kislotaning elektron o'tkazuvchanligi suyultirish bilan o'zgaradi?

Tajriba 2.

Kuchsiz elektrolitlar dissotsiatsiyalishida ionlar muvozanatining siljishi.

a) Probirkaga 2-3 ml 0,1 n CH_3COOH eritmasidan quying va unga 1-2 tomchi metiloranj eritmasidan tomizing. Kislotali muhitda metiloranj qanday rang hosil qiladi?

O'sha probirkaga tahminan 1 g CH_3COONa tuzi kristallidan soling va yaxshilab aralashtiring. Nima uchun eritmaning rangi o'zgaradi? Kuchsiz elektrolitlar eritmasi ustiga bir xil ioni bo'lган elektrolit qo'shilganda ionlar muvozanatining siljish sababini tushuntiring.

b) Probirkaga 0,1 n li NH_4OH eritmasidan 5-6 ml quying va unga 2-3 tomchi fenolftalien eritmasidan qo'shib chayqating. Eritmani ikkita probirkaga bo'ling. Probirkalardagi eritmalaridan biriga taxminan 0,5 g NH_4Cl tuzi kristallidan solib aralashtiring va eritma rangining o'zgarish sababini tushuntiring.

Tajriba 3.

Elektrolitlarni kimyoviy aktivligini solishtirish.

a) Ikkita probirkaga bir xil kattalikdagi marmar bo'lakchasini soling, birinchi probirkaga 1-2 ml 2 n sirkal kislotasining eritmasini va ikkinchi probirkaga xudi shu hajmda 2 n xlorid kislotasidan quying. Qaysi probirkada gaz shiddatliroq ajralib chiqadi. Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamasini, reaksiyalarni tezligining matematik tenglamasini yozing. Shu reaksiya tezligi qaysi ionlarning kontsentratsiyasiga bog`liq?

b) Probirkaga 5 ml 1 n HCl eritmasidan quying va ustiga bir bo'lak rux soling. Vodorodning bir tekis ajralishini kuzating. Probirkaga 0,5 g CH_3COONa kristalidan solib aralashtiring. Ruxning erish tezligi o'zgaradimi? Yangi hid paydo bo'lganini ko'ring va reaksiya tenglamalarini yozing.

Tajriba 4.

Ion almashinish reaksiyalaring yo'naliши.

a) Uchta probirkal olib birinchisiga 1 ml 0,5 n FeCl_3 , ikkinchisiga 1 ml 0,5 n Na_2SiO_3 , uchinchisiga 1 ml 0,5 n H_2SO_4 eritmasidan qo'ying. Birinchi probirkaga 2 n NaOH , ikkinchisiga 2 n HCl, uchinchisiga BaCl_2 eritmasidan quying. Nima kuzatiladi, cho'kmaga qanday moddalar tushadi? Molekulyar va ionli tenglamalarini yozing.

b) Probirkaga 1-2 ml 0,5 n Na_2CO_3 eritmasidan va bir necha tomchi 0,5 n H_2SO_4 eritmasidan quying. Nima kuzatiladi? Molekulyar va ion tenglamalarini yozing.

v) Probirkaga 1-2 ml 0,5 n NH_4Cl eritmasidan quyib 1-2 ml 2 n NaOH eritmasidan qo'shing va uni alangada qaynaguncha qizdiring. So'ng ehtiyyotlik bilan ajralib chiqayotgan gazni hidlab ko'ring va haqiqatdan NH_3 gazi ekanligini aniqlang. Molekulyar va ion tenglamalarini yozing.

Tajriba 5.

Cho'kma hosil bo'lishiga eruvchanlik ko'paytmasining ta'siri.

Kichkina stakanga 10 ml dan 0,1 n Pb(NO₃)₂ va NaCl eritmalaridan quyib aralashtiring. Stakanda hosil bo'lgan cho'kmani avval tindiring, so'ngra uni filtrlang. Filtratni ikkiga bo'ling. Birinchi qismiga 1-2 ml 0,1 n HC1 eritmasidan, ikkinchi qismiga esa 1-2 ml 0,1 n NaI eritmasidan qo'shing va filtratlardan birida cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Reaksiyalarning molekulyar va ion tenglamalarini yozing. Filtratlarda cho'kma hosil bo'lish va bo'lmaslik sababini tuzlarning eruvchanlik ko'paytmasi qiymatlaridan foydalanim izohlang.

5-laboratoriya ishini

H I S O B O T I

Quyidagi tushunchalarni izohlang:

Elektrolit_____

Elektrolitik dissotsiatsiyalanish_____

Dissotsiatsiya darajasi_____

Kuchsiz elektrolit_____

Kuchli elektrolit_____

Dissotsiatsiya konstantasi K_d_____

Ostvald suyultirish qonunining matematik ifodasi_____

Eruvchanlik ko'paytmasi EK_____

Qaytmas ion almashish reaksiyalar_____

Jadval-7

Olingen moddalarning formulasi va nomi, tajriba olib borish sharoitlari va kuzatishlar (lampaning yonish yorug`ligi, eritma rangini o'zgarishi, gaz yoki cho'kma hosil bo'lish va xokazo)	Molekulyar va ion tenglamalar, reaksiya tezligini, dissotsiatsiya va gidroliz konstantalari, eruvchanlik ko'paytmasining matematik ifodalari.	Jadvallardan olingen α , K _d , EK qiymatlari	Tajriba-lardan olingen xulosalar
(20 katak)	(20 katak)	(6 katak)	(20 katak)

Tajriba №_____ Nomi _____

Nazorat savollari.

1. Quyidagi elektrolitlarning bosqichli dissotsiyalanish tenglamalarini yozing:
a) natriy gidrosulfat, b) kalsiy gidrokarbonat, v) magniy gidrosulfat, g)
ammoniy digidrofosfat, d) bariy gidroksid, e) sulfid kislota, j)
xrom (III) gidroksid, z) arsenat kislota.
2. Elektrolitning: a) har 100 ta molekulasidan 30 molekulasi, b) har 60 ta molekulasidan 12 ta molekulasi ionlarga ajralgan bo'lsa, dissotsiatsiyalanish darajasi necha prontsentga teng bo'ladi? J: a) 30%, b) 20%.
3. Elektrolitik dissotsiatsiyalanish darajasi 70% ga teng. Erigan moddaning har 20 molekulasidan nechtasi ionlarga dissotsiyalangan bo'ladi? J: 14 molekula
4. 500 gr suvda 5,35 gr KIO_3 eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning osmotik bosimi $17,5^{\circ}C$ da $2,18 \text{ kPa}$ ga teng. Eritmadagi KIO_3 ning izotonik koeffitsientini va shartli dissotsialanish darajasini toping. J: i = 1,83; $\alpha = 0,83$.
5. 300 gr suvda 33,2 gr $Ba(NO_3)_2$ eritilishidan hosil bo'lgan eritma $100,466^{\circ}C$ da qaynaydi. $Ba(NO_3)_2$ ning izotonik koeffitsienti va shartli dissotsiatsiyalanish darajasini toping. J: i = 2,12; $\alpha = 0,56$.
6. 125 gr suvda 3 gr $MgCl_2$ eritilishidan hosil bo'lgan eritma $-1,23^{\circ}C$ muzlaydi. Eritmadagi $MgCl_2$ ning izotonik koeffitsientini va shartli dissotsialanish darajasini aniqlang.

Laboratoriya ishi № 6

Kationlararo, anionlararo, kation-anion va birgalikdagi gidroliz jarayonlardagi va eritmalarining muhitini (pH) ni aniqlash.

Ishning maqsadi: Suvning ionlari ko'paytmasi vodorod ko'rsatkich, indikatorlar tushunchalari bilan tanishish, har xil tuzlarning gidrolizi va gidrolizlanish darajasiga ta'sir etuvchi faktorlar bilan tajribada tanishib chiqish.

Reaktivlar: $NaCl$ -natriy xlorid rangsiz eritma, Na_2CO_3 -natriy karbonat tuzi rangsiz eritmasi, H_2O -distillangan suv, shakar, $AlCl_3$ -alyuminiy xlorid(rangsiz eritma), CH_3COONa -natriy atsetat (rangsiz eritma), indikator- fenolftalein (rangsiz eritma), lakmus eritmasi (siyox rang erima), $ZnCl_2$ -rux xlorid tuzi (rangsiz eritma), $FeCl_3$ -temir(III) xlorid (qizg'ish qo'ng'ir rangli eritma), $Bi(NO_3)_3$ -vismut nitrat tuzi pushti rangli eritma.

Asbob uskunalar: Menzurka, stakanlar, shisha tayoqcha, probirka, spirt lampasi.

Tajriba 1. Gidroliz jarayonida muhit pH ning o'zgarishi.

To'rta probirka olib, ulardan biriga 2-3 ml 0,5 n $NaCl$ ikkinchisiga 2-3 ml 0,5 n Na_2CO_3 , uchinchisiga 2-3 ml 0,5 n $Al_2(SO_4)_3$ yoki $AlCl_3$ eritmalaridan va to'rtinchisiga taqqoslash uchun 2-3 ml disstillangan suv quying.

Probirkalarning har qaysiga 1 ml lakmusning neytral eritmasidan qo'shib, yaxshilab chayqatib arashatiring. Suv solingan probirkadagi lakmus rangining o'zgarishiga qarab har bir tuz eritmasining reaksiya muhitini aniqlang.

Tekshirilgan tuzlarning qaysilari gidrolizlanadi? Gidrolizlanish reaksiyalarining molekulyar va ionli tenglamalarini yozing hamda qaysi tipdag'i gidrolizlanishlar sodir bo'lishini ayting.

Tajriba 2. Ikki tuzning birgalikdagi gidrolizi (qaytmas gidroliz).

Probirkaga 2-3 ml dan 0,5 n $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$ yoki AlCl_3 bilan Na_2CO_3 erit-malaridan quying va unga 1-2 tomchi lakkus eritmasidan tomizing. Probirkani chayqatib aralashtiring. Qanday gaz ajraladi va qanday moda cho'kmaga tushadi?

Gidrolizlanish reaksiyasining molekulyar va ionli tenglamalarini yozing. Nima uchun alyuminiy karbonat hosil bo'lmaydi?

Tajriba 3. Gidrolizlanish darajasiga temperaturaning ta'siri.

a) probirkaga 2-3 ml 0,5 n natriy atsetat CH_3COONa eritmasidan quying, unga 1-2 tomchi fenolftolein eritmasidan tomizing. Probirkani chayqatib aralashtiring va eritma rangiga e'tibor bering. Probirkani eritma qaynaguncha qizdiring va eritma rangining o'zgarishini kuzating.

Gidrolizlanish reaksiyasining molekulyar va ionli tenglamalarini yozing. Temperatura ta'sirida eritma rangini o'zgarish sababini tushuntiring.

b) probirkaga 2 ml 0,5 n FeCl_3 eritmasidan quying va eritma qaynagunicha probirkani qizdiring. Nima kuzatiladi? Temir (III)-xlorid tuzi gidrolizining bosqichli tenglamalarini molekulyar va ionli ko'rinishlarida yozing. Temperatura oshganda gidrolizlanish muvozanati qaysi tomonga siljiydi.

v) probirkaga 3-4 ml 0,5 n ZnCl_2 eritmasidan quying va indikator yordamida eritma muhitini aniqlang. Eritmaga kichkina rux bo'lakchasini solib, eritma qaynagunicha probirkani qizdiring. Qanday gaz ajraladi va nima uchun? Bunda qizdirish qanday rol o'ynaydi?

Tajriba 4. Gidrolizlanish darajasiga kontsentratsiyasining ta'siri.

a) probirkaga 2 ml 0,5 n vismut nitrat $\text{Bi}(\text{NO}_3)_3$ tuzi eritmasidan quying va unga disstillangan suv qo'shib, eritmani 3-4 marta suyultiring. Cho'kmada $\text{Bi}(\text{OH})_2\text{NO}_3$ asosli tuzi hosil bo'lismeni kuzating va eritmani suyultirishning gidrolizlanishiga ta'sirini izohlang. Gidrolizlanish reaksiyasining molekulyar va ionli tenglamalarini tuzing.

b) probirkada hosil bo'lgan cho'kmaga 1 tomchi kons. nitrat kislota eritmasidan tomizing. Nima kuzatiladi?

Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamalarini yozing. Gidrolizlanishiga vodorod ionlari qanday ta'sir etadi?

6-laboratoriya ishini

H I S O B O T I

Quyidagi tushunchalarni izohlang:

Tuz gidrolizi _____

Kation bo'yicha gidroliz _____

Anion bo'yicha gidroliz _____

Ham kationlararo, ham anionlararo gidrolizlanish _____

Suv ion ko'paytmasi $\text{K H}_2\text{O}$ _____

Vodorod ko'rsatkichi pH va uning matematik ifodasi _____

pH qiymati : neytral muhitda....., kislotali muhitda....., ishqoriy muhit.....

Jadval-8

Tajriba soni, olingan moddalarning formulasi va nomi, tajriba olib borish sharoitlari va kuzatishlar (eritma rangini o'zgarishi, gaz yoki cho'kma hosil bo'lish va hokazo)	Molekulyar va ion tenglamalar, gidroliz darajasi, konstantalarining matematik ifodalari, pH qiymati va muhiti.	Jadval lar- dan olingan h, K _g , qiymatlari	Tajriba-lardan olingan xulosalar
(20 katak)	(20 katak)	(6 katak)	(20 katak)

Tajriba № _____ Nomi

Nazorat savollari.

1. Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizlanadi?
- a) NaCN , b) KCN, v) Na₂S g) K₂SO₃, d) BaS e) K₃PO₄
j) Na₂SO₄ z) CH₃COONH₄ ?

Gidrolizlanish reaksiyalarining molekulyar va ionli tenglamalarini yozing.

2. Quyidagi tuzlar gidrolizlanish reaksiyalarining molekulyar va ionli tenglamalarini yozing: a) K₂S b) Mg(CN)₂ v) Al (NO₃)₃ g) Cr₂(SO₄)₃ d) CuCl₂ e) NaBr j) (NH₄)S z) (NH₄)₃PO₄

Bu tuzlar eritmalarining muhiti qanday bo'ladi ?

3. Gidrolizlanish natijasida a) nordon tuz, b) asosli tuz hosil bo'ladigan reaksiyalarga misollar keltiring va ularning ionli tenglamalarini yozing.

4. a) Al₂(SO₄)₃ bilan Na₂S b) Cr₂(SO₄)₃ bilan K₂CO₃; v) FeCl₃ bilan Na₂CO₃ g) CrCl₃ bilan (NH₄)₂S eritmalar o'zaro aralashtirilsa metall gidroksidlarining cho'kmasi hosil bo'lib, gidrolizlanish ohirigacha boradi. Birgalikda gidrolizlanish reaksiyalarining molekulyar va ionli tenglamalarini yozing.

5. a) Pb(CH₃COO)₂ bilan Na₂CO₃ eritmalar o'zaro aralashtirilsa gidroliz natijasida (PbOH)₂CO₃ PbCO₃ cho'kmasi ; b) FeCl₃ bilan CH₃COONa eritmalar o'zaro aralashtirilsa FeOH*(CH₃COO)₂ cho'kmasi hosil bo'ladi. Birgalikda gidrolizlanish reaksiyalarning molekulyar va ionli tenglamalarini tuzing.

6. 0,02 n Na₂CO₃ tuzining eritmasini 1 bosqichini pH ni toping. J. 11,66

LABORATORIIYA ISHI № 7

Ichki molekulyar, disproporsiyalanish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini va ularning muhit (pH) ga bog'liqligi.

Ishning maqsadi: Elementlarning oksidlanish darajasini, oksidlovchi va qaytaruvchilarni aniqlash hamda oksidlanish-qaytarilish reaksiya tenglamalarini tuzish usullari bilan tanishish.

Reaktivlar: (NH₄)₂Cr₂O₇ – ammoniy dixromat tuzi (olov rang kristall modda), 3% li H₂O₂ – vodorod peroksidi (rangsiz eritma), MnO₂ – marganes (IV)oksidi (qora kukun), KI- kaliy yod (rangsiz eritma), H₂SO₄ – sulfat kislota (rangsiz eritma),

KMnO_4 –kaliy permanganat (siyox rang eritma), Na_2SO_3 –natriy sulfit tuzi (rangsiz eritma), H_2O -distillangan suv, FeCl_3 temir(III) xlorid eritmasi (qizg'ish –qo'ng'ir rangli), $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ -qizil qon tuzi (sarg'ish eritmasi), $\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$ -xrom (III) sulfat tuzi eritmasi (yashil rangli), K_2SO_4 - kaliy sulfat (rangsiz eritma), I_2 -yodli suv (qo'ng'ir rangli eritma).

Asbob uskunalar: Menzurka, stakanlar, shisha tayoqcha, probirka, spirt lampasi, chinni kosacha,

Tajriba 1. Ichki molekulyar oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi.

Chini kosachaga $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ kristallining bir necha donasini soling va spirt lampasi yordamida qizdiring. Hosil bo'layotgan mahsulotlar xarakteriga diqqat bilan nazar soling. Reaksiya natijasida xrom(III)-oksid, azot va suv bug'lari hosil bo'lishini nazarda tutib reaksiya tenglamasini yozing oksidlovchi bilan qaytaruvchilarni ko'rsating.

Tajraba 2. Disproporsiyalanish reaksiyasi. Vodorod peroksidini parchalash.


Probirkaga 2-3 ml 3% li vodorod peroksid (H_2O_2) eritmasidan qo'ying va unga katalizator sifatida MnO_2 kristallaridan ozgina soling. Probirkaga tezlik bilan cho'g'langan cho'pni tushiring, nima kuzatiladi?

Vodorod peroksidning katalizator ishtirokida parchalanish reaksiyasi tenglamasini yozing. Nima uchun bu reaksiyani disproporsiyalanish turiga kiradi?

Tajraba 3. Vodorod peroksidning oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida ikki yoqlamalilik.

a) Probirkaga 2-3 ml KI eritmasidan quying va uning ustiga 1 ml H_2SO_4 bilan 1-2 ml H_2O_2 eritmalaridan qo'shing. Eritmani rangiga e'tibor qiling. Bu reaksiyada I_2 ajralishini e'tiborga olib oksidlanish-qaytarilish reaksiya tenglamasini yozing.

b) Probirkaga 2-3 ml KMnO_4 eritmasidan quying va uning ustiga 1ml suyultirilgan H_2SO_4 qo'shib ustiga rangsizlanguncha tomchilab H_2O_2 eritmasidan qo'shing. Gaz ajralib chiqishiga e'tibor qilib, reaksiya tenglamasini oxirigacha etkazing:



Tajriba 4. Oksidlanish-qaytarilish jarayoniga muhitning ta'siri.

Uchta probirkaga 2-3 ml dan 0,1 n KMnO_4 eritmasidan quying. Probirkalardan biriga 2-3 ml 2 n H_2SO_4 , ikkinchisiga 2-3 ml distillangan suv, uchinchisiga esa 2-3 ml ishqorning kontsentrlangan eritmasidan qo'shing va probirkalarni chayqatib aralashtiring. Undan keyin har bir probirkaga yangi tayyorlangan 0.1 n Na_2SO_3 eritmasidan qo'shing. Kislotali, neytral va ishqoriy muhitlarda probirkalardagi eritmalar rangining o'zgarishini kuzating va har qaysi muhitdagi eritma uchun reaksiya sxemalarini oxirigacha tugallang.




qaysi muhitda KMnO_4 ning oksidlash xossasi kuchliroq namoyon bo'ladi?

Tajribalardan olingan natjalarni hisobot blankasiga yozing.


Tajriba 5.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarning yo`nalishini aniqlashni o'rganish.

a) Probirkaga 2-3 ml FeCl_3 temir(III) xlorid eritmasidan va 1 ml natriy sulfit Na_2SO_3 kontsentrlangan eritmasidan quying. Hosil bo`lgan eritmani ikki probirkaga bo`ling va uning biriga 2-3 tomchi qizil qon tuzi $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ eritmasidan qo`shing. Qizil qon tuzi eritmasi ikki valentli temir ionlari uchun sezgir reaktivdir, u Fe^{+2} ionlari bilan zangori rangli $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2$ kompleks birikma (turunbul zangorisi) hosil qiladi. Bu reaksiya quyidagi sxema bo`yicha boradi:



Quyidagi reaksiya tenglamasini sxemasini tuzing va hisobotga kirititing:



b) Quyidagi reaksiyaning yo`nalishini aniqlang:



Probirkaga 2-3 tomchi xrom (III) sulfat va kaliy sulfat soling, so`ng ustiga 1-2 tomchi yodli suv tomizing. Xrom (III) ning yod tufayli oksidlanishi sodir bo`ladi, bu yodning rangsizlanishiga olib keladi.

Boshqa probirkaga kaliy bixromat eritmasidan va sulfat kislotasidan bir necha tomchi soling, keyin ustiga 3-4 tomchi kaliy yodid qo`shing. Nimaga eritma jigarrang tus oldi? Berilgan oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi qaysi yo`nalish bo`yicha ketadi?

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarning yarim reaksiyalarini tuzing. Berilgan reaksiyalarni galvanik elementida o`tadigan jarayon reaksiyalarni yozing. Bu jarayonga to`g`ri keladigan oksidlanish-qaytarilish potentsiyallarini yozib oling va E.Yu.K.sini toping.

7-laboratoriya ishini

H I S O B O T I

Quyidagi tushunchalarni izohlang:

Oksidlanish darajasi _____

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari _____

Oksidlanish jarayoni _____

Qaytarilish jarayoni _____

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini turlari:

a)

Molekulalararo _____

b) Ichki molekulyar _____

v) Disproporsiyalanish _____

g) Sinproporsiya reaksiyalari _____

Asosiy oksidlovchilar _____

Asosiy qaytaruvchilar _____

Jadval-9

Olingan moddalarning formulasi, agregat xolati, reaksiyani olib borish sharoiti va reaksiya borishi alomatlari (rangini o'zgarishi, gaz chiqishi va h.k.) Reaksiya sxemasi.	Koeffitsientlarni tanlash			
	Elektron balans usuli.	Yarim reaksiya usuli	Oksidlovchilar.	Qaytaruv-chilar

Tajriba № va nomi: _____

Nazarorat savollari.

1. Quyida keltirilgan yarim reaksiyalarning tenglamalarini oxiriga etkazing, har bir xolatdagi borayotgan reaksiyaning oksidlanish yoki qaytarilishga oidligini aniqlang.

- a) SO_4^{2-} (uvli) --- SO_2 (g) (nordon eritmada).
- b) Fe (qat) ----- Fe^{2+} (uvli) (nordon eritmada).
- v) NO_2 (uvli) ----- NO_3^- (uvli) (nordon eritmada).
- g) O_2 (g) ----- OH^- (uvli) (ishqoriy eritmada).
- d) Cr(OH)_2 (qat) ----- CrO_4^{2-} (uvli) (ishqoriy muhitda).

2. Gidrazin N_2H_4 va azot tetraokside N_2O_4 raketalarda yoqilg'i sifatida ishlataladigan o'zidan-o'zi alanganib ketuvchi aralashma hosil qiladi. Reaksiya maxsulotlari N_2 H_2 va H_2O . Reaksiyaning tenglamasini tuzing, qaytaruvchi va oksidlovchini aniqlang.

3. Quyidagi neytral atom va ionlari qaysilari oksidlovchi, qaysilari qaytaruvchi, qaysilari ham oksidlovchi ham qaytaruvchi bo`ladi:

4. a) N, Na, Al, C, Cr ; b) S, S^{2-} , S^{+4} , S^{+6} ; v) N_2^0 , N^{+3} , N^{+5} , N^{-3} ; g) Mn, Mn^{+2} , Mn^{+4} , Mn^{+6} , Mn^{+7} ; d) Fe, Fe^{+2} , Fe^{+3} , Ag^+ , Cu^+ ?

5. Quyidagi moddalardan qaysilari faqat oksidlovchi , qaysilari faqat qaytaruvchi ekanligini ko`rsating.

a) KMnO_4 , MnO_2 , P_2O_5 , Na_2S b) Na_2SO_3 , H_2SO_4 , H_2S , SO_2 , Na_2CrO_4 v) Na_2CrO_4 , KCrO_2 , , $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$, g) NH_3 , HNO_3 , NaNO_2

6. Quyida keltirilgan reaksiyalardan qaysilari oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari jumlasiga kiradi:

- a) $\text{SnCl}_2 + \text{FeCl}_3 = \text{SnCl}_4 + \text{FeCl}_2$
- b) $\text{NH}_3 + \text{H}_3\text{PO}_4 = (\text{NH}_4)_3 \text{PO}_4$
- v) $\text{PbS} + \text{HNO}_3 = \text{S} + \text{Pb}(\text{NO}_3)_2 + \text{NO} + \text{H}_2\text{O}$
- g) $\text{K}_2\text{CrO}_4 + \text{HCl} = \text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{KCl} + \text{H}_2\text{O}$
- d) $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2 = \text{CaO} + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- e) $\text{KMnO}_4 = \text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{MnO}_2 + \text{O}_2$
- j) $\text{Mg}(\text{OH})_2 + \text{H}_3\text{PO}_4 = \text{Mg}(\text{H}_3\text{PO}_4)_2 + \text{H}_2\text{O} ?$

Reaksiyalar tenglamalarini tenglashtiring. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida qaysi modda oksidlovchi va qaytaruvchi ekanligini ko`rsating.

Laboratoriya ishi № 8

KOMPLEKS BIRIKMALAR

Ishning maqsadi: kompleks birikmalar haqida tasavvurga ega bo'lish va ularni olinish usullarini va kimyoviy xossalari amaliyotda sinab ko'rish.

Reaktivlar: H_2O - distillangan suv, NaOH - o'yuvchi natriy (rangsiz eritma), HNO_3 - nitrat kislota (rangsiz eritma), $(\text{NH}_4)\text{Fe}(\text{SO}_4)_2$ - temir ammoniy achchiqtoshi (och sariq eritma), KSCN – kaliy rodanid (rangsiz eritma), BaCl_2 -bariy xlorid (rangsiz eritma), $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ - qizil qon tuzi (sariq eritma), $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$ -simob (II) nitrat (rangsiz eritma), KI - kaliy yodid (rangsiz eritma), AgNO_3 - kumush nitrat (rangsiz eritma), NaCl – natriy xlorid (rangsiz eritma), Na_2S - natriy sulfid (rangsiz eritma), $\text{CoC}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ -kobalt (II) xlorid (pushti rangli eritma), $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ - mis kuporosi (havo rangli eritma), $\text{Bi}(\text{NO}_3)_3$ - vismut (III) nitrat (rangsiz eritma), CdSO_4 — kadmiy sulfat (rangsiz eritma), Na_2SO_3 - natriy sulfit (rangsiz eritma), ZnSO_4 - rux sulfat (rangsiz eritma), $\text{AlC}_1\text{3}$ -alyuminiy xlorid (rangsiz eritma) NH_4OH - ammoniy gidroksid (rangsiz eritma), KMnO_4 -kaliy permanganat (binafsha rangli eritma), $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ - sariq qon tuzi (sariq rangli eritma), H_2O_2 - vodorod peroksid (rangsiz eritma), FeSO_4 - temir (II) sulfat (rangsiz eritma), FeCl_3 - temir(III) xlorid (sariq rangli eritma).

Asbob uskunalar: Mo'rili shkaf, probirkalar, shisha stakanlar, spirt lampa, shisha plastinkalar, metall qoshiqcha, qisqich, Shuster tomizg'ichi.

Tajriba 1. Qo'shaloq tuzlar va kompleks birikmalarning farqi.

a) Uchta probirkaga 2 ml dan $(\text{NH}_4)\text{Fe}(\text{SO}_4)_2$ temir ammoniy sulfat qo'sh tuzi eritmasini qo'ying. Birinchi probirkaga NaOH eritmasini quying. Bir oz qizdirib chiqayotgan gazni hidiga qarab qanday gaz ekanligini aniqlang. Bu reaksiya $(\text{NH}_4)\text{Fe}(\text{SO}_4)_2$ ning eritmasida qaysi ion borligini ko'rsatadi? Ikkinci probirkaga kaliy rodanid (KSCN) erimasidan ozgina quying. Qizil rangli tuz hosil bo'lishi qaysi ion borligidan darak beradi? Uchinchi probirkaga BaCl_2 eritmasini qo'shib SO_4^{2-} ioni borligini aniqlang. Reaksiya tenglamalarini yozing va $(\text{NH}_4)\text{Fe}(\text{SO}_4)_2$ ni elektrolitik dissotsiyalanish tenglamasini yozing.

b) Geksasianoferrat (III) kaliy $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ eritmasiga ishqor va kaliy rodanid KSCN eritmasini ta'sir ettiring. Nima uchun tarkibida Fe^{+3} ion bo'lgan $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ tuzi bilan Fe^{+3} ioni uchun xarakterli bo'lgan reaksiyalar sodir bo'lmadi? Sababini tushuntiring. Tenglamalarni yozing.

Tajriba-2. Kompleks anionlar.

a) Probirkaga 2-3 ml 0,1 M $\text{Bi}(\text{NO}_3)_3$ eritmasidan olib ustiga cho'kma hosil bo'lguncha tomchilatib KI eritmasini soling. Hosil bo'lgan cho'kmaning rangini aniqlang. Ustiga yana bir oz ortiqcharoq miqdorda kaliy yodid eritmasidan quying. Nima kuzatiladi?

Reaksiya natijasida vismutning kompleks tuzi hosil bo'lishini (Bi^{3+} ionining koordinatsion soni 4 ga teng) nazarda tutib reaksiya tenglamasini yozing. Hosil bo'lgan tuzning nomini aytинг.

b) Rux va alyuminiy tuzlarning eritmasiga cho'kma hosil bo'lguncha tomchilatib ishqor eritmasidan quying. Hosil bo'lgan cho'kmaning rangini aniqlang. Hosil bo'lgan cho'kmalarga yana ortiqcharoq miqdorda ishqor eritmasidan qo'shing. Nima kuzatilganini izohlang. Ishqorning ortiqcha miqdori

bilan gidroksosianat va gidroksoalyuminat hosil bo‘lishini nazarda tutib reaksiya tenglamalarni yozing.

Tajriba-3. Kompleks kationlar.

a) Probirkaga 2-3 ml 0,5 n CuSO₄ eritmasidan quyib, ustiga tomchilatib cho‘kma hosil bo‘lguncha ammiak eritmasidan quying. Hosil bo‘lgan cho‘kmaning rangini aniqlang. Uning ustiga yana ortiqcharoq miqdorda ammiak eritmasidan quying. Nima uchun cho‘kmaning erish prosessi kuzatiladi? Hosil bo‘lgan eritmaning rangi qanday o‘zgaradi? Cho‘kma hosil bo‘lish va cho‘kmaning erish prosesslari reaksiya tenglamalarini yozing. Hosil qilingan eritmani ikkita probirkaga bo‘ling. Probirkalardan biriga NaOH eritmasidan ikkinchisiga Na₂S eritmasidan qo‘sning va ulardan birida cho‘kma hosil bo‘lishini kuzating. Cu(OH)₂ va CuS larning eruvchanlik ko‘paytmasiga asoslanib, cho‘kma hosil bo‘lishini tushuntiring.

Tajriba-4. Kompleks birikmalar ishtirokida boradigan oksidlanish - qaytarilish reaksiyalari

a) Ozgina suyultirilgan sulfat kislota qo‘silgan KMnO₄ eritmasiga sariq qon tuzi K₄[Fe(CN)₆] eritmasidan qo‘sning. Nima kuzatiladi? Reaksiya tenglamasini yozing. Oksidlovchi bilan qaytaruvchini ko‘rsating.

b) Probirkada 2 ml dan vodorod peroksid va o‘yuvchi kaliy eritmalaridan aralashtiring va ustiga 2 ml qizil qon tuzining K₃[Fe(CN)₆] eritmasidan quying. Kislorod ajralishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

Tajriba-5 Akvakomplekslarning hosil bo‘lishi.

a) Chinni idishga CoCl₂•6H₂O va CuSO₄•5H₂O kristalgidratlarni solib qizdiring. Hosil bo‘lgan suvsiz tuzlarning rangini aniqlang va soviting. Sovitilgan idishga suv quying. Idishdagi eritma rangining o‘zgarishi akvakompleks hosil bo‘lganligini bildiradi.

b) Bir nechta dona kobalt CoC₁₂•6H₂O kristallarini 2-3 tomchi konseentrangan xlorid kislotada eriting, eritmaning rangini aniqlang. Hosil bo‘lgan eritmaga suv qo‘sib suyultiring. Gidratlangan Co²⁺ ioni uchun xarakterli bo‘lgan rangni eritmaning rangiga qarab aniqlang. CoCl₂•6H₂O tuzining HCl kislotasida erish reaksiyasini va eritmaning suv bilan suyultirish natijasida sodir bo‘lgan reaksiya tenglamasini yozing.

Tajriba-6 Kompleks birikmalar o‘rin almashinish reaksiyalari

a) Probirkaga 1-2ml FeSO₄ ning yangi tayyorlangan eritmasidan quying va unga qizil qon tuzi K₃[Fe(CN)₆] eritmasidan bir necha tomchi tomizing. Turnbul ko‘ki Fe₃[Fe(CN)₆]₂ cho‘kmaning hosil bo‘lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing. Bu reaksiya Fe²⁺ ionini topish uchun qo‘llaniladi.

b) 1 -2 ml FeC₁₃ sariq qon tuzi K₄[Fe(CN)₆] eritmasidan qo‘sning. Berlin lazuri Fe₄[Fe(CN)₆]₃ning ko‘k tusli cho‘kmasi hosil bo‘lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

HISOBOTNI USHBU JADVAL ASOSIDA YOZING

Tajriba nomi va soni	Formulasi, reaksiya uchun olingan mahsulotning nomi va ko'rnishi (rangi, agregat xolati).	Reaksiya olib borilgan sharoiti (aralash-tirish, qizdirish va h.k.)	Reaksiya borishi alomatlari (rangini o'zgarishi, gaz chiqishi va h.k.)	Kimyoviy reaksiyalarni tenglamasi va hosil bo'lgan moddalarini formulasining grafik tasviri	Olingen va hosil qilingan moddalar haqidagi xulosalar
(6 katak)	(8 katak)	(8 katak)	(14 katak)	(18 katak)	(12 katak)

Nazorat savollari.

1. Quyidagi birikmalarning molekulyar formulasini va suvdagi eritmalarida ionlarga dissoziyalanishini yozing:

- a) $\text{PtCl}_2 \cdot 4\text{NH}_3$; b) $\text{PtCl}_2 \cdot 3\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$; v) $\text{PtCl}_2 \cdot \text{KCl} \cdot \text{NH}_3$;
 g) $\text{PtCl}_2 \cdot 2\text{HCl}$; d) $\text{Co}(\text{CN})_3 \cdot 3\text{NaCN}$; e) $\text{CoBr}_3 \cdot 4\text{NH}_3$; z) $\text{CoCl}_3 \cdot 4\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$.

2.Quyidagi kompleks birikmalardagi kompleks hosil qiluvchining oksidlanish darajasini va koordinasyon sonini aniqlang:

- a) $\text{K}_2[\text{Cu}(\text{CN})_4]$; b) $\text{K}[\text{AuBr}_4]$; v) $\text{Na}_3[\text{Ag}(\text{S}_2\text{O}_3)_2]$; g) $\text{Cu}_2[\text{Fe}(\text{CN})_6]$;
d) $[\text{Ni}(\text{NH}_3)_6]\text{SO}_4$; e) $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_5\text{Cl}]\text{Cl}_3$; j) $[\text{Cr}(\text{NH}_3)_3(\text{H}_2\text{O})_3]\text{Cl}_3$;
i) $\text{Cu}_2[\text{Fe}(\text{CN})_6]$; z) $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]\text{Cl}_2$.

3.Kompleks hosil qiluvchi atomlardan qaysi biri barqaror kompleks birikmalarni hosil qiladi:

- a) Pt⁴⁺ yoki Pt²⁺
 b) Mg²⁺ yoki Ni²⁺
 v) Zn²⁺ yoki Cd²⁺
 g) Ca²⁺ yoki Zn²⁺

4. Quyidagi birikmalar orasida boradigan almashinish reaksiyalarning molekulyar va ionli tenglamalarini yozing.

- a) $\text{Cd}(\text{NH}_3)_4\text{SO}_4 + \text{BaCl}_2 \rightarrow \dots$
 b) $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6] + \text{CaCl}_2 \rightarrow \dots$
 v) $\text{FeSO}_4 + \text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6] \rightarrow \dots$
 g) $\text{FeCl}_3 + \text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6] \rightarrow \dots$

ANALITIK KIMYO

LABORATORIYA ISH № 9

Kimyoviy laboratoriyyada texnika xavfsizlik qoidalari

Talabalar laboratoriya mashg`ulotlarini mexanik ravishda emas, balki tushungan holda bajarishlari lozim. Shuning uchun har bir mashg`ulot oldidan nazariy tushunchalarni o'zlashtirishlari va laboratoriya ishini bajarish texnikasini o'zlashtirishlari lozim.

Laboratoriya mashg`ulotlarida har xil portlovchi, alanganuvchi suyuqliklar, kuchli kislota va ishqorlar bilan ishlaniladi. Shuning uchun quyidagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerak:

1. Yonuvchi va tez uchib ketuvchi moddalarni yonib turgan gorelka, spirit lampasi va plita yoniga qo'ymaslik kerak.
2. Zaharli moddalarni hidlash yoki tatib ko'rmaslik kerak.
3. Reaktivdan keragidan ko'proq olingan bo'lsa, ortib qolganini shu reaktiv olingan idishga qaytarib solish mumkin emas.
4. Zaharli, badbo'y va oson o't oluvchi, uchuvchan moddalar bilan qilinadigan tajribalarni mo'ri shkafda o'tkazish kerak.
5. Probirkaga biror narsa solib qizdirganingizda uning og'zini o'zingizga yoki yoningizda turgan kishiga qaratib ushlamang.
6. Ajralib chiqayotgan gazni hidiga qarab aniqlashda gazni qo'l bilan o'ziga tomon yelpib ma'lum masofada hidlash kerak.
7. Sul`fat kislota bilan ishlash vaqtida suvni kislotaga quyish yaramaydi, aksincha kislotani suvga tomchilatib quyish kerak.
8. Agar kishining biror yeri alangadan kuysa, kuygan yerni kaliy permanganatning 5-10% eritmasida ho'llangan paxta bilan artish va 5% li tanninda ho'llangan doka bilan bog`lash kerak.
9. Agar ko'zga ishqor tomchilarini sachrasa, ko'z darxol ko'p miqdorda suv bilan, keyin borat kislotaning to'yingan eritmasi bilan yuviladi.
10. Kuchli kislota va ishqorni bir idishdan ikkinchisiga quyishda qo'lingizga, betingizga sachramasligi uchun nihoyatda ehtiyoj bo'lish zarur, aks holda kuchli tan jaroxati yetkazish mumkin.
11. Agar kiyimga yoki teriga kislota yoki ishqor eritmalari to'kilsa, shu joyni avvalo, ko'p miqdorda suv bilan yuvish, so'ngra agar kislota to'kilgan bo'lsa 3% li natriy bikarbonat bilan, ishqor to'kilgan bo'lsa 1-2 % li sirka kislota bilan yuvib tozalash kerak. Agar kuchli kislota yoki ishqorning konsentrangan eritmalari to'kilsa u holda yuqoridagi choradan so'ng kuygan joyga kaliy permanganat yoki tannin eritmasida ho'llangan paxta qo'yib doka bilan bog`lash va doktorga murojaat qilish kerak.
12. Agar tajriba vaqtida shisha idish sinib ishlayotgan kishining biror yerini kesib ketsa, kesilgan joydan shisha maydalarini olib tashlash, so'ngra yod surkab,

shu joyga sterillangan doka yoki gigroskopik paxta qo'yib bint bilan bog'lash kerak.

Hozirgi zamon analitik kimyosining echiladigan muammolariga ko'ra tasnifi

Analitik kimyo fanining salohiyati quyidagi uch muhim muammoni xal etishga qaratilgan.

1. Analizni barcha turlariga xos bo'lgan umumiy masalalarini xal etish (masalan, analiz natijalari aniqligini belgilab beruvchi metrologiya masalalari).

2. Analizni yangi usullarini bunyod etish

3. Analizni konkret moddalar analiziga doir (masalan, pestitsidlar yoki narkotik moddalar analizi) muammolarni xal etish.

Xal qilinishi lozim bo'lgan maqsadga muvofiq analiz turlari quyidagilarga bo'linadi:

sifat analizda – modda qanaqa elementlardan yoki qanaqa komponentlardan tarkib topganligi aniqlanadi

miqdoriy analizda – moddadagi element yoki aralashma komponentlarining miqdoriy nisbatlari aniqlanadi.

Analizning bu ikki turi o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularni keskin chegaralab bo'lmaydi.

Aniqlanuvchi zarralar tabiatiga ko'ra molekulyar, izotop, funksional guruh analizlari ham mavjud.

Molekulyar analizda aralashmadagi molekula turlari, masalan gazlar aralashmasining tarkibi analiz etilsa, funksional analizda organik molekula tarkibidagi funksional guruh turlari aniqlanadi.

Kimyoviy sifat analizining asosiy tushunchalari

Analitik reaksiya – elementning borligiga dalolat beruvchi, tashqi analitik samara bilan boradigan reaksiyalar.

Reagent – aralashmadagi ion (modda)ni ochib beruvchi reaktiv

Maxsus reaksiyalar – tashqi samarasi (belgisi) murakkab aralashmadagi faqat bir ion (momolekula)ga xos bo'lgan analitik reaksiya

Selektiv reaksiyalar – tashqi belgisi ayrim ionlargagini xos bo'lgan analitik reaksiyalar

Guruh reaksiyalar – tashqi belgisi bir guruh ionlari uchun xos bo'lgan analitik reaksiyalar bo'lib, tegishli reagent guruh reagenti deb ataladi.

Analitik reaksiyalarning sezgirligi – aniqlanuvchi ionning ochilishi mumkin bo'lgan minimal miqdori, to'rtta o'zaro bog'langan o'lchamlar bilan tavsiflanadi.

Ochish minimumi – m (mkg) chegaraviy suyultirilgan eritmaning minimal hajmida ochilishi mumkin bo'lgan modda (ionning) minimal massasi (mikrogrammlarda ifodalanadi $1 \text{ mkg} = 10^{-6}\text{g}$)

Minimal hajm – ion (modda)ning ayni reaksiya bilan ochilishi mumkin bo'lgan, chegaraviy suyultirilgan eritmaning hajmi (V_{\min})

Chegaraviy konsentratsiya (V_{lim}) – ayni reaksiya vositasida ochilishi mumkin bo‘lgan ionni g/sm^3 birlikda ifodalangan minimal konsentratsiyasi

Suyultirish chegarasi (W) – tarkibida 1g aniqlanuvchi ion tutgan, chegaraviy suyultirilgan eritmaning hajmi (sm^3/g birlikda ifodalananadi).

Sezgirlikni to‘rttala o‘lchami quyidagicha uzviy bog‘langan:

$$m = C_{lim} \times V_{min} \times 10^6 = V_{min} \times 10^6 / V_{lim}$$

Analizni o‘tkazish uslubi bo‘yicha

1. *Sistematik analiz* – guruh reagentlari ta’sirida ionlarni analitik guruhlarga ajratishga asoslangan. Aniqlashlar ionlar guruhi doirasida, ma’lum izchillikda olib boriladi.

2. *Kasrlı analiz* – analiz qilinuvchi eritmaning ayrim ulushlaridan ionlarni maxsus yoki selektiv reagentlar bilan bevosita aniqlash

3. *Tomchi analizi* – filtr (xromatografik) qog‘ozi yoki buyum oynasida analiz qilinuvchi eritma va reagent tomchilarining ta’sirlashuviga asoslangan

4. *Xromatografik analiz* – aralashma tarkibidagi komponentlarning qo‘zg‘aluvchan fazada ta’sirida qo‘zg‘almas (statsionar) fazadagi xarakat tezliklarining farqiga asoslangan.

5. *Mikrokristalloskopik analiz* – kimyoviy individual moddaning buyum oynasida hosil qilgan kristallarining shakli, rangi va o‘lchamini mikroskop ostida kuzatish

Asosiy amallarni bajarish uslubi

Cho‘ktirish: sentrifuga probirkasidagi eritmaga cho‘ktiruvchi reagentdan qo‘shib chayqatiladi. Dastlabki eritmaning hajmi $2sm^3$ dan ortiq bo‘lmashligi kerak

Isitish: suv hammomida olib boriladi

Eritmani bug‘latish uni konsentrash maqsadida bajariladi: asbest to‘r ustida forfor kosacha yoki tigelda qizdirish bilan olib boriladi. Quruq qoldiq sovitilgandan so‘ng eritilib probirkaga o‘tkaziladi.

Sentrifugalash – eritmani cho‘kmadan ajratish uchun qo‘llaniladi. Sentrifuga probirkalarida bajariladi.

Sentrifuga bilan ishlash qoidasi:

1. Sentrifuganing qarama-qarshi uyalariga 2 ta (aniqlanuvchi eritma va posongi) probirkaga joylashtiriladi

a) elektrik sentrifuga uyalariga 2 tadan kam bo‘lмаган probirkalar joylashtiriladi; b) sentrifuga qopqog‘i zinch berkitiladi; v) elektr tarmog‘iga ulanib, aylanish tezligi tanlanadi; g) 1-2 min davom-mida sentrifuga qopqog‘i ochilmagan holatda aylantiriladi; d) sentrifuga to‘liq to‘xtagandan so‘ng qopqog‘i ochilib, probirkalar olinadi. Cho‘kish to‘laligi tekshirib ko‘riladi. Buning uchun sentrifugat (probirkadagi tiniq eritma)ga 1-2 tomchi cho‘ktiruvchi qo‘shiladi. Agar eritma tiniqligicha qolsa, cho‘kish to‘la bo‘lganligini bildiradi. Aks holda cho‘ktirish qayta takrorlanadi. Cho‘kma ustidagi tiniq eritma alovida probirkaga ajratib olinadi.

Cho'kmanni yuvish - kristall cho'kmalar distillangan suv, amorflari esa kuchli elektrolit (masalan, NH_4NO_3) eritmasi bilan yuviladi. Buning uchun cho'kmaga 1-2 ml erituvchi suyuqlikdan qo'shib shisha tayoqcha bilan cho'kma aralashtiriladi va sentrifugalananadi.

Cho'kmanni eritish – unga kislota, ishqor, ammiak va boshqa eritmalarini qo'shish bilan bajariladi.

Ekstraksiyalash – yarim mikroprobirkalarda yoki ajratuvchi voronkada bajariladi. Probirkadagi eritmaga 5-20 tomchi organik erituvchi qo'shib, yaxshilab aralashtiriladi. Qatlamlar tiniqlashgach, ular ajratib olinadi.

Reaksiyalarni bajarish. Hamma reaksiyalar kimyoviy toza idishlarda o'tkaziladi.

Probirkada bajariladigan reaksiyalar. Yarim mikroprobirkalar (probirkalar)da bajariladi. Probirkaga 3-5 tomchi analiz qilinuvchi eritma solib, tegishli muhit hosil qilingach, ustiga probirka devorlariga tegizmasdan 2-3 tomchi reagent qo'shib, shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi, 1-2 min so'ng tashqi samara (belgi) kuzatiladi.

Mikrokristalloskopik reaksiyalar – yog'sizlantirilgan (yog'sizlantirish uchun spirt va efir aralashmasi ishlataladi) buyum oynasida bajariladi. Buyum oynasiga shisha tayoqcha bilan analiz qilinuvchi eritmadan bir tomchi qo'shilib, yoniga bir tomchi reagent joylashtiriladi. So'ngra ikkala tomchi shisha tayoqcha yordamida birlashtiriladi. Zarur bo'lsa, eritma bir oz bug'latiladi. Agar reaktiv qattiq holatda bo'lsa, uning kichik zarrachasi analiz qilinuvchi eritmaning chetiga joylashtiriladi. 1-2 min dan so'ng hosil bo'lган kristallar mikroskop ostida kuzatiladi.

Tomchi reaksiyasi - filtr qog'ozida o'tkaziladi. Analiz qilinuvchi eritma kapillyar yordamida qog'ozga o'tkaziladi. So'ngra dog' markaziga boshqa kapillyar yordamida reaktiv qo'shiladi. Dog' diametri 0,5sm dan oshmasligi kerak.

Cho'ktirish xromatografiyasi reaksiyalari – tomchi reaksiyalar kabi filtr qog'ozda bajariladi. Xromatografik dog'lar bir biridan ajralishi uchun dog' markaziga suv tomiziladi.





Puch tajriba – aniqlanuvchi ion bo'lмаган eritmaga reagent tomizib bajariladi.





Nazorat tajribasi – aniqlanuvchi ion mavjud bo'lган eritmaga reagent qo'shib bajariladi.

Puch va nazorat tajribalar analiz natijalarida ikkilish bo'lган hollarda asosiy tajriba bilan parallel holda solishtirish uchun o'tkaziladi.

KIMYO LABORATORIYASIDA QO`LLANILADIGAN IDISHLAR VA JIHOZLAR

1-rasm


P-9 probirkalari	probirka qizdirgich	P-16 probirkalari	pipetka
			
tomchi analizi uchun to‘plam	plastik taglik	elektron tarozi	plastmassa shpatel
			
yorliqlar	shisha tayoqcha	o‘lchov kolbasi	o‘lchov silindri
			
P-16 probirkalari	indikator qog‘oz	probirka qizdirgich	
			
plastik taglik	tubi yassi kolba	magnitli aralashtirgich	
			

galogen sintezi asbobi	pipetka	chinni tigel	gaz o‘tkazgich nayli rezina tiqin,
			
buyum oynasi	P-16 probirkalari	quruq yoqilg‘i	plastmassa shpatel
			




2-rasm. Chinni idishlar







3-rasm. O'lchov kolbalari va konussimon kolbalar



4-rasm. O'lchov silindrlari va menzurkalar





5-rasm. 1-probirka, 2-stakan, 3-tubi yassi kolba, 4-tubi yumaloq kolba, 5-Vyurs kolbasi, 6-konussimon kolba, 7-voronka, 8-byukslar, 9-soat oynasi, 10-taxlil uchun tomizgich.




6-rasm. Pipetka va byuretkalar



7-rasm. Kipp aparati



8-rasm. Idish tozalagich





9-rasm. Quritish va mufel pechlari




10-rasm. Suv hammomi



11-rasm. Texnokimyoviy va analitk tarozi.



12-rasm. Gaz gorelkalari va alanga tuzilishi



13-rasm. Shtativlar




14-rasm. Zamonaviy laboratoriya va eng muhim jihozlar

SIFAT ANALIZI

1-jadval

ZAMONAVIY ANALITIK KIMYONING TUZILISHI



2-jadval

**ANALIZ QILINADIGAN MODDA MIQDORIGA KO'RA ANALIZ METODLARINING
KLASSIFIKATSIYASI**

Analiz metodining nomi		Analiz qilinadigan modda miqdori	
		Namuna massasi, g	Namuna hajmi, ml
Makroanaliz	Gramm-metod	1 – 10	10 – 100
Yarimmikroanaliz	Santigramm-metod	0,05 – 0,5	1 – 10
Mikroanaliz	Milligram-metod	0,01 – 10^{-6}	$0,1 - 10^{-4}$
Ultramikroanaliz	Mikrogram-metod	$10^{-6} - 10^{-9}$	$10^{-4} - 10^{-6}$
Submikroanaliz	Nanogram-metod	$10^{-9} - 10^{-12}$	$10^{-7} - 10^{-10}$

3-jadval

SIFAT ANALIZINING TURLARI

Bo'lib-bo'lib analiz qilish	Sistematik analiz
Bo'lib-bo'lib analiz qilishda moddaning tarkibi spetsifik reaksiyalar bilan aniqlanadi, bunday reaksiyalar yordamida boshq aionlar ishtirokida ham analiz qilinadigan ionlarni aniqlashmumkin	<p>Sistematik analizda ionlar aralashmasi <i>guruh reagentlari</i> yordamida bir nechta guruhlarga bo'linadi, so'ngra har qaysi guruhdagi ionlar muayyan ketma-ketlikda xarakterli reaksiyalar bilan aniqlanadi.</p> <p><i>Guruh reagenti</i> – bu ionlarning analitik guruhlarini aniqlashda va ajratishda qo'llaniladigan reagentdir.</p> <p><i>Guruh reagentiga qo'yiladigan talab-lar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ionlar guruhlarini amalda to'liq ajratishi kerak; 2. Gurug reagenti ta'sirida ajratilgan analitik guruhga ishlov berish oson bo'lishi kerak; 3. Guruh reagentining ortiqcha miqdori keyingi analiz jarayoniga halaqit bermasligi kerak

4-jadval

ANALITIK REAKSIYALARING BELGILARI

Analitik belgilar	Misol
1. Xarakterli cho'kma hosil bo'lishi	$3\text{Fe}^{2+} + 2[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{3-} \leftrightarrow \text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN}_6)]_2 \downarrow$
2. Eritma rangining o'zgarishi	$\text{Cu}^{2+} + 4\text{NH}_3 \leftrightarrow [\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$ (havorang eritma)
3. Gaz ajralishi	$\text{FeS} + 2\text{H}^+ \leftrightarrow \text{Fe}^{2+} + \text{H}_2\text{S} \uparrow$ (xarakterli hid)
4. Issiqlik chiqishi yoki yutilishi	$\text{HCN} + \text{NaOH} \rightarrow \text{NaCN} + \text{H}_2\text{O}$ (issiqlik chiqishi bilan) $\text{CaSO}_4 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ (issiqlik yutilishi bilan)

5-jadval

KATIONLARNING KISLOTA-ASOSLI ANALIZ METODI BO'YICHA KLASSIFIKATSIYASI

Guruh	Kationlar	Guruh reagenti	Birikmalarning eruvchanligi
I	Na^+ , K^+ , NH_4^+ ,	Mavjud emas	Xloridlar, sulfatlar va gidroksidlar suvda eriydi.
II	Ag^+ , Pb^{2+} , Hg^{2+}	2M HCl eritmasi	Xloridlar suvda erimaydi
III	Ba^{2+} , Sr^{2+} , Ca^{2+}	1M H_2SO_4 eritmasi + $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$	Sulfatlar suvda erimaydi.
IV	Al^{3+} , Zn^{2+} , Cr^{3+} , Sn(II) , Sn(IV) , As(III) . As(V)	Mo'l 6M NaOH eritmasi + 3% H_2O_2	Gidroksidlar suvda erimaydi, lekin mo'l ishqorda eriydi.
V	Fe^{2+} , Fe^{3+} , Mg^{2+} , Mn^{2+} , Bi^{3+} , Sb(III) , Sb(V)	Mo'l kons. $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$	Gidroksidlar suvda, mo'l ishqorda va ammiakda erimaydi.
VI	Co^{2+} , Ni^{2+} , Cd^{2+} , Cu^{2+} , Hg^{2+}	Mo'l kons. $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$	Gidroksidlar suvda mo'l ishqorda erimaydi, lekin mo'l ammiakda eriydi.

Usulning afzalligi

Kislota-asosli analiz usuli boshqa usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

1. Oddiy, qimmat baho reaktivlar talab qilinmaydi, talabaning o'zlashtirishi oson;
2. Vodorod sulfidli usuldan farqli zaharli vodorod sulfid ishlatilmaydi bu usulda asosiy reagentlar: vodorod xlorid va sulfat kislota, ishqor, ammiakli suv ishlatiladi;
3. Uslubiy tomondan juda qulay bo'lib, analiz davomida talaba asosiy birikmalardan: xloridlar, sulfatlar, gidroksidlar va ammiakli suvning xossalalarini o'rganadi.

Usulning kamchiliklari

Kislota-asosli usulda ayrim qiyinchiliklar sababli ba'zan analiz yo'llarini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Ikkinci guruhdagi qo'rg'oshin (II) ioni vodorod xlorid bilan AgCl va Hg_2Cl_2 birgalikda suvda qisman eruvchan PbCl_2 ko'rinishda cho'ktiriladi. Suning uchun u qisman boshqa guruh kationlari o'tib qoladi. Ayrim vaqt VI guruhdagi Cu^{2+} ionini gidroksidi ma'lum miqdorda ortiqcha NaOH da eriydi.


Sb^{3+} va Sb^{5+} ning NaOH yoki KOH ga munosabatining har xilligi, $\text{Mg}(\text{OH})_2$ ning ortiqcha ammiakda va ammoniy tuzlarida erishi, CaSO_4 ning suvda eruvchanligi va boshqalar kationlarni aniq guruhlarga ajratishga olib kelmaydi.

Analiz davomida BaSO_4 , SrSO_4 , CaSO_4 larni karbonatlarga aylantirish qiyin.

Agar analiz qilinadigan aralashmada fosfat ioni bo'lsa, analizni kislota-asosli usul bilan olib borib bo'lmaydi.

Bunday hollarda halaqit beruvchi anionlar yo'qotiladi yoki analiz ammiak-fosfatli usul bilan olib boriladi.

**KISLOTA-ASOSLI ANALIZ METODI BO'YICHA KATIONLARNI
GURUHLARGA AJRATISH**



LABORATORIYA ISH № 10

I guruh kationlarining analitik reaksiyalari va ular aralashmasining analizi

Maqsad:

I guruh kationlari sifat reaksiyalarini ular aralashmasining analizi yuzasidan amaliy ko'nikmalar hosil qilish va ularni amalda qo'llay bilish

Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar

1. Ammoniy, natriy, kaliyning nitratli yoki xloridli tuzlarining eritmalar
2. Maxsus eritmalar:kaliy digidroantimonat,rux uranilatsetat, vino kislota $H_2C_4H_4O_6$ yoki uning natriyli nordon tuzi – natriy gidrotartrat $NaHC_4H_4O_6$, kaliy geksagidroksostibat va kaliy xloridning to'yingan eritmasi, natriy geksanitrokoboltat (III)ning yangi tayyorlangan eritmasi, natriy qo'rg'oshinli geksanitrokuprat (II) eritmasi, Nessler reaktivi, o'yuvchi ishqorlar NaOH yoki KOH
3. Etanol
4. Formalin
5. Fenolftaleinning 0,1%li spirtdagi eritmasi

6. Kaliy, natriy, ammoniy quruq tuzlari 7. Qizil lakmus qog‘ozi
O‘quv jadvallari:
1. Kislota-asos usuli bo‘yicha kationlarning tasnifi
 2. I guruh kationlarining xususiy reaksiyalari
 3. D.I.Mendeleyev davriy jadvali

I guruh kationlarining umumiy tavsifi

Birinchi analitik guruh kationlariga NH_4^+ , Na^+ , K , ionlari kiradi. Bu ionlarning umumiy guruh reagenti yo‘q. NH_4^+ , K^+ , Rb^+ , Cs^+ , Fr^+ lar uchun harakterli bo‘lgan ko‘pgina reagentlar bilan Na^+ , Li^+ ionlari reaksiyaga kirishmaydi. Shuning uchun birinchi analitik guruh kationlari ikki guruhchaga bo‘linadi, ya’ni $Na_3[Co(NO_2)_6]$, $NaHC_4H_4O_6$ va $H_2[PtCl_6]$ kabi reaktivlar bilan cho’kma beruvchi NH_4^+ , K^+ , Rb^+ , Cs^+ , ionlari birinchi guruhchani tashkil qiladi, ikkinchi guruhchaga esa umumiy reagenti bo‘lmagan Na^+ , Li^+ , ionlari kiradi.


Birinchi analitik guruh kationlarining ko‘pgina birikmalari suvda yahshi eriydi va rangsiz eritmalar hosil qiladi. Rangli eritmadagi birikmalariga xromatni (sariq), bixromatni (sarg’ish-qizil), manganatni (yashil), permanganatni (binafsha rang), ferrotsianatlarni (sariq va qizil) va geksakobaltatni (sariq) kiritish mumkin.

Birinchi guruh kationlarining NH_4^+ dan boshqa barchasi oksidlovchilar va qaytaruvchilar ta’siriga chidamli, NH_4^+ esa oksidlanish xossasiga ega.

1.1.Natriy Na^+ kationing xususiy reaksiyalari

Tajribalar natriyning suvda eriydigan tuzlari – xloridi, sulfati, nitrati eritmalaridan foydalanib bajariladi.

1.Kaliy digidroantimonat KH_2SbO_4 natriy Na^+ kationlari bilan natriy digidroantimonatning oq kristallik cho`kmasini hosil qiladi:



Natriy tuzi eritmasidan probirkaga 5-6 tomchi solib, ustiga shuncha tomchi kaliy digidroantimonat eritmasidan qo`shiladi va shisha tayoqcha yordamida probirkaning aralashma turgan qismidagi ichki devoiri yuzasi ishqalanadi. Hosil bo‘lgan natriy digidroantimonatning oq kristall chokmasi tushadi.

Analitik reaksiya quyidagi sharoitlarda boradi:

-natriy tuzi eritmasining konsertratsiyasi etarli darajada bo`lishi lozim, shuning uchun suyultirilgan eritmalarini bug`latiladi;

-eritma muhitni neytral yoki kuchsiz ishqoriy bo`lishi lozim;

-hosil bo`ladigan cho`kmaning eruvchanligi isitilganda ortganligi sababli reaksiya sovuqda ($15-20^{\circ}C$) olib boriladi.

2. Rux uranilatsetat bilan mikrokristallokopik reaksiyasi

Natriy ioni sirka kislotali sharoitida rux uranilatsetat bilan sariq kristal cho‘kmani hosil qiladi:



Reaksiyani bajarish:

Buyum oynachasiga 1 tomchi natriy tuzining eritmasidan tomizib, ustiga 1 tomchi ruxuranilatsetat eritmasidan tomiziladi. 1-2 minutdan keyin mikroskop ostida tetraedrik yoki oktaedrik shakldagi kristallarni ko‘rish mumkin.

3. Alangani bo'yash reaksiyasi. Uchi halqa qilib qayrilgan platina yoki nixrom sim kavsharlangan shisha tayoqcha olinadi. Dastlab simning tozaligiga ishonch hosil qilingach (simni HCl eritmasi bilan ho'llab, rang yo'qolguncha alangada qizdirib tozalanadi), qizib turgan sim natriy tuziga yoki natriy tuzi eritmasiga botiriladi. So'ngra shu sim gazning rangsiz alangasiga kiritilsa, alanga sariq rangga bo'yaladi. Reaksiya juda sezgir bo'lib, sariq rang 10-15 cek davomida yo'qolmaydi.



1.2.Kaliy K⁺ kationing xususiy reaksiyalari

1.Natriy geksonitrokobaltat (III) Na₃[Co(NO₂)₆] K⁺ kationi bilan qo'sh tuzning yorqin sariq kristall cho'kmasini hosil qiladi:



Reatsiya pH=7, yangi tayyorlangan Na₃[Co(NO₂)₆] eritmasi yordamida olib boriladi

2.Vino kislota H₂C₄H₄O₆ yoki uning natriyli nordon tuzi – natriy gidrotartrat NaHC₄H₄O₆ K⁺ tuzlari bilan oq mayda kristall kaliy gidrotartrat cho'kmasini hosil qiladi.



Reaksiyaning sharoitlari:


Eritmada K⁺ ionining konsentratsiyasi etarli darajada bo'lishi kerak;

Tajriba sovuqda o'tkazilishi lozim.

Eritmaning muhiti pH=7.

3.Natriy va qo'rg'oshin geksanitrokuprat (II) (NQGNK) bilan mikrokristalloskopik reaksiyasi.

NQGNKreaktivineytralyokisirkakislotalisharoitdakubshaklidagiqorayokijigarr anglikristallcho'kmanihosilqiladi:



Reaksiyaga ammoniy kationi xalaqit beradi.

Reaksiyani bajarish:

Buyum oynasiga kaliyning eritmasidan tomiziladi, extiyotlik bilan gaz gorelkasi ustida ozgina isitiladi, so'ngra sovutiladi. Yuqoridagi tomchi yoniga bir tomchi reaktivdan tomiziladi va kapillyar orqali bir-biri bilan tutashtiriladi. 1-2 min keyin mikroskop ostida kub shaklidagi qora kristallar kuzatiladi. Laboratoriya jurnaliga kristallarning shakli chiziladi.

4.Alangani bo'yash reaksiyasi

Tozalangan platina yoki nixrom simni qizdirib, kaliy xlorid eritmasiga tushiriladi yoki qattiq kaliy tuzlari kristallariga tegiziladi. Sim eritma tomchisi yoki kaliy tuzi zarrachalari bilan gaz alangasining rangsiz qismiga kiritiladi. Alanganing binafsha rangga kirishi kuzatiladi. Bunday rangning hosil bo'lishi kaliy tuzlariga xosdir.

1.3.Ammoniy NH₄⁺ kationing xususiy reaksiyalari

Tajribalarni bajarish uchun ammoniy xlorid yoki ammoniy sulfat eritmalaridan foydalilaniladi.

1.O'yuvchi ishqorlar NaOH yoki KOH ammoniy tuzlari eritmalariga qo'shib qizdirilganda gazsimon ammiak ajralib chiqadi:



Ionli tenglamalarini yozing:

Probirkaga ammoniy tuzi eritmasidan 2-3 tomchi tomizilib 3-4 tomchi ishqor eritmasidan qo'shiladi va probirka eritmasi bilan suv hammomida isitiladi. Ammiakning ajralib chiqishini hididan yoki namlangan lakkus qog'ozini yordamida bilish mumkin.

2.Nessler reaktivining kompleksi tuz K₂[HgI₄] ning KOH eritmasi bilan aralashmasi Ammoniy tuzlari eritmasi bilan ta'sirlashib, oksidimerkur ammoniy yoditning qizil-qo'ng'ir rangli cho'kmasini hosil qiladi :



Shisha plastinkaga bir tomchi ammoniy tuzi eritmasidan olib ustiga 2 tomchi Nessler reaktivini qo'shiladi. Analizda Nessler reaktividan mo'lroq qo'shish kerak, eritmadiagi Fe²⁺, Cr³⁺, Co²⁺, Ni²⁺ kationlari xalaqit berganligi uchun tekshiriladigan eritmaga KNaC₄H₄O₆ eritmasi qo'shilib ko'rsatilgan ionlar kompleks birikmalarga aylantiriladi.

I guruh kationlarining reaksiyalari


6-jadval

Reagentlar	Kationlar		
	Na ⁺	K ⁺	NH ₄ ⁺
1	2	3	4
Zn(UO ₂) ₃ (CH ₃ COO) ₈	NaZn(UO ₂) ₃ (CH ₃ COO) ₉ Sariq chokma		
K[Sb(OH) ₆]	Na[Sb(OH) ₆] Oq cho'kma	-	-
Na ₃ [Co(NO ₂) ₆]	-	K ₂ Na[Co(NO ₂) ₆] Sariq chokma	(NH ₄) ₂ Na[Co(NO ₂) ₆] Sariq chokma
Na ₂ Pb[Cu(NO ₂) ₆]	-	K ₂ Pb[Cu(NO ₂) ₆] qora cho'kma	(NH ₄) ₂ Pb[Cu(NO ₂) ₆] qora cho'kma
KOH, NaOH	-	-	Isitish bilan NH ₃ ajralib chiqadi
K ₂ [HgI ₄] va KOH Nessler reaktivini	-	-	[Hg ₂ N] ₂ J · H ₂ O qizil-qo'ng'ir cho'kma
Alangani bo'yalishi	Sariq	Och binafsha	-
Qizdirilganda	Qiyin uchuvchan	Qiyin uchuvchan	Parchalanadi

I ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI**K⁺, Na⁺, NH₄⁺**

Bosqichning t/r	Analiz bosqichlari
1	Alohida namunadagi NH ₄ ⁺ ionlarini ishqor ta'sir ettirib, qizdirib aniqlash: $\text{NH}_4^+ \xrightarrow{\text{NaOH, } \Delta} \text{NH}_3 \uparrow$
2	Alohida namunaga NaOH yoki Na ₂ CO ₃ eritmasi ta'sir ettirib, qizdirib K ⁺ ionlarini topishdan oldin NH ₄ ⁺ ionlarni yo'qotish: $\text{NH}_4^+ \xrightarrow{\text{NaOH (Na}_2\text{CO}_3\text{), } \Delta} \text{NH}_3 \uparrow$
3	Eritmani sirka kislota bilan neytrallash.
4	NaHC ₄ H ₄ O ₆ , Na ₃ [Co(NO ₂) ₆], Na ₂ Pb[Cu(NO ₂) ₆] reagentlari bilan 3 eritmadan K ⁺ ionlarini topish: $\text{K}^+ \xrightarrow{\text{NaHC}_4\text{H}_4\text{O}_6} \text{KHC}_4\text{H}_4\text{O}_6 \downarrow$ $\text{K}^+ \xrightarrow{\text{Na}_3[\text{Co(NO}_2)_6]} \text{K}_2\text{Na}[\text{Co(NO}_2)_6] \downarrow$ $\text{K}^+ \xrightarrow{\text{Na}_2\text{Pb}[\text{Cu(NO}_2)_6]} \text{K}_2\text{Pb}[\text{Cu(NO}_2)_6] \downarrow$
5	Alohida namunadan KOH yoki K ₂ CO ₃ eritmasi ta'sir ettirib, qizdirib Na ⁺ ionlarini topishdan oldin NH ₄ ⁺ ionlarini yo'qotish: $\text{NH}_4^+ \xrightarrow{\text{KOH (K}_2\text{CO}_3\text{), } \Delta} \text{NH}_3 \uparrow$
6	5 eritmani sirka kislota bilan neytrallash.
7	K[Sb(OH) ₆] _n , Zn(UO ₂) ₃ (CH ₃ COO) ₈ reagentlari bilan 6 eritmada Na ⁺ ionlarini topish: $\text{Na}^+ \xrightarrow{\text{K}[\text{Sb(OH)}_6]} \text{Na}[\text{Sb(OH)}_6] \downarrow$ $\text{Na}^+ \xrightarrow{\text{Zn}(\text{UO}_2)_3(\text{CH}_3\text{COO})_8} \text{NaZn}(\text{UO}_2)_3(\text{CH}_3\text{COO})_9 \cdot 9\text{H}_2\text{O} \downarrow$

I ANALITIK GURUH KATIONAL ARMING SISTEMATIK ANALIZ SKHEMASI



Nazorat eritmasi
I guruh aralashmasining analizi

Nazorat eritmasi probirka yoki shisha idishda berilishi mumkin. Eritma yaxshilab aralashtirilib, 2 qismga bo‘linadi: birinchi qismdan analiz bajariladi, ikkinchisi nazorat uchun olib qo‘yiladi. 10- jadval asosida analiz ammoniy ionlarini xususiy reaksiyalari bilan aniqlashdan boshlanadi. Ikkilanish bo‘lganda «nazorat tajriba»si o‘tkaziladi, ya’ni aniqlanuvchi ion bilan ayni reaksiya o‘tkazilib, natijalar solishtiriladi. Analiz jarayonida quyidagi shaklda analiznomha rasmiylashtiriladi:

Analiznomha №_____ Sana

Mavzu: I guruh kationlari aralashmasining sifat analizi

1. Nazorat eritmasining tashqi ko‘rinishi. Eritmaning tiniqligi, rangi.
2. Kationlarni ochish va uni aniqlashda ishlatiladigan reagent, reaksiya sharoiti, kuzatish natijasi va kationlar bor yoki yo‘qligi to‘g‘risidagi xulosa
Kation topilgandan keyin uni ion xolatdagi reaksiya tenglamasini yozish
3. Umumiyl xulosa
4. Analiz tugatilgandan keyin sana va talabaning imzosi qo‘yiladi.
5. O‘qituvchining imzosi


NH_4^+ kasrli usulda ochish

2-3 tomichi tekshiriluvchi eritma forfor kosachasiga solinadi va 3-5 tomchi ishqor qo‘shiladi. Stakancha tubiga ho‘l lakmus yoki fenolftaleinli filtr qog‘ozi joylashtirilib, farfor kosachaga to‘nkarib qo‘yiladi, suv hammomida isitiladi. Indikator rangini o‘zgarishi - lakmusni ko‘karishi fenolftaleinni qizarishi NH_4^+ ioni borligiga dalil bo‘ladi.

NH_4^+ ni yo‘qotish

1-usul: - ammoniy tuzlarini termik parchalash: 15-20 tomchi dastlabki eritma quruq qoldiq qolguncha mikrotigelda parlatiladi. Qoldiq 5-10 min davomida qizdirilib sovitilgandan so‘ng 8-10 tomchi distillangan suv qo‘shib eritiladi. NH_4^+ ionlarini yo‘qotish to‘liq bo‘lganligini tekshirish uchun eritmadan buyum oynasiga 1-2 tomchi tomizilib, ustiga Nessler reaktivi qo‘shiladi. Agar qizil-qo‘ng‘ir rangli cho‘kma hosil bo‘lsa, yuqoridagi ish yana takrorlanadi.

2-usul: - ammoniy ionlarini formalin yordamida geksametilentetramin (urotropin)ga bog‘lash:



Reaksiyani bajarish:

2-3 tomchi tekshiriluvchi eritmaga teng xajmda 40% formaldegid va 1 tomchi fenolftaleindan qo‘shiladi. So‘ngra tomchilab Na_2CO_3 eritmasidan qo‘shiladi. Eritmaning rangi qizil rangga o‘tguncha ($\text{pH}=9$) 1-2 min isitiladi, sirka kislotasi bilan rang yo‘qotib, neytrallanadi.

K^+ kationini ochish

Eritmaning bir qismida K^+ ionlari tegishli reagent vositasida aniqlanadi.

Na^+ kationini aniqlash

Na^+ ionlari kaliy geksagidroksostibat (V) yoki ruxuranilatsetat reagentlari bilan ochiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Analitik kimyo fani, uning maqsadi, vazifalari
2. Analitik reaksiya, kasrli, sistematik, makro va mikro analiz tushunchalarini izoxlang
3. Ionlarning analistik tasnifining asosi
4. Sifat analizilning kislota-asos usulida guruh reagentlari sifatida qanday moddalar qo'llaniladi, I guruh kationlarini ayting.
5. Maxsus, selektiv va guruh reagenti, reaksiyalarini ta'riflang.
6. Analitik reaksiya sezgirligi nima bilan tavsiflanadi. Aniqlanish chegarasi, chegaraviy suyultirish, chegaraviy konsentratsiya nima?
7. Ammoniy nitrat va ammoniy xlorid tuzlarining termik parchalanishi reaksiya tenglamalarini yozing.
8. Dorivor modda sifatida I guruh kationlarining qaysi tuzlari ishlatiladi?
9. I guruh kationlariga umumiy tasnif bering
10. Na^+ , K^+ , NH_4^+ ionlarini aniqlashda ishlatiladigan reagentlarning nomlarini va formulalarini yozing.
11. Na^+ ionini rux uranilatsetat bilan, K^+ ionini kaliy geksanitrokobalt (III) bilan reaksiya tenglamalarini yozing. Nima uchun bu reaksiyalarni kuchli kislotali va ishqoriy muhitda olib borilmasligini tushuntiring.
12. Na^+ ionini $\text{K}[\text{Sb}(\text{OH})_6]$ bilan reaksiyasini kuchli kislotali sharoitda olib borib bo'ladimi? Javobingizni tegishli reaksiya tenglamalari bilan tasdiqlang.
13. I guruh kationlarini aniqlashdagi mikrokristalloskopik reaksiyalarini ayting.
14. Nessler reaktivining kimyoviy tarkibi
15. I guruh kationlaridan qaysilari alanga rangini bo'yaydi?
16. "Nazorat tajriba"si nima va u qanday bajariladi?

VAZIYATLI MASALALAR

1. Nima uchun ammoniy ioni ishtirokida kaliy va natriy ionlarini aniqlash mumkin emas?
2. Og'ir metallarning tuzlari ishtirokida ammoniy ionlari qanday reaksiya bilan aniqlanadi? Reaksiya tenglamasini yozing.
3. Ammoniy ionlarini bog'lash va yo'qotishning qanday usullarini bilasiz? Boradigan jarayonning reaksiya tenglamasini yozing.
4. I guruh aralashmasining analizi qanday tartibda o'tkaziladi? Reaksiya tenglamalarini yozing.

LABORATORIYA ISH № 10

II guruh kationlarining analistik reaksiyalarini va ular aralashmasining analizi

Mashg'ulotning maqsadi:

II analitik guruh kationlarining analistik reaksiyalarini bajarishni o'rganish
Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar:

0,05 mol/l simob (I), kumush, qo'rg'oshin nitrat tuzlari;
kaliy dixromat, xromat, qalay (II) xloridi, natriy yoki kaliy xloridi, bromidi, yodidi,
o'yuvchi ishqorlar - NaOH va KOH , natriy yoki kaliy karbonat, xlorid kislota,

vodorod sulfid, sulfat kislota va eruvchan sulfatlar, natriy hidrofosfat, mis plastinkasi yoki misli tanga, 30% ammoniy yoki natriy asetat eritmasi.


II ANALITIK GURUH KATIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI

II analitik guruh kationlarining guruh reaktivisi 2 mol/dm³ HCl yoki uning tuzlari bo'lib, ular Ag⁺, Hg₂²⁺, Pb²⁺ bilan suvda qiyin eriydigan xloridlarni hosil qiladi. Qo'rg'oshin xloridni eruvchanligi kumush xlorid va simob (I) xloridga nisbatan yuqori. Shuning uchun qo'rg'oshin ionining ma'lum bir qismi eritmada qolib ketadi. Kumush, simob (I) va qo'rg'oshinining nitratli tuzlari suvda yaxshi eriydi. Sulfatli birikmalarni eruvchanligi ular Ag⁺ → Hg₂²⁺ → Pb²⁺ ga qadar kamayadi. Karbonati va sulfidlari suvda yomon eriydi. Kumush va simob (I) ni oksidlari mavjud, hidroksidlari esa mavjud emas. Qo'rg'oshin hidroksidi amfoter xossaga ega. Bu hidroksid kumush va simob (I) oksidlaridan farq qilib, mo'l ishqorda eriydi.


2.1. Kumush kationining reaksiyalari

Kumush ioni suvli eritmalarida rangsiz, uning nitrati, ftoridi, perxlorati suvda yaxshi eriydi. Diqqat! Kumush eritmasi bilan ishlanganda extiyotkorlik talab etiladi, kumush tuzlari zaharli!

1. O'yuvchi ishqorlar - NaOH va KOH eritmalaridan bir necha tomchisi 2-3 tomchi AgNO₃ eritmasiga tomizilsa, qo'ng'ir rangli Ag₂O cho'kmasi hosil bo'ladi:




Cho'kma HNO₃ va ortiqcha NH₄OHda ham eriydi:




Cho'kmani ammiakda eritish vaqtida eritmaga albatta ammoniy tuzlaridan biri qo'shilishi kerak, aks holda oson portlaydigan kumush azid Ag₃N hosil bo'lishi mumkin.



2. Ammiak eritmasi kam miqdorda qo'shilganda kumush ioni bilan oldin qo'ng'ir rangli Ag₂O cho'kma hosil qiladi. Keyin bu cho'kma mo'l ammiakda kompleks hosil qilib erib ketadi:



3. Natriy yoki kaliy karbonat ta'siridan kumush ioni kumush karbonat cho'kmasini hosil qiladi:



4. Xlorid kislotaning 3-4 tomchi eritmasi 3-4 tomchi AgNO₃ eritmasiga qo'shilsa, oq rangli AgCl cho'kmasi hosil bo'ladi:




AgCl cho'kmasining suyultirilgan kislotalarda erimasligini biz yuqorida ko'rsatib o'tgan edik. Cho'kmaga 5-6 tomchi NH₃ eritmasi qo'shilganda, cho'kma kompleks hosil qilib erib ketadi. Olingan eritmaga HNO₃ ta'sir ettirilganda kompleks parchalanib, yana AgCl cho'kmasi hosil bo'ladi.

5. Vodorod sulfidning 3-5 томчи еритмаси 2-3 томчи AgNO_3 еритмасига арасиширилганды, кора rangli Ag_2S cho'kma тушады:




Cho'kma HC_1 va H_2SO_4 да еримайды, 2 N HNO_3 да esa ерийди.

4. Kaliy xromat 2-3 томчи AgNO_3 еритмасига шунча миқдorda томизилса, qizil rangli Ag_2CrO_4 cho'kma hosil bo'ladi:



Cho'kma CH_3COOH да еримайды, NH_4OH va HNO_3 да ерийди.


7. Kaliy yodidning 3-4 томчи еритмаси 2-3 томчи AgNO_3 еритмасига qo'shilca, sarg'ish cho'kma hosil bo'ladi:



Cho'kma NH_4OH да еримайды, $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ да yaxshi ерийди. Xuddi shunday reaksiya bromidlar ta'sirida ham kuzatiladi.

8. Kumush ionini metalgacha qaytarishda turli qaytaruvchilardan foydalaniлади.

1. Formaldegid yoki boshqa aldegid ta'sirida qaytarish uchun xromli aralashma yordamida yog'lardan tozalangan probirkaga 4-5 томчи kumush tuzi еритмаси solinib, unga 10-12 томчи suv qo'shib suyultiriladi. So'ngra eritmaga 8-10 томчи 2 N ammiak еритмаси va 5-7 томчи formalin еритмаси qo'shiladi. Issiq suv hammomiga tushirganda probirkaning ichki devonda kumush ko'zgu hosil bo'lishini ko'ramiz:





2.2. Simob (I) kationining reaksiyalari

Diqqat! Simob еритмаси билан ishlaganda extiyotkorlik talab etiladi, chunki simob tuzlari zaharli!

Simob (I) tuzlari suv bilan ta'sirlashib gidrolizlanadi, shundan uning eritmalarini tayyorlashda ularga tegishli kislotalar qo'shiladi. Analitik kimyoda asosan $\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2$ ishlatiladi, uning еритмасига 1:1 HNO_3 еритмаси qo'shiladi.


1. O'yuvchi ishqorlar — NaOH va KOH ертмаларидан bir necha tomchisi 2-3 томчи $\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2$ еритмасига томизилса, кора rangli Hg_2O cho'kma hosil bo'ladi:




2. Ammiak еритмаси simob (I) ioni bilan qora rangli cho'kma hosil qiladi:



3. Natriy yoki kaliy karbonat ta'siridan simob (I) ioni karbonat cho'kma hosil qiladi. Simob (I) karbonat tezda parchalanadi:



4. Xlorid kislotaning 3-4 tomchi eritmasi 3-4 tomchi $\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2$ eritmasiga qo'shilsa, oq rangli Hg_2Cl_2 cho'kma hosil bo'ladi:




5. Vodorod sulfidning 3-5 tomchi eritmasi 2-3 tomchi $\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2$ eritmasiga aralashtirilganda, qora rangli Hg_2S cho'kma tushadi:




2.3. Qo'rg'oshin kationining reaksiyalari

Qo'rg'oshinning nitrat, atsetat, xlorat va perxloratlari suvda eruvchan bo`lib, ular suvli eritmalarida rangsiz.


1. O'yuvchi ishqorlar va ammiak eritmasi ta'siridan qo'rg'oshin (II) ioni kuchli kislotalar va mo'l ishqorda eriydigan oq rangli cho'kma hosil qiladi:




$\text{Pb}(\text{OH})_2$ cho'kma amfoter. Ishqorlarda eriganda plyumbitlar hosil bo'ladi:




2. Kaliy yodid eritmasi $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$ ning 3-4 tomchi eritmasiga 4-5 tomchi qo'shilsa, PbJ_2 ning sariq cho'kmasi hosil bo'ladi:



Probirkadagi hosil bo'lgan cho'kma ustidagi eritmaga 8-10 tomchi distillangan suv va sirka kislota quyib qizdirilsa, cho'kma erib ketadi. Probirkada sovuq suvgaga tushirilsa, yaltiroq oltinsimon-sariq kristallar cho'kadi. Cho'kmaga bir necha tomchi KJ tomizilsa, uning erishi kuzatiladi:




3. Kaliy xromat- K_2CrO_4 Pb^{2+} ioni bilan sariq rangli PbCrO_4 cho'kma hosil qiladi:



Cho'kma ishqorlar va HNO_3 , da eriydi, CH_3COOH da esa erimaydi.

4. Xlorid kislota eritmasidan 4-5 tomchisi $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$ ning 3-4 tomchi eritmasiga qo'shilsa, oq rangli PbCl_2 cho'kma tushadi:



Cho'kma qaynoq distillangan suvda eriydi, eritma sovitilganda esa yana cho'kadi.

5.Qo'rg'oshin kationining sulfid ioni bilan reaksiyasi. Qo'rg'oshin kationi sulfid ioni bilan qora cho'kma hosil qiladi. $\text{Pb}^{2+} + \text{S}^{2-} \rightarrow \text{PbS}$

Cho'kma nitrat kislotasida eriydi. Reaksiyani bajarish usuli.

Probirkaga 2-3 tomchi qo'rg'oshin nitrat eritmasidan solib, ustiga 2-3 tomchi Na_2S yoki H_2S eritmasidan tomizing. Qora cho'kma hosil bo'ladi.

8- jadval


II guruh kationlarining analitik reaksiyalari

Reagentlar	Kationlar		
	Ag^+	Hg_2^{2+}	Pb^{2+}
1	2	3	4
HCl yoki xloridlar	AgCl oqcho'kma, mo'lNH ₃ · H ₂ Odaeriydi	Hg ₂ Cl ₂ oq cho'kma	PbCl ₂ oq cho'kma, issiq suvda eriydi
H ₂ SO ₄ yoki sulfatlar	Ag ₂ SO ₄ oq cho'kma	Hg ₂ SO ₄ oq cho'kma	PbSO ₄ oq cho'kma, mo'l ishqorda eriydi
NaOH	Ag ₂ O Qo'ng'ir cho'kma	Hg ₂ O qora cho'kma	Pb(OH) ₂ oq cho'kma, reaktivning ortiqchasida eriydi
NH ₃ , suvli eritmasi	Ag ₂ O, qo'ng'ir cho'kma, reaktivning ortiqchasida eriydi	Hg ⁰ +HgNH ₂ Cl qora cho'kma	Pb(OH) ₂ , oq cho'kma
KI	AgI, sariqcho'kma	Hg ₂ I ₂ Sariq-yashil cho'kma, parchalanadi: Hg HgI ₂ Qora qizil cho'kma cho'kma	PbI ₂ , Sariq tilla rangli cho'kma
K ₂ Cr ₂ O ₇ +CH ₃ COOH	Ag ₂ CrO ₄ qizil-g'isht rangli cho'kma, NH ₃ , H ₂ O eriydi	Hg ₂ CrO ₄ Qizil cho'kma Mo'l KJ eriydi	PbCrO ₄ Sariq cho'kma
H ₂ S yoki Na ₂ S	Ag ₂ S qora cho'kma	Hg ₂ S qora cho'kma, parchalanadi Hg HgS Qora qora cho'kma cho'kma	PbS qora cho'kma
Kuchli qaytaruvchilar	Ag qora cho'kma	Hg qora cho'kma	Pb qora cho'kma

II ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI**Ag⁺, Pb²⁺, Hg₂²⁺**

Bosqichning t/r	Analiz bosqichlari
1	2M HCl ta'sir ettirib II analitik guruh kationlarini cho'ktirish: $\text{Ag}^+ \xrightarrow{\text{HCl}} \text{AgCl} \downarrow \quad EK_{\text{AgCl}} = 1,78 \cdot 10^{-10}$ $\text{Pb}^{2+} \xrightarrow{\text{HCl}} \text{PbCl}_2 \downarrow \quad EK_{\text{PbCl}_2} = 1,6 \cdot 10^{-5}$ $\text{Hg}_2^{2+} \xrightarrow{\text{HCl}} \text{Hg}_2\text{Cl}_2 \downarrow \quad EK_{\text{Hg}_2\text{Cl}_2} = 1,3 \cdot 10^{-18}$ HCl saqlagan cho'kmani suv bilan yuvish
2	1 cho'kmani issiq suv bilan yuvib qo'rg'oshin kationlarini ajratish: $\text{PbCl}_2 \downarrow \xrightarrow{\text{H}_2\text{O}, \Delta} \text{Pb}^{2+}$
3	K ₂ CrO ₄ yoki KI eritmalarini ta'sir ettirib, 2 sentrifugatdan Pb ²⁺ kationlarini topish: $\text{Pb}^{2+} \xrightarrow{\text{K}_2\text{CrO}_4} \text{PbCrO}_4 \downarrow$ $\text{Pb}^{2+} \xrightarrow{\text{KI}} \text{PbI}_2 \downarrow$
4	1 cho'kmaga NH ₃ eritmasi ta'sir ettirib, Ag ⁺ kationlarini ajratish va Hg ₂ ²⁺ kationlarini topish: $\text{AgCl} \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} [\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+ + \text{Cl}^- \text{ (eritma)}$ $\text{Hg}_2\text{Cl}_2 \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} [\text{HgNH}_2]\text{Cl} \downarrow + \text{Hg} \downarrow$
5	4 eritmaga kons. HNO ₃ ta'sir ettirib, Ag ⁺ kationlarini topish: $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+ + \text{Cl}^- \xrightarrow{\text{kons. HNO}_3} \text{AgCl} \downarrow$

II ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ SXEMASI



NAZORAT SAVOLLAR

1. II analitik guruh kationlariga qanday elementlar kiradi?
2. II analitik guruh kationlariga umumiy tavsif bering.
3. Analitik reaksiya sezgirligi va uning to‘rtta o‘zaro bog‘langan o‘lchamlari.
4. Qo‘rg‘oshin ionini analitik reaksiyalarini yozing va tenglang. «Oltin yomg‘ir» reaksiyasini deb nimaga aytildi?
5. Qaysi kationning xlоридли тузи ишик сувда яхши ериди?

6. II guruh kationlaridan qaysilari kompleks birikmalar hosil qiladi? Formulalarini yozing.

7. Kumush xlorid cho'kmasing ammiakda erish tenglamasini yozing.
8. Simob (I) xloridning ammiak bilan reaksiyasini yozing.

VAZIYATLI MASALAR

1. II guruh kationlarining qaysi biri guruh reagenti bilan to'liq cho'kmaga tushmaydi va nima uchun?

2. Konsentrik ammiakda kumush xlorid, bromid, yodid cho'kmalarining qaysilari eriydi? Reaksiya tenglamalarini yozing.

3. Xloridlar xossasidan foydalanib, II guruh kationlari qanday ketma-ketlikda ochiladi?

LABORATORIYA ISH № 11

III guruh kationlarining analitik reaksiyalari

Mashg'ulotning maqsadi:

III analitik guruh kationlarining analitik reaksiyalarini bajarishni o'rganish
Laboratoriya ishi ucun kerakli

1. Reaktivlar:

Bariy, stronsiy va kalsiy nitrat tuzlari;

Ammoniy oksalat, kaliy dixromat, xromat, ammoniy karbonat, geksatsianoferrit (II), sulfat kislota, «gipsli suv» (kalsiy sulfatning to'yingan eritmasi);

2. Quruq tuzlar: bariy, stronsiy, kalsiy xloridi yoki nitratlari

III ANALITIK GURUH KATIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI



Diqqat! Suvda eriydigan bariy, stronsiy tuzlari zaharli va extiyotlikni talab qiladi.

III analitik guruh kationlarining guruh reaktivi 1mol/dm^3 sulfat kislota yoki uning suvda eruvchan sulfatlari Ca^{2+} , Sr^{2-} , Ba^{2+} kationlari bilan suyultirilgan kislota va ishqorlarda erimaydigan, suvda kam eriydigan oq cho'kmani hosil qiladi. Sulfatlarning eruvchanligi $\text{BaSO}_4 \rightarrow \text{SrSO}_4 \rightarrow \text{CaSO}_4$ gacha ortib boradi. Shuning uchun kalsiy sulfati to'liq cho'kmaga tushmaydi, u qisman eritmada qoladi. Kalsiy sulfatni to'liq cho'kmaga cho'ktirish uchun suvli eritmaga etanol qo'shiladi, bunda kalsiy sulfatni eruvchanligi kamayadi. Kalsiy, stronsiy, bariy xloridlari va nitratlari suvda eriydi. Fosfatlari suvda kam, mineral kislotalarda esa yaxshi eriydi. III guruh kationlarining karbonatlari sirka kislotasida oson eriydi va II-III analitik guruh kationlarining sistematik analizida shu xossaladan foydalaniлади.

3.1.Kalsiy Ca^{2+} kationing xususiy reaksiyalari

Kalsiy kationini topish reaksiyalariga doir tajribalar CaCl_2 yoki $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ eritmalari bilan bajariladi

1.Ammoniy oksalat $(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$ Ca^{2+} kationi bilan oq kristall cho'kma hosil qiladi;



Probirkaga 3 tomchi CaCl_2 eritmasi solinadi, 1 tomchi sirka kislota eritmasi qo'shiladi, so'ngra 3 tomchi ammoniy oksalat va 1-2 tomchi ammiak eritmasi qo'shiladi. Kalsiy oksalatning oq kristall cho'kmasi hosil bo'ladi.

Bu reaksiyani olib borish sharoiti:


-cho`ktirishni avval $\text{pH}=5-6$ da olib borib, so'ngra oxirida $\text{pH}=7-8$ da olib borilsa yaxshi natija beradi;

-isitish cho'kma tushishiga yordam beradi, shu sababli eritma qaynash haroratigacha isitiladi;

- Ba^{2+} va Sr^{2+} kationlari reaksiyaning bajarilishiga halaqt beradi, chunki ular ham oz eruvchan oksalat cho'kmalari hosil qiladi.


Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Ca^{2+} , Sr^{2+} , Ba^{2+} kationlari oksalatlarining sirka kislotada eruvchanligi turlichadir. Kalsiy oksalat sirka kislotada erimaydi, bary oksalat sirka kislotada stronsiy oksalatga nisbatan birmuncha ko'p darajada eriydi.

2. Ammoniy karbonat bilan ochish.



Probirkaga 2-3 tomchi CaCl_2 eritmasidan solib, ustiga 3-4 tomchi $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ eritmasidan qo'shiladi. Oq cho'kma hosil bo'ladi.

3. Kaliy geksamianoferrat (II) $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ Ca^{2+} tuzlari eritmalariga ammiakli buffer aralashma ishtirokida ta'sir qilib, oq kristall cho'kma hosil qiladi:



Probirkadagi 1-2 tomchi kalsiy tuzi eritmasiga 1 tomchidan ammoniy gidroksid va ammoniy xlorid eritmalaridan qo'shiladi, eritma isitiladi va 3-4 tomchi $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ning to'yingan eritmasi qo'shiladi, oq cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi.

4. Sulfat kislota bilan mikrokristalloskopik reaksiyasi

Kalsiy kationining konsentrik eritmasi sulfat kislota bilan xarakterli kristall gips $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ni hosil qiladi:



Reaksiyani bajarish uslubi:


Buyum oynachasiga 1 tomchi kalsiy tuzi eritmasidan tomizib, ustiga 1 tomchi sulfat kislota eritmasi qo'shiladi. So'ngra suv hammomida kristall cho'kmalar hosil bo'lguncha bug'latiladi. Yulduz shaklidagi ninasimon kristallarni mikroskopda ko'rildi va shakli laboratoriya daftariga chiziladi. $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ kristallari to'yingan ammoniy sulfat eritmasida eriydi. Bu reaksiyadan Ca^{2+} ni Sr^{2+} va Ba^{2+} kationlaridan ajratishda foydalilanildi.

4. Alangani bo'yash reaksiyasi. Platina yoki nixrom simdag'i kalsiy tuzlari gazning rangsiz alangasiga kiritilsa alanga qizil-g'isht rangga kiradi, bunday rang kalsiy kationiga xosdir.

3.2.Stronsiy Sr^{2+} kationining xususiy reaksiyalari

Reaksiyalarni bajarishlarida stronsiyning eruvchi tuzlari stronsiy xlorid va nitratlardan foydalilanildi.

1. Sulfat kislota va eruvchan sulfatlar. Sr^{2+} kationi bilan SrSO_4 ning oq cho'kmasini hosil qiladi:



Probirkaga 4 tomchi stronsiy xlorid yoki nitrat eritmasi solinib, ustiga bir necha tomchi ammoniy sulfat eritmasi qo'shiladi, oq cho'kmaning hosil bo'lishi kuzatiladi.


Reaksiyani borish sharoiti:

-Cho'ktirishni ammoniy sulfatning to'yingan eritmasi bilan olib borish kerak.

-Eritmada Ca^{2+} ning bo'lishi stronsiy kationini ochishga halaqit bermaydi.


-Cho'kma birdaniga hosil bo'lmasligi mumkin, shu sababli reaksiyon aralashmani 5-6 soatgacha qoldirib, keyin xulosa chiqarish mumkin.

2. Ammoniy oksalat $(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$ Sr^{2+} tuzlariga ta'sir ettirilganda oq cho'kma hosil bo'ladi:



Probirkadagi 1-2 tomchi stronsiy tuzi eritmasiga ammoniy oksalat tuzi eritmasidan shuncha tomchi qo'shiladi. Oq SrC_2O_4 chokmasining tushishi kuzatiladi.

3.Gipsli suv bilan reaksiyasi Stronsiy tuzi eritmasiga suyultirilgan sulfat kislota yoki eruvchan sulfatlar ta'sir ettirilsa, oq cho'kma, stronsiy sulfat hosil bo'ladi:



Stronsiy tuzi eritmasiga gipsli suv (kalsiy sulfatning to'yingan eritmasi) qo'shilsa va isitilsa, shu zaxoti, past temperaturada esa biroz vaqtadan so'ng cho'kma hosil bo'ladi. Bariy kationi bu reaksiyani ochish uchun xalaqit beradi.




Reaksiyani bajarish uslubi: Probirkaga 4 tomchi stronsiy tuzlari eritmasiga 5-6 tomchi «gispli suv» qo'shiladi. 10-15 min suv hammomida isitiladi. Oq mayda kristall cho'kma hosil bo'ladi.

4.Alangani bo'yash reaksiyasi. Gazning rangsiz alangasini stronsiy tuzlari och qizil rangga kiritadi.

3.3.Bariy Ba^{2+} kationlarining xususiy reaksiyalari

Ba^{2+} ioni reaksiyalarini o'rghanishda bariy xlorid BaCl_2 yoki bariy nitrat $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$ eritmalari qo'llaniladi.

1.Kaliy xromat K_2CrO_4 yoki kaliy dixromat $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ Ba^{2+} kationlari bilan sariq kristall cho'kma hosil qiladi:




Probirkaga 3 tomchi bariy xlorid yoki bariy nitrat eritmasidan solib, ustiga kaliy xromat K_2CrO_4 yoki kaliy dixromat $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ eritmasidan 3 tomchi qo'shiladi va suv hammomida isitiladi. Bunda bariy xromat BaCrO_4 ning sariq kristall cho'kmasi hosil bo'ladi.


2.Sulfat kislota va eruvchan sulfatlar.

Bariy kationi bilan oq kristall cho'kma hosil qiladi. Cho'kma kislotalarda erimaydi.

Reaksiya tenglamasini yozing:




3.Ammoniy oksalat $(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4\text{Ba}^{2+}$ tuzlariga ta'sir ettirilganda oq cho'kma hosil bo'ladi:



Probirkadagi 1-2 tomchi bariy tuzi eritmasiga ammoniy oksalat tuzi eritmasidan shuncha tomchi qo'shiladi. Oq BaC_2O_4 cho'kmasi CaC_2O_4 dan farqli sirka kislotada eriydi.

4.Ammoniy karbonat bilan ochish.



Probirkaga 2-3 tomchi BaCl_2 tuzi eritmasidan solinadi va uning ustiga 3-4 tomchi $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ eritmasidan qo'shiladi. Oq kristall cho'kma hosil bo'ladi.

5.Alangani bo'yash reaksiyasi. Bariyning uchuvchan tuzlari (BaCl_2 , $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$)gazning rangsiz alangasiga kiritilsa, alanga sarg'ish yashil tusga kiradi.

III guruh kationlarining reaksiyalari

10-jadval


Reagentlar	Kationlar		
	Ca^{2+}	Sr^{2+}	Ba^{2+}
1	2	3	4
H_2SO_4 yoki sulfatlar	CaSO_4 oq cho'kma	Sr SO_4 oq cho'kma	BaSO_4 oq cho'kma
Suyultirilgan mineral kislotalarda erimaydi			
$(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ to'yingan eritmasi	$[\text{Ca}(\text{SO}_4)_2]^{2-}$ rangsiz eritma	SrSO_4 oq cho'kma	BaSO_4 oq cho'kma
Na_2CO_3 , K_2CO_3 yoki $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$	CaCO_3 oq cho'kma	SrCO_3 oq cho'kma	BaCO_3 oq cho'kma
Eritmaning etarli konsentratsiyasidan cho'kma hosil bo'ladi			
NaOH yoki KOH	$\text{Ca}(\text{OH})_2$ oq cho'kma	$\text{Sr}(\text{OH})_2$ oq cho'kma	$\text{Ba}(\text{OH})_2$ oq cho'kma
	Eritmaning etarli konsentratsiyasidan cho'kma hosil bo'ladi		
$\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7+$ CH_3COOH	-	-	BaCrO_4 sariq cho'kma
$(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$	CaC_2O_4 oq cho'kma, CH_3COOH da erimaydi	SrC_2O_4 oq cho'kma, CH_3COOH da qisman eriydi	BaC_2O_4 oq cho'kma, CH_3COOH da isitganda eriydi
$\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]^+$ NH_4Cl	$\text{Ca}(\text{NH}_4)_2[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ oq cho'kma	-	-
"Gipsli suv" ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ to'yingan eritmasi)	-	SrSO_4 oq cho'kma	BaSO_4 oq cho'kma
Alanga rangini bo'yalishi	g'ishtsimon-qizil	qirmizi-qizil	sarg'ish-yashil

III ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI

Bosqic hning t/r		Ba²⁺, Sr²⁺, Ca²⁺
		Analiz bosqichlari
1		C ₆ H ₅ OH ishtirokida qizdirib 1,0 M H ₂ SO ₄ ta'sir ettirib III analitik guruh kationlarini cho'ktirish: $\text{Ba}^{2+} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4, \Delta} \text{BaSO}_4 \downarrow \quad EK_{\text{BaSO}_4} = 1,1 \cdot 10^{-10}$ $\text{Sr}^{2+} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4, \Delta} \text{SrSO}_4 \downarrow \quad EK_{\text{SrSO}_4} = 3,2 \cdot 10^{-7}$ $\text{Ca}^{2+} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4, \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}, \Delta} \text{CaSO}_4 \downarrow \quad EK_{\text{CaSO}_4} = 2,5 \cdot 10^{-5}$
2		III guruh analitik kationlari sulfatlarining cho'kmalariga qaynatib Na ₂ CO ₃ to'yigan eritmasi ta'sir ettirib, qayta cho'ktirish: $\text{BaSO}_4 \downarrow \xrightarrow{\text{Na}_2\text{CO}_3, \Delta} \text{BaCO}_3 \downarrow \quad EK_{\text{BaCO}_3} = 4,0 \cdot 10^{-10}$ $\text{SrSO}_4 \downarrow \xrightarrow{\text{Na}_2\text{CO}_3, \Delta} \text{SrCO}_3 \downarrow \quad EK_{\text{SrCO}_3} = 1,1 \cdot 10^{-10}$ $\text{CaSO}_4 \downarrow \xrightarrow{\text{Na}_2\text{CO}_3, \Delta} \text{CaCO}_3 \downarrow \quad EK_{\text{CaCO}_3} = 3,8 \cdot 10^{-9}$
3		2 cho'kmani CH ₃ COOH eritmasi ta'sir ettirib eritish: $\text{BaCO}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{CH}_3\text{COOH}} \text{Ba}^{2+}$ $\text{SrCO}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{CH}_3\text{COOH}} \text{Sr}^{2+}$ $\text{CaCO}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{CH}_3\text{COOH}} \text{Ca}^{2+}$
4		3 eritmaning alohida ulushiga K ₂ CrO ₄ eritmasi ta'sir ettirib Ba ²⁺ kationlarini topish: $\text{Ba}^{2+} \xrightarrow{\text{K}_2\text{CrO}_4} \text{BaCrO}_4 \downarrow$ Agar Ba ²⁺ ishtiroki tasdiqlangan bo'lsa, unda u 3 eritmadan K ₂ CrO ₄ eritmasi ta'sir ettirib ajratish.
5		4 sentrafugatning alohida ulushiga kalsiy sulfatning to'yigan eritmasi (gipsli suv) ta'sir ettirib Sr ²⁺ kationlarini topish: $\text{Sr}^{2+} \xrightarrow{\text{CaSO}_4 \text{ to'yigan eritmasi}} \text{SrSO}_4 \downarrow$
6		(NH ₄) ₂ SO ₄ ning konsentrangan eritmasining ta'sir ettirib 4 sentrifugatdan Sr ²⁺ kationlarini ajratish: $\text{Sr}^{2+} \xrightarrow{\text{kons. (NH}_4)_2\text{SO}_4} \text{SrSO}_4 \downarrow$ $\text{Ca}^{2+} \xrightarrow{\text{kons. (NH}_4)_2\text{SO}_4} [\text{Ca}(\text{SO}_4)_2]^{2-}$
7		6 sentrifugatga (NH ₄) ₂ C ₂ O ₄ eritmasi ta'sir ettirib Ca ²⁺ kationlarini topish: $\text{Ca}^{2+} \xrightarrow{(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4, \text{CH}_3\text{COOH}} \text{CaC}_2\text{O}_4 \downarrow$

4-SXEMA

III ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ SXEMASI



NAZORAT SAVOLLAR

1. III analitik guruh kationlariga qanday elementlar kiradi? Ular davriy sistemada qaysi guruhga joylashgan?
2. III analitik guruh kationlariga umumiy tavsif bering.
3. Analitik reaksiya sezgirligini to'rtta bog'lovchi o'lchami?
4. Kaliy dixromatning suvli eritmasida qanday ionlar muvozanat xolatda bo'ladi?
5. Keng qo'llaniladigan III analitik guruh kationlarini aytib bering.
6. Bariy ionining xromat ioni bilan aniqlash reaksiya tenglamalarini yozing. Nima uchun reaksiyani bajarishda natriy atsetat qo'shiladi?
7. Kalsiy sulfatning ammoniy sulfatida erish reaksiyalarini yozing va hosil bo'lgan cho'kmalarning xossalarini ko'rsating.
8. II analitik guruh kationining uchuvchan quruq tuzlari alanga rangini qanday rangga bo'yaydi?
9. Nima uchun qo'rgoshin kationi bir vaqtning o'zida II va III analitik guruhga kiradi?
10. Kalsiy ionini aniqlash reaksiyalarini yozing va hosil bo'lgan cho'kmalarning xossalarini ko'rsating.

VAZIYATLI MASALALAR

1. III guruh kationlarining qaysilari guruh reaktivni bilan to'liq cho'kmaga tushmaydi va qisman eritmada qoladi?
2. Xromatlar va sulfatlar xossasidan foydalanib, III guruh kationlari qanday ketma-ketlikda ochiladi?

LABORATORIYA ISH № 11

IV guruh kationlarining analitik reaksiyalarini

Maqsad:

IV analitik guruh kationlari reaksiyalarini bajarish amaliy ko'nikmalarini hosil qilish va ularni amalda qo'llay bilish.

Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar

1. Tuz eritmalaridan:

alyuminiy (III), xrom (III), rux (II) nitratlari birikmalari, qalay (II) xlorid qalay (IV) xlorid, kobalt nitrat, o'yuvchi ishqorlar, ammiak - NH_4OH , natriy, kaliy karbonat tuzlari, natriy atsetat, natriy gidrofosfat, vodorod sulfid, kaliy geksatsianoferrat (III), simob (II) xlorid, rux metali, kumush nitrat, yod eritmasi, kaliy yodid, ammoniy molibdatning nitrat kislotadagi eritmasi (molibdenli suyuqlik), magniy yoki rux metali, ammoniy sulfidi, natriy hidrokarbonati, sariq qon tuzi eritmasi; magnezial aralashma; 6% li vodorod peroksid eritmasi;

2. Sulfat kislota 1:4

3. Organik reaktivlar va erituvchilar:

50%li etil spirtdagi alizarinning to‘yingan eritmasi; pikrin kislota; 8-oksixinoIn – C₉H₆N(OH) ; 0,1% li ditizonni xloroformdagi yoki to‘rt xlor uglevodoroddagi eritmasi; amil spirti; dietil oddiy efiri

4. Natriy gidrokarbonatning kristali

IV ANALITIK GURUH KATIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI

(Al³⁺, Cr³⁺, Zn²⁺, Sn²⁺, Sn⁴⁺, As³⁺, As⁵⁺)

Guruh reagenti - 2 mol/dm³ NaOH eritmasidan ortiqcha olinib H₂O₂ ishtirokida olib boriladi.

IV guruh kationlariga umumiyy tasnif. Bu guruh kationlarining nitratlari, xloridlari, sulfatlari suvda eriydi. IV guruh kationlari Cr³⁺ dan tashqari rangsiz eritma, Cr³⁺ - ko‘k binafsha ranglidir.

IV guruh kationlarining fosfatlari va karbonatlari suvda kam eriydi. Bu guruh kationlari kuchli ishqoriy sharoitda gidroksokomplekslarni hosil qiladi: [Al(OH)₄]⁻, [Al(OH)₆]³⁻, [Cr(OH)₆]³⁻, [Zn(OH)₄]²⁻.

Al³⁺, Cr³⁺ gidroksidlari ammiak eritmasida erimaydi, rux esa [Zn(NH₃)₄]²⁺ kompleks ionni hosil qiladi.

Guruh reagentining ta’siri.

Guruh reagenti NaOH, H₂O₂ ishtirokida Al³⁺, Zn²⁺ ionlari gidroksokomplekslar, xrom (III) esa oksidldanib CrO₄²⁻ ionlarini hosil qiladi:





Reaksiyani bajarish

3 ta probirka olib, birinchisiga bir nechta tomchi alyuminiy , ikkinchi probirkaga rux, uchinchisiga xrom (III) tuzi eritmasidan soling. Hamma probirkaga natriy gidroksididan qo‘sib, oq amorf Al(OH)₃, Zn(OH)₂, Cr(OH)₃– ko‘k –binafsha rangli cho‘kma hosil bo‘lishini kuzating. Ortiqcha ishqor eritmasidan qo‘shish bilan ular erib ketadi. NaCrO₂ ustiga bir necha tomchi H₂O₂ qo‘sib, suv hammomida isitiladi. 5-7 min keyin sariq rangli CrO₄²⁻ ni hosil qiladi.


Shu bilan birga alyuminiy, rux va xrom (III) tuzlari eritmasiga ammiak eritmasining ta’siri ham o‘rganiladi.

4.1.Alyuminiy kationining reaksiyalari

1.O‘yuvchi ishqorlar alyuminiy ioni bilan ta’sirlashganda avval oq rangli Al(OH)₃ cho’kmasi hosil bo‘lib, ishqor eritmasidan ko‘proq qo’silsa, alyuminiy va alyuminiy gidroksidning amfoterligi tufayli cho‘kma erib ketadi:




Al(OH)₃ ni to‘la cho‘ktirishda eritmaning pH qiymati 5 atrofida bo‘lishi kerak. Alyuminiy va Al(OH)₃ cho’kmasining amfoterligini tekshirish uchun ko‘proq ishqor qo‘sib, hosil bo‘lgan eritmaga tomchilatib suyultirilgan xlorid kislota eritmasi qo’silsa, avval Al(OH)₃ cho’kmasi hosil bo‘ladi, so’ngra ko‘proq kislota qo’silsa, u erib ketadi:



Reaksiyani bajarish uchun 4-5 tomchi alyuminiy tuzi eritmasiga 1 tomchi 2 N NaOH eritmasini tomizing. Hosil bo'lgan loyqa eritmaning bir qismini olib, unga xlorid kislota eritmasidan bir necha tomchi tomizib, loyqaning erib ketishini kuzating. Loyqa eritmaning ikkinchi qismiga ham bir necha tomchi ishqor eritmasidan tomizib ko'ring. Bunda ham loyqa erib ketadi.

2. Ammiak - NH_4OH ta'siridan alyuminiy ammoniy tuzlarida erimaydigan $\text{Al}(\text{OH})_3$ cho'kmasi hosil qiladi:



3. **Ammoniy sulfid** - $(\text{NH}_4)_2\text{S}$ gidrolizlanib, NH_4HS va NH_4OH hosil qiladi. Gidroliz reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan NH_4OH alyuminiyini gidroksid shaklida cho'ktiradi:



4. **Natriy, kaliy karbonat tuzlari** suvli eritmalarda ishqorli gidrolizlangani uchun alyuminiy ioniga ta'sir ettirilganda alyuminiy gidroksid hosil bo'ladi.

5. Natriy atsetat - CH_3COONa alyuminiy tuzlari eritmalari bilan oq rangli pag'asimon (bodroqsimon) cho'kma hosil qiladi:



Hosil bo'lgan oksiatsetat sirkva mineral kislotalarda eriydi. Reaksiya ancha suyultirilgan eritmalarda yuqori haroratda tez boradi.


6. **Natriy hidrofosphat** - Na_2HPO_4 alyuminiy ioniga ta'sir etganda oq rangli AlPO_4 cho'kma hosil bo'ladi:



Ma'lum bo'lischicha, hidrofosphat eritmasida amalda fosfatli buffer aralashma ($\text{Na}_2\text{HPO}_4 + \text{NaH}_2\text{PO}_4$) hosil bo'lib, uning pH qiymati 6,6 atrofida bo'ladi. Fosfat tuzi quyidagi reaksiya natijasida hosil bo'ladi:



7. **Alizarin (dioksiantraxinon)** – $\text{C}_{14}\text{ H}_6\text{ O}_2$ alyuminiy tuzi va ammiak eritmasi bilan qaynatilganda, to'q sariq-qizil rangli ichki kompleks birikma - «alyuminiyli alizarin loki»ni hosil qiladi:




Alyuminiyli lok sirkva kislotada erimaydi. Eritma sovigach, cho'kmaga biroz sirkva kislotasi qo'shilsa, rang intensivligining pasayishini kuzatish mumkin.

Reaksiyani bajarish. Probirkaga 2 tomchi alyuminiy tuzi eritmasi va 3 tomchi ammiak eritmasi tomizib hosil qilingan $\text{Al}(\text{OH})_3$ cho'kmasiga yangi tayyorlangan alizarin eritmasidan ham bir necha tomchi tomiziladi. Aralashma qaynatilganda cho'kma hosil bo'ladi. Yaxshi natijaga erishish uchun reaksiyani tomchi usulida bajarish maqsadga muvofiq. Masalan, tekshiriladigan eritmaning bir tomchisi filtr qog'oziga tomiziladi va chinni kosacha ustida ammiak bug'lari bilan ishlanadi. Natijada filtr qog'ozida hosil bo'lgan $\text{Al}(\text{OH})_3$ dog'i alizarinning spirtdagi eritmasi bilan ho'llanib, yana ammiak bug'lari bilan ishlansa, qizg'ish alyuminiyli lok hosil bo'lganini ko'ramiz. Agar filtr qog'ozini quritilsa, rang yanada sezilarli ko'rindan.


kirishib, rangli alizarin loklarini hosil qiladi. Bu ionlarni cho'ktirib ajratish uchun filtr qog'oziga avval $K_4[Fe(CN)_6]$ eritmasi bilan ho'llanadi va asta quritiladi. So'ngra filtr qog'oziga aralashmadan bir necha tomchi tomizilsa, ferrosianid ta'siridan cho'kadigan uchinchi guruh kationlari nam dog'ning markazida qoladi. Alyuminiy ioni esa diffuziya tufayli dog'ning chetiga suriladi. Agar dog'ning chetlari alizarinning spirtli eritmasi bilan ishlansa, sariq-qizil rangli alyuminiyli alizarin lokining hosil bo'lganini ko'ramiz.

8. 8-oksixinoIn – $C_9H_6N(OH)$ pH=5 bo'lganda (atsetatli bufer aralashma ishtirokida) yashil-sariq alyuminiy oksixinolyat kristallari hosil qiladi:



9.Kobalt (II) nitrati bilan reaksiyasi.

Kobalt nitratni alyuminiy tuzlari bilan kuydirilishi natijasida «Tenar ko'ki» deb ataluvchi ko'k rangli kobalt alyuminatni hosil qiladi:




Reaksiyani bajarish


Filtr qog'oziga tartib bilan 1-2 tomchidan alyuminiy va kobalt nitrati tuzlari eritmasidan tomiziladi. Qog'oz quritiladi va yondiriladi. $Co(AlO_2)_2$ ning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan kulning rangiga e'tibor bering.

4.2.Xrom (III) kationining reaksiyalari


1. O'yuvchi ishqorlarxrom (III) tuzlari bilan kulrang-binafsha yoki kulrang-yashil rangli $Cr(OH)_3$ cho'kmani hosil qiladi:



Ishqor mo'l qo'shilganda cho'kma erib ketadi va och yashil rangli xromit eritmasi hosil bo'ladi:




Aluminatlardan farqli ravishda xromitlar qaynatilganda parchalanib, yana $Cr(OH)_3$ cho'kmani hosil qiladi:



2. Ammiak eritmasi xrom (III) ioni bilan $Cr(OH)_3$ cho'kmasini hosil qiladi. To'la cho'kish pH~6 bo'lganda amalga oshadi. Ammiakli bufer aralashma muhitida ham to'la cho'kishga erishiladi.


3.Xrom (III) ionini oksidlash natijasida xrom (VI) ioni hosil bo'ladi. Xrom (III) va xrom (VI) ionlarning ranglari har xil bo'lganligi sababli oksidlanish reaksiyasidan xrom (III) ionini topishda foydalanish mumkin. Xrom (III) ionini ishqoriy muhitda oksidlaganda xromatlar (sariq rangli eritma), kislotali muhitda oksidlaganda esa dixromatlar (to'q sariq rangli eritma) hosil bo'ladi.

Ishqoriy muhitda oksidlashda H_2O_2 , Na_2O_2 va bromli suv singari oksidlovchilar ishlataladi:




Reaksiyani bajarishda 2-3 tomchi xrom (III) tuzi eritmasiga 3-4 tomchi 2 N NaOH, 2-3 tomchi 3 %li H_2O_2 tomizib, eritmaning yashil rangi sariqqa o'tguncha qizdiring.

Kislotali muhitda oksidlash uchun oksidlovchi sifatida nitrat yoki sulfat kislota ishtirokida KMnO_4 , $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ yoki NaBiO_3 qo'llanadi. Bunda nitrat kislotali eritmada yashil yoki binafsha rangli eritma to'q sariq rangga kiradi:



Reaksiyani bajarish uchun 2-3 tomchi xrom (III) nitrat yoki sulfat eritmasiga 3-4 tomchi 2 N H_2SO_4 , 6-7 tomchi $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ eritmasi tomizib, qizdirganda dixromat hosil bo'ladi. Reaksiyada katalizator sifatida 1 tomchi kumush eritmasi ishlatsa, reaksiya tezlashadi. Sulfat kislotani nitrat kislota bilan almashtirish mumkin. Kislotali muhit hosil qilish maqsadida qaytaruvchilik xossalari namoyon qiladigan xlorid kislota, xrom tuzi sifatida esa xrom (III) xloridni ishlatisib bo'lmaydi.





4.Xrom (VI) ionining borligi yoki hosil bo'lganligini baholashda tekshiriladigan aralashmaga BaCl_2 eritmasi tomiziladi, bunda BaCrO_4 ning sariq cho'kmasi hosil bo'ladi:




4.3.Rux kationining reaksiyalari

Rux tuzlari rangsiz bo'lib, ularga amfoterlik, cho'kmalar va komplekslar hosil qilish reaksiyalari xosdir.

1. O'yuvchi ishqorlar va rux tuzlari ta'sirlashuvidan kislotalar va ishqorlarda eriydigan (amfoterlik tufayli) iviqsimon Zn(OH)_2 cho'kma hosil bo'ladi:




Sinkat ion alyuminat iordan farqli ravishda ammoniy xlorid yoki nitrat ta'siridan Zn(OH)_2 cho'kmasi hosil qilmasdan, eritmada $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$ yoki $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$ kompleks ion shaklida qoladi:



Reaksiyani bajarish uchun rux tuzi eritmasining 2-3 tomchisiga ishqor eritmasidan tomchilab qo'shiladi, bunda oldin cho'kma tushadi, keyin esa u erib ketadi.


2. Ammiak eritmasi rux ioni bilan Zn(OH)_2 cho'kmasini yuzaga keltiradi, cho'kma mo'l reaktiv va ammoniy tuzlari ta'sirida erib, kompleks ion $[\text{Zn}(\text{NH}_3)\text{J}]^{2+}$ hosil qiladi.




Ammoniy tuzlari ishtirokida NH_4OH rux ionini mutlaqo cho'ktirmaydi.

Reaksiyani bajarishda rux tuzining 2-3 tomchi eritmasiga tomchilatib NH_4OH eritmasi qo'shiladi, bunda avval cho'kma hosil bo'ladi, so'ngra keyinchalik u erib ketadi.

3. Natriy, kaliy yoki ammoniy karbonat bilan rux ioni ta'sirlashganda kislotalarda eriydigan oq $(\text{ZnOH})_2\text{CO}_3$ cho'kma paydo bo'ladi:




4. Ammoniy sulfid rux ioni bilan ta'sirlashganda oq rangli ZnS cho'kma hosil qiladi:



Cho'kma kuchli kislotalarda eriydi, lekin CH₃COOH va ishqorlarda erimaydi.

Reaksiyani bajarish. Rux tuzining 2-3 tomchi eritmasiga shuncha miqdorda reaktiv qo'shiladi.



5. Vodorod sulfid - H₂S rux ioni bilan ta'sirlashganda oq rangli cho'kma tushadi:



Cho'kma reaksiya natijasida hosil bo'lgan kuchli mineral kislotada qisman erigani uchun cho'ktirish to'liq bo'lmaydi. Shu bois reaksiya formiatli muhitda o'tkaziladi. Demak, pH ning shunday qiymatida rux sulfidning eruvchanligi 10⁻⁵ mol/l bo`lgani holda CoS ning eruvchanligi, 1,6 · 10⁻⁶ Shunga muvofiq NiS cho'kmasing eruvchanligini hisoblasak, u 2,76 · 10⁻³ mol/l bo'ladi. Ma'lum bo'ladiki, berilgan pH qiymatida CoS ning eruvchanligi ZnS ning eruvchanligidan 587 va NiS ning eruvchanligi 276 marta katta. Demak, bu sharoitda kobalt va nikel ionlari cho'kmaydi.

Reaksiyani bajarishda probirkaga rux tuzi eritmasidan 4-5 tomchi, formiatli bufer aralashma (HCOONa+HCOOH) eritmasidan 2-3 tomchi solinadi va eritmadan sekinsta H₂S o'tkaziladi.



6. Kaliy geksatsianoferrat (II) — K₄[Fe(CN)₆] rux ioni bilan qo'shaloq - kaliy rux geksatsianoferrat (II) ning oq cho'kmasini hosil qiladi:



Cho'kma kislotalarda erimaydi, ishqorlarda erib sinkatlar hosil qiladi. Alyuminiy va xrom ionlari bu reaksiyaga xalaqit bermaydi. Biroq reaktivdan ko'proq qo'shilsa, eruvchanligi ancha yuqori bo'lgan Zn₂[\text{Fe}(\text{CN})₆] cho'kmasi hosil bo'ladi. Shu bois, uni tomchilatib qo'shish maqsadga muvofiqdir.


Reaksiyani bajarishda rux tuzining 3-4 tomchi eritmasiga shuncha reaktiv qo'shib, aralashma qaynaguncha qizdiriladi.

7. Kaliy geksatsianoferrat (III) - K₃[Fe(CN)₆] rux ioni bilan xlorid va ammiakda eriydigan jigarrang-sariq tusli cho'kma hosil qiladi:



8. Ditizon (difeniltiokarbazon) bilan reaksiyasi.

Rux ioni ditizon bilan ichki kompleks birikmani hosil qiladi. Xloroform bilan pH 2,5-10 da ekstraksiya qilinsa, organik qatlama qizil rangli bo'ladi.




tion shakli

tiol shakli

Tiol shakli eritmalarda o'zini bir asosli kislotalar kabi tutadi:



Metall kationlari unda bitta yoki ikkita vodorodning o'rnini olishi mumkin. Bitta vodorod o'rnini almashgan ditizonatlar kislotali sharoitda, ikki vodorodini almashtirganlari esa ishqoriy sharoitda yoki reagent etishmagan xollarda hosil bo'ladi. Rux ditizonatining hosil bo'lishi tiol shaklidagi proton va ikkilamchi aminoguruhdagi azot hisobiga boradi:




Reaksiya xususiy emas, chunki xuddi shunday sharoitda Pb^{2+} , Cd^{2+} va boshqa ditizonatlar ekstraksiyalanadi.

Reaksiyani bajarish

Probirkaga 5-10 tomchi rux tuzi eritmasidan olib, ustiga 5 tomchi ditizonning xloroformdagи eritmasidan tomizing. Probirkani chayqating. Xloroform qatlami qizil rangga bo'yaladi.

Rinman ko'kini hosil bo'lish reaksiyasi.

Rux nitrat tuzi kobalt tuzi bilan qattiq fazada qizdirilganda ko'k rangli – "Rinman ko'ki" hosil bo'ladi:



Reaksiyani bajarish

5 tomchi rux nitrat eritmasiga 5 tomchi kobalt nitrat eritmasidan tomizing. Eritmani aralashtirib, 1 min qaynatiladi. Issiq eritma bilan filtr qog'ozni ho'llanib, gorelka alangasida quritiladi, so'ngra yondiriladi. Yashil rangli kulning hosil bo'lishi rux ioni borligini ko'rsatadi.


4.4. Qalay (II) kationining reaksiyalari

Qalay birikmalarda ikki va to'rt valentli bo'ladi. Qalay tuzi eritmalar rangsiz. Qalay ionlariga cho'ktirish va qaytarish reaksiyalari ko'proq xosdir.

1. O'yuvchi ishqorlar va ammiak Sn^{2+} ioni bilan ta'sirlashganda, kislotalar va ortiqcha ishqorlarda eriydigan oq rangli amfoter birikma $Sn(OH)_2$ cho'kmasini hosil qiladi: $Sn^{2+} + 2OH^- \rightarrow Sn(OH)_2 \downarrow$

2. Sn^{2+} ta'siridan qaytarish reaksiyalari asosida hosil bo'lgan mahsulotlar yordamida qalay (II) ionni topish mumkin. Ma'lumki, Sn^{4+}/Sn^{2+} juftning normal potensiali ($E_o=0,15$ B) uning kuchli qaytaruvchi ekanligidan dalolat beradi.

I. Fe^{3+} ni Fe^{2+} ga qaytarishda 2-3 tomchi $FeCl_3$ eritmasiga 2 tomchi HC_1 ishtirokida 3-4 tomchi $K_3[Fe(CN)_6]$ eritmasidan qo'shiladi. Tayyorlangan aralashmaga $SnCl_2$ eritmasidan 3-4 tomchi tomizilgan zahoti turnbul ko'kiga xos to'q ko'k cho'kma hosil bo'ladi:




4.5. Qalay (IV) kationining reaksiyalari


1. Ishqorlar va ammiak qalay (IV) ioni bilan ta'sirlashib, kislotalar va mo'l ishqorda eriydigan oq rangli ortostannat kislota ivig'ini hosil qiladi.

Reaksiyani bajarishda qalay (IV) xlorid eritmasining 1-2 tomchisiga 2-3 tomchi ishqor yoki ammiak eritmasi tomiziladi.

2. Sn⁴⁺ ni Sn²⁺ gacha qaytarish uchun Fe dan foydalanish mumkin. Mg, Al singari metallar kislota kam bo'lganda, qalay (IV) ni metali holigacha qaytarishi mumkin. Shuning uchun uni temir yordamida qaytarish qulay.



Qaytarish magniy yoki alyuminiy ta'sirida bajarilganda kulrang qalay metali hosil bo'lgan bo'lsa, cho'kmaga bir necha tomchi konsentrangan HCl ta'sir ettirib, cho'kmani eritish mumkin:




Qalay (IV) ionini qalay (II) gacha qaytarib topish qulay.

3. Sn⁴⁺ va Sn²⁺ ni SnH₄ gacha qaytarishda soat oynasiga 2-3 tomchi tekshiriladigan eritma va bir necha tomchi konsentrangan HCl tomiziladi va hosil bo'lgan aralashmaga bir parcha rux metali tashlanadi. Qisqich bilan mikrotigelni qisib, uning tubi hosil qilingan eritmaga botirilib, biroz ushlab turiladi va so'ngra darhol gorelkaning alangasiga tutilsa, alanga ko'lish rangga bo'yaladi. Bu rang SnH₄ ning yonishiga mos keladi.


4.6. Mishyak (III) kationining reaksiyalari

As³⁺ ioni eritmalarda ko'pincha AsO₂⁻ anioni shaklida uchraydi. Eritmaga kislota ta'sir ettirilsa, As³⁺ kationi hosil bo'ladi. As⁵⁺ ionini esa faqat AsO₄³⁻ hosil qiladi va uning suvli eritmasi rangsiz bo'ladi.


1. Kumush nitrat — AgNO₃ eritmasiga AsO₂⁻ tuzi eritmasi qo'shilganda sariq rangli Ag₃AsO₃ cho'kmasi hosil bo'ladi:



Cho'kmaga HNO₃ va NH₄OH ta'sir ettirilsa, [Ag(NH₃)₂]⁺ kompleks ionning eritmasi hosil bo'ladi:



2. Yod eritmasi AsO₂⁻ ionini neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda AsO₄³⁻ ionigacha oksidlaydi va yodning qo'ng'ir rangi yo'qoladi:



Reaksiyani bajarish uchun probirkaga 2-3 tomchi NaAsO₂ eritmasidan solib, unga biroz qattiq NaHCO₃ qo'shib, so'ngra yodning spirtli eritmasidan bir tomchi tomizing.

3. Vodorod sulfid — H₂S mishyak (III) ioni bilan kuchli kislotali muhitda ta'sirlashib, nitrat kislota, ammiak, ammoniy karbonat, ammoniy polisulfid, natriy sulfid va ishqorlarda eriydigan sariq rangli As₂S₃ cho'kma hosil qiladi. As₂S₃ cho'kmani to'la cho'ktirishning asosiy sharti, eritmada yetarli darajada mo'l HC1 bo'lishidir.

As₂S₃ cho'kmasi konsentrangan nitrat kislota, zar suvi singari kuchli oksidlovchilar ta'siridan kislotali muhitda oksidlanib, arsenatga aylanadi:




Ishqoriy muhitda vodorod peroksid, gipoxlorit singari oksidlovchilar ham IV guruhning polisulfidlarini oksidlaydi:




Ishqorlar va ammoniy karbonat ta'siridan barcha polisulfidlar tiotuzlar va oksituzlar hosil qiladi va cho'kmalar eriydi.

4.7. Mishyak (V) kationining reaksiyalari

1. **Kumush nitrat** — AgNO_3 eritmasi AsO_4^{3-} eritmasi bilan nitrat kislota va ammiakda eriydigan qo'ng'ir rangli Ag_3AsO_4 cho'kma hosil qiladi:




2. **Kaliy yodid KJ** eritmasiga AsO_4^{3-} eritmasi ta'sir ettirilsa, kislotali muhitda yodid yodgacha oksidlanib, eritma qo'ng'ir rangga kiradi:



Reaksiyaning sezuvchanligini oshirish uchun unga kraxmal (ko'k rang) yoki organik erituvchi (ekstraksiya) qo'shish mumkin. Mazkur reaksiya yuqoridaq reaksiyaning teskarisi bo'lganligidan uning o'ngga siljishini ta'minlash maqsadida eritmaga ko'proq miqdor kislota qo'shish kerak bo'ladi.

3. **Vodorod sulfid** ta'siridan kuchli kislotali muhitda mishyak (V) ion nitrat kislota, ammoniy polisulfid, natriy sulfid va ishqorlarda eriydigan As_2S_5 cho'kmasi hosil qiladi. Konsentrangan nitrat kislota ta'sirida cho'kma erib arsenat anionini hosil qiladi:



4. **Ammiak va ammoniy xlorid ishtirokida** Mg tuzlari bilan AsO_4^{3-} -kislotalarda eriydigan va 2,5 % li amalda ammiak eritmasida erimaydigan oq kristall cho'kma hosil qiladi:



Reaksiyani bajarishda 2-3 tomchi arsenat eritmasiga 3-4 tomchi ammiak, ammoniy xlorid va magniy tuzi aralashmasi qo'shib, biroz qizdiriladi.

Mazkur reaksiya mikrokristalloskopik reaksiya tarzida ham o'tkazilishi mumkin. Buning uchun mikroskopning kuzatish oynasiga bir tomchi tekshiriladigan arsenat eritmasi va ammiak, ammoniy xlorid hamda magniy tuzi aralashmasining bir tomchisi qo'shiladi. Hosil bo'lgan kristallar ($\text{MgNH}_4\text{PO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ kristallariga o'xshaydi) mikroskop yordamida kuzatiladi.

5. **Ammoniy molibdatning** nitrat kislotadagi eritmasi (molibdenli suyuqlik) arsenat ioni bilan sariq kristall cho'kma – ammoniy arsenomolibdat hosil qiladi:



Reaksiyani bajarishda 3-4 tomchi arsenat eritmasiga 5-7 tomchi tarkibida NH_4NO_3 (reaksiyaning sezuvchanligini oshiradi) bo'lgan ammoniy molibdatning nitrat kislotadagi eritmasi ($\text{pH} < 1$) («molibdenli suyuqlik») qo'shilib, eritma bir necha daqiqa suv hammomida 100 °C gacha qizdiriladi (*aralashmani uzoq qizdirish yaramaydi, bunda mishyak (III) ioni mishyak (V) ionigacha oksidlanishi mumkin*). Hosil bo'lgan sariq cho'kma HNO_3 , da erimaydi, ammiak va o'yuvchi ishqorlarda eriydi. Reaksiya fosfat ioni bo'limgan sharoitda (*xuddi shunday cho'kma hosil qiladi*) o'tkazilishi kerak.

12-jadval

IV guruh kationlari analitik reaksiyalari

Reagent	Kationlar		
	Al ³⁺	Cr ³⁺	Zn ²⁺
Ishqor eritmasi	Al(OH) ₃ (ch) oq	Cr(OH) ₃ (ch) Ko'k-binafsha	Zn(OH) ₂ (ch) Oq
	Ishqor eritmasidan ortiqcha qo'shilsa gidroksokomplekslar hosil qiladi		
NaOH (ort.) + H ₂ O ₂	[Al(OH) ₄] [Al(OH) ₆] ³⁻ rangsiz	CrO ₄ ²⁻ sariq	[Zn(OH) ₄] ²⁻ rangsiz
NH ₃	Al(OH) ₃ (ch) oq	Cr(OH) ₃ (ch) Ko'k-binafsha	Zn(OH) ₂ (ch) Oq
Na ₂ CO ₃	Al(OH) ₃ (ch) oq	Cr(OH) ₃ (ch) Ko'k-binafsha	(ZnOH) ₂ CO ₃ oq
Na ₂ HPO ₄	AlPO ₄ (ch) oq	CrPO ₄ (ch) Yashil	ZnHPO ₄ (ch) oq
H ₂ S	Al(OH) ₃ (ch)	Cr(OH) ₃ (ch)	ZnS (ch) oq
Alanganing bo'yashi	Bo'yalmay di	Bo'yalmaydi	Bo'yalmaydi
Sifat reaksiyalari	alizarin	H ₂ CrO ₆	CoZnO ₂ ZnS (ch)


13-jadval

IV ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI

Al³⁺, Zn²⁺, Cr³⁺, Sn²⁺, Sn(IV), As(III),
As(V)

Bosqic hning t/r	Analiz bosqichlari
1	<p>Alovida namunadagi As(III), As(V) ionlarini HCl muhitida rux metali ta'sir ettirib aniqlash:</p> <p>As (III), (V) $\xrightarrow{Zn; HCl}$ AsH₃↑</p> <p>AgNO₃ bilan namlangan qog'oz $\xrightarrow{AsH_3 \uparrow}$ Ag↓ (Gutsayt reaksiyasi)</p> <p>AsH(HgCl)₂↓</p> <p>[HgCl₂] bilan namlangan qog'oz $\xrightarrow{AsH_3 \uparrow}$ (gora) AsH₂(HgCl)↓</p> <p>As₂Hg₃↓</p> <p style="text-align: right;">(sarg'ish-qo'ng'ir)</p>

	<p>Qizdirilganda IV analitik guruh kationlariga H_2O_2 ishtirokida mo'1 6M NaOH ta'sir ettirish:</p> $\begin{aligned} \text{Al}^{3+} &\xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Al(OH)}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH}} [\text{Al(OH)}_6]^{3-} \\ \text{Zn}^{2+} &\xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Zn(OH)}_2 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH}} [\text{Zn(OH)}_4]^{2-} \\ \text{Cr}^{3+} &\xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Cr(OH)}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH, H}_2\text{O}_2, \Delta} \text{CrO}_4^{2-} \\ \text{Sn}^{2+} &\xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Sn(OH)}_2 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH, H}_2\text{O}_2, \Delta} [\text{Sn(OH)}_6]^{2-} \\ \text{Sn(IV)} &\xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Sn(OH)}_4 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH}} [\text{Sn(OH)}_6]^{2-} \\ \text{As(III)} &\xrightarrow{\text{NaOH}} \text{AsO}_3^{3-} \xrightarrow{\text{H}_2\text{O}_2, \Delta} \text{AsO}_4^{3-} \\ \text{As(V)} &\xrightarrow{\text{NaOH}} \text{AsO}_4^{3-} \xrightarrow{\text{H}_2\text{O}_2, \Delta} \text{AsO}_3^{3-} \end{aligned}$
2	<p>2 eritmadan qizdirilganda NH_4Cl kristallari ta'sir ettirib, $[\text{Al(OH)}_6]^{3-}$ gidroksoanionlarni ajratish:</p> $\begin{aligned} [\text{Al(OH)}_6]^{3-} &\xrightarrow{\text{NH}_4\text{Cl, } \Delta} \text{Al(OH)}_3 \downarrow \\ [\text{Sn(OH)}_6]^{2-} &\xrightarrow{\text{NH}_4\text{Cl, } \Delta} \text{Sn(OH)}_4 \downarrow \end{aligned}$
3	<p>2M HCl ta'sirida 3 cho'kmani eritish:</p> $\begin{aligned} \text{Al(OH)}_3 \downarrow &\xrightarrow{\text{HCl}} \text{Al}^{3+} \\ \text{Sn(OH)}_4 \downarrow &\xrightarrow{\text{HCl}} [\text{SnCl}_6]^{2-} \end{aligned}$
4	<p>5 ertimaga alizarin yoki natriy atsetat ta'sir ettirib Al^{3+} ionlarini topish:</p> $\begin{aligned} \text{Al}^{3+} &\xrightarrow{\text{alizarin, NaOH}} \text{Al(OH)}_3 \downarrow \\ \text{Al}^{3+} &\xrightarrow{\text{CH}_3\text{COONa}} \text{Al(OH)}_2\text{CH}_3\text{COO} \downarrow \end{aligned}$
5	<p>HCl muhitida temir qirindilari bilan qaynatilgan 4 ertimaga simob (II) tuzini ta'sir ettirib Sn(IV) ionlarini aniqlash:</p> $[\text{SnCl}_6]^{2-} \xrightarrow{\text{Fe, HCl; } \Delta} \text{Sn}^{2+} \xrightarrow{\text{HgCl}_2} \text{Hg} \downarrow$
6	<p>3 sentrifugatga ditizon yoki $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ eritmasi ta'sir ettirib Zn^{2+} kationlarini topish:</p> $\begin{aligned} \text{[Zn(NH}_3)_4]^{2+} &\xrightarrow{\text{ditizon}} \begin{array}{c} \text{C}_6\text{H}_5-\text{N} \quad \text{C}=\text{N}-\text{NH}-\text{C}_6\text{H}_5 \\ \qquad \quad \quad \quad \quad \\ \text{N} \quad \quad \quad \quad \quad \text{S} \\ \qquad \quad \quad \quad \quad \\ \text{C}_6\text{H}_5-\text{HN}-\text{N}=\text{C} \quad \quad \quad \quad \quad \text{N}-\text{C}_6\text{H}_5 \\ \qquad \quad \quad \quad \quad \\ \text{C}_6\text{H}_5 \end{array} \\ \text{[Zn(NH}_3)_4]^{2+} &\xrightarrow{\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]} \text{K}_2\text{Zn}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2 \downarrow \end{aligned}$
7	<p>82</p>

IV ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ SXEMASI**NAZORAT SAVOLLARI**

1. IV guruh tarkibiga kiruvchi kationlarni va guruh reagentini aiting
2. IV guruh kationlari gidroksidlarining rangini aiting.
3. IV guruh gidroksidlari nimada eriydi va bunda qanday birikmalar hosil bo‘ladi? Reaksiya tenglamalarini yozing.

4. IV guruhdagi qaysi kation ammiak bilan kompleks ion hosil qiladi? Formulasini yozing
5. IV guruhdan oksidlanish-qaytarilish xossasini namoyon qiluvchi kationlarni ayting. Ularga guruh reagenti qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Xrom (III) ionini ishqoriy sharoitda vodorod peroksid bilan oksidlanish reaksiyasi tenglamasini yozing.
7. IV guruh kationlarining qaysi biri rangli?
8. Xrom (III) ionini aniqlashda qanday maxsus reaksiyadan foydalilanadi?
9. Xromat va dixromat-ionlarning rangi qanday? Ularning bir biriga o'tish reaksiyasi tenglamasini yozing.
10. Qaysi kationni aniqlash uchun organik reagent – alizarin qo'llaniladi?
11. IV guruhdan qaysi kationni aniqlash uchun ditizon ishlatiladi?
12. Nima uchun xrom (III) ionini nadxrom kislotasi hosil bo'lishi bilan aniqlashda izoamil spirti yoki efir qo'shiladi?
13. IV guruh kationlari aralashmasiga natriy gidroksidi, vodorod perokсиди qo'shib isitilgandan so'ng qanday reaksiya ketadi? Eritmaning rangi o'zgaradimi?

VAZIYATLI MASALALAR

1. Murakkab aralashmadan IV guruh kationlarini aniqlash.
2. Alyuminiyni neytral muhitda alizarin bilan aniqlashning analitik samarasi puch tajribadan farq qilmaydi. Alyuminiy alizarinatning qizil dog'i filtr qog'ozini ammiak bug'lari bilan to'yintirgandagina hosil bo'ladi. Kuzatiladigan natijani kimyoviy reaksiya tenglamasi bilan asoslang.

LABORATORIYA ISH № 12

V guruh kationlarining analitik reaksiyalari

Maqsad:

V guruh kationlarining sifat reaksiyalarini bajarish uchun amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.

Mavzuning ahamiyati

Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar

1. Tuzlarning eritmaları:

$MgCl_2$, temir (II) sulfat, temir (III) xlorid, marganes (II) xlorid, vismut (III) xlorid, mishyak (III) xlorid, mishyak (IV) xlorid, oksalat kislota, o'yuvchi ishqorlar, natriy hidrofosfat, eruvchan karbonatlar Na_2CO_3 va K_2CO_3 , magnezon I (4-azo(4-nitrofenil) 1,3dioksibenzol), dimetilglioksim (Chugayev reaktivi), sulfosalitsil kislotasi, qalay (II) xlorid, nessler reaktivi, oksixinolin, ammiak, PbO_2 , natriy atsetat, ammoniy xlorid, kaliy yoki ammoniy tiotsianat, kaliy yodid, natriy yoki ammoniy sulfidi - $1\text{mol}/\text{dm}^3$;

Yangi tayyorlangan natriy sulfatning to'yigan eritmasi, natriy xlorid, natriy hidrofosfat, kaliy geksatsianoferrit (II) va geksatsianoferrat (III) $C=1\text{mol}/\text{dm}^3$;

2. Kislota va asoslarning eritmaları:

Sulfat kislota 1:3, xlorid kislota 1:1, sirkal kislota 1:1; Yangi tayyorlangan vodorod sulfidli suv

3. Kristall xolida: tiomochevina, natriy vismutat, ammoniy tuzlari (xlorid yoki nitrat).

V ANALITIK GURUH KATIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI

Guruuhning umumiy tavsifi

Magniy, marganets, temir (II) va temir (III)ning nitrati, xloridi, sulfatlari suvda eruvchan. Temir (III)ning suyultirilgan eritmasi sarg‘ish-qo‘ng‘ir rangli, qolgan kationlarning eritmalarini rangsiz bo‘ladi. Vismut (III) suvli eritmasida gidrolizlanadi. Shuning uchun kislotali eritmalarini ishlataladi. U konsentrik xlorid kislota bilan kompleks anion hosil qiladi: $[BiCl_6]^{3-}$.

V guruuh kationlarining karbonat va fosfatlari suvda kam eriydi. Shu guruuh kationlarining hidroksidlari asos xossasiga ega bo‘lib, ishqor va ammiak eritmalarida erimaydi. Ammo, mineral kislotalar (HNO_3 , HCl , H_2SO_4)da yaxshi eriydi. Magniy hidroksidi ammoniy tuzlarining to‘yingan eritmasida eriydi:



V guruuh kationlari (magniydan tashqari) oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga kirishadi: masalan Mn^{2+} kationini ochish uchun kislotali sharoitda natriy vismutat ta’sir ettiriladi.


Ishqoriy sharoitda, vodorod peroksid ishtirokida Mn (II), Fe (II) oksidlanib, ularning oksidlanish darajasi Mn (IV), Fe (III)ga o‘tadi.

V guruuh kationlari noorganik (Cl^- , F^- , NCS^- va boshqalar) va organik ligandlar bilan kompleks birikmalar hosil qiladi.

Guruuh reagentining ta’siri

V guruuh kationlarining eritmasiga 25%li ammiak eritmasi ta’sir etilganda V guruuh kationlari kam eriydigan hidroksidlari hosil qiladi.

Temir (III) qizg‘ish-qo‘ng‘ir va qolgan kationlari rangsiz, vismut (III) hidroksidini isitsak, sariq rangga o‘tadi va $BiO(OH)$ ni hosil qiladi. Marganets (II) va temir (II) hidroksidalri havodagi kislordagi bilan oksidlanadi:



Vodorod pereoksid ishtirokida guruuh reagentining ta’siri

$Mg(OH)_2$, $Mn(OH)_2$, cho‘kmalari $Fe(OH)_3$, $MnO(OH)_2$ cho‘kmalaridan farq qilib, to‘yingan ammoniy xlorid eritmasida eriydi. $MnO(OH)_2$ cho‘kmasi $Mn(OH)_2$ cho‘kmasidan farq qilib, u suyultirilgan mineral kislotalarda erimaydi. Bu xossasidan kationlarning aralashmasi analizida foydalilanadi.

Reaksiyani bajarish

A) Probirkaga (5 ta) magniy, marganets (II), temir (II), temir (III), vismut (III) tuzi eritmalariga 3-4 tomchi suv va natriy hidroksid eritmasidan tomchilab qo‘shiladi toki cho‘kma hosil bo‘lguncha va cho‘kmaning rangi kuzatiladi. Cho‘kmani eritmadan sentrifugalab ajratiladi. Cho‘kmani nitrat va konsentrik ammiak eritmasida eruvchanligi kuzatiladi.

Magniy va marganets (II) hidroksid cho‘kmalarining ammoniy xloridning to‘yingan eritmasi ta’sirida erishini kuzating.



B) Temir (II) va marganets (II) gidroksidlari cho'kmasiga 2-3 tomchi suyultirilgan natriy gidroksid eritmasidan va vodorod peroksid qo'shilganda cho'kmaning rang o'zgarishi kuzatiladi.

$MnO(OH)_2$ qora-qo'ng'ir cho'kmasi ammoniy xloridning to'yingan eritmasi va suyultirilgan nitrat kislotada erimasligi kuzatiladi.

5.1. Magniy Mg^{2+} kationing xususiy reaksiyalari

Magniy kationi reaksiyalarini o'tkazish uchun $MgCl_2$ yoki magniy sulfat $MgSO_4$ eritmalaridan foydalanish mumkin.

1.O'yuvchi ishqorlar $NaOH$ va KOH magniy tuzlari bilan ta'sirlashib, kislotalar va ammoniy tuzlarida eruvchi oq amorf magniy gidroksid cho'kmasini hosil qiladi:




Bu reaksiyadan Mg^{2+} kationini birinchi analitik guruhning boshqa kationlaridan ajratishda foydalaniladi, chunki boshqa kationlarning gidroksidlari suvda yaxshi eriydi.

Probirkadagi 2-3 tomchi magniy tuzi eritmasiga shuncha miqdordagi $NaOH$ yoki KOH eritmasi qo'shiladi, amorf holdagi magniy gidroksidning oq cho'kmasi hosil boladi. Reaksiyaning borishi uchun:

- tekshiriladigan eritma muhiti ishqoriy bo'lishi kerak.


- eritmada NH_4^+ ionlarining bo'lishi cho'kmaning hosil bo'lmasligiga olib kelishi mumkin;

2.Natriy gidrofosfat Na_2HPO_4 ammoniy gidrofosfat va ammoniy xlorid ishtirokida magniy tuzlari bilan magniy-ammoniy fosfatning oq kristallik cho'kmasini hosil qiladi:



Probirkaga 2-3 tomchi Mg^{2+} tuzi eritmasi solib, ustiga 2 tomchi ammoniy xlorid va 4 tomchi reagent Na_2HPO_4 eritmasidan qo'shiladi. So'ngra NH_4OH ning 2 N eritmasidan ishqoriy muhit hosil qilinguncha aralashtirib qo'shiladi. Suyultirilgan eritmalarда cho'kma biroz muddatdan keyin hosil bo'ladi. Cho'kmani hosil bo'lishini chayqatish yoki probirkaning ichki devorini shisha tayoqcha bilan ishqalash orqali tezlatish mumkin.

3.Eruvchan karbonatlar Na_2CO_3 va K_2CO_3 Mg^{2+} kationi tuzlari eritmalaridan magniy gidroksikarbonatning oq amorf cho'kmasini hosil qiladi:




Ionli tenglamalarni yozing:

Reaksiyani amalga oshirish uchun, Mg^{2+} eritmasi muhiti ishqoriy bo'lishi, eritmada ammoniy tuzlari bo'lmasligi kerak.

4.Magnezon I (4-azo(4-nitrofenil) 1,3dioksibenzol) bilan reaksiyasi

Magnezon I ishqoriy sharoitda qizil rangli bo'lib, magniy gidroksid bilan $pH > 10$ sharoitda ko'k rangli adsorbsion birikma hosil qiladi:




Kuchsiz asos hosil qiluvchi barcha kationlar mazkur reaksiyaga xalaqit beradi.
Reaksiyani bajarish

Buyum oynasiga magniy tuzi eritmasidan bir tomchi va magnezon (I) ishqoriy eritmasidan tomiziladi. Bunda ko'k rangli cho'kma yoki havo rangli eritma (konsentratsiyasi kam bo'lsa) hosil bo'ladi.

5.2. Marganets kationining reaksiyalari

Mn^{2+} ioni eritmasi och pushti rangli, suyultirilgan eritmalari esa rangsiz bo'ladi. Marganets bir necha oksidlanish darajasiga ega bo'lgan [Mn^{2+} , Mn (IV), Mn (VI), Mn (VII)] ionlar shaklida bo'ladi. Shu tufayli ular oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida qatnashib, bir oksidlanish darajasidan boshqasiga tez o'tishi mumkin. Mn^{2+} ionini topishda bu imkoniyatdan foydalanish va uni e'tiborga olish zarurdir.

1. O'yuvchi ishqorlar Mn^{2+} ioni kislotalarda (shu jumladan, suyultirilgan sulfat kislotada) eriydigan oq rangli $\text{Mn}(\text{OH})_2$ cho'kma hosil qiladi:



Mn^{2+} ioni havo kislorodi ta'sirida oson oksidlangani uchun qo'ng'ir rangli $\text{MnO}(\text{OH})_2$ hosil qiladi.


$\text{MnO}(\text{OH})_2$ cho'kma suyultirilgan sulfat kislotada erimaydi. Biroq sulfat kislotali muhitda 1-3 tomchi H_2O_2 ta'sir ettirilsa, cho'kma quyidagi tenglama bo'yicha eriydi va kislorod ajralib chiqadi:



Sulfat kislota ishtirokida $\text{MnO}(\text{OH})_2$ cho'kmani eritish uchun H_2O_2 dan tashqari ishqoriy metallar nitritlari ishlatalishi mumkin. Sulfat kislotadan farqli ravishda xlorid kislotada $\text{MnO}(\text{OH})_2$ xlorid ionining oksidlanishi hisobiga eriydi:




2. Ammiak ishqorlar singari $\text{Mn}(\text{OH})_2$ cho'kma hosil qiladi:




Bu reaksiyada hosil bo'layotgan ammoniy ionning gidrolizlanishi va eritmaning pH qiymati ko'tarilishi natijasida, cho'kish to'liq bo'lmaydi. Eritmada ammoniy ko'p bo'lganda, cho'kma umuman hosil bo'lmasligi mumkin. Bu xossal dan aralashmadagi Al^{3+} , Cr^{3+} , Fe^{3+} va Ti^{4+} ionlarini Mn^{2+} iordan qisman ajratishda foydalaniladi. Ammiakli muhitda Mn^{2+} ionning bir qismi havo kislorodi ta'sirida oksidlanadi.


3. Natriy, kалии va ammoniy karbonatlar ta'siridan Mn^{2+} ion kislotalarda eriydigan oq rangli MnCO_3 cho'kma hosil qiladi:



4. Natriy gidrofosfat Mn^{2+} ionga ta'sir ettirilganda kuchli mineral va hatto kuchsiz sirka kislotada ham eriydigan (alyuminiy, temir (III), xrom (III) va titan (IV) fosfatlaridan farqli ravishda) oq rangli $\text{Mn}_3(\text{PO}_4)_2$ cho'kma hosil bojadi:




5. Oksidlash reaksiyasi yordamida Mn²⁺ ionini topish mumkin. Bunda PbO₂, ammoniy persulfat (NH₄)₂S₂O₈, natriy vismutat -NaBiO₃, H₂O₂, KC₁O₃, Cl₂, Br₂ va boshqa oksidlovchilardan foydalaniladi. Oksidlash reaksiyalari kislotali yoki ishqoriy muhitlarda o'tkazilishi mumkin. Kislotali muhitda rangsiz Mn²⁺ ionga PbO₂ ta'sir ettirilib, qizdirilsa pushti rangli MnO₄⁻ hosil bo'ladi:



Reaksiyani bajarish uchun probirkaga 1-2 tomchi Mn (II) sulfat yoki nitrat eritmasi, 4-6 tomchi 6 N HNO₃ eritmasi tomizib, unga ozgina PbO₂ kukunidan solinadi va aralashma qaynaguncha qizdiriladi. PbO₂ tarkibida marganetsning kirishmalari bo'lishi mumkinligidan ushbu reaksiya bilan bir vaqtda salt tajriba o'tkazing. Salt tajribani ham xuddi shu sharoitda (unga tekshiriladigan eritma tomizilmaydi) o'tkazing. Marganetsning kirishmalari bo'lmasa, rang paydo bo'lmaydi. Mazkur reaksiya marganetsni topishda ancha sezuvchan bo'lganligi uchun ko'p qo'llaniladi.

Kislotali muhitda, shuningdek, marganets (II) ionini KC₁O₃ ta'sirida (qizdirib) qo'ng'ir rangli H₂MnO₃ gacha oksidlash mumkin:




Reaksiyani bajarish uchun probirkaga 1 -3 tomchi Mn (II) tuzi eritmasi va bir necha tomchi ishqor eritmagan soling, natijada sekin havo kislorodi bilan oksidlanib qo'ng'ir rangga kiradigan oq Mn(OH)₂ hosil bo'ladi:



Hosil qilingan cho'kmaga bir necha tomchi H₂O₂ eritmasi tomizilsa, darhol qora-qo'ng'ir rang paydo bo'ladi.


6. Ammoniy sulfid Mn(II) ioni bilan ta'sirlashganda kislotalarda eriydigan sarg'ish-jigarrang MnS cho'kma hosil bo'ladi:



Reaksiyani bajarish. Marganets tuzining 2-3 tomchiga shuncha miqdorda reaktiv qo'shiladi.

7. Mn²⁺ ning oksalat kislotasi bilan reaksiyasi

Manganets (II) kationi ishqoriy sharoitda vodorod peroksiidi bilan ta'sirlashib, MnO(OH)₂ qo`ra-qo`ng`ir cho`kmani hosil qiladi. Cho`kmaga quru`q oksalat kislotasi qo`shilsa, pushti rangli eritma H₃[Mn(C₂O₄)₃] kompleks birikmasining hosil bo`lishi kuzatiladi.



Reaksiyani bajarish bo`iladi

Probirkaga 3-4 tomchi manganets (II) tuzi eritmasidan tomizilib, ustiga shuncha tomchi natriy gidroksid eritmasidan tomchilab qo'shiladi.

Hosil bo`lgan Mn(OH)₂ cho`kmasiga 3-4 tomchi vodorod peroksid eritmasi qo`shiladi. Bunda qora qo`ng`ir MnO(OH)₂cho`kmasini hosil bo`lishi ku`zatiladi.

Cho`kmaning ustiga bir necha oksalat kislota kristall qo'shib, aralashtirilsa, pushti rangli eritmani hosil bo`lishi kuzatiladi.

5.3.Temir (II) kationining reaksiyalari

Ikki valentli temir ioni Fe²⁺ och yashil ranglidir.


1. O'yuvchi ishqorlar temir (II) ioni bilan berk idishda oq rangli Fe(OH)_2 cho'kma hosil qiladi. Reaksiya ochiq idishda o'tkazilsa, hosil bo'layotgan cho'kma havo kislorodi ta'siridan oksidlanib, oldin yashil, keyin qizil-qo'ng'ir rangli Fe(OH)_3 cho'kmaga aylanadi.

2. Ammiak ta'siridan temir (II) ion ham oq rangli Fe(OH)_2 cho'kma hosil qiladi.




Biroq Fe^{2+} ion to'lig'icha cho'kmaydi. Fe(OH)_2 cho'kmasining ammoniy tuzlarida erishi natijasida Fe^{2+} ion ammoniy tuzlari ishtirokida Fe(OH)_2 shaklida cho'kmaydi. Eritma aralashmasi ochiq havoda qolib ketsa, Fe^{2+} ionning oksidlanishi natijasida Fe(OH)_3 cho'kmasi hosil bo'ladi.

3. Natriy, kaly va ammoniy karbonatlari ta'siridan Fe^{2+} ion oq rangli FeCO_3 cho'kma hosil qiladi, cho'kma havo kislorodi ta'siridan sekin oksidlanib, qizil-qo'ng'ir rangli Fe(OH)_3 ga aylanadi:




4. Ammoniy sulfid temir (II) ioni bilan qora rangli cho'kma - temir (II) sulfid hosil qiladi:



Cho'kma mineral va sırka kislotalarida eriydi.

Reaksiyaning bajarilishi. Temir (II) tuzining 2-3 tomchi eritmasiga shuncha $(\text{NH}_4)_2\text{S}$ eritmasi qo'shiladi.

5. Kaliy geksamianoferrat (III) - $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ temir (II) ioni bilan to'q ko'k rangli turnbul ko'ki cho'kmasini hosil qiladi:



Cho'kma kislotalarda erimaydi, lekin ishqorlarda parchalanadi.

Mazkur reaksiya temir (II) ion uchun o'ziga xos reaksiya bo'lib, uni pH=2 bo'lganda oksidlovchilar bo'lмаган sharoitda o'tkazish kerak. Oksidlovchilar temir (II) ionini oksidlab, temir (III) ioniga aylantirishi mumkin. Unutmaslik kerakki, $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ning o'zi ham oksidlovchi bo'lgani uchun uni tomchilab qo'shish tavsiya qilinadi.

Reaksiyaning bajarish uchun temir (II) tuzining 2-3 tomchi eritmasiga 1-2 tomchi xlorid kislota va reaktiv eritmasi asta-sekin 2-3 tomchi qo'shiladi.


6. Dimetilglioksim (*Chugayev reaktiv*) temir (II) ionidan suvda eriydigan qizil rangli ichki kompleks birikma hosil qiladi. Reaksiya ammiakli muhitda o'tkazilishi kerak. Temir (II) ioni oson oksidlangani uchun unga ko'pincha temir (III) ionini aralashgan bo'ladi. Shu bois dimetilglioksim yordamida temir (II) ionini topish uchun qo'shiladigan ammiak ta'siridan Fe(OH)_3 hosil bo'lishining oldini olish kerak, buning uchun aralashmaga temir (III) ionini kompleks birikma shaklida niqoblaydigan vino kislota eritmasi qo'shiladi. Dimetilglioksim nikel ioni bilan ham qizil-pushti rangli cho'kma hosil qilganligi uchun bu reaksiyaning eritmada nikel mutlaqo ishtirok etmaganda o'tkazish lozim. Agar eritmada nikel bo'lsa, oldin uni eritmadan yo'qotish kerak.

Reaksiyani bajarish uchun 1-2 tomchi temir (II) tuzi eritmasiga bir tomchi vino kislotasi eritmasi, 2-3 tomchi ammiak eritmasi va dimetilglioksimning spirtdagi eritmasidan 2-3 tomchi qo'shiladi.

5.4. Temir (III) kationining reaksiyalari

Uch valentli temir tuzlarining eritmalarini sariq yoki qizil-qo'ng'ir rangli bo'ladi.

1.O'yuvchi ishqorlar temir (III) tuzlari bilan qizil-qo'ng'ir rangli kuchli kislotalarda eriydigan Fe(OH)_3 cho'kmani hosil qiladi:



Alyuminiy, xrom va rux gidroksidlaridan farqli ravishda amalda Fe(OH)_3 ishqorlarda erimaydi. Temir (III) ioni Fe(OH)_3 shaklida pH~3,5 bo'lganda to'liq cho'kadi.


2.Ammiak ham temir (III) tuzlari bilan qizil-qo'ng'ir rangli cho'kma hosil qiladi.

3.Natriy atsetat sovuq sharoitda temir (III) ioni bilan qizil rangli kompleks birikma $[\text{Fe(CH}_3\text{COO)}_6(\text{OH})_2]^+$ hosil qiladi. Qizdirganda bu modda qizil-qo'ng'ir $\text{Fe(OH)}_2\text{CH}_3\text{COO}$ cho'kma hosil qiladi.


4.Natriy gidrofosfat temir (III) bilan sarg'ish rangli cho'kma - FePO_4 hosil qiladi.

5.Natriy, kaliy va ammoniy karbonatlar temir (III) ioni bilan qo'ng'ir rangli $(\text{FeOH})_2(\text{CO}_3)_2$ tarkibli kislotalarda eriydigan cho'kma hosil qiladi. Bu cho'kma qizdirganda gidroliz tufayli Fe(OH)_3 ga aylanadi.

6.Ammoniy sulfid Fe^{3+} ioni bilan qora rangli Fe_2S_3 cho'kma hosil qiladi:



Bu cho'kma kuchli kislotalarda eriydi:



Reaksiyada vodorod sulfid (qaytaruvchi) hosil bo'lganligidan temir (III) temir (II) gacha qaytariladi va bunda erkin oltingugurt ajraladi:




Umumiy holda Fe_2S_3 ning kislotalarda erish reaksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:




Reaksiyani bajarish. Uch valentli temir tuzining 2-3 tomchi eritmasiga shuncha $(\text{NH}_4)_2\text{S}$ eritmasi qo'shiladi.

7. Kaliy geksatsianoferrat (II) bilan temir (III) ioni to'q ko'k rangli «berlin lazuri» cho'kmasini hosil qiladi:



Cho'kma kislotalarda erimaydi, ammo ishqorlar ta'siridan Fe(OH)_3 hosil qilib parchalanadi:




Kaliy geksatsianoferrat (II) bilan bo'lgan reaksiya Fe^{3+} ioniga xos reaksiya bo'lib, u juda sezgirdir. Reaksiya uchun topilish minimumi -0,05 mkg, minimal konsentratsiya $1 \cdot 10^{-6}$, suyultirish chegarasi -1:1000000 ni tashkil qiladi. Reaksiyani pH=2 bo'lganda, eritmada oksalatlar bo'lmaganda va reagentdan tomchilab qo'shgan holda o'tkazish


maqsadga muvofiq. Agar reaksiya uchun ko'p miqdor $K_4[Fe(CN)_6]$ olinsa, «berlin lazuri» erib, kolloid $KFe[Fe(CN)_6]$ hosil bo'ladi:



Shuni unutmaslik kerakki, $K_4[Fe(CN)_6]$ qaytaruvchilik xossasiga ham ega:




Oxirgi reaksiya natijasida hosil bo'lgan ionlar o'zaro ta'sirlashib, «turnbul ko'ki»ni hosil qilishi mumkin:



Reaksiyaning bajarilishi. Temir (III) tuzining 1-2 tomchisiga shuncha HCl va 2-3 tomchi kaliy ferrosianid eritmasidan qo'shiladi.

8. Kaliy yoki ammoniy rodanid temir (III) ioni bilan suvda yaxshi eriydigan qizil-qon rangli $Fe(SCN)_3$ yoki reagentdan ko'proq qo'shganda, kompleks ion - $[Fe(SCN)_6]^{3-}$ hosil qiladi:




Bu reaksiya ham Fe^{3+} ioni uchun o'ziga xosdir.

Reaksiyani bajarish uchun temir (III) - tuzi eritmasining 2-3 tomchisiga $KSCN$ yoki NH_4SCN eritmasidan 1-2 tomchi qo'shiladi.

9. Sulfasalitsil kislotasi bilan reaksiyasi(farmakopeya usuli).

Sulfasalitsil kislotasi Fe^{3+} ioni bilan pH sharoitga qarab, xar xil komplekslar hosil qiladi. $pH=9-11$ bo'lganda eng turg'un uch sulfasalitsilat anionli kompleksi hosil bo'ladi:





Reaksiyani bajarish

5 tomchi temir (III) tuzi eritmasiga 10 tomchi sulfasalitsil kislota eritmasi va $0,5sm^3$ konsentrangan ammiak eritmasi qo'shiladi. Eritma sariq rangga bo'yaladi. Kislotali sharoitda esa ($1sm^3 HCl$ 1:1) qizil rangli, bir ligandli kation kompleksi hosil bo'ladi.

5.5. Vismut kationining reaksiyalari

Vismut (III) ioni suvli eritmalarda rangsiz. Uning ko'pchilik tuzlari gidrolizga moyil bo'lganligidan eritmalarni tayyorlashda tegishli kislota qo'shiladi. Qo'shilgan kislota gidroliz reaksiyasini susaytiradi.

1.O'yuvchi ishqorlar — $NaOH$, KOH Bi^{3+} ioni bilan suyultirilgan kislotalarda eriydigan $Bi(OH)_3$ oq cho'kmani hosil qiladi:





Reaksiyani bajarish uchun Bi^{3+} tuzining 2-3 tomchi eritmasiga 2-3 tomchi ishqor eritmasi qo'shiladi.

2. Suvning ta'siri (gidroliz). Vismut tuzlari suvda gidrolizlanib, hidroksi tuzlarning oq cho'kmalarini hosil qiladi:



Reaksiyaning bajarilishi. BiCl_3 ning 2-3 tomchi eritmasiga 8-10 tomchi suv qo'shiladi. Bunda vismutol xloridning oq cho'kmasi tushadi. Hosil bo'lgan cho'kmaga xlorid kislota tomchilatib qo'shib turilsa, cho'kma erib ketadi.

3. Vodorod sulfid — H_2S Bi^{3+} ioni bilan qo'ng'ir rangli Bi_2S_3 cho'kmani hosil qiladi:




Cho'kma qaynatilganda nitrat kislotada va konsentrangan HC1 da eriydi.

Reaksiyaning bajarilishi. Bi^{3+} tuzining 4-5 tomchi eritmasiga bir necha tomchi vodorod sulfidli suv qo'shiladi yoki eritmadan H_2S gazi o'tkaziladi.

4. Kaliy yodid — KJ vismut ioni bilan yetarli konsentratsiyali eritmalardan qora rangli BiJ_3 cho'kmasini hosil qiladi. Reagentdan ortiqcha miqdor qo'shilsa, qora cho'kma erib ketadi va to'q sariq rangli kompleks ion hosil bo'ladi:



Agar eritma suv bilan ozroq suyultirilsa, yana qora cho'kma hosil bo'ladi:



Eritma kuchli suyultirilganda qora cho'kma (BiJ_3) gidrolizlanib, to'q sariq cho'kmaga aylanadi:



Reaksiyani bajarish uchun Bi^{3+} tuzining 2-3 tomchi eritmasiga bir tomchi KJ eritmasi qo'shiladi. So'ng, avval olingan qora cho'kma erib ketguncha va to'q sariq rangli kompleks birikma eritmasi hosil bo'lguncha tomchilatib reagent qo'shiladi.

5.Natriy sulfid bilan reaksiyasi.


Vismut (III) tuzlari kislotali sharoitda natriy yoki ammoniy sulfidlari bilan qora-qo'ng'ir cho'kma — Bi_2S_3 hosil qiladi:



Cho'kma FeCl_3 eritmasida oltingugurt hosil qilib eriydi:



Bi_2S_3 cho'kmasi nitrat kislotadan tashqari boshqa suyultirilgan kislotalarda erimaydi:



Reaksiyani bajarish

Probirkaga 3-4 tomchi vismut (III) tuzi eritmasi va 1-2 tomchi $(\text{NH}_4)_2\text{S}$ yoki Na_2S qo'shiladi. Cno'kma hosil bo'lishi kuzatiladi.

Yuqoridaq reaksiyalardan foydalanib V analistik guruh kationlarining asosiy analistik reaksiyalari jadvali tuziladi (17 jadvalga qarang)

5.6.Surma (III) kationining reaksiyalari

Surma o'z birikmalarida III va V valentli bo'ladi. Barcha surma tuzlarining eritmalari rangsiz. Ularga cho'ktirish, qaytarish va komplekslanish reaksiyalari xosdir.

1. Suv ta'siri (gidroliz) natijasida surma (III) tuzlari oq rangli asosli tuzlar - antimonillar, masalan, SbOCl hosil qilib cho'kadi:





Reaksiyani bajarishda 3-4 tomchi SbCl_3 eritmasi bir necha tomchi distillangan suv bilan suyultirilganda, SbOCl tarkibli asosli tuz cho'kadi. Cho'kma mo'l HC1 ning issiq eritmasida eriydi. Bu reaksiyaning o'ziga xosligi shundaki, SbOCl cho'kmasi shu tarkibli boshqa V gruppaga kationlaridan farq qilib, vino kislotasi eritmasida kompleks birikma hosil qilib eriydi:




2.O'yuvchi ishqorlar va ammiak surma (III) ioni bilan ta'sirlashib, oq rangli metaantimonat kislotasi cho'kmasi hosil qiladi:



Hosil bo'lgan cho'kma kuchli kislotalarda ham, ishqorlarda ham eriydi:



3. Natriy tiosulfat kuchsiz kislotali muhitda SbCl_3 eritmasi bilan qizdirilganda, surma oksosulfidning qizil cho'kmasini hosil qiladi:



Mo'l kislotasi reaksiyaga xalaqit beradi, u natriy tiosulfat bilan ta'sirlashib, S va SO_2 hosil qiladi.

4.Nessler reaktiv – K₂[HgJ₄] eritmasiga 3-4 tomchi SbCl_3 eritmasi va 1-2 tomchi ishqor eritmasi ta'sir ettirilsa, K₂[HgJ₄] simobgacha qaytariladi (qora cho'kma). Bu reaksiyaga Sn^{2+} ioni xalaqit beradi, shuning uchun undan Sn^{2+} ioni ajratilgach, foydalanish mumkin. Surma (V) bunday reaksiyada qatnashmaydi.

5.Oksixinolin KJ ishtirokida kuchli kislotali muhitda ($\text{pH} < 1$) Sb^{3+} kationlari bilan sariq rangli $\text{C}_9\text{H}_7\text{ONHSbJ}_4$ tarkibli cho'kma hosil qiladi. Bu reaksiyadan qalay va mishyak ishtirokida (boshqa ionlar bo'limganda) surma (III) ionini topishda foydalilanadi. *Reaksiyani bajarishda* probirkaga 2-3 tomchi tekshiriladigan eritma, bir necha tomchi 6 N HC1 eritmasi, 1 -2 tomchi oksixinolin eritmasi va 1 -2 tomchi KJ eritmasi tomiziladi. Natijada sariq cho'kma hosil bo'ladi.


6. Vodorod sulfid kuchli kislotali muhitda surma (III) ioni bilan to'q sariq-qizil rangli Sb_2S_3 cho'kma hosil qiladi. Hosil bo'lgan cho'kma nitrat kislotada erib, oq rangli metaantimonat kislotaga aylanadi:



Cho'kma, shuningdek, konsentrangan xlорид kislotada ham (mishyak polisulfidlaridan farqli ravishda) eriydi:



7. Sb^{3+} ni oksidlab Sb^{5+} ga aylantirish uchun kislotali muhitda kuchli oksidlovchi ta'sir ettiriladi:



Mazkur reaksiya natijasida hosil bo'lgan Br⁻ ion eritmadiagi ortiqcha bromat ta'siridan oksidlanib, qo'ng'ir rangli brom ajraladi:




5.7 Surma (V) ionlarining reaksiyalari

1. O'yuvchi ishqorlar va ammiak surma (V) eritmasi bilan ta'sirlashganda, metaantimonat kislotaning oq cho'kmasi hosil bo'ladi:



Reaksiyanı bajarishda surma (V) xloridning 1-2 tomchisiga 2-3 tomchi NaOH, KOH yoki NH₃ eritmasi tomiziladi.


2. Suv ta'sirida surma (V) xloriddan gidroliz natijasida asosli tuzning oq rangli cho'kmasi hosil bo'ladi:



Mo'l miqdor HC₁ qo'shib, eritma qizdirilsa, cho'kma erib ketadi.

3. Vodorod sulfid kuchli kislotali muhitda surma (V) ioni bilan to'q sariq-qizil rangli Sb₂S₅ cho'kmasi hosil qiladi.

4. Kaliy yodid - KJ surma (V) ionini qaytaradi va yod ajralib chiqadi:



14- jadval


V ANALITIK GURUH KATIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI

Reagent	Kationlar				
	Mg ²⁺	Mn ²⁻	Fe ²⁺	Fe ³⁺	Bi ³⁺
1	2	3	4	5	6
Ishqor, ammiak	Mg(OH) ₂ (ch) oq	Mn(OH) ₂ (ch) oq	Fe(OH) ₂ (ch) Oq	Fe(OH) ₃ (ch) qizil-qo'ng'ir	Bi(OH) ₃ (ch) oq
NaOH + ortiqcha H ₂ O ₂	Mg(OH) ₂ (ch) oq	MnO(OH) ₂ (ch) qo'ng'ir	Fe(OH) ₃ (ch) qizil-qo'ng'ir	Fe(OH) ₃ (ch) qizil-qo'ng'ir	Bi(OH) ₃ oq
Na ₂ CO ₃	(MgOH) ₂ CO ₃ (ch) oq	(MnOH) ₂ CO ₃ (ch) oq	FeCO ₃ (ch) oq	FeOHCO ₃ (ch) qizil-qo'ng'ir	BiOHCO ₃ (ch) oq
Na ₂ HPO ₄	NH ₄ MgPO ₄ (ch) oq	Mn ₃ (PO ₄) ₂ MnHPO ₄ oq	Fe ₃ (PO ₄) ₂ (q) oq	FePO ₄ (ch) sariq	BiPO ₄ (ch) oq
H ₂ S	Mg(OH) ₂ oq	MnS malla rang	FeS qora	FeS+S (ch) qora	Bi ₂ S ₃ (ch) qora
H ₂ O (gidroliz)	kuchsiz gidrolizlanadi			gidrolizlanadi	
Alanganing bo'yalishi	bo'yamaydi	bo'yamaydi	bo'yamaydi	bo'yamaydi	yashil
Aniqlash reaksiyasi	magnezon (I) Na ₂ HPO ₄ + NH ₃ +NH ₄ ⁺	1) NaBiO ₃ + HNO ₃ 2) MnO(OH) ₂ + H ₂ C ₂ O ₄	K ₃ [Fe(CN) ₆]	K ₄ [Fe(CN) ₆]	1) KI 2) gidroliz 3) Sn(II) + OH 4) CS(NH ₂) ₂

V ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI

Mg²⁺, Mn²⁺, Fe²⁺, Fe³⁺, Bi³⁺, Sb(III), Sb(V)	
Bosqich-ning t/r	Analiz bosqichlari
1	Alovida namunadagi Fe(II), Fe(III) ionlarini tegishlicha K ₃ [Fe(CN) ₆] va K ₄ [Fe(CN) ₆] reagentlari bilan aniqlash: $\text{Fe}^{2+} \xrightarrow{\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]} \text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2 \downarrow$ $\text{Fe}^{3+} \xrightarrow{\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]} \text{Fe}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]_3 \downarrow$
2	H ₂ O ₂ bilan HNO ₃ ta'sir ettirib, Sb(III) va Sb(V) ionlarini ajratish: $\text{Sb(III), Sb(V)} \xrightarrow{\text{HNO}_3} \text{HSbO}_3 \downarrow$ $\text{Fe}^{2+} \xrightarrow{\text{HNO}_3} \text{Fe}^{3+}$
3	2 cho'kmani HCl eritmasida eritish: $\text{HSbO}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{HCl}} [\text{SbCl}_6]^-$
4	Nikel plastinkasida 3 eritmaga rux ta'sir ettirib, Sb(V) ionlarini aniqlash: $[\text{SbCl}_6]^- \xrightarrow{\text{Zn}} \text{Sb} \downarrow$
5	2 sentrifugatdan konsertlangan NH ₃ ·H ₂ O ta'sir ettirib, V analitik gu-ruh kationlarini cho'ktirish: $\text{Mg}^{2+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} \text{Mg}(\text{OH})_2 \downarrow$ $\text{Mn}^{2+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} \text{Mn}(\text{OH})_2 \downarrow$ $\text{Fe}^{3+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} \text{Fe}(\text{OH})_3 \downarrow$ $\text{Bi}^{3+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} \text{BiONO}_3 \downarrow$
6	5 cho'kmaga NH ₄ Cl + 3%-li H ₂ O ₂ eritmasi ta'sir ettirib, Mg ²⁺ kationlarini ajratish: $\text{Mg}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_4\text{Cl}} \text{Mg}^{2+}$ $\text{Mn}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{3\%-\text{li H}_2\text{O}_2} \text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow$ 6 cho'kma tarkibi: $\text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow, \text{BiONO}_3 \downarrow, \text{Fe}(\text{OH})_3 \downarrow$
7	6 sentrifugatga ammiakli bufer eritma ishtirokida NaHPO ₄ ta'sir ettirib, Mg ²⁺ kationlarini aniqlash: $\text{Mg}^{2+} \xrightarrow{\text{Na}_2\text{HPO}_4, \text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O} + \text{NH}_4\text{Cl}} \text{MgNH}_4\text{PO}_4 \downarrow$
8	6 cho'kmaga HNO ₃ eritmasi ta'sir ettirib, Bi ³⁺ va Fe ³⁺ kationlarini ajratish: $\text{BiONO}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3} \text{Bi}^{3+}$ $\text{Fe}(\text{OH})_3 \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3} \text{Fe}^{3+}$ cho'kma $\text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow$
9	8-bosqich bo'yicha olingan cho'kmani H ₂ O ₂ ishtirokida HNO ₃ eritmasi ta'sir ettirib, eritish: $\text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3; \text{H}_2\text{O}_2} \text{Mn}^{2+}$
10	9 eritmaga (NH ₄) ₂ S ₂ O ₈ ta'sir ettirib, Mn ²⁺ kationlarini aniqlash: $\text{Mn}^{2+} \xrightarrow{(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8; \text{HNO}_3; \text{AgNO}_3} \text{MnO}_4^-$
11	8 sentrifugatga yangi tayyorlangan [Sn(OH) ₆] ⁴⁻ ta'sir ettirib, Bi ³⁺ ionlarini topish: $\text{Bi}^{3+} \xrightarrow{[\text{Sn}(\text{OH})_6]^{4-}} \text{Bi} \downarrow$

V ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ SXEMASI



NAZORAT SAVOLLARI

1. V guruh kationlariga guruh reagentini ayting.
2. IV va V guruh tarkibiga kiruvchi kationlarni ayting.

3. IV va V analitik guruh kationlari tarkibiga kiruvchi qaysi elementlar o‘zgaruvchan oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
4. Quyidagi ta’sirlashuv reaksiya tenglamalarini ion xolida yozing:
 - a) Temir (II) tuzlarining kaliygeksatsianoferrat bilan;
 - b) Temir (III) tuzlarining kaliya geksatsianoferrit bilan reaksiyalari qanday sharoitda boradi?
5. Marganets (II)ning natriy vismutat bilan oksidlanish reaksiyasini ion xolda yozing
6. V guruh kationlarining qaysilari gidrolizga uchraydi?
7. Vismut (III) nitratning qalay (II) xlorid bilan reaksiyasini ion xolda yozing. Reaksiya qanday muhitda boradi?
8. Marganets (II) gidroksidining havo kislороди bilan oksidlanish reaksiyasi tenglamasini yozing. Bunda qanday o‘zgarish kuzatiladi?
9. Magniy kationining analitik reaksiyalarini qayd eting. Ulardan qaysi biri xususiy?
10. V guruh ktaionlaridan qaysi biri amfoterlik xossasini keskinroq namoyon qiladi?
11. Temir (III) kationini aniqlash reaksiyalarini ayting. Ularning reaksiya tenglamalarini ion xolida yozing.

VAZIYATLI MASALALAR

1. Bi³⁺ ionini KJ bilan cho‘ktirishda qora cho‘kma ustida zarg‘aldoq eritma kuzatiladi. Bu qanday tushuntiriladi? Reaksiya tenglamasini yozing.
2. Magniy va marganets kationlarini bir-biridan ajratish uchun ularning cho‘kmalarini qanday xossasidan foydalanish mumkin.
3. Yangi cho‘ktarilgan temir (II) ranginiing o‘zgarish sababini tushuntiring. Reaksiya tenglamasini yozing.

LABORATORIYA ISH № 12

VI guruh kationlarining analitik reaksiyalari.

Maqsad

VI guruh kationlarini ochish reaksiyalarini bajarish uchun amaliy ko‘nikmalar hosil qilish.

Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar

1.Tuz eritmalar:

Nikel, kobalt (II), mis, kadmiy va simob (II); o‘yuvchi ishqorlar—NaOH va KOH , natriy karbonat yoki boshqa ishqoriy metallarning eruvchan karbonatlari, kaliy yoki natriy nitrit (KNO₂ yoki NaNO₂), vodorod sulfid, kaliy geksatsianoferrat (II), kaliy yodid, kaliy rodanid, temir (III) xlorid, segnet tuzi (kaliy natriy tartrat) — KNaC₄H₄O₆, kupron (1-benzoinoksim), kaliy tetravodidovismutat (III), ammoniy tiotsionat, natriy sulfid; yangi tayyorlangan qalay (II) xlorid; natriy tiosulfat, natriy hidrofosfatning to‘yingan eritmalarli

2.Kislota va asos eritmalar:

Sulfat kislota 1:3, xlorid kislota 1:1, sırka kislota 1:1, yangi tayyorlangan vodorod sulfidli suv

3.Organik reaktivlar va erituvchilar:

1-nitrozo-2naftolning sırka kislotasidagi 1%li eritmasi; glitserin izoamil yoki amil spirit, dimetilglioksimning etil spirtidagi 1%li eritmasi

4. Kaliy geksatsianoferrat shimdirlilgan 5 x 5 sm o'lchamli filtr qog'oz

VI GURUH KATIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI


VI guruh kationlarini nitratlari, xloridlari, sulfatlari suvda eruvchan bo'lib, kobalt (II) tuzlarini eritmasi – pushti, nikel (II) – yashil, mis (II) – ko'k rangga ega. Kadmiy va simob (II) tuzlarini suvli eritmasi rangsiz. VI guruh kationlarini karbonatli, fosfatli, sulfidli tuzlari suvda kam eriydi.

Ishqor yoki ammiak ta'sirida VI guruh kationlari (simob (II) dan tashqari) gidroksid yoki asosli tuz xolida cho'kmaga tushadi. Simob (II) ishqorlar ta'sirida HgO , ammiak ta'sirida $[\text{OHg}_2\text{NH}_2]\text{NO}_3$ tarkibli cho'kmalar hosil qiladi. Bu cho'kmalar ortiqcha ishqor ta'sirida erimaydi, konsentrangan ammiak ta'sirida esa $[\text{Me}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$ yoki $[\text{Me}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$ tarkibli kompleks birikma hosil qilib, erib ketadi. Kuchli oksidlovchilar (xlor, brom, kaliy permanganat, natriy vismutat, vodorod peroksid ishqoriy sharoitda) kobalt (II)ni kobalt (III) gacha oksidlaydi. Boshqa kationlar oksidlovchilar ta'siriga chidamli. Qaytaruvchilar mis (II), simob (II)larni quyi oksidlanish darajasigacha qaytaradi. Kaliy yodid mis (II)ni mis (I)gacha qaytaradi. Mis metali simob (II)ni metall xoligacha qaytaradi. Bu reaksiyadan boshqa kationlar ishtirokida ham simobni kasrli usulda ochishda foydalaniadi.



Guruh reagentining ta'siri

Kobalt, nikel, mis kationlari 25%li ammiak eritmasi ta'sirida rangli asosli tuzlar hosil qiladi. CoOHCl – ko'k rangli cho'kma, isitilganda pushti rangli $\text{Co}(\text{OH})_2$ ga o'tadi. $\text{Cu}(\text{OH})\text{Cl}$ – ko'k yashil, $\text{Ni}(\text{OH})\text{Cl}$ – och yashil, HgNH_2Cl – oq, simob (II) nitratdan ham $[\text{OHg}_2\text{NH}_2]\text{NO}_3$ tarkibli oq cho'kmalar hosil bo'ladi.

Nikel, mis va kadmiy gidroksidlari ortiqcha ammiakda eriydi:



Kobalt va simob (II) ni asosli tuzlari ortiqcha ammiakda ammoniy tuzlari ishtirokida eriydi:



Misni ammiakatli kompleksi to'q ko'k rang, nikel - ko'k, kadmiy va simob (II) rangsiz bo'ladi. Kobalt (II) havo kislороди ta'sirida asta sekin oksidlanadi va qizil olcha rangli kobalt (III) ammiakatli kompleksni hosil qiladi.

Vodorod pereoksidining ishqoriy sharoitda ta'siri

VI guruh kationlariga ishqoriy sharoitda vodorod peroksidi ta'sir ettirilsa (NH_3 , NaOH) nikel, mis, kadmiy, simob (II) gidroksidlari cho'kmaga tushadi. Kobalt (II) tezda oksidlanib kobalt (III)ga o'tadi va qo'ng'ir $\text{Co}(\text{OH})_3$ cho'kmaga tushadi. U esa mo'l miqdordagi konsentrangan ammiakda eriydi va olcha rangli $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{3+}$ kompleksini hosil qiladi.

Ish tartibi

a) 5 ta probirkaga 3 tomchidan kobalt, nikel, mis, kadmiy, simob tuzi eritmasi va tomchilab aralashtirib turgan xolatda suyuq ammiak eritmasidan cho'kma hosil

bo‘lguncha qo‘shiladi. Cho‘kmalar rangiga e’tibor beriladi. Barcha probirkalarga 25%li ammiak eritmasidan, natriy yoki ammoniy xloridni bir necha kristallari ham qo‘shiladi. Cho‘kmalarning erishiga va eritma rangiga e’tibor beriladi.

b) Probirkaga 3 tomchi kobalt tuzi eritmasi, 1-2 tomchi vodorod peroksidi qo‘shib, aralashtiriladi, so‘ngra suyultirilgan ammiak yoki natriy gidroksidi cho‘kma hosil bo‘lguncha qo‘shiladi. Hosil bo‘lgan cho‘kmani rangi «a» tajribadagi kobalt (II)ni asosli tuzi cho‘kmasi bilan solishtiriladi. Cho‘kma mo‘l miqdoridagi konsentrangan ammiakda eritiladi va «a» tarkibidagi kobalt (II) rangiga solishtiriladi.


6.1.Kobalt kationining reaksiyalari

Kobalt tuzlarining suyultirilgan eritmalarini va kristallgidratlari pushti ranglidir. Bu rang akvakompleks ion - $[Co(H_2O)_6]^{2+}$ ning hosil bo‘ishi bilan tushuntiriladi. Agar eritmalar bug’latilib, kompleks ion parchalansa yoki ularga suvni yo‘qotuvchi etanol, konsentrangan HC1 qo’silsa, ligandning o‘zgarishi bilan rang pushtidan ko’kka aylanadi. Kobalt ioni cho‘ktirish reaksiyalaridan tashqari komplekslanish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga ham uchraydi.

1.O‘yuvchi ishqorlar—NaOH va KOH Co^{2+} ion bilan ko‘k rangli asosli tuz cho‘kmasi hosil qiladi:



Agar cho‘kmaga ishqor qo‘shib qizdirilsa, asosli tuz pushti rangli $Co(OH)_2$ ga aylanadi:



$Co(OH)_2$ cho‘kmasi havoda asta-sekin oksidlanib, qo‘ng‘ir rangli $Co(OH)_3$ ga aylanadi:




$Co(OH)_2$ cho‘kmasining oksidlanishini H_2O_2 tezlashtiradi, natijada darhol qo‘ng‘ir rangli $Co(OH)_3$ hosil bo‘ladi:




$Co(OH)_3$ cho‘kmasi H_2SO_4 da erimaydi, lekin uning H_2O_2 yoki Na_2O_2 bilan hosil qilingan aralashmasida Co (III) ning Co (II) gacha qaytarilishi natijasida eriydi.

2.Ammiak eritmasi bilan kobalt ioni avval ko‘k rangli asosli tuz hosil qilib cho‘kadi, ammiak yoki ammoniy tuzlaridan mo‘l miqdorda qo’silsa, cho‘kma sarg‘ish rangli kompleks ionga aylanib erib ketadi:



Ammoniy tuzlari ishtirokida ammiak Co^{2+} ionini cho‘ktirmaydi. Agar eritmaga Fe^{3+} , Al^{3+} yoki Cr^{3+} kationlari aralashgan bo‘lsa, ularni ajratish vaqtida Co^{2+} qisman birgalashib cho‘kadi.

3.Ammoni rodanid — NH_4SCN Co^{2+} ion bilan ko‘k rangli $(NH_4)_2[Co(SCN)]$ tarkibli kompleks birikmani hosil qiladi:




Bu birikma rangining intensivligi past bo‘lganligidan eritmaga biroz amil (yoki izoamil) spirti qo‘shib chayqatilsa, ekstraksiya natijasida kompleks birikma shu erituvchi qatlamiga o‘tib, uni ko‘k rangga kiritadi.

Reaksiyanı bajarishda probirkaga 2-3 tomchi kobalt tuzi eritmasi solib, unga shpatelning uchida NH_4SCN kristallaridan bir nechtasini yoki uning konsentrangan eritmasini qo‘shib, aralashma yaxshilab chayqatiladi. Bunda kobaltning ko‘k rangli

$[\text{Co}(\text{SCN})]^+$, $[\text{Co}(\text{SCN})_2]$, $[\text{Co}(\text{SCN})_3]^-$ va $[\text{Co}(\text{SCN})_4]^{2-}$ kompleks ionlari hosil bo'ladi. Ko'k rang sezilarli bo'lmasa, probirkaga eritma hajmidan 3-4 marta kam amil (izoamil) spiriti qo'shib chayqatiladi va spirit qatlamining ko'k rangi kuzatiladi.

Mazkur reaksiyani gazetaning yozuvsiz joyidan bajarish (tarkibida lignin borligi uchun) yanada yaxshi natija beradi. Buning uchun qog'oz qirqimiga oldin ammoniy rodanid va ammoniy ftorid shmdirilib, quritiladi. Qog'ozga kobalt tuzi eritmasining bir tomchisi tomizilsa, tomchi tushgan joy ko'karadi. Agar kobaltga temir (III) ioni aralashgan bo'lsa, hosil bo'lgan $[\text{Fe}(\text{SCN})_6]^{3-}$ ning qo'ng'ir-qizil rangi qog'ozga shmdirilgan ftorid ta'siridan $[\text{FeF}_6]^{3-}$ yuzaga kelib, ko'k rangga kiradi. Kobalt (II) ionning ammoniy rodanid bilan hosil qiladigan birikmasini quruq reaksiya shaklida o'tkazish mumkin. Buning uchun kobalt tuzi kristallaridan bir nechtasi ammoniy rodanid kristallari bilan hovonchada ishqalansa, ko'k rang paydo bo'lganini ko'ramiz. Agar bunda aralashma qo'ng'ir tusga kirsa, kobalt tuziga Fe^{3+} aralashgan bo'ladi. Bu holda kukunga bir necha dona $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ kristallari solib ishqalansa, qo'ng'ir rang temir (III) ning qaytarilib, temir (II) ga aylangani uchun yo'qoladi.

4. 1-Nitrozo-2-naftol (Ilinskiy reaktiv) - $\text{C}_{10}\text{H}_6(\text{NO})(\text{OH})$ kobalt(II) nikobalt (III) gacha



oksidlab, qizil-qo'ng'ir rangli kompleks birikma $[\text{C}_{10}\text{H}_6(\text{NO})\text{O}]_3\text{Co}$ cho'kmasi hosil qiladi: *Reaksiyani bajarishda* 2-3 tomchi kobalt (II) tuzining neytral yoki kuchsiz kislotali eritmasiga (kuchli kislotali eritmalaarga CH_3COONa qo'shish tavsiya etiladi) bir necha tomchi suv qo'shib suyultiriladi va 2-3 tomchi reaktiv qo'shib qizdiriladi. Eritmada Fe^{3+} ionning bo'lishi reaksiyaga xalaqit beradi, chunki u reaktiv bilan to'q qo'ng'ir cho'kma hosil qiladi.

5. Kaliy yoki natriy nitrit (KNNO_2 yoki NaNO_2) biroz suyultirilgan va CH_3COOH qo'shib kislotali muhitga keltirilgan kobalt (II) tuzi eritmasi bilan sariq rangli $\downarrow \text{K}_3[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]$ kompleks birikma cho'kmasi hosil qiladi:




Bu reaksiya Co^{2+} ionini Ni^{2+} ionidan farqlashga imkon beradi va ularni bir-biridan ajratishda qo'llanishi mumkin. Bunday cho'kma suyultirilgan eritmalar qizdirilganda va uzoq turib qolganda yuzaga keladi.


6.2.Nikel kationining reaksiyalar

Nikel tuzlarining suyultirilgan eritmalarini va kristallgidratlari yashil rangli bo'ladi. Bu rang akvakompleks ion - $[\text{Ni}(\text{H}_2\text{O})_6]^{2+}$ ning hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi. Nikel ioni ham cho'ktirish reaksiyalaridan tashqari komplekslanish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi.


1.O'yuvchi ishqorlar—NaOH va KOH Ni^{2+} ioni bilan kislotalar, ammiak va ammoniy tuzlarida eriydigan yashil rangli $\text{Ni}(\text{OH})_2$ cho'kmasi hosil qiladi:





Ammiak eritmasi nikel sulfat bilan $(\text{NiOH})_2\text{SO}_4$ asosli tuzning yashil cho'kmasini hosil qiladi. Agar ammiak eritmasini qo'shish davom ettirilsa, cho'kma mo'l ammiakda erib, ko'k tusli kompleks tuz yuzaga keladi:



2. Natriy yoki kaliy karbonat nikel (II) ioni bilan kislotalar, ammiak va ammoniy sulfid eritmalarida eriydigan yashil rangli NiCO_3 cho'kmasi hosil qiladi:




3. Natriy gidrofosfat nikel (II) ioni bilan kislotalarda, shu jumladan, CH_3COOH eritmasida eriydigan yashil rangli $\text{Ni}_3(\text{PO}_4)_2$ cho'kmasi hosil qiladi. Cho'kma ammiakda eriydi, ammo o'yuvchi ishqorlarda erimaydi:



Reaksiyani bajarishda 1-2 tomchi NiCl_2 eritmasiga 2-3 tomchi Na_2HPO_4 eritmasi tomiziladi. Hosil bo'lgan yashil cho'kma sentrifugada ajratilib, ustiga NaOH eritmasidan 1-2 tomchi tomizilsa, cho'kma erimasligi, bordi-yu ammiak eritmasidan 1-2 tomchi qo'shilsa cho'kmaning erishi kuzatiladi.

4.Dimetilglioksim (Chugaev reaktivi) Ni^{2+} ioni bilan ammiakli muhitda yorqin pushti-qizil rangli cho'kma - ichki kompleks birikma hosil qiladi:



Bu reaksiya nikel uchun juda seziluvchan bo'lib, topilish minimumi 0,16 mkg, minimal konsentratsiya $3 \cdot 10^5$ mol/l, suyultirish chegarasi 300000 ni tashkil etadi. Reaksiya tomchi usulida o'tkazilsa, uning sezuvchanligi yanada oshadi. Reaksiyaga Fe^{2+} (qizil), Cu^{2+} (qizil-qo'ng'ir) ionlari xalaqit beradi. Reaksiyani pH~8 bo'lganda o'tkazish mumkin.


Reaksiyani bajarish uchun nikel tuzi eritmasining bir tomchisiga suyultirilgan ammiak eritmasidan 2-3 tomchi ta'sir ettirib, unga 3-4 tomchi dimetilglioksim eritmasi tomiziladi. Reaksiyani Na_2HPO_4 shimdirligilgan filtr qog'ozda bajarib ko'rilsa, xalaqit beradigan ionlar bo'lgan taqdirda ham u Ni^{2+} ionini topishga imkon beradi. Reaksiyani o'tkazishda qog'ozga bir tomchi Na_2HPO_4 eritmasi tomiziladi (reaksiya shu tomchi ustida boradi), so'ng hosil bo'lgan nam dog'ning o'rtasiga kapillar uchida tekshirilayotgan eritmadan tegiziladi va yana Na_2HPO_4 eritmasidan bir tomchi tomiziladi. So'ngra dog'ning atrofiga kapillar yordamida dimetilglioksim eritmasi shimdirliladi. Keyin qog'oz ammiakning bug'iga utiladi. Ni^{2+} ion bo'lsa, pushti rangli halqa hosil boiadi. Agar Ni^{2+} ning miqdori ko'p bo'lsa, dog'ning hammasi pushti rangga bo'yaladi. Na_2HPO_4

reaksiyaga xalaqit beruvchi kationlar bilan ta'sirlashib, dog'ning markazida qoladigan qiyin eruvchan fosfatlar, masalan, FePO_4 hosil bo'ladi. Ko'proq eriydigan nikel (II) fosfat esa dog'ning atrofiga siljiydi.

6.3.Mis kationining reaksiyalari

Misning eruvchan tuzlari havorang (ko'k). Unga cho'ktirish, komplekslanish reaksiyalari xos.

1. O'yuvchi ishqorlar ta'siridan mis ioni kislotalar va ammiakda eriydigan ko'k-yashil cho'kma hosil qiladi:




2. Ammiakning mis tuzlari bilan reaksiyasi mis ioni uchun xarekterli bo'lib, ancha seziluvchan reaksiyadir (suyultirish chegarasi 1:25000). Cu^{2+} ioni ammiak ta'siridan avval yashil cho'kma - $(\text{CuOH})_2\text{SO}_4$ so'ngra ortiqcha qo'shilgan reagent ta'siridan to'q ko'k rangli mis tetraammin kompleks ionini hosil qiladi:




Reaksiyani bajarishda Cu^{2+} tuzining 2-3 tomchi eritmasiga 1-2 tomchi NH_4OH eritmasi qo'shiladi. Gidroksid tuz cho'kmasi hosil bo'lgach, cho'kma eriguncha NH_4OH qo'shib boriladi.

3. Vodorod sulfid — H_2S kislotali muhitda nitrat kislotada eriydigan qora cho'kma hosil qiladi:





4. Ammoniy sulfid — $(\text{NH}_4)_2\text{S}$ ta'siridan mis ioni kolloid hosil qilib cho'kadi.

5. Natriy tiosulfat — $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ Cu^{2+} ioni eritmasi bilan kislotali muhitda (ozgina H_2SO_4) kompleks tuz hosil qiladi va eritma rangsizlanadi. Eritma ozroq qizdirilib, qora-qo'ng'ir rangli cho'kmaolinadi:




Bu reaksiyadan foydalanib, Cu^{2+} ioni Cd^{2+} ionidan ajratiladi ($\text{pH} < 7$ da Cd^{2+} ioni $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ta'siridan CdS cho'kma hosil qilmaydi).


6. Kaliy geksamianoferrat (II)— $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ mis ioni bilan $\text{pH} < 7$ bo'lganda qizil rangli cho'kma hosil qiladi:




Hosil bo'lgan cho'kma suyultirilgan kislotalarda erimaydi, lekin ammiakda eriydi:



7. Kaliy yodid KJ Cu^{2+} tuzi eritmasiga qo'shilganda Cu_2J_2 oq cho'kmasi hosil bo'lib, shu lahzadayoq cho'kmanning rangi ajralib chiqayotgan yod bilan niqoblanadi:





8. Kaliy rodanid — KSCN Cu^{2+} tuzi eritmasiga ($\text{pH} < 7$) qo'shilganda oq rangli CuSCN cho'kmaga aylanadigan qora rangli $\text{Cu}(\text{SCN})_2$ cho'kma hosil bo'ladi:



Qora cho'kmaning oqarishi sekin kechadi, biroq reaksiyani sulfit kislota (qaytaruvchi) tezlashtiradi. Ag^+ xalaqit beradi, Cd^{2+} xalaqit bermaydi.

9. Segnet tuzi (kaliy natriy tartrat) — $\text{KNaC}_4\text{H}_4\text{O}_6$ mis (II) ioni eritmasiga ishqoriy muhitda ta'sir ettirilsa, to'q ko'k rangli ichki kompleks birikma - «Feling suyuqligi» hosil bo'ladi:





«Feling suyuqligi» aldegid guruhi bo'lgan organik moddalarni oksidlaydi, natijada sariq rangli CuOH cho'kma hosil bo'lib, qizdirilganda qizil rangli Cu_2O ga aylanadi:




10. Alanga rangining bo'yalishi. Cu^{2+} tuzi eritmasiga nixrom sim botirib, rangsiz gaz gorelkasi alangasiga tutilsa, alanga yashil rangga bo'yaladi.

6.4.Kadmiy kationining reaksiyalari

1.O'yuvchi ishqorlar eritmasining 2-3 tomchisiga bir necha tomchi Cd^{2+} tuzi eritmasi tomizilsa, kislotalarda eriydigan oq $\text{Cd}(\text{OH})_2$ cho'kma hosil bo'ladi:



2. NH_3 eritmasi Cd^{2+} ioni bilan ta'sirlashganda, $\text{Cd}(\text{OH})_2$ tarkibli oq cho'kma tushadi. Agar reagent mo`liroq olinsa, cho'kma reagent ta'sirida erib, rangsiz ammiakli kompleksga aylanadi:




Bu hodisadan Cd^{2+} va Cu^{2+} ionlarini Bi^{3+} ning NH_4OH da erimaydigan asosli tuzi cho'kmasidan ajratib olishda foydalilanildi.

3.Natriy yoki kaliy karbonat ta'sirlashganda kadmiyning oq rangli oksikarbonati hosil bo'ladi.

4.Natriy gidrofosfat kadmiy ioni bilan ta'sirlashganda, nitrat kislota va ammiakda eriydigan oq rangli kadmiy fosfat cho'kmasi hosil bo'ladi.

5.Vodorod sulfid Cd^{2+} bilan kislotali, neytral va ishqoriy ($\text{pH} < 0,5$) muhitda ta'sirlashib, ishqorlar va sulfidlarda erimaydigan sariq rangli CdS cho'kmasini hosil qiladi:



Reaksiyani bajarishda Cd^{2+} tuzi eritmasiga kislotali muhitga kelguncha 2 N HCl eritmasi qo'shib aralashtinladi va chayqati Kb turilgan holda eritmaga NH_4Cl tuzi qo'shiladi. Eritma isitilib, unga H_2S eritmasi quyiladi. Agar eritmada Cu^{2+} ioni bo'lsa, qora rangli CuS cho'kmasi tushadi. Cho'kma ajratilgach, sentrafugat suv bilan bir necha marta suyultirilib, unga H_2S eritmasidan yana qo'shiladi. Bunda sariq cho'kmaning hosil bo'lishi, eritmada Cd^{2+} ioni borligidan dalolat beradi.

Kislota va galogenidlarning mo'l miqdorlari reaksiyaning borishiga xalaqit beradi. Eruvchanlik ko'paytmasi ancha kichik bo'lgan mis sulfid, CdS dan farqli ravishda, kuchli kislotali va ammoniy xloridning ko'p miqdori ishtirokida cho'kadi. Misni kadmiydan ajratishda uning bu xossasidan foydalaniladi.

6. Kaliyyodid—KJ kadmiy ioni bilan CdJ_4^{2-} -kompleks ionini hosil qiladi.

7. Glitserin yordamida Cd^{2+} ioni Cu^{2+} , Pb^{2+} va Bi^{3+} ionlari aralashmasidan ajratiladi. Cu^{2+} , Pb^{2+} , Bi^{3+} ionlari glitserin bilan ta'sirlashib, glitseratlar hosil qiladi. Glitserat komplekslarining hosil bo'lishi tufayli NaOH ta'siridan gidroksidlar yoki asosli cho'kmalar hosil bo'lmaydi. Cd^{2+} ioni esa glitserin ishtirokida NaOH bilan $Cd(OH)_2$ cho'kmasini hosil qiladi. Hosil bo'lgan cho'kma ajratilib, bir necha marta distillangan suv bilan yuvilgach, HCl eritmasida eritiladi va Cd^{2+} ioniga xos reaksiyalar o'tkaziladi. Sentrafugatga CH_3COOH ta'sir ettirib, glitseratlar parchalanadi. So'ngra Cu^{2+} , Pb^{2+} , Bi^{3+} ketma-ketlikda alohida xususiy reaksiyalar yordamida ionlar topiladi.

8. Kaliy tetrayodidovismutat (III) tomchisini filtr qog'oziga tomizib, unga bir tomchi kadmiy tuzi eritmasi tomizilsa, BiJ_3 ning qora dog'i paydo bo'ladi:

$$Cd^{2+} + 2[BiJ_4]^- \rightarrow CdJ_2 \downarrow + 2BiJ_3 \downarrow$$

$$CdJ_2 + CdJ_2 \rightarrow Cd[CdJ_4]$$

Qora dog' KJ va $Na_2S_2O_3$ qo'shilganda yo'qoladi.


6.5. Hg^{2+} kationining analitik reaksiyalari

Extiyot bo'ling! Simob tuzlari zaharli!

1. Ishqoriy metallarning gidroksidlari va ammiak bilan reaksiyasi (guruh reagenti ta'siri).

2. Qalay (II) xlorid bilan reaksiyasi.

Qalay (II) xlorid simob (II) kationlari bilan oq cho'kma simob (I) xlorid –kalomelni hosil qiladi. Qalay (II) xlorid eritmasidan yana qo'shsak, cho'kma qorayadi, simob ajraladi:



Ish tartibi: Probirkaga 2-3 tomchi simob (II) tuzi eritmasi va tomchilab qalay (II) xlorid eritmasidan qo'shiladi. Avval oq cho'kma, so'ngra turishi natijasida qora cho'kma hosil bo'ladi.

3. Kaliy yodid bilan reaksiyasi .

Kaliy yodid simob (II) kationlari bilan qizil cho'kma hosil qilib, ortiqcha reaktivda erib, rangsiz kompleks-ion hosil qiladi.



Ish tartibi: Probirkaga 2-3 tomchi simob (II) tuzi eritmasidan va 1 tomchi 5% kaliy yodid tomiziladi. Qizil rangli cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma ortiqcha qo'shilgan reaktivda eriydi.

16- jadval


VI guruh kationlarining analitik reaksiyalari

Reaktiv	Kationlar				
	Co ²⁺	Ni ²⁻	Cu ²⁺	Cd ²⁺	Hg ²⁺
1	2	3	4	5	6
Ishqorlar, ammiak	Co(OH)Cl (ch) havorang	Ni(OH)Cl (ch) och-yashil	Cu(OH)Cl(ch) havorang- yashil	Cd(OH) ₂ (ch) oq	HgO Sariq [OHg ₂ NH ₂]NO ₃ HgNH ₂ Cl (ch) oq
Ammiak, ortiqcha	[Co(NH ₃) ₆] ²⁺ loyqa-sariq-	[Ni(NH ₃) ₆] ²⁺ to‘q havo rang	[Cu(NH ₃) ₄] ²⁺ yorqin ko‘k rang	[Cd(NH ₃) ₄] ²⁺ rangsiz	[Hg(NH ₃) ₄] ²⁺ rangsiz
NaOH + H ₂ O ₂	Co(OH) ₃ (ch) qora-jigarrang	Ni(OH)Cl(ch) och-yashil	Cu(OH)Cl(ch) havorang- yashil	Cd(OH) ₂ (ch) oq	HgO(ch) sariq
Na ₂ HPO ₄	CoHPO ₄ (ch) Co ₃ (PO ₄) ₂ (ch) binafsha rang	NiHPO ₄ (ch) Ni ₃ (PO ₄) ₂ (ch) yashi	CuHPO ₄ (ch) Cu ₃ (PO ₄) ₂ (ch) havo rang	CdHPO ₄ (ch) Cd ₃ (PO ₄) ₂ (ch) oq	HgHPO ₄ (ch) Hg ₃ (PO ₄) ₂ (ch) oq
H ₂ S (NH ₄) ₂ S	CoS (ch) qora	NiS (ch) qora	CuS (ch) qora	CdS (ch) sariq	HgS (ch) qora
Ditizon (Dz)	CoDz binafsha	NiDz binafsha	CuDz jigar rang	CdDz qizil	HgDz zarg‘aldoq
Komplekslar organik erituvchilarda eritiladi					
Alanganing rangini bo‘yash	Alanga rangini bo‘yamaydi	Alanga rangini bo‘yamaydi	Yaltillangan yashil	Alanga rangini bo‘yamaydi	Alanga rangini bo‘yamaydi
Ochish reaksiyalari	KNCS amil spirtida ko‘k xalqa	Dimetilgliok- sim bilan lola qizil dog‘	NH ₃ , K ₄ [Fe(CN) ₆] qo‘ng‘ir cho‘kma	H ₂ S sariq limon rangli cho‘kma	Sn(II) + HCl oq cho‘kma

VI ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI

Cu²⁺, Hg²⁺, Co²⁺, Ni²⁺


Bosqichning t/r	Analiz bosqichlari
1*	VI analitik guruh kationlarining guruh reagenti (mo'l NH ₃ ·H ₂ O) bilan o'zaro ta'siri: $\text{Cu}^{2+} \xrightarrow{\text{mo'l NH}_3\cdot\text{H}_2\text{O}} [\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$ $\text{Hg}^{2+} \xrightarrow{\text{mo'l NH}_3\cdot\text{H}_2\text{O}} [\text{Hg}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$ $\text{Co}^{2+} \xrightarrow{\text{mo'l NH}_3\cdot\text{H}_2\text{O}} [\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$ $\text{Ni}^{2+} \xrightarrow{\text{mo'l NH}_3\cdot\text{H}_2\text{O}} [\text{Ni}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$
2*	2 M H ₂ SO ₄ ta'sirida ammiakatlarni parchalash.
3*	2 eritmaga Na ₂ S ₂ O ₃ ta'sir ettirib Cu ²⁺ va Hg ²⁺ ionlarini VI analitik gu-ruhining boshqa kationlardan ajratish: $\text{Cu}^{2+} \xrightarrow{\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3, \Delta} \text{Cu}_2\text{S} \downarrow$ $\text{Hg}^{2+} \xrightarrow{\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3, \Delta} \text{HgS} \downarrow$
4	Suyultirilgan HNO ₃ da qizdirilganda 3 cho'kmani qisman eritib, Cu ₂ S ni HgS dan ajratish. $\text{Cu}_2\text{S} \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3, \Delta} \text{Cu}^{2+}$
5	Konsentrangan NH ₃ ·H ₂ O ta'sir ettirib 4 eritmagan Cu ²⁺ ionlarni topish $\text{Cu}^{2+} \xrightarrow{\text{NH}_3\cdot\text{H}_2\text{O}} [\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$
6	HCl ishtirokida bromli suv yoki zar suvi ta'sir ettirib 3 cho'kmani eritish: $\text{HgS} \downarrow \xrightarrow{\text{Br}_2; \text{HCl}} [\text{HgCl}_2] + \text{S} \downarrow$ $\text{HgS} \downarrow \xrightarrow{\text{kons HNO}_3; \text{kons HCl}} [\text{HgCl}_2]$
7	Sentrifugalab S \downarrow dan [HgCl ₂] ni ajratish.
8	SnCl ₂ ta'sirida 7 sentrifugatdan Hg ²⁺ ionlarini topish $[\text{HgCl}_2] \xrightarrow{\text{SnCl}_2} \text{Hg} \downarrow$
9	Amil spirt ishtirokida NH ₄ SCN ta'sir ettirib, 3 sentrafugatdan Co ²⁺ ionlarini topish: $\text{Co}^{2+} \xrightarrow{\text{NH}_4\text{SCN}} (\text{NH}_4)_2[\text{Co}(\text{SCN})_4]$
10	Chugayev reaktiv (dimetilglioksim) ta'sir ettirib, sentrifugatdan Ni ²⁺ ionlarini topish $\text{Ni} \xrightarrow{\text{dimetilglioksim}} \text{Chemical Structure}$



*1-3 bosqichlar I-V analitik guruh kationlari aralashmasining sistematik analizida bajariladi.

10-sxema

ANALITIK GURUH KATIONLARINING SISTEMATIK ANALIZ SXEMASI



I – VII ANALITIK GURUH KATIONLARI ARALASHMASINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI


Bosqichning t/r	Analiz bosqichlari
1	Alovida namunadagi NH_4^+ ionlarini ishqor ta'sir ettirib, qizdirib to-pish: $\text{NH}_4^+ \xrightarrow{\text{NaOH}, \Delta} \text{NH}_3 \uparrow$
2	Alovida namunaga $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ eritmasi ta'sir ettirib, temir(II) ion-larini topish: $\text{Fe}^{2+} \xrightarrow{\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]} \text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2 \downarrow$
3	Alovida namunaga $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ eritmasi ta'sir ettirib, temir(III) ion-larini topish: $\text{Fe}^{3+} \xrightarrow{\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]} \text{Fe}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]_3 \downarrow$
4	Alovida namunadagi Na_2CO_3 ta'sirida qizdirib K^+ ionlarini topish-dan oldin NH_4^{3+} ionlarini yo'qotish: $\text{NH}_4^+ \xrightarrow{\text{Na}_2\text{CO}_3, \Delta} \text{NH}_3 \uparrow$ $\text{Me}^{n+} \xrightarrow{\text{Na}_2\text{CO}_3, \Delta} \text{II, IV, V, VI analitik guruh kationlarining oksidlari, gidroksidlari, karbonatlari va asosli tuzlari cho'kmasi.}$
5	4 eritmani CH_3COOH eritmasi bilan pH~7gacha neytrallash. Bunda III analitik guruh gidroksoanionlari parchalanadi va cho'kma hosil bo'ladi, uni sentrifugalab ajratiladi va keyingi analizda foydalani-ladi: $[\text{Me}(\text{OH})_6]^{6-n} \xrightarrow{\text{CH}_3\text{COOH}} \text{Me}(\text{OH})_n \downarrow$
6	$\text{HC}_4\text{H}_4\text{O}_6$, $\text{Na}_3[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]$, $\text{Na}_2\text{Pb}[\text{Cu}(\text{NO}_2)_6]$ reagentlari bilan 5 erit-madan K^+ ionlarini topish: $\text{K}^+ \xrightarrow{\text{NaHC}_4\text{H}_4\text{O}_6} \text{KHC}_4\text{H}_4\text{O}_6 \downarrow$ $\text{K}^+ \xrightarrow{\text{Na}[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]} \text{K}_2\text{Na}[\text{Co}(\text{NO}_2)_6] \downarrow$ $\text{K}^+ \xrightarrow{\text{Na}_2\text{Pb}[\text{Cu}(\text{NO}_2)_6]} \text{K}_2\text{Pb}[\text{Cu}(\text{NO}_2)_6] \downarrow$
7	Alovida namunadan K_2CO_3 ta'sirida qizdirib, Na^+ ionlarini topish-dan oldin NH_4^+ ionlarini yo'qotish: $\text{NH}_4^+ \xrightarrow{\text{K}_2\text{CO}_3, \Delta} \text{NH}_3 \uparrow$ $\text{Me}^{n+} \xrightarrow{\text{K}_2\text{CO}_3, \Delta} \text{III, V, VI, II analitik guruh kationlarining oksidlari, gidroksidlari, karbonatlari va asosli tuzlari cho'kmasi.}$
8	7 eritmani CH_3COOH eritmasi bilan pH ~7gacha neytrallash. Bunda IV analitik guruh gidroksoanionlari parchalanadi va cho'kma hosil bo'ladi, u sentrifugalab ajratiladi va keyingi analizda foydalani-maydi. $[\text{Me}(\text{OH})_6]^{6-n} \xrightarrow{\text{CH}_3\text{COOH}} \text{Me}(\text{OH})_n \downarrow$


9	K[Sb(OH) ₆], Zn(UO ₂) ₃ (CH ₃ COO) ₈ reagentlari bilan 8 eritmadan Na ⁺ ionlarini topish: $\text{Na}^+ \xrightarrow{\text{K[Sb(OH)}_6]} \text{Na}[\text{Sb(OH)}_6] \downarrow$ $\text{Na}^+ \xrightarrow{\text{Zn(UO}_2)_3(\text{CH}_3\text{COOH})_8} \text{NaZn}(\text{UO}_2)_3(\text{CH}_3\text{COOH})_9 \cdot 9\text{H}_2\text{O} \downarrow$
10	Boshlang'ich eritmadan 2 M HCl eritmasi ta'sir ettirib II analitik guruh kationlarini ajratish. $\text{Ag}^+ \xrightarrow{\text{HCl}} \text{AgCl} \downarrow$ $\text{Pb}^{2+} \xrightarrow{\text{HCl}} \text{PbCl}_2 \downarrow$ $\text{Hg}_2^{2+} \xrightarrow{\text{HCl}} \text{Hg}_2\text{Cl}_2 \downarrow$ HCl saqlagan cho'kmanni suv bilan yuvish.
11	II analitik guruh kationlari aralashmasining analiz bosqichlari sxe-masi bo'yicha 10 cho'kmanni analiz qilish.
12	C ₂ H ₅ OH ishtirokida qizdirib H ₂ SO ₄ eritmasi ta'sir ettirib III analitik guruh kationlarini va Pb ²⁺ ionlarini cho'ktirish: $\text{Ba}^{2+} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4, \Delta} \text{BaSO}_4 \downarrow$ $\text{Sr}^{2+} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4, \Delta} \text{SrSO}_4 \downarrow$ $\text{Ca}^{2+} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4, \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}, \Delta} \text{CaSO}_4 \downarrow$ $\text{Pb}^{2+} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4, \Delta} \text{PbSO}_4 \downarrow$ H ₂ SO ₄ saqlagan cho'kmanni suv bilan yuvish.
13	30 %-li NH ₄ CH ₃ COO eritmasi ta'sir ettirib, so'ng sentrifugalab, 12 cho'kmadan PbSO ₄ ↓ ni ajratish: $\text{PbSO}_4 \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_4\text{CH}_3\text{COO}} [\text{PbSO}_4 \cdot \text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ Sentrifugalangandan so'ng III analitik guruh kationlari sulfatlarining cho'kmasi III analitik guruh kationlari aralashmasining analiz bos-qichlari bo'yicha analiz qilish.
14	III analitik guruh kationlari aralashmasining sistematik analiz bos-qichlari sxemasi bo'yicha 13 cho'kmanni analiz qilish.
15	3 % li H ₂ O ₂ ishtirokida mo'l 6M NaOH eritmasi ta'sir ettirib, IV guruh kationlarini V, VI analitik guruh kationlaridan ajratish: $\text{Al}^{3+} \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Al}(\text{OH})_3 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH}} [\text{Al}(\text{OH})_6]^{3-}$ $\text{Zn}^{2+} \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Zn}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH}} [\text{Zn}(\text{OH})_4]^{2-}$ $\text{Cr}^{3+} \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Cr}(\text{OH})_3 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH, H}_2\text{O}_2, \Delta} \text{CrO}_4^{2-}$ $\text{Sn}^{2+} \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Sn}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH, H}_2\text{O}_2, \Delta} [\text{Sn}(\text{OH})_6]^{2-}$ $\text{Sn(IV)} \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{Sn}(\text{OH})_4 \downarrow \xrightarrow{\text{mo'l NaOH}} [\text{Sn}(\text{OH})_6]^{2-}$ $\text{As(III)} \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{AsO}_3^{3-} \xrightarrow{\text{H}_2\text{O}_2, \Delta} \text{AsO}_4^{3-}$ $\text{As(V)} \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{AsO}_4^{3-} \xrightarrow{\text{H}_2\text{O}_2, \Delta} \text{AsO}_4^{3-}$ Bunda V, VI analitik guruh kationlari cho'kmalar hosil qiladilar: Fe(OH) ₃ , Mg(OH) ₃ , MnO ₂ ·nH ₂ O, BiOCl, SbO ₂ Cl, Cu(OH) ₂ , HgO, Ni(OH) ₂ , Co(OH) ₃ .

	<p>15 sentrufugatning alohida ulushiga HCl muhitida rux metali ta'sir ettirib, As(V) ionlarini topish (topishga Sb(III), Sb(V) ionlari halaqit beradi): As (III), (V) $\xrightarrow{Zn; HCl}$ AsH₃↑</p> <p>AgNO₃ bilan namlangan qog'oz $\xrightarrow{AsH_3 \uparrow}$ Ag↓ (qora) (Gutsayt reaksiyasi)</p>
16	<p>AsH₂(HgCl)↓ AsH(HgCl)₂↓</p> <p>[HgCl₂] bilan namlangan qog'oz (Zanger-Blek reaksiyasi)</p> <p>As₂Hg₃↓</p> <p style="text-align: right;">As(HgCl)₃↓ (sarg'ish-qo'ng'ir)</p>
17	<p>Qizdirilganda NH₄Cl kristallari ta'sirida 15 sentrufugatdan [Al(OH)₆]³⁻, [Sn(OH)₆]²⁻ gidroksoanionlarni ajratish:</p> <p>[Al(OH)₆]³⁻ $\xrightarrow{NH_4Cl, \Delta}$ Al(OH)₃↓</p> <p>[Sn(OH)₆]²⁻ $\xrightarrow{NH_4Cl, \Delta}$ Sn(OH)₄↓</p>
18	<p>2 M HCl ta'sirida 17 cho'kmani eritish:</p> <p>Al(OH)₃↓ \xrightarrow{HCl} Al³⁺</p> <p>Sn(OH)₄↓ \xrightarrow{HCl} [SnCl₆]²⁻</p>
19	<p>18 sentrufugatga alizarin yoki natriy atsetat eritmalarini ta'sir ettirib, Al³⁺ ionlarini topish:</p> <p>Al³⁺ $\xrightarrow{\text{alizarin, NaOH}}$ </p> <p>Al³⁺ $\xrightarrow{CH_3COONa}$ Al(OH)₂CH₃COO↓</p>
20	<p>HCl muhitida temir qirindilari bilan qaynagan 18 eritmaga simob (II) tuzi eritmasi ta'sir ettirib, Sn(IV) ionlarini topish:</p> <p>[SnCl₆]²⁻ $\xrightarrow{Fe, HCl; \Delta}$ Sn²⁺ $\xrightarrow{HgCl_2}$ Hg↓</p>
21	<p>17 sentrufugatga ditizon yoki K₄[Fe(CN)₆] eritmasi ta'sir ettirib, Zn²⁺ kationlarini topish:</p> <p>[Zn(NH₃)₄]²⁺ $\xrightarrow{\text{ditizon}}$ </p> <p>[Zn(NH₃)₄] $\xrightarrow{K_4[Fe(CN)_6]}$ K₂Zn₃[Fe(CN)₆]₂↑</p>

	15 cho'kmaga H_2O_2 bilan HNO_3 ta'sir ettirib Sb(V) ionlarini V, VI analitik guruhning boshqa kationlaridan ajratish: $\text{SbO}_2\text{Cl} \xrightarrow{\text{HNO}_3; \text{H}_2\text{O}_2} \text{HSbO}_3 \downarrow$ Bunda V, VI guruh kationlarining erimaydigan birikmalari quyidagi kationlarining qaytarilishi bilan eriydi: $\text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3; \text{H}_2\text{O}_2} \text{Mn}^{2+}$ $\text{Co(OH)}_2 \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3; \text{H}_2\text{O}_2} \text{Co}^{2+}$
22	22 cho'kmani HCl eritmasida eritish: $\text{HSbO}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{HCl}} [\text{SbCl}_6]^-$
23	23 eritmaga nikel plastinkasida rux metali ta'sir ettirib, Sb(V) ion-larini ajratish: $[\text{SbCl}_6]^- \xrightarrow{\text{Zn}} \text{Sb} \downarrow$
24	22 sentrifugatga konsetrlangan $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ta'sir ettirib, V analitik guruh kationlarini cho'ktirish: $\text{Mg}^{2+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} \text{Mg}(\text{OH})_2 \downarrow$ $\text{Mn}^{2+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} \text{Mn}(\text{OH})_2 \downarrow$ $\text{Fe}^{3+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} \text{Fe}(\text{OH})_3 \downarrow$ $\text{Bi}^{3+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} \text{BiONO}_3 \downarrow$ Bunda VI analitik guruh kationlari ammiakatlar ko'rinishida eritma-da qoladi: $\text{Cu}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} [\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$ $\text{HgO} \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} [\text{Hg}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$ $\text{Co}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} [\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$ $\text{Ni}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} [\text{Ni}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$
25	25 cho'kmaga $\text{NH}_4\text{Cl} + 3\%$ li H_2O_2 eritmasi ta'sir ettirib, Mg^{2+} kationlarini ajratish: $\text{Mg}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{\text{NH}_4\text{Cl}} \text{Mg}^{2+}$ $\text{Mn}(\text{OH})_2 \downarrow \xrightarrow{3\% \text{ H}_2\text{O}_2} \text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow$ Cho'kma tarkibi: $\text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow$, $\text{BiONO}_3 \downarrow$, $\text{Fe}(\text{OH})_3 \downarrow$
26	27 sentrifugatga ammiakli bufer eritma ishtirokida Na_2HPO_4 ta'sir ettirib, Mg^{2+} ionlarini topish: $\text{Mg}^{2+} \xrightarrow{\text{Na}_2\text{HPO}_4, \text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O} + \text{NH}_4\text{Cl}} \text{MgNH}_4\text{PO}_4 \downarrow$
27	26 cho'kmaga HNO_3 eritmasi ta'sir ettirib, Bi^{3+} kationlarini ajratish: $\text{BiONO}_3 \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3} \text{Bi}^{3+}$ $\text{Fe}(\text{OH})_3 \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3} \text{Fe}^{3+}$ Cho'kmada: $\text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow$
28	28 bosqich bo'yicha olingan $\text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$ cho'kmani H_2O_2 ishtiro-kida HNO_3 eritmasi ta'sir ettirib eritish: $\text{MnO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3; \text{H}_2\text{O}_2} \text{Mn}^{2+}$
29	

30	29 eritmaga $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ ta'sir ettirib, Mn^{2+} ionlarini topish: $\text{Mn}^{2+} \xrightarrow{(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8; \text{HNO}_3; \text{AgNO}_3} \text{MnO}_4^-$
31	28 sentrifugatga yangi tayyorlangan $\text{Na}_4[\text{Sn}(\text{OH})_6]$ ta'sir ettirib, Bi^{3+} ionlarini topish: $\text{Bi}^{3+} \xrightarrow{\text{Na}_4[\text{Sn}(\text{OH})_6]} \text{Bi} \downarrow$
32	2 M H_2SO_4 ta'sirida 25 eritmadi ammiakatlarni parchalash
33	32 eritmaga $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ta'sir ettirib, VI analitik guruhning boshqa kationlaridan Cu^{2+} va Hg^{2+} ionlarini ajratish: $\text{Cu}^{2+} \xrightarrow{\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3, \Delta} \text{Cu}_2\text{S} \downarrow$ $\text{Hg}^{2+} \xrightarrow{\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3, \Delta} \text{HgS} \downarrow$
34	Qizdirilganda suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirib, 33 cho'kmadan Cu_2S ni HgS dan ajratish: $\text{Cu}_2\text{S} \downarrow \xrightarrow{\text{HNO}_3; \Delta} \text{Cu}^{2+}$ Bu sharoitda $\text{HgS} \downarrow$ erimaydi.
35	34 sentrifugatga konsentrangan $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ta'sir ettirib, Cu^{2+} ionlari-ni topish: $\text{Cu}^{2+} \xrightarrow{\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}} [\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$
36	Qizdirilganda HCl ishtirokida bromli suv yoki zar suvi ta'sir ettirib 34 cho'mani eritish: $\text{HgS} \downarrow \xrightarrow{\text{Br}_2; \text{HCl}} [\text{HgCl}_2] + \text{S} \downarrow$ $\text{HgS} \downarrow \xrightarrow{\text{kons HNO}_3; \text{kons HCl}} [\text{HgCl}_2]$
37	36 sentrifugatga SnCl_2 eritmasi ta'sir ettirib, Hg^{2+} ionlarini topish: $[\text{HgCl}_2] \xrightarrow{\text{SnCl}_2} \text{Hg} \downarrow$
38	33 sentrifugatga amil spirt ishtirokida NH_4SCN eritmasi ta'sir etti-rib, Co^{2+} ionlarini topish: $\text{Co}^{2+} \xrightarrow{\text{NH}_4\text{SCN}} (\text{NH}_4)_2[\text{Co}(\text{SCN})_4]$
39	33 sentrifugatga Chugayev reaktiv (dimetilglioksim) ta'sir ettirib, Ni^{2+} ionlarini topish: $\text{Ni} \xrightarrow{\text{dimetilglioksim}}$



I – VI ANALITIK GURUH KATIONLARI ARALASHMASINING SISTEMATIK**ANALIZ SXEMASI**

LABORATORIYA ISH № 13

Anionlarning umumiy tavsifi

Anionlar kumush, bariy, kalsiy, stronsiy, rux, simob va boshqa kationlar bilan qiyin eriydigan cho'kmalar hosil qilishi, oksidlanish-qaytarilishi, kompleks hosil qilishi, anion hosil qilgan kislotalarni uchuvchanligi kabi xossalari bo'yicha tasniflanadi.

Har bir tasniflanishda 2 dan 6 gacha guruuhlar bor. 1 va 2 jadvallarda anionlarni 1) qiyin eriydigan cho'kma hosil qilish xossasi bo'yicha tasnifi (3 ta guruh) va 2) oksidlanish-qaytarilish xossasi bo'yicha tasnifi (3 ta guruh) berilgan.

Anionlarni cho'kma hosil qilish xossalari bo'yicha tasniflanganda 3 guruuhga bo'linadi. I va II guruuhni guruh reagenti BaCl_2 va AgNO_3 , III guruuhning guruh reagenti yo'q.

19- jadval

Anionlarning cho'kma hosil qilishi bo'yicha tasnifi

Analitik guruh	Guruh tavsifi	Guruh reagenti	Anionlar
1 guruh	Bariy tuzlari bilan suvda erimaydigan cho'kmalarni hosil qiladi	Bariy xlorid neytral yoki kuchsiz ishqoriy sharoitda qo'shiladi	Sulfat ioni SO_4^{2-} Sulfit ioni SO_3^{2-} Tiosulfat ioni $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ Xromat ioni CrO_4^{2-} Karbonat ioni CO_3^{2-} Borat ioni $\text{Br}_4\text{O}_7^{2-}$, (BO_2^-) Oksalat ioni $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ Fosfat ioni PO_4^{3-}
2 guruh	Kumush tuzlari bilan suvda va nitrat kislotada erimaydigan cho'kmalar hosil qiladi	Kumush nitrat eritmasi 2 n nitrat kislotasi ishtirokida	Xlorid ioni Cl^- Yodid ioni J^- Bromid * Br^- Rodonid ioni SCN^- Sulfid ioni ** S^{2-}
3 guruh	Bariy va kumush tuzlari bilan cho'kma hosil qilmaydi	yo'q	Nitrit ioni NO_2^- Nitrationi NO_3^- Atsetat ioni CH_3COO^-

* - kumush bromidi suyultirilgan HNO_3 da oson eriydi

** - kumush sulfidi isitilganda HNO_3 da eriydi

I GURUH ANIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI **SO_4^{2-} , SO_3^{2-} , CO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, PO_4^{3-} , CrO_4^{2-} , $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$, BO_2^{2-}**

Mashg'ulotning maqsadi:

I analitik guruh anionlarining analitik reaksiyalarini bajarishni o'rghanish
Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar:

Natriy sulfat, natriy sulfit, natriy karbonat, natriy gidrofosfat, natriy tiosulfat, ammoniy oksalat, natriy tetraborat;


Bariy xlorid, stronsiy xlorid, qo`rg`oshin (II) nitrat, sulfat kislota, kaliy permanganat, yod va brom eritmaları, kumush nitrat, ohakli suv, kalsiy xlorid, magniy sulfat, magniy xloridning ammoniy gidroksid va ammoniy xlorid bilan aralashmasi, molibden suyuqligi, mis (II) sulfat, xlorid, nitrat va sirka kislotalar

I guruh anionlarining guruh reaktivisi bariy xlorid yoki nitrati bo`lib, reaksiya kuchsiz ishqoriy va neytral sharoitda olib boriladi. Bariy ionini SO_4^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ bilan hosil qilingan cho`kmalari sirka kislotalada erimaydi. $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$, CO_3^{2-} , $\text{B}_4\text{O}_7^{2-}(\text{BO}_2)$, PO_4^{3-} bilan hosil qilgan cho`kmalari sirka kislotasida eriydi.

SO_4^{2-} SULFAT-IONINING ANALITIK REAKSIYALARI

Bariy tuzlari bilan reaksiyalari .

Bariy ioni sulfat ioni bilan oq kristall cho`kma hosil qiladi:




Reaksiyani bajarish

Probirkaga 1-2 tomchi natriy sulfat eritmasidan olib, ustiga 1-2 tomchi bariy xlorid tomizing. Oq cho`kma hosil bo`lishini kuzating.


Bariy sulfat kuchli kislotaling tuzi bo`lgani uchun mineral kislotalarda erimaydi. Konsentrik sulfat kislotasida juda oz eriydi. Bu bilan bariy sulfat boshqa hamma anionlarning bariyli tuzlaridan farqlanadi.

Stronsiy ioni bilan reaksiyasi. Stronsiy ioni sulfat ioni bilan oq kristall cho`kma hosil qiladi:



Reaksiyani bajarish. Probirkaga 3-5 tomchi natriy sulfat va 3-5t tomchi stronsiy xlorid solinadi va oq kristall cho`kma tushishi kuzatiladi.

Qo`rg`oshin atsetat bilan reaksiyasi. SO_4^{2-} ioni qo`rg`oshin ioni bilan oq amorf cho`kma hosil qiladi. Cho`kma HCl, HNO_3 , NaOH hamda 30%li $\text{CH}_3\text{COONH}_4$ yoki CH_3COONa da eriydi:





Reaksiyani bajarish.

Probirkaga 5-6 tomchi natriy sulfat eritmasidan solib, teng hajmda qo`rg`oshin eritmasidan qo`sning, oq cho`kma hosil bo`ladi. Hosil bo`lgan cho`kmani 4 ta probirkaga bo`ling. Birinchisiga ikki normallik HCl, ikkinchisiga 2n HNO_3 , uchinchisiga kaliy yoki natriy gidroksid, to`rtinchisiga 30%li ammoniy atsetat eritmasidan soling. Cho`kmaning erishini kuzating.

SO_3^{2-} SULFIT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI


Bariy va stronsiy nitrat bilan reaksiyasi. Bariy va stronsiy nitratlar sulfit ioni bilan oq cho`kma BaSO_3 va SrSO_3 hosil qiladi. Cho`kmalar mineral kislotalarda (HCl, HNO_3) eriydi:




Reaksiyani bajarish

2 ta probirkaga 3-5 tomchidan natriy sulfit solinadi, birinchisiga 2-3 tomchi $\text{Sr}(\text{NO}_3)_2$, ikkinchisiga $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$ solinadi. Oq cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Ikkala probirkaga HCl yoki HNO_3 solib, cho'kmani erishini kuzating.

Sulfit ionining kuchli mineral kislotalar ta'sirida parchalanishi. Reaksiya gazlarni topish uchun ishlataladigan asboblarning birida o'tkaziladi (CO_3^{2-} ochishdagi rasmga qarang).




Reaksiyani bajarish: Probirkaga 6-7 tomchi natriy sulfit eritmasidan solib, teng hajmda 2n sulfat kislota eritmasidan qo'shing. Kapillyar ichiga oxakli suv $\text{Ca}(\text{OH})_2$ to'ldirib, probirkani tezda berkiting. Kapillyarda loyqa hosil bo'lishini kuzating.



Kaliy permanganat bilan reaksiyasi. Kuchli kislotali sharoitda sulfit ion MnO_4^- ni Mn^{2+} gacha qaytaradi. Neytral sharoitda $\text{MnO}(\text{OH})_2$ (H_2MnO_3) qora amorf cho'kma hosil bo'ladi.

Reaksiyani bajarish



2 ta probirkaga 2-3 tomchidan Na_2SO_3 solib biriga 2n H_2SO_4 dan 2-3 tomchi va ikkalasiga 0,02 n KMnO_4 colinadi:



Birinchi probirkada KMnO_4 rangsizlanishi ikkinchisida pag'a-pag'a qo'ng'ir cho'kma tushishini kuzating:



Yod va brom eritmalari bilan reaksiyasi. Sulfit ionlari neytral yoki kuchsiz kislotali muhitda yodli, bromli suvni rangsizlantiradi:





Bu, reaksiyaga S^{2-} va NO_2^- ionlari xalaqit beradi.

Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 3-4 tomchi natriy sulfit eritmasidan solib, ustiga 2 N sulfat kislotasidan 2-3 tomchi va 3-4 tomchi yod yoki brom eritmasidan tomizing. Eritmaning rangi yo'qolishini kuzating.

Kumush nitrat bilan reaksiyasi. Sulfit ioni kumush nitrat bilan Ag_2SO_3 oq cho'qmasini hosil qiladi. Cho'kma mo'l Na_2SO_3 da eriydi:



cho'qma isitilganda parchalanadi





Reaksiyani bajarish: Probirkaga 2-3 tomchi Na_2SO_3 va uning ustiga tomchilatib AgNO_3 qo'shiladi. Cho'kmaning hosil bo'lishi kuzatiladi. Keyin esa cho'kmaga mo'l Na_2SO_3 eritmasi qo'shiladi va uning erishi kuzatiladi. Boshqa probirkada Ag_2SO_3 hosil qilinadi va uni isitiladi. Cho'kma rangining o'zgarini kuzatiladi.

CO_3^{2-} KARBONAT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI

Karbonat ioni erkin xolatda ma'lum bo'lmagan karbonat kislotaning anionidir. Bu kislota tezda parchalanib, CO_2 va H_2O hosil qiladi.



Bariy va stronsiy ionlari bilan reaksiyasi. Bariy va stronsiy xloridi natriy karbonat bilan oq cho'kma hosil qiladi. Cho'kmalar mineral va sirka kislotalarda eriydi:




Reaksiyani bajarish

2 ta probirkaga 2-3 tomchidan natriy karbonat hamda birinchisiga bariy, ikkinchisiga stronsiy xlorididan 2-3 tomchidan qo'shiladi. Oq cho'kma hosil bo'lishini kuzating.

Kuchli kislotalar bilan reaksiyasi. Karbonatlar kislotalar ta'sirida CO_2 gazini hosil qiladi:



CO_2 ajralib chiqayotganini oxakli yoki bariyli suvning loyqalanishidan, ya'ni $\text{Ca}(\text{OH})_2$ yoki $\text{Ba}(\text{OH})_2$ ning to'yigan eritmasiga CO_2 ta'sir etganda CaCO_3 yoki BaCO_3 oq cho'kmasi hosil bo'lishi tufayli eritmaning loyqalanishidan bilish mumkin:




Reaksiyani bajarish:


Reaksiya rasmida ko'rsatilgan asbobda olib boriladi. Probirkaga 5-6 tomchi natriy karbonat eritmasidan solib, ustiga teng hajmda 2n HCl eritmasidan qo'shing. Idish og'zini 1-2 tomchi oxakli suv solingan pipetka bilan darxol berkiting. Oxakli suvning loyqalanishini kuzating. Reaksiyaga $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ va SO_3^{2-} ionlari xalaqit beradi. Ularni avval H_2O_2 yoki KMnO_4 bilan oksidlanadi. Mo'l miqdordagi CO_2 ta'sirida loyqa tiniqlashadi:



Yana $\text{Ca}(\text{OH})_2$ qo'shilsa, loyqalanish paydo bo'ladi:





Kalsiy ioni bilan reaksiyasi. Karbonat ioni kalsiy tuzlari bilan CaCO_3 cho'kmasini hosil qiladi. Eritmada HCO_3^- bo'lsa, uni ochish CaCO_3 cho'kmasini ajratib olib eritmaga ammiak qo'shilsa, yana CaCO_3 cho'kmasi hosil bo'ladi. Bu reaksiyalardan eritmada CO_3^{2-} va HCO_3^- birga kelganda ularni ochishda foydalaniladi:



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 7-8 tomchi natriy karbonat va bikarbonat eritmasidan solib, ustiga 3-4 tomchi kalsiy eritmasini tomizing. Hosil bo'lgan CaCO_3 cho'kmasini sentrifugatlab, cho'kmani tashlang. Sentrifugatga 3-4 tomchi ammiak eritmasidan tomizing. Yana cho'kma hosil bo'lishini kuzating.


Magniy tuzlari bilan reaksiyalari. Karbonat ioni magniy tuzlari bilan MgCO_3 cho'kmasini hosil qiladi. Cho'kma HCl , CH_3COOH da eriydi. HCO_3^- magniy ioni bilan faqat qaynatilganda reaksiyaga kirishadi:



Reaksiyani bajarish: Probirkaga 3-4 tomchi natriy karbonat eritmasi olib, ustiga teng hajmda $MgSO_4$ eritmasidan soling. Cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Cho'kmaning eruvchanligini xlorid va sırka kislotalardan qo'shib tekshiring.

PO_4^{3-} FOSFAT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI

Bariy xlorid bilan reaksiyasi. Bariy xloridi natriy hidrofosfat bilan $BaHPO_4$, ammiak ishtirokida esa $Ba_3(PO_4)_2$ tarkibli oq cho'kmalarini hosil qiladi:



Reaksiyani bajarish

Probirkaga 3-5 tomchi natriy hidrofosfat va 2-3 tomchi bariy xlorid solinadi. Oq cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi. Cho'kma 2 qismga ajratilib, HCl va CH_3COOH da erishi kuzatiladi.

Kumush tuzlari bilan reaksiyasi. Fosfat ioni kumush tuzlari bilan sariq cho'kma hosil qiladi. Hosil bo'lgan cho'kma nitrat kislota va ammiak eritmasida eriydi:



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 3-5 tomchi Na_3PO_4 eritmasidan olib, ustiga teng hajmda kumush nitrat tomizing. Cho'kmaning hosil bo'lishini kuzating. Cho'kmaning eruvchanligini nitrat kislota va ammiak qo'shib tekshiring.

Magneziya aralashmasi bilan reaksiyasi. Magniy xloridning NH_4OH va NH_4Cl bilan aralashmasi – magneziya aralashmasidir.


Fosfat ioni magneziya aralashmasi bilan ($pH=9$ sharoitda oq cho'kmani $MgNH_4PO_4$ hosil qiladi):



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 4-5 tomchi $(NH_4)_3PO_4$ olib, ustiga teng hajmda $MgCl_2$, 1 tomchi NH_4Cl va 2-3 tomchi NH_4OH eritmasi tomizing. Oq cho'kmaning hosil bo'lishini kuzating.

Molibden suyuqligi bilan reaksiyasi. Ammoniy molibdatning konsentr-langan nitrat kislottedagi eritmasi fosfatlar bilan xarakterli sariq kristall cho'kma ammoniy fosformolibdatni hosil qiladi. Fosfat ioni kam bo'lsa sariq eritma hosil bo'ladi:




Bu reaksiyaga SO_3^{2-} va S^{2-} ionlari xalaqit beradi.

Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 1-2 tomchi natriy hidrofosfat eritmasidan olib, ustiga 8-10 tomchi molibden suyuqligidan qo'shib bir oz ($40-50^\circ C$ gacha) isiting. Sariq cho'kmaning hosil bo'lishini kuzating. (Quruq xolatdagi NH_4NO_3 qo'shilganda reaksiyaning seziluvchanligi ortadi).

$S_2O_3^{2-}$ TIOSULFAT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI

Bariy nitrat bilan reaksiyasi. Bariy bilan tiosulfat ioni oq cho'kma BaS_2O_3 hosil qiladi. Cho'kma issiq suvda, mineral kislotalarda eriydi va oltingugurt ajratiladi:



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 2-3 tomchi $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ va 2-3 tomchi $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$ solinadi. Cho'kma tushishini tezlatish uchun probirka devori shisha tayoqcha bilan ishqalanadi. Oq cho'kma tushishi kuzatiladi.

Kuchli mineral kislotalar bilan reaksiyalari. Tiosulfat ioni $\text{H}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ning anioni bo'lib, bu kislota beqaror, erkin xolatda H_2S , SO_2 va S ga parchalanib ketadi.


$$\text{S}_2\text{O}_3^{2-} + 2\text{H}^+ = \text{H}_2\text{S}_2\text{O}_3 \quad \text{H}_2\text{S}_2\text{O}_3 = \text{H}_2\text{O} + \text{SO}_2 + \text{S} \downarrow$$

Reaksiya natijasida hosil bo'lgan oltingugurt eritmani loyqalanadiradi.

Reaksiyani bajarish

2-3 tomchi natriy tiosulfatga 2-3 tomchi mineral kislota (HCl , H_2SO_4) qo'shiladi va eritmaning loyqalanishi kuzatiladi.


Yod va KMnO_4 eritmasi bilan reaksiyasi. Erkin yod $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ bilan neytral yoki kuchsiz kislotali muhitda qaytariladi:



Reaksiyani bajarish:

Gaz aniqlovchi probirkaga 6-7 tomchi tiosulfat natriy eritmasidan solib, ustiga teng hajmda 2n xlorid kislota eritmasini tomizing. Kapillyarga esa suyuq KMnO_4 eritmasini to'ldiring. Probirka og'zini yaxshilab yoping. KMnO_4 eritmasining rangsizlanishini kuzating. (Bu tajribani J_2 eritmasi bilan qaytarib ko'ring, eritmaning rangsizlanishini kuzating).


Mis (II) sulfat bilan reaksiyasi. Mis (II) tuzlari tiosulfat ioni bilan qora cho'kma hosil qiladi:



Reaksiyani bajarish

Probirkaga 2-3 tomchi $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ va CuSO_4 solinadi. Qora cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi.

Kumush nitrat bilan reaksiyasi. Tiosulfat ioni ko'proq AgNO_3 ta'sirida oq rangli cho'kma hosil qiladi. Bu cho'kma tez sarg'ayadi, so'ng qo'ng'ir tusga kiradi va oxirida kumush sulfidga aylanishi sababli qorayib ketadi:




Bu reaksiyani bajarishda $\text{Ag}_2\text{S}_2\text{O}_3$ cho'kmasi ortiqcha tiosulfatda erib, $[\text{Ag}(\text{S}_2\text{O})_2]^{3-}$ kompleks ionini hosil qiladi.

Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 1-2 tomchi natriy tiosulfat eritmasidan solib, ustiga 3-4 tomchi AgNO_3 eritmasini tomizing. Cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Bir oz vaqt o'tgandan keyin qorayishini kuzating. Boshqa probirkaga 1-2 tomchi kumush nitrat eritmasidan solib, ustiga ortiqcha 5-6 tomchi natriy tiosulfat eritmasidan tomizing. Cho'kma hosil bo'lishi va erib ketishini kuzating.

C₂O₄²⁻OKSALAT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI



Kalsiy tuzlari bilan reaksiyalari. Oksalat ioni kalsiy kationi bilan mineral kislotalarda eriydigan, lekin sirka kislota erimaydigan oq rangli kristall CaC₂O₄ cho'kmasini hosil qiladi:



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 3-4 tomchi kalsiy eritmasidan olib, ustiga teng hajmda (NH₄)₂C₂O₄ eritmasidan tomizing. Oq cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Cho'kmaning eruvchanligini xlorid va sirka kislotasi qo'shib tekshiring. Reaksiyaga Sr²⁺, Ba²⁺ ionlari xalaqt beradi.

Kaliy permanganat bilan reaksiyalari. Kaliy permanganat KMnO₄ kislotali muhitda oksalat ionini CO₂ ga oksidlaydi:





Reaksiya eritmani 70-80 °C gacha isitish bilan olib boriladi.

Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 3-4 tomchi suyuq 0,01 n. kaliy permanganat eritmasidan olib, ustiga 2-3 tomchi H₂SO₄ tomizing. Aralashma ustiga KMnO₄ rangsizlangunicha tomchilab (NH₄)₂C₂O₄ eritmasidan tomizib, CO₂ gazini ajralib chiqishini kuzating. Ajralib chiqayotgan CO₂ kalsiyli suvni loyqalatadi.

Kumush nitrat bilan reaksiyasi. Oksalat ioni AgNO₃ bilan Ag₂C₂O₄ oq cho'qmasini hosil qiladi. Cho'kma HNO₃ va ammiak eritmasida eriydi. Mineral kislotalar HCl va H₂SO₄ lar Ag₂C₂O₄ cho'qmasini parchalaydi.




Reaksiyani bajarish:

Uchta probirkaga 2-3 tomchi (NH₄)₂C₂O₄ va uning ustiga 2-3 tomchi AgNO₃ tomiziladi. Cho'kmalarining hosil bo'lishi kuzatiladi. Birinchi probirkaga HNO₃, ikkinchisiga NH₃ · H₂O, uchinchisiga HCl qo'shiladi. Rrobirkadagi o'zga-rishlarni kuzatiladi va daftarga reaksiya tenglamalar yoziladi.

B₄O₇²⁻ TETRABORAT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI



Bariy nitrat bilan reaksiyasi. Bariy ioni tetraborat ioni bilan oq cho'kma hosil qiladi. Cho'kma mineral va sirka kislotalarda eriydi.



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 2-3 tomchidan Na₂B₄O₇ hamda Ba(NO₃)₂ solinadi va oq cho'kma tushishi kuzatiladi.

Alanganing rangi bo'yalish reaksiyasi. Borning uchuvchan birikmalari rangsiz alangani yashil rangga kiritadi. Boratlar uchuvchan bo'limganligi uchun reaksiyani olib borishdan oldin uni uchuvchan efiri hosil qilinadi. Buning uchun borat tuzi eritmasi tigelda quritilib, so'ngra kislota (kons. H₂SO₄)] eritiladi va metil yoki etil spirti bilan aralashtirilib, efir hosil qilinadi, yoqiladi:



Reaksiyani bajarish:

7-8 tomchi $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7$ eritmasini tigelga solib, quriguncha bug‘latiladi. Sovugandan keyin qoldiqqa 3-4 tomchi kons. H_2SO_4 , 5-6 tomchi etil (yoki metil) spirit tomizib aralashtiring va yoqing. Alanganinng yashil rangga bo‘yalishini kuzating.

I GURUH ANIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI

20- jadval

Reagentlar	SO_4^{2-}	SO_3^{2-}	$\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$	CO_3^{2-}	PO_4^{3-}	SiO_3^{2-}
BaCl ₂ neytral yoki kuchsiz ishqoriy cho`kmaning HCl ga munosabati	oq cho`kma BaSO ₄ erimaydi	oq cho`kma BaSO ₃ eriydi	oq cho`kma BaS ₂ O ₃ eriydi	oq cho`kma BaCO ₃ eriydi	oq cho`kma BaHPO ₄ eriydi	oqcho`kma BaSiO ₃ parchalana-di
Magnezialaralashma $\text{MgCl}_2+\text{NH}_4\text{OH}+\text{NH}_4\text{Cl}$	-	-	-	-	oqcho`kma MgNH ₄ PO ₄	oqcho`kma MgSiO ₃
Molibden suyukligi $(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_4+\text{HNO}_3$	-	-	-	-	sariq cho`kma	-
Kislotalar	-	SO ₂ Ajralib chiqadi	SO ₂ +S Ajralib chiqadi	CO ₂ Ajralib chiqadi	-	H ₂ SiO ₃ Cho`kmaga tushadi.
Ammoniy tuzlari $\text{NH}_4\text{Cl}, (\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$	-	-	-	-	-	H ₂ SiO ₃ Cho`kmasi
Fuksin	-	qizil rangini rangsiz-lantiradi	-	-	-	-

LABORATORIYA ISH № 13

II GURUH ANIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI

(Cl^- , Br^- , J^- , CNS^- , S^{2-})

Mashg‘ulotning maqsadi:

II analitik guruh anionlarining analitik reaksiyalarini bajarishni o‘rganish
Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar:


Natriy xlorid, kaliy bromid, kaliy yodid, kaliy radonid, ammoniy sulfid, ;

qo‘rg‘oshin (II) nitrat, sulfat kislota, kaliy permanganat, xlorli suv va boshqa oksidlovchilar, kumush nitrat, natriy nitrit, kobalt (II) xlorid, temir (III) xlorid, kadmiy (II) nitrat, ammoniy gidroksid va ammoniy xlorid, natriy nitroprussid, xlorid, nitrat va sirka kislotalar

Guruh reagenti AgNO_3 bo‘lib, suvda va suyultirilgan nitrat kislotada erimaydigan oq cho‘kmalarni hosil qiladi.

Cl^- XLORID IONINING ANALITIK REAKSIYALARI


Kumush nitrat bilan reaksiyasi. Kumush nitrat xlorid ioni bilan AgCl oq cho‘kmasini hosil qiladi. Bu cho‘kma konsentrangan ammiak, ammoniy karbonat va natriy tiosulfatda eriydi:



Kumushning ammiakatli komplekslariga konsentrangan nitrat kislotasi ta'sir ettirilsa, AgCl oq cho'kmasing hosil bo'lishi kuzatiladi:



Kaliy yod ta'sirida esa bu eritmalarda AgJ sariq cho'kmasing hosil bo'lishi kuzatiladi:




Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 2-3 tomchi natriy xlorid eritmasidan solib, ustiga 3-5 tomchi kumush nitratdan tomizing. Bunda oq cho'kmaning hosil bo'lishini kuzating. Cho'kmaga 5-10 tomchi konsentrangan ammiak eritmasi yoki ammoniy karbonatdan qo'shing. Cho'kmaning erishini kuzating. Keyin esa probirkadagi cho'kmani 2 qimsga bo'ling va birinchisiga 5 tomchi konsentrangan nitrat kislotasi, ikkinchisiga esa 5 tomchi kaliy yod eritmasidan tomizing. Bunda ikkala probirkada cho'kmalarning hosil bo'lishini kuzating.

Br⁻ BROMID IONINING ANALITIK REAKSIYALARI


Kumush nitrat bilan reaksiyasi. Kumush ionlari bromid ionlari bilan nitrat kislotasi va ammoniy karbonatda erimaydigan AgBr sarg'ish cho'kmani hosil qiladi. Bu cho'kma konsentrangan ammiak eritmasida yomon eriydi, lekin natriy tiosulfat eritmasida yaxshi eriydi:



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 2-3 tomchi kaliy bromid erimasidan solib, ustiga 3-5 tomchi kumush nitratdan tomizing. Bunda cho'kmaning hosil bo'lishini kuzating. Cho'kmaga konsentrangan ammiak va ammoniy karbonat ta'sir ettirib, uning eruvchanligini kuzating.


Xlorli suv va boshqa oksidlovchilar bilan reaksiyasi. Xlorli suv, KMnO₄, KBrO₃ va boshqa oksidlovchilar kislotali muhitda bromid ionlarini erkin xoldagi bromgacha oksidaydi:



Erkin xoldagi brom suvli eritmada xloroform yoki benzol ishtirokida yaxshi ekstraksiyalanadi va organik qatlamni sariq-qo'ng'ir rangga bo'yaydi. Reaksiyani bajarishda S²⁻, SO₃²⁻, S₂O₃²⁻ ionlari xalaqit beradi.

J⁻ YODID IONINING ANALITIK REAKSIYALARI


Kumush nitrat bilan reaksiyasi. Kumush nitrat kaliy yod bilan AgJ sariq cho'kmasini hosil qiladi. Bu cho'kma nitrat kislotasi va ammiakda erimaydi, lekin Na₂S₂O₃ eritmasida yaxshi eriydi:




Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 2-3 tomchi kaliy yod eritmasidan solib, ustiga 2-3 tomchi kumush nitrat eritmasi tomiziladi. Cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi. Cho'kmani eruvchanligini $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ eritmasida tekshiriladi.

Xlorli suv va boshqa oksidlovchilar bilan reaksiyasi: Xlorli suv, MnO_4^- , Fe^{3+} , NO_2^- —ionlari kislotali muhitda yodid ionlarini erkin xoldagi iodgacha oksidlaydi:



Erkin xoldagi yod xloroform yoki benzolda yaxshi ekstraksiyalanadi va organik erituvchini binafsha rangga bo'yaydi. Ortiqcha qo'shilgan xlorli suv erkin yodni iodat kislotasigacha oksidlaydi:



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 2-3 tomchi kaliy yod eritmasi solib, ustiga tomchilatib xlorli suv qo'shiladi. Erkin xoldagi yodni ajralishi kuzatiladi. Xloroform qo'shib chayqatiladi va organik qavatda rangning o'zgarishi kuzatiladi. Keyin esa ortiqcha xlorli suv qo'shiladi va organik qavatda rangining yo'qolishi kuzatiladi. Buni qanday izoxlash mumkin?


Yodkraxmal qog'oz bilan reaksiyasi. Erkin xoldagi yod kraxmal eritmasini ko'k rangga bo'yaydi. Reaksiya juda sezgir va spetsifikdir.

Reaksiyani bajarish:

Yodkraxmal qog'oziga bir tomchi NaNO_2 yoki KNO_2 eritmasi kislotali muhitda KJ eritmasidan bir tomchi va ustiga yana nitritlardan bir tomchi tomiziladi. Bunda ko'k rang hosil bo'ladi. Qanday reaksiya boradi?

SCN⁻ TIOTSIONAT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI


Kumush nitrat bilan reaksiyasi. Kumush nitrat kaliy yoki ammoniy tiotsionat bilan AgSCN oq cho'kmasini hosil qiladi. Cho'kma mineral kislotalar va ammoniy karbonatda erimaydi, lekin ammiak, $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$, KCN va mo'l NH_4SCN eritmalarida erib, kumush ioni bilan kompleks birikmalar hosil qiladi, masalan:



Reaksiyani bajarish

Probirkaga 2-3 tomchi kaliy yoki ammoniy tiotsionat solib, ustiga tomchilatib kumush nitrat eritmasidan qo'shiladi va cho'kmaning hosil bo'lishi kuzatiladi. Keyin esa cho'kmani ustiga mo'l kaliy yoki ammoniy tiotsionatdan qo'shiladi va cho'kmaning erishi kuzatiladi.


Kobalt (II) tuzlari bilan reaksiyasi. Tiotsionat-ionlari to'yingan eritmada kobalt (II) kationlari bilan $[\text{Co}(\text{SCN})_4]^{2-}$ kompleks ionini hosil qiladi va amil spirtida ekstraksiyalanib, organik qatlamni ko'k rangga bo'yaydi:



Reaksiyani bajarish:

Probirkaga 2-3 tomchi kobalt (II) tuzlari solib, ustiga 3 tomchi ammoniy yoki kaliy tiotsionat to'yingan eritmasi va 5 tomchi amil spirti qo'shiladi. Aralashma chayqatiladi. Organik qatlamda ko'k rangning hosil bo'lishi kuzatiladi.

Temir (III) tuzlari bilan reaksiyasi. Temir (III) ionlari kislotali muhitda tiotsio-natlar bilan qizil yoki pushti rangni beradi va natijada temir (III) kompleks ionini hosil qiladi:



hosil bo‘lgan kompleks efir yoki amil spirti bilan yaxshi ekstraksiyalanadi. Reaksiyani bajarishda S^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$, I^- , PO_4^{3-} - anionlari xalaqit beradi.

Reaksiyani bajarish:

Filtr qog‘ozi ustiga bir tomchi ammoniy yoki kaliy tiotsionatidan tomiziladi va markazda hosil bo‘lgan dog‘ga FeCl_3 eritmasidan qo‘shiladi. Qizil rangning hosil bo‘lishi kuzatiladi.


S^{2-} - SULFID IONINING ANALITIK REAKSIYALARI

Kumush nitrat bilan reaksiyasi. Kumush nitrat natriy yoki ammoniy sulfid bilan Ag_2S qora cho‘kmasini hosil qiladi. Bu cho‘kma ammiakda erimaydi, lekin 2 n HNO_3 kislotasida isitish natijasida eriydi.

Kuchli kislotalar bilan reaksiyasi. Sulfidlarga kuchli kislotalar (H_2SO_4 , HCl)ning ta’siri natijasida vodorod sulfid H_2S ajralib chiqadi:




Uni xididan yoki qo‘rg‘oshin atsetati eritmasi bilan ho’llangan filtr qog‘ozniing qorayishidan aniqlash mumkin:



Ishtartibi:

Probirkaga 3-4 Na_2S yoki $(\text{NH}_4)_2\text{S}$ eritmasidan olib, ustiga teng hajmda H_2SO_4 yoki HCl eritmasidan soling. Ajralib chiqqan H_2S ni qo‘rg‘oshin atsetat bilan ho’llangan qog‘ozinitutib, uni qorayishini kuzating.


Kadmiy tuzlari bilan reaksiyasi. Sulfid tuzlari kadmiy kationi bilan kislotali yoki neytral sharoitda sariq cho‘kma hosil qiladi:



Ish tartibi:

Probirkaga 1-2 tomchi sulfid tuzi eritmasidan olib, ustiga 2-3 tomchi kadmiy eritmasidan tomizing, cho‘kma hosil bo‘lishini kuzating.

Natriy nitroprussid bilan reaksiyasi. Ammiakli sharoitda sulfid ionlari natriy nitroprussid $\text{Na}_2[\text{Fe}(\text{CN})_5\text{NO}]$ bilan qizil-binafsha rangli kompleksni beradi:



Reaksiyaga SO_3^{2-} , SO_4^{2-} и $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ionlari xalaqit bermaydi. Bu reaksiyadan organik birikmalar tarkibidagi oltingugurtni aniqlashda qo‘llanadi.

Ish tartibi

Probirkaga yangi tayyorlangan ammoniy sulfid eritmasidan 2-3 tomchi olib, 3-5 tomchi ammiak va 1 tomchi natriy nitroprussid qo‘shiladi. Rang hosil bo‘lishini kuzating.

II GURUH ANIONLARINING ANALITIK REAKSIYALARI

21-jadval

Reagentlar	Cl^-	Br^-	I^-	S^{2-}
AgNO ₃ (HNO ₃ ishtiroki) kumush tuzlarining NH ₄ OH ga munosabati	oq cho`kma AgCl Kompleks birikma hosil kilib eriydi	Och-sarg`ish ch`kma AgBr sezilarli darajada eriydi	Sariq cho`kma AgI Amalda eriymaydi.	qora cho`kma Ag ₂ S Erimaydi.
Kuchli oksidlovchilar (KMnO ₄ , K ₂ Cr ₂ O ₇ , MnO ₂)	Cl ₂ Ajraladi.	Br ₂ Ajraladi.	I ₂ Ajraladi.	S ajraladi.
Xlorli suv (benzol ishtirokida)		Br ₂ ning qizil-qo`ngir rangi	I ₂ ning binafsha rangi	
NaNO ₂ yoki KNO ₂ (H ₂ SO ₄ ishtirokida)			Ajraladi kraxmalning ko`karishi	
Pb(CH ₃ COO) ₂			Tillarang kristallar-PbI ₂	
HCl(15% ли)				H ₂ S ajraladi(palag`da qolgan tuxum hidi)
Natriy nitroprussid Na ₂ [Fe(CN) ₅ NO]				Na ₂ [Fe(CN) ₅ NOS] binafsha rangli

LABORATORIYA ISH № 13

III GURUH ANIONLARINING (NO_2^- , NO_3^- , CH_3COO^-) ANALITIK REAKSIYALARI

Mashg`ulotning maqsadi:

III analitik guruh anionlarining analitik reaksiyalarini bajarishni o`rganish
Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar:


Natriy nitrat, natriy nitrit, natriy asetat ;

temir(II) sulfat, rux yoki alyuminiy metali, sulfat kislota, kaliy permanganat, difenilamin, antipirin, kaliy yodid, temir (III) xlorid, etil spiriti, natriy gidrosulfat, ammoniy gidroksid va ammoniy xlorid, xlorid, nitrat va sırka kislotalar

Guruh reagenti yo`q.

NO₂-NITRIT VA NO₃-NITRAT IONLARINING UMUMIY REAKSIYALARI

Temir (II) sulfat bilan reaksiyasi. Nitrat, nitrit ionlari konsentrangan H₂SO₄ ishtirokida Fe²⁺ bilan NO gacha qaytariladi va ortiqcha FeSO₄ bilan qo`ng`ir rangli kompleks hosil qiladi:




Nitritlar bilan reaksiya suyultirilgan H₂SO₄ va xattoki sırka kislotali sharoitda ham boradi. Reaksiyaga SO₃²⁻, S₂O₃²⁻, J⁻ va Br⁻ ionlari xalaqit beradi.

Ish tartibi

Buyum yoki soat oynasiga natriy nitrat eritmasidan tomiziladi. Temir (II) sulfat kristali va konsentrik sulfat kislotasi qo'shiladi. Kristall atrofida qo'ng'ir xalqa hosil bo'lishini kuzating.

Rux yoki alyuminiy metali bilan reaksiyasi. Nitrat va nitritlar ishqoriy muhitda rux yoki alyuminiy bilan amiakgacha qaytariladi:




Eritmada amoniq ionlari bo'lmasligi kerak.

Ish tartibi

Probirkaga 3-4 tomchi natriy nitrit yoki nitrat eritmasidan olib, 3-5 tomchi 25%li NaOH eritmasi va rux yoki alyuminiy bo'lagi qo'shiladi. Probirka og'zi nam lakmus qog'ozini bilan berkitiladi. Qog'ozning ko'karishini kuzating.

Difenilamin bilan reaksiyasi. Difenilamin ($\text{C}_6\text{H}_5\text{NH-C}_6\text{H}_4-\text{NH-C}_6\text{H}_5$) nitritlar, nitratlar va boshqa kuchli oksidlovchilar bilan konsentrik H_2SO_4 ishtirokida ko'k rang hosil qiladi:




Shunday natija BrO_3^- ioni bilan ham kuzatiladi. Kuchli qaytaruvchilar S^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, J^- reaksiyaga xalaqit beradi.

Ish tartibi

Farfor tigelga yoki toza, quruq soat oynasiga 5 tomchi difenilaminning konsentrangan sulfat kislotadagi eritmasi va 5 tomchi natriy nitrat yoki nitrit qo'shiladi. Ravshan ko'k rang hosil bo'ladi.

NO₃⁻ NITRAT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI

Antipirin bilan reaksiyasi. Antipirin $\text{C}_{11}\text{H}_{12}\text{N}_2\text{O}$ nitrat ionlari bilan kuchli kislotali sharoitda qizil rangli nitroantipirin hosil qiladi:



Ishtartibi

Probirkaga 2 tomchi natriy nitrat tuzi eritmasidan solib, ustiga 2 tomchi 5%li antipirin eritmasi qo'shilib va extiyotlik bilan konsentrik sulfat kislotasi tomizilib (12-15 tomchi), xar bir tomchidan so'ng probirka chayqatiladi. Ravshan qizil rangning hosil bo'lishi kuzatiladi.


NO₂⁻ NITRIT IONI ANALITIK REAKSIYALARI

Kuchli kislotalar bilan reaksiyasi Nitrit eritmasiga suyultirilgan sulfat yoki xlorid kislotasi eritmalarining ta'siri natijasida azot (II) va (IV) oksidiga parchalanuvchi nitrit kislotasi hosil bo'ladi:



parchalanish xarorat ko'tarilishi, sulfat kislota konsentratsiyasi ortishi bilan kuchayib, qo'ng'ir rangli NO₂ ajralib chiqishi kuzatiladi.

Kaliy yodid bilan reaksiyasi. Suyultirilgan sulfat kislotali sharoitda nitritlar KJ dan erkin J₂ ajratib chiqaradilar:




NO₃⁻ ionlari reaksiya sharoitida yodid ionlari bilan ta'sirlashmaydi va NO₃⁻ ishtirokida NO₂⁻ni aniqlashda mazkur reaksiyadan foydalaniladi.

Ish tartibi

Probirkaga 2—3 tomchi natriy nitrit, 2-3 tomchi 2 n sulfat kislotasi, 2-3 tomchi kaliy yodid va 1 tomchi 0,5%li kraxmal eritmalar qo'shiladi. Eritmaning ko'k rangga bo'yalishini kuzating.

Kaliy permanganat bilan reaksiyasi. Kaliy permanganatning sulfat kislotali eritmasi nitrit ionlari ta'sirida rangsizlanadi:




Ish tartibi

Probirkaga 2-3 tomchi KMnO₄, 2-3 tomchi 2n H₂SO₄ va 5-6 tomchi natriy nitrit solinadi. Eritmaning rangsizlanishini kuzating.

NITRIT IONINING PARCHALANISHI


Nitrit ioni NH₄⁺ioni ishtirokida qizdirish natijasida azot va suv hosil qilib parchalanadi:



Ish tartibi:

Probirkaga 5 tomchi natriy nitrit tuzi eritmasi ustiga to'yingan eritma hosil bo'lguncha qattiq NH₄Cl yoki (NH₄)₂SO₄ qo'shib isitiladi. Eritmaning aloxida qismidan NO₂⁻ ga KJ bilan kraxmal ishtirokida reaksiya bajarilib, uning to'liq parchalanishi tekshiriladi.

Antipirin bilan reaksiyasi . Nitrit ioni kuchsiz kislotali sharoitda yashil rangli nitrozoantipirinni hosil qiladi:



Ish tartibi. Probirkaga 5 tmchi natriy nitrit 5 tomchi 5%li antipirin eritmalar va 1 tomchi 2 n sulfat kislotasi solinadi. Probirkadagi eritmalar aralashtiriladi va yashil rangli nitrozoantipirinning hosil bo'lishi kuzatiladi.

CH₃COO⁻ ATSETAT IONINING ANALITIK REAKSIYALARI

Temir (III) xlorid bilan reaksiyasi. Natriy atsetat temir (III) xloridi bilan pH=5-8 larda reaksiyaga kirishib, to‘q qizil (achchiq choy) rangli Fe(CH₃COO)₃ birikmasini hosil qiladi. Qaynatish natijasida qizil-qo‘ng‘ir rangli amorf iviqsimon cho‘kma hosil bo‘ladi:



Cho‘kma atsetat ionlari mo‘l bo‘lgandagina hosil bo‘ladi.

Ish tartibi

Probirkaga 5-7 tomchi natriy atsetati eritmasidan, 2-3 tomchi temir (III) xloridi solinadi. Eritmaning to‘q qizqil rangga bo‘yalishi kuzatiladi. Shundan so‘ng probirka qaynaguncha isitiladi. Cho‘kma hosil bo‘lishini kuzating.

Sulfat kislota bilan reaksiyasi. Sulfat kislota atsetatlar bilan ta’sirlashib, o‘ziga xos xidga ega bo‘lgan sirkə kislotasini hosil qiladi:



Ish tartibi:

Probirkaga 2-3 tomchi natriy atsetat, 2-3 tomchi suyultirilgan H₂SO₄ solib, sekin isitiladi, ajralib chiqayotgan sirkə kislotani xidi bo‘yicha aniqlanadi. Reaksiyaga kislota ta’sirida o‘tkir xidli gaz hosil qiluvchi anionlar (NO₂⁻, S²⁻, SO₃²⁻, S₂O₃²⁻) xalaqit beradi.

Quruq xoldagi atsetat tuzlarini KHSO₄ yoki NaHSO₄ larning quruq tuzi bilan havonchada ezish bilan ham aniqlanishi mumkin.

Sirkə-etil efirining hosil bo‘lish reaksiyasi. Atsetatlar etanol bilan konsentrik H₂SO₄ ishtirokida o‘ziga xos xidli sirkə-etil efirini hosil qiladi: CH₃COOH + HOC₂H₅ = H₂O + CH₃COOC₂H₅

Ish tartibi

Probirkaga ozroq miqdorda quruq natriy atsetat tuzidan solib, ustiga 4-5 tomchi konsentrangan sulfat kislotasi, 4-5 tomchi etanol qo‘sib, aralashma asta isitiladi. Hosil bo‘lgan efir xididan aniqlanadi.

LABORATORIYA ISH №11

Uch guruh anionlar aralashmasining analizi

Mashg‘ulotning maqsadi:

I, II, va III analitik guruh anionlarining aralashmasining analizi analitik reaksiyalarini bajarishni o‘rganish

Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar:

I, II, va III analitik guruh anionlarini ochishda qo`llanilgan reaktivlar

TO‘TI. NAZORAT ERITMADAGI ANIONLAR ARALASHMASINI TAXLILI

Anionlarni aniqlash noorganik birikmalarini to‘liq sifat analizining tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘quv tadqiqot ishi sifatida berilgan nazorat eritmada qanaqa anionlar borligini aniqlash uchun avvalgi dasrlarda o‘tilgan anionlarni xususiy va guruh reagentlari ta’sirini mukammal bilmox kerak. Keyingi 14-laboratoriya mashg‘ulida talabalarga uch xil anionlar aralashmasi saqlagan nazorat eritmasi

beriladi. Ularning sifat reaksiyalari 10-11-12 mashg'ulotlarda o`rganilgan. Diqqat bilan quyida keltirilgan noma'lum tarkibli I-III guruh anionlar aralashmasi analizini o`qing va 14-mashg'ulotda analiz bayonnomasini tuzing hamda laboratoriya daftariga aralashma analizini kimyoviy reaksiya tenlamalarini yozing.

Dastlabki sinovlar

Tekshiriluvchi eritmani ayrim (2-3 tomchidan iborat) qismlaridan quyidagi sinovlar o'tkaziladi:

1. Reaksiya muhitini aniqlash

Reaksiya muhitini universal indikator qog'ozni yordamida aniqlaniladi. Agar muhit kislotali ($\text{pH} \leq 2$) bo'lsa, eritmada uchuvchan kislota anionlari (S^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, CO_3^{2-} , NO_2^-) bo'lmaydi. Shuningdek, kislotali muhitda oksidlovchi va qaytaruvchi anionlar birgalikda mavjud bo'la olmaydi: I^- va NO_2^- , S^{2-} va SO_3^{2-} .

2. Tekshiriluvchi eritmada uchuvchan va beqaror kislota anionlari borligini tekshirish

$\text{pH} > 2$ bo'lsa, eritmada uchuvchan kislota anionlari bo'lishi mumkin – S^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, CO_3^{2-} .

Probirkaga bir necha tomchi tekshiriluvchi eritmadan olib, 2-3 tomchi $2\text{n H}_2\text{SO}_4$ solinadi va sekin chayqatiladi.

Gaz pufakchalari ajralib chiqishi, eritmada CO_3^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, S^{2-} , NO_2^- – anionlar borligidan dalolat beradi.

Agar gazning ajralib chiqishi sezilarli bo'lmassa, eritma isitiladi. Rangi va xidiga qarab, gazning tarkibi aniqlaniladi: H_2S – palag'da tuxum xidiga ega rangsiz gaz, CO_2^- – xidsiz rangsiz gaz, SO_2^- – yonuvchi oltingugurt xidiga ega rangsiz gaz, NO_2^- – o'tkir xidli qizil-qo'ng'ir gaz.

3. $\text{pH}>7$ dan katta bo'lganda ba'zi bir oksidlovchi va qaytaruvchi anionlar birgalikda mavjudligini tekshirish

a) tekshiriluvchi eritma 2-3 tomchisini $2\text{n CH}_3\text{COOH}$ bilan kislotali muhitga keltirish.

Agar, eritmada NO_2^- va J^- ionlari birga mavjud bo'lsa, u xolda erkin yod ajralib chiqadi va eritma qo'ng'ir rangga bo'yaydi.

b) Tekshiriluvchi eritmani $2\text{n H}_2\text{SO}_4$ bilan kislotali muhitga keltirish.

Agar, eritmada NO_2^- va J^- ionlari ishtirok etsa, u xolda erkin yod ajralib chiqadi va eritmani qo'ng'ir rangga bo'yaydi. Xuddi shunday agar eritmada $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ioni yoki S^{2-} va SO_3^{2-} anionlari birga ishtirok etsa, u xolda erkin oltingugurt ajralib chiqadi va eritma loyqalanadi.

4. Tekshiriluvchi eritma oksidlanish-qaytarilish xossasini aniqlash

a) Sulfat kislotali muhitda KJ eritmasi ta'sir etilganda, erkin yod ajralib chiqsa (eritma qo'ng'ir rangga bo'yaydi, kraxmal ishtirokida esa eritma ko'karadai) bu xol eritmada oksidlovchi NO_2^- , NO_3^- anionlar borligini anglatadi. Shuni nazarda tutish kerakki, NO_3^- ioni yodid ioni bilan kuchsiz kislotali muhitda reaksiyaga kirishmaydi.

b) KJ eritmasidagi molekulyar yodni neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda ta'siri.

Agar tekshiriluvchi eritma yodni rangsizlantirsa, u xolda eritmada qaytaruvchi anionlar mavjudligidan xulosa chiqariladi: S^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, SO_3^{2-}

c) Sulfat kislotali muhitda KMnO_4 eritmasining ta'siri.

Agar, tekshiriluvchi eritma KMnO_4 ni rangsizlantirsa, bu xolda eritmada qaytaruvchi anionlar S^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, NO_2^- , Cl^- , Br^- , I^- , SCN^- , $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ mavjudligini bildiradi. Shuni nazarda tutish kerakki, Cl^- ioni MnO_4^- ionlari bilan kuchsiz kislotali muhitda juda sekin ta'sirlashadi, $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ -ioni esa MnO_4^- ionlari bilan faqat $60-70^\circ\text{C}$ da isitish natijasida ta'sirlashadi.

5. Anionlar guruhini aniqlash

a) BaCl_2 eritmasining neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda ta'siri ($\text{pH}=7-9$).

Dastlab kislotali muhitga ega bo'lgan eritmalarini $\text{Ba}(\text{OH})_2$ eritmasi bilan neytrallab olinadi ($\text{pH}=7-9$). Agar oq cho'kma hosil bo'lsa, u xolda 1 guruh SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$, $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$, CO_3^{2-} , $\text{B}_4\text{O}_7^{2-}(\text{BO}_2^-)$, PO_4^{3-} anionlari mavjud bo'lishi mumkin.

Agar hosil bo'lgan cho'kma 2n HCl eritmada erimasa, bu xol tekshiriluvchi erimtada SO_4^{2-} anioni borligidan dalolat beradi.

b) AgNO_3 eritmasining ta'sirida cho'kma hosil bo'lsa, u xolda uning eruvchanligini 2n HNO_3 eritmasida tekshiriladi. Agar cho'kma erimasa, u xolda II guruh anionlari (Cl^- , Br^- , I^- , SCN^- , S^{2-}) bilan birgalikda $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ioni xam mavjud bo'lishi mumkin. Cl^- va SCN^- ionlari oq cho'kma, Br^- , J^- - sariq, S^{2-} - qora cho'kmalar hosil qiladi. $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ esa oq cho'kma hosil qilib, turish natijasida qo'ng'irlashib, qorayadi. Agar cho'kma 2n HNO_3 eritmada erisa, bu xol aralashmada $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ -ioni (oq cho'kma) yoki PO_4^{3-} -ioni (sariq cho'kma) borligidan dalolat beradi.

Agar BaCl_2 va AgNO_3 eritmalarini ta'sirida cho'kma hosil bo'lmasa, u xolda tekshiriluvchi eritmada faqat NO_2^- , NO_3^- , CH_3COO^- - ionlari mavjud bo'ladi. Bu anionlar kasrli usulda ochiladi. Bundan tashqari ba'zi guruh anionlarining analizi tizimli usulda o'tkaziladi. Tekshiriluvchi eritmada qaysi anionlar borligi haqida tugal xulosa chiqarish uchun anionlarni kasrli usulda analizi bajariladi.

QOLGAN ANIONLARNI KASRLI USULDA OCHISH

1. CO_3^{2-} ionini ochish

a) Qaytaruvchi anionlar S^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ishtirok etmaganda (yodli suv ta'sirida aniqlanadi) CO_3^{2-} -ioni penitsillin idishi rezina tiqiniga o'rnatilgan pipetka yordamida aniqlanadi. Buning uchun idishga 3-5 tomchi tekshiriluvchi eritma solinadi, 2-3 tomchi sirka kislotasidan tomizib, idish og'zi $\text{Ba}(\text{OH})_2$ eritmasi quyilgan pipetka bilan berkitiladi. Ajralgan gaz $\text{Ba}(\text{OH})_2$ eritmasida loyqa hosil qilishi CO_3^{2-} borligini bildiradi.

b) Qaytaruvchi anionlar S^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ -ishtirok etganda, CO_3^{2-} -ioni quyidagicha ochiladi. Tekshiriluvchi eritma solingan maxsus asbobga H_2SO_4 solishdan oldin, avval asbobga 4-6 tomchi H_2O_2 yoki KMnO_4 dan tomiziladi. Keyin esa CO_3^{2-} ioni yuqorida ko'rsatilganidek ochiladi.

2. $\text{B}_4\text{O}_7^{2-}$ (BO_2^-), CH_3COO^- ionlarini ochish

Tigelga 5 tomchi tekshiriluvchi eritmadan solinadi va parlanguncha quritiladi. Keyin esa tigelni sovitib turib, ustiga 3 tomchi konsentrangan H_2SO_4 tomiziladi. Olingan aralashmaga 6 tomchi etil spirti tomizib, qizdiriladi. Alanganing yashil rangga bo'yaliishi, $\text{B}_4\text{O}_7^{2-}$ ioni borligidan xulosa chiqariladi. Sulfat kislota qo'shilganda sirka kislota xidining hosil bo'lishi, CH_3COO^- ioni borligini ko'rsatadi. Konsentrangan

H_2SO_4 ta'sirida Cl^- , Br^- , I^- , NO_2^- va boshqa anionlar o'tkir xidli gaz maxsulotlari hosil qilib, CH_3COO^- ionini aniqlashga xalaqit beradi.

3. Temir (III) xloridi ta'sirida CH_3COO^- ionini ochish


2-3 tomchi tekshiriluvchi eritmaga ($\text{pH}=5-8$ bo'lsa), 2-3 tomchi FeCl_3 tomizing. Atsetat ionini mavjudligi, eritmani qizil-qo'ng'ir rangga bo'yaydi. Eritmani suv bilan suyultirib, isitiladi. Bunda asosli tuz qizil-qo'ng'ir cho'kma hosil bo'ladi.

4. PO_4^{3-} ionini ochish

Tigelga 2 tomchi tekshiriluvchi eritmadan tomizib, ustiga konsentrangan HNO_3 kislotadan 5 tomchi qo'shiladi. Eritmani parlatib quritiladi va quruq qoldiq ustiga yana konsentrangan HNO_3 kislota, NH_4NO_3 ning quruq tuzi xamda 10 tomchi ammoniy molibdat eritmasidan solinadi. Sariq kristal cho'kmaning hosil bo'lishi PO_4^{3-} ioni borligini ko'rsatadi.

5. $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ ionini ochish

a) CO_3^{2-} va qaytaruvchi anionlar bo'limganda $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ ioni rasmida ko'rsatilgan asbob yordamida ochiladi.



Asbobdag'i 1 chi probirkaga tekshiriluvchi eritmadan 1 ml solinadi va ustiga bir necha tomchi 0,01 n KMnO_4 , 2 n H_2SO_4 dan tomiziladi. Ikkinch'i probirkaga esa yangi tayyorlangan oxakli suv yoki baryi suv quyiladi. Birinch'i probirkani gaz xaydovchi naycha qopqog'i bilan berkitiladi va uni 60-70°Cgacha isitiladi. Bir vaqtning o'zida oxakli suvning loyqa-lanishi va KMnO_4 eritmasining rangsizlanishi $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ - ionining borligidan xulosa chiqariladi.

b) Xalaqit beruvchi anionlar ishtirokida $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ ioni kalsiy oksalat xolida ajratib olinganidan so'ng, KMnO_4 bilan kislotali muhitda ochiladi. Buning uchun 5-6 tomchi tekshiriluvchi eritmaga $\text{pH}=4-5$ muhitga kelguncha, sirka kislotasi qo'shiladi. Muhitni indikator qog'ozi yordamida tekshiriladi va shu eritmaga mo'1 miqdorda kalsiy xlorid eritmasi qo'shiladi, xamda suv xammomida isitiladi. Hosil bo'lган cho'kma sentrifugalidan, issiq suvda yaxshilab yuviladi va 2 n H_2SO_4 bilan suv xammomida isitib turib, eritiladi 60-70°Cgacha isitilgan eritmaga tomchilatib, 0,01 n KMnO_4 eritmasidan qo'shiladi. $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ ionlari ishtirokida eritma rangsizlanadi.

6. NO_2^- ionini ochish

a) Sirka kislotali muhitda KJ eritmasini ta'siri. 2-3 tomchi tekshiriluvchi eritmaga 2-3 tomchi 2 n CH_3COOH , 3-5 tomchi KJ va 0,5%li kraxmal eritmasi qo'shiladi. Eritmada ko'k rangning hosil bo'lishi NO_2^- ionining borligini ko'rsatadi.

b) NO_2^- ionining sulfanil kislota va 1-naftilamin bilan reaksiyasi (Griss reaktivisi). Soat oynachasidagi 2-3 tomchi neytral yoki sirka kislotali tekshiriluvchi eritmaga, 1-2 tomchi sulfanil kislota va 1-naftilamindan tomiziladi. NO_2^- ionining ishtirokida eritma qizil rangga bo'yaydi.

v) antipirin bilan reaksiyasi. 2-3 tomchi tekshiriluvchi eritmaga 1-2 tomchi 2 n H_2SO_4 va 2 tomchi 5%li antipirin eritmasi qo'shiladi. NO_2^- ionining ishtirokida nitrozoantipirin hosil bo'lib, eritma yashil rangga bo'yaydi.

7. J^- va Br^- ionlarini ochish J^- va Br^- ionlarini xlorli suv reaksiyasi bilan neytral yoki kuchsiz kislotali muhitda ochiladi.

Probirkadagi 1-2 tomchi tekshiriluvchi eritmaga bir necha tomchi xloroform va yangi tayyorlangan xlorli suv solib, aralashtiriladi. Agar erituvchining organik qatlami binafsha rangga bo'yalsa, u xolda tekshiriluvchi eritmada J- ioni borligini ko'rsatadi. Agar eritmaga mo'lroq xlorli suv qo'shib borilganda erituvchining organik qatlamidagi binafsha rang yo'qolib, sariq-qo'ng'ir rang ko'rinsa, u xolda tekshiriluvchi eritmada Br- ioni borligini ko'rsatadi.

8. SCN⁻ va J⁻ ionlarini ochish

Probirkadaga 4-6 tomchi temir (III) xlorid, 1 tomchi 2 H HNO₃ kislota va bir necha tomchi xloroform solib, ustiga 3-4 tomchi tekshiriluvchi eritmada tomizib, aralashtiriladi. Agar suvli qatlam qizil-qon ranga, organik erituchining qatlami esa binafsha rangga bo'yalsa, u xolda eritmada titsionat va yodid ionlari borligini ko'rsatadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Anionlar aralashmasi analizidan qanday indeferent anionlar kasrli usulda aniqlanadi?
2. Nima uchun karbonat ionini sulfit- va tiosulfat-ionlari ishtirokida aniqlash mumkin emas? Mos keluvchi reaksiya tenglamalarini yozing.
3. Qanday guruh reaksiyasi bilan sulfid, sulfit va tiosulfat-anionlarni aniqlash mumkin?
4. S²⁻, SO₃²⁻ va S₂O₃²⁻ -aralashmasidan tiosulfat ionini qanday aniqlash mumkin?
5. Karbonat-ionini qanday aniqlash mumkin:
 - a) xalaqit beruvchi anionlar bo'limganida
 - b) xalaqit beruvchi anionlar ishtirokida
6. Oksalat-ionini qanday aniqlash mumkin:
 - a) xalaqit beruvchi anionlar bo'limganida
 - b) xalaqit beruvchi anionlar ishtirokida?
7. Yodid - va bromid-ionlari birga kelganda, ular qanday aniqlanadi?
8. Tiotsianat- va yodid-ionlari birga kelganda, ular qanday aniqlanadi?

LABORATORIYA ISH № 14

Quruq tuz analizi. Quruq tuz aralashmasining analizi

Mashg'ulotning maqsadi:

analitik guruh kationlari va anionlarining aralashmasining analizi reaksiyalarini bajarishni o'rganish

Laboratoriya ishi ucun kerakli

Reaktivlar:

Analitik guruh kationlari va anionlarini ochishda qo'llanilgan reaktivlar

Quruq tuz aralashmasini olgandan keyin, uning raqami laboratoriya jurnaliga yoziladi. Tuzning tashqi ko'rinishi va rangiga e'tibor beriladi. Agar olingan aralashma ko'k rangli kristallardan iborat bo'lsa, Cr³⁺ borligini ko'rsatadi, pushti rangli bo'lsa, Co²⁺ yoki Mn²⁺, yashil rangli bo'lsa Fe²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, sariq bo'lsa Fe³⁺ ionlari bo'lishi mumkin. So'ngra analiz qilinayotgan tuz uch qismga bo'linadi. Birinchi qismi kationlarni, ikkinchi qismi anionlarni aniqlash uchun ishlataladi. Uchinchi qismi esa takroriy nazorat uchun olib qo'yiladi. Analiz kationlarni aniqlanishdan boshlanadi. Tekshiriluvchi aralashma avval eritib olinishi kerak.

Suvda eruvchan moddalarni eritmaga o‘tkazish va analiz qilish

Probirkaga bir qism aralashmadan solib, 15-20 tomchi distillangan suv bilan eritib ko‘riladi, aks xolda suv hammomida isitib eritiladi. Agar aralashma to‘liq erimasa, uning qisman eruvchanligi buyum oynachasida tekshiriladi. Buning uchun 2-3 tomchi aralashmadan olib, buyum oynachasiga tomiziladi va parlatiladi. Buyum oynachasida quyuq quyqaning hosil bo‘lishi, aralashmaning qisman eruvchanligini ko‘rsatadi.

Agar aralashma to‘liq erib ketsa, u xolda eritma tayyorlanadi va analiz qilinadi.

I. Avval aloxida olingan eritmada -s,-p,-d-elementlari borligi to‘yingan Na_2CO_3 eritmasidan qo‘sib tekshiriladi (-s,-p,-d-elementlari bo‘lsa, cho‘kma hosil bo‘ladi). Agar cho‘kma hosil bo‘lmasa, u xolda eritmada faqat -s-ishqoriy elementlar bo‘ladi.

II. Eritmaning rangiga qarab Cu^{2+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Fe^{3+} , Cr^{3+} -ionlarini bor yoki yo‘qligini bilish mumkin.

III. So‘ngra eritmaning p muhiti tekshiriladi:

a) agar reaksiya muhiti ishqoriy bo‘lsa, I guruh kationlari hamda CO_3^{2-} , $\text{B}_4\text{O}_7^{2-}$, S^{2-} , PO_4^{3-} , CH_3COO^- anionlari bo‘lishi mumkin;

b) agar reaksiya muhiti kislotali bo‘lsa, u xolda CO_3^{2-} , S^{2-} , SO_3^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ anionlari bo‘lmaydi. Analiz jarayonida bu xulosalar tegishli reaksiyalar bilan isbotlanadi.

Agar modda suvda to‘liq erimasa, uning erigan qismi bilan hamma guruh kationlar aralashmasiga analiz bajariladi.

Suvda erimaydigan moddalarni suyultirilgan kislotalarda eritib, eritmalarga o‘tkazish

Agar quruq tuz aralashmasi suvda erimasa, u xolda uning eruvchanligini kislotalarda tekshiriladi. Buning uchun:

1. Probirkaga bir necha qism aralashmadan solib, 2n CH_3COOH kislotosi bilan ishlanadi. Bunda CO_2 , SO_2 , NO_2 gazlari ajralib chiqishi yoki chiqmasligi kuzatiladi va bu kuzatishlar natijasi anionlar analizida hisobga olinadi. Agar quruq tuz aralashmasi erimasa, uni isitib ko‘riladi.


2. Agar quruq tuz sirka kislotasida erimasa, uning bir qismi 2n HCl kislotasida ishlanadi. Agar quruq tuz HCl kislotalada erisa, bu xol Ag^+ , $[\text{Hg}_2]^{2+}$, kationlari yo‘qligidan dalolat beradi.

3. Agar quruq tuz CH_3COOH va HCl kislotalarda erimasa, uning eruvchanligi 2n H_2SO_4 yoki 2n HNO_3 kislotalarda sinaladi. Agar quruq tuz 2n H_2SO_4 kislotalada erisa, bu xol Sr^{2+} , Ba^{2+} , Pb^{2+} kationlari yo‘qligidan dalolat beradi.

Agar quruq tuz aralashmasi suyultirilgan kislotalarda erimasa, u xolda uning eruvchanligini konsentrangan HNO_3 yoki «podshox arog‘i»da tekshiriladi. Quruq tuz aralashmasi konsentrangan kislotalada eritilgandan keyin kislotaning ortiqchasi parlatib yo‘qotiladi va qolgan qoldig‘i esa suvda eritiladi hamda analiz qilinadi. Mos keluvchi erituvchi tanlab olib, kationlar tarkibi analiz qilinadi.

Kislotalarda erimaydigan moddalarni eritmaga o'tkazib, analiz qilish

Kislotalarda erimaydigan moddalarga qiyin eriydigan AgCl, AgBr, AgJ, Hg₂Cl₂, BaSO₄, CaSO₄, SrSO₄, PbSO₄ kiradi. Qiyin eriydigan sulfatlardan PbSO₄ 30%li issiq CH₃COONH₄ eritmasida yoki mo'l ishqorda eriydi. Olingan eritmada Pb²⁺ ioni K₂CrO₄ eritmasi bilan ochiladi. BaSO₄ va SrSO₄lar to'yingan Na₂CO₃ eritmasi bilan qaynatib, karbonatlarga o'tkaziladi va 2n CH₃COOH kislotasida eritib, so'ngra analiz qilinadi. Kumush xlorid konsentrangan ammiak eritmasida eritiladi. Hosil bo'lgan kumushning ammiyatli kompleksiga konsentrangan HNO₃ kislotasidan ta'sir ettiriladi. Bunda qaytadan AgCl cho'kmaga tushadi. AgBr qisman ortiqcha konsentrangan ammiak eritmasida eriydi. Olingan eritmada Ag⁺ ionini HNO₃ ta'sirida ochiladi. AgJ ni Na₂S₂O₃ eritmasi bilan ishlanib, eritmaga o'tkaziladi. Bunda kumushning eruvchan tiosulfatli kompleks birikmasi hosil bo'ladi. Kislotali muhitda bu kompleks birikma isitlganda parchalanadi va Ag₂S qora cho'kmasi hosil bo'ladi. Kumush bromid va yodidlarni rux metali ta'sirida H₂SO₄ bilan qizdiriladi. Bunda kumushning qora cho'kmasi hosil bo'lib, uni 6n HNO₃da eritiladi va eritmada Ag⁺ ioni ochiladi:



Modda eritilgach, avval kation guruhi guruh reagentlari bilan aniqlanadi so'ngra topilgan kationlarga xos reaksiyalar kasrli tartibda o'tkaziladi. Natijaga ko'ra xulosa chiqariladi.

I. Quruq tuzni eritish. Berilgan quruq tuzni bir qismini probirkaga solib, ustiga probirkani to'rtdan bir qismiga suv qo'shib yaxshilab silkitiladi. Agar tuz suvda erimasa, avval sirkal keyinchalik esa nitrat kislotada eritiladi.



II. Kationning analizi. Analiz qilinuvchi eritmaning uncha katta bo'limgan qismlaridan II-VI guruh kationlarini guruh reagentlari – HCl ni suvli eritmasi, H₂SO₄ ni suvli eritmasi, H₂O₂ ishtirokida NaOH ni suvli eritmasi, 25 % li ammiak eritmasi orqali u yoki bu guruh kationlari borligi aniqlanadi. Bundan tashqari analiz qilinuvchi eritmada ayrim Fe²⁺, Fe³⁺, Cr³⁺, Cu²⁺, I guruh kationlari o'ziga hos reaksiyalar orqali ochiladi.

Dastlabki tekshirishlar orqali aniqlangan guruhlarni guruh reagenti orqali ajratiladi.

III. Anionlar analizi. Quruq modda eritmasidan kationlarni topish jarayonida yo'l-yo'lakay u yoki bu anionlarning bor-yo'qligi to`g`risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Quruq modda suyultirilgan xlorid yoki nitrat kiclotada eritilgan bo'lsa, va bu eritmada Ba²⁺, Sr²⁺, yoki Rb²⁺ kationlari aniklangan bo'lsa, o'z-o'zidan ravshanki, tekshirilayotgan eritmada SO₄²⁻ anionlari bo'lmaydi. Neytral yoki ishqoriy muhitli eritmada Ba²⁺ kationlari topilgan bo'lsa, ishonch bilan tekshirilayotgan eritmada I guruh anionlarining hammasi yo'q deb aytish mumkin bo'ladi. Cho'kmasi bo'limgan eritmada Ag⁺ kationlari topilsa, II guruh anionlari yo'qdigini ko'rsatadi. CO₃²⁻, S²⁻, SO₃²⁻ va S₂O₃²⁻ anionlari borligi kationlarni analiz qilish yo'lida eritmani kislotali muhitga keltirishda gazlar (CO₂, H₂S, SO₂) ajralib chiqishga qarab topilishi mumkin.

Tekshirilayotgan quruq modda eritmasida ayrim anionlarning bor-yo'qligi haqida xulosa chiqarilgandan, unda bo'lishi ehtimoli tutilgan anionlarni topishga o'tiladi.

Anionlarni topish uchun quruq moddani maxsus tayyorlab olish lozim. Anionlarni faqat eritmada K^+ , Na^+ va NH_4^+ kationlari ishtirokidagina oson aniqlash mumkin. Boshqa kationlar, ya`ni «og`ir metallar»ning kationlari - II-VI guruh kationlari anionlarni aniqlashga halaqit beradi. Eritmada bu kationlarning ba`zilarini rangli bo`lishi, oksidlash-qaytarish xossalari borligi, bir qator anionlar bilan birikib, cho`kma berishga qobil ekanligi anionlarni topishga xalaqit beradi. Shuning uchun «og`ir metallar»ning kationlarini yo`qotish va hamma tuzlarni natriy tuzlariga aylantirish maqsadida tekshirilayotgan modda natriy karbonat Na_2CO_3 eritmasi qo'shib qaynatiladi. Bunda II-VI — guruh kationlari karbonatlar yoki gidroksidlar holida cho`kadi:



Taxminan 0,1g quruq modda tigelda 0,4g kimyoviy toza suvsiz natriy karbonat Na_2CO_3 bilan aralashtiriladi, ustiga 50-60 tomchi distillangan suv qo'shiladi, aralashma 5 minut davomida (bug`langan suvni o'rnini to`ldirib turish uchun suv qo'shib turgan holda) qaynatiladi.

Tigeldagi bo`lgan aralashmakonussimon probirkaga o'tkaziladi, sentrifugalanib, cho`kmasi ajratiladi. Olingan eritma «sodali so`rim» nomi bilan atalib uning tarkibidagi I-III guruh anionlari Laboratoriya ishi №14 ko`rsatilgan tartibda topiladi. Analiz qilishdan oddin «sodali so`rim» natriy karbonatning ortiqchasini yo`qotish maqsadida sirka kicloti bilan neytrallanadi. Bu ishni juda ehtiyyotlik bilan bajarish lozim, kislotadan ko`proq qo'shilsa S^{2-} , NO_2^- va ba`zi bir anionlarni yo`qotib yuborish mumkin. Shuni e'tiborga olish kerakki, CO_3^{2-} anioni so`rim tayyorlashda eritmaga kirib qoladi. Shu sababli CO_3^{2-} anioni quruq moddaning ozgina ulushidan xlorid kislota ta`sir ettirib topiladi.

Quruq modda eritmasi tarkibidagi kationlar va anionlar aniqlanib bo`lgach, tekshirilayotgan namunani-tuz tarkibi to`g`risida xulosa chiqariladi. Masalan, agar Na^+ , K^+ , NH_4^+ kationlari va NO_3^- anioni topilgan bo`lsa, namuna kaliyli, natriyli va ammoniy nitratlari aralashmasidan iborat bo`ladi. Bordiyu, K^+ kationi, shuningdek SO_4^{2-} va NO_3^- anionlari topilgan bo`lsa, unda quruq modda ikki tuz – K_2SO_4 va KNO_3 aralashmasi bo`lib chiqadi va hokazo.

LABORATORIYA ISH № 15 MIQDORIY TAHLIL, UNING VAZIFASI VA USULLARI

Miqdoriy tahlil tekshirilayotgan modda tarkibini miqdor jihatdan o'rganadigan usullar majmuasidan iborat. Miqdoriy tahlilning vazifasi birikma tarkibidagi ayrim elementni yoki aralashma, qotishma va eritmalar tarkibidagi birikmalarning miqdorini aniqlashdan iborat. Miqdoriy tahlilning kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy usullari bor.

Har qanday miqdoriy tahlilning asosi o'lchashdir. Kimyoviy tahlil usullari massa va hajmni o'lchashga asoslangan bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

- 1.Tortma (gravimetrik) tahlil
- 2.Hajmiy (titrimetrik) tahlil
- 3.Gaz tahlili

Tortma tahlil deb tahlil qilinadigan modda massasini aniq o'lchashga asoslangan miqdoriy aniqlashga aytildi. Tortma (gravimetrik) tahlil yetarli darajada aniq natijalar beradi, lekin uni bajarish uchun ko'p vaqt ketadi. Tekshiriladigan modda namunasi analitik tarozida tortiladi, so'ngra namuna eritmaga o'tkaziladi, zaruriy komponent (miqdori aniqlanishi kerak bo'lgan ion) kam eruvchan va aniq tarkibli birikma holida cho'ktiriladi, cho'kmani filtrlab eritmadan ajratiladi. Cho'kma doimiy massaga kelguncha quritiladi va analitik tarozida tortiladi. Cho'kmaning massasini bilgan holda zaruriy komponentlarning massasi topiladi.

Hajmiy (titrimetrik) tahlil reaksiyaga kirishayotgan eritmalar hajmini o'lchashga asoslangan. Ulardan birining konsentratsiyasi ma'lum bo'lib, ikkinchi eritmaning konsentratsiyasi titrlash asosida hisoblanadi. Hajmiy (titrimetrik) tahlil tarkibi tekshirilayotgan eritmaga reaktiv eritmasidan ekvivalent miqdorida quyiladi. Uning ekvivalent nuqtasi indikatorlar yordamida yoki boshqa usulda aniqlanadi.

Gaz tahlilida gazlar aralashmasi maxsus reaktiv eritmasi orqali o'tkazilgan ayrim komponentlarning eritmaga yutilishi tufayli gazlar aralashmasining hajmi kamayadi. Ana shunga asoslanib aralashmadagi ba'zi gazlarnng hajmiy ulushi yoki massa ulushi foizlarda aniqlanadi.

Ishlab chiqairishning hamma sohalarida qo'llaniladigan miqdoriy tahlil metodlariga texnik tahlil deyiladi. Bir moddani ham tortma ham hajmiy tahlil bilan analiz qilish mumkin. Analitik tahlil uchun aniqlash usulini tanlaganda tahlilning aniqligi va tahlilning bajarilish tezligiga e'tibor berish kerak. Agar aniqlashlar ko'p bo'lsa, bu holda reaktivning topilishiga va uning bahosiga e'tibor berish kerak.

Ilmiy ish maqsadida o'tkaziladigan tahlilda eng yuqori aniqlik beradigan tahlil usullari qo'llaniladi. Bunda tahlilni o'tkazish uchun ketgan vaqt qo'llaniladigan reaktivlarning bahosi hisobga olinmaydi. Ishlab chiqarish sharoitida esa, agar tahlil usuli talab qilinadigan aniqlikn bersa, usulning tez bajarilishiga va oddiyligiga alohida e'tibor beriladi.

Tahlil uchun olingan moddaning miqdoriga ko'ra analitik usullar quydagicha tavsiflanadi.

Analitik usullar tasnifi

№	Nomlanishi (qavs ichida usulning yangi nomi)	Olingan modda miqdori	
		g	ml
1	Makrotahlil (gramm-usuli)	1-10	1-100
2	Yarim mikrotahlil	0,05-0,5	1-10
3	Mikrotahlil (milligramm-usuli)	0,001- 10^{-6}	0,1- 10^{-4}
4	Ultramikrotahlil (mikrogramm usuli)	10^{-6} - 10^{-9}	10^{-4} - 10^{-6}
5	Submikrotahlil (nanogramm usul)	10^{-9} - 10^{-12}	10^{-7} - 10^{-10}
6	Subultramikrotahlil (pikogramm metodi)	10^{-12}	10^{-10}

Kimyoviy tahlil ko'pincha yarim mikrourusulda bajariladi, bunda reaktivlar kam sarflanadi, kichik hajmli idishlardan foydalanish ham mumkin. Agar tahlil to'g'ri bajarilsa, yarim mikrourusul juda aniq natijalar beradi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish va ilmiy tekshirish laboratoriyalarda murakkab apparatlar va asboblarning qo'llanilishiga asoslangan fizikaviy va fizik-kimyoviy tahlil usullari keng qo'llanilmoqda. Bunday usullar yordamida tahlil qilinadigan moddadan minimal miqdorda sarflab, tahlilni juda tez bajarish mumkin. Lekin kimyoviy tahlil usullarini o'rganish analitikning fikr doirasini o'stirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ekspress analiz- tez bajarilishi kerak bo`lgan analiz.

Vizual metod-asboblardan foydalanmay ko`z bilan ko`rib natija olish.

Gravimetrik analiz-o`rganilayotgan moddani tarozida tortib, uning massasini aniqlash

Analitik kimyoda tarozilar

Analitik kimyoda o'lchash analitik signalni olishning keng tarqalgan usulidir. Massasi noma'lum bo'lgan har qanday modda oldin texnik tarozida (1.1-rasm) 0,01 g aniqlikda, keyin analitik tarozida 0,0001 g aniqlikda o'lchanadi.


Hozirgi vaqtida analitik kimyoda kam miqdordagi moddalar bilan ishlanadi. Shuning uchun ham analitik tarozilar massasi 100-200 g gacha bo'lgan moddalarni tortishga mo'ljallangan. Analitik tarozilar ikki yoki bir pallal bo'ladi (1.2- va 1.3-rasmlar).

Ikki pallal tarozilarning eng muhim qismi bo'lgan shayin agat yoki yaxshilab toblangan po'latdan yasalgan o'tkir qirrali uchta

1.1-rasm. Kimyoviy texnik tarozi:

1-palla; 2-nol nuqtasini rostlash yuklari (porsangi); 3-shayin; 4-halqalar; 5- shoqul; 6-strelka; 7-shkala; 8-arretir dastasi

prizmali bo'lib, ulardan biri shayinning o'rta qismida qirrasi tarozi yelkasiga yo'nalgan tarzda joylashtirilgan bo'ladi. U tarozining tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Qolgan ikkita prizma shayinning shu nuqtasidan teng masofada qirralari (o'rta prizma qirrasi bilan bir tekislikda parallel)




bilan yuqoriga qaragan holda joylashtirilgan bo'ladi. Ularga pallalarni osishga mo'ljallangan halqachalar o'rnatiladi. Tarozining yelkasi va halqachalarning tayanch chiziqlari qancha yaxshi silliqlangan va prizmalarning qirralari qancha o'tkir bo'lsa, tarozi shuncha sezgir bo'ladi. Shayinning o'rtasiga maxsus strelka o'rnatilgan bo'lib, u darajalangan shkala bo'ylab harakatlanadi.

Tarozi ishlatilganda prizmalarning qirralari va tayanch yuzalar asta-sekin siyqalanib, tarozining tortish aniqligi kamaya boradi. Buning oldini olish uchun tarozi ishlamay turganda prizmalar tayanch nuqtalardan *arretir* moslamasi (tirgak) yordamida ajratib qo'yiladi. Tirgak yordamida tarozi shayinini ko'tarib qo'yish tarozini «*arretirlash*» deyiladi. Tarozini ishga tushirganda uning arretir diskini sekin buralishi kerak. Tortiladigan modda tarozi pallasiga qo'yilishidan va olinishidan oldin tarozi albatta arretirlangan bo'lishi kerak. Analitik tarozilar oynali quti ichiga joylashtirilgan bo'ladi. Oynali quti tarozini chang, xonada ishlovchilarning harakati tufayli yuzaga keladigan havoning harakati, tarozida ishlovchining nafas olishi va chiqarishi kabi ta'sirlardan saqlaydi.

Tarozi binoning tebranishlardan eng ozod bo'lgan joyiga o'rnatilgan stol ustida joylashtiriladi. Tarozining yelkasi qat'iy vertikal holatda bo'lishi kerak. Tarozini

bunday joylashtirish uchun uning orqa tomoniga o'rnatilgan ipga osilgan uchli yukdan foydalilanadi. Zamonaviy tarozilarda yukli ip o'rniда vaterpas

1.2-rasm. Ikki pallali VLR-200 rusumli analitik tarozi: 1-pallalar; 2-arretir; 3-milligramm massali toshchalarni o'rnatish dastalari; 4-o'lchash natijasini yozib olish ekranı




1.3-rasm. Bir pallali ikki prizmali VLDP-100 rusumli analitik tarozi: 1-palla; 2-nolni o'rnatish dastasi; 3-milligramm massali toshchalarni o'rnatish dastasi; 4-o'lchash natijasini yozib olish ekranı

(adilak, shay ton) bo'lib, vaterpasdagi suyuqlik ustidagi havo uning o'rtasiga tarozining oyoqlaridagi vintlarni burash orqali keltiriladi. Shunda tarozining yelkasi vertikal (yuzasi - gorizontal) bo'ladi. Tarozining pallalarini oksidlanishdan himoyalash uchun nikellaydilar, ayrim tarozilarning pallalari oltin yoki boshqa zanglamaydigan metallning yupqa qatlami bilan qoplanadi.

Modda quruq yoki ho'l holda tortilishi mumkin. Gravimetrik analizda aniq natijalar olish uchun modda quritilgan shaklda tortiladi. Tarozining pallasiga tortiladigan moddani bevosita qo'yish yaramaydi. Modda biror idishda tortiladi. Moddalarni tortish uchun byuks, soat oynasi, tigel, stakancha, probirka singari idishlar ishlataladi. Tortiladigan modda namtortar (gigroskopik) bo'lsa, uni qopqoqli byukslar yordamida tortish maqsadga muvofiqdir. Modda tortiladigan idish tortishdan awal astoydil tozalab yuviladi va *doimiy* massagacha quritiladi. Yaxshilab quritilgan idish yoki moddaning massasi takroriy quritishdan keyin amalda o'zgarmasa, uning massasi *doimiy* hisoblanadi. Analitik kimyo laboratoriyasida moddalarni qog'oz ustida tortish mumkin emas. Qog'oz gigroskopik bo'lganligi uchun u havo namin tortadi. Bundan tashqari, tortilgan moddani qog'ozdan to'liq ajratib olishning imkoniyati yo'q. Gravimetrik analizdagi tortishlarning ko'p qismi moddani quritish va uydirish bilan bog'liq. Issiq buyum tarozi pallasiga qo'yilsa, uning massasi haqiqiy qiymatidan farq qiladi. Issiqlik tarozi shayinini uzaytiradi, issiq oqim esa pastdan yuqoriga tomon harakatlanadi. Issiq oqimning pastdan yuqoriga tomon harakati natijasida tarozi pallasi ham ko'tarilishi mumkin. Tortish aniqligining yetarli talab darajasida bo'lishi uchun quritish yoki kuydirish pechidan olingan tekshiriladigan modda bo'lgan idish sovitiladi. Sovuq buyumlar tortilganda buning teskarisi bo'ladi. Shuning uchun ham tortilishi talab etilgan issiq yoki sovuq buyumning harorati tarozixona haroratigacha keltirilgan bo'lishi kerak. Issiq buyumni sovitish davomida uning sirtida havo tarkibida doimo bo'ladi namlik kondensatlanadi. Buning oldini olish uchun buyum *eksikator*. joyylanadi.


Eksikator pastki qismiga namlikni yutuvchi quritadigan moddalar (kuydirilgan kalsiy xlorid, kalsiy oksid, konsentrangan sulfat kislota va boshqa) solingan idish bo'lib (9.4-rasm), tortiladigan buyum uning chinni tagligi ustiga joylangandan so'ng tarozixonaga olib boriladi va soviguncha kutib turiladi. 110-150 °C haroratda quritilgan idish taxminan 30-40 daqiqa ichida xona haroratigacha soviydi. Eksikatorning qopqog'ini ochish uchun qopqoq o'ng qo'l bilan ushlanadi. Chap qo'l bilan eksikatorning o'zimizga qaragan tomonidan ushlagan holda, qopqoqni ko'tarmasdan gorizontal yo'nalishda sekin tortish kerak. Qopqoqni yopish uchun buning teskarisi qilinadi. Eksikatorni bir joydan boshqa joyga ko'chirish uchun ikkala qo'limizning bosh barmoqlari bilan uning qopqog'i ushlanadi va pastidan ikki qo'llab ushlab ko'tariladi. Eksikatorning qopqog'i havo namligini o'tkazmasligi va tushib ketmasligi uchun uning silliqlangan qismiga mum yoki parafin aralashirilgan texnik vazelin surtiladi.



1.4-rasm. Eksikatorlar: **A-jo 'mraksiz; B-jo 'mrakli;**

1-qopqoq; 2-tana; Modda qo'yish to'ri;

3. kosacha; 5-vakuum jo 'mrap Tarozi toshlari maxsus qutichalarga



9.5-rasm. Analitik tarozi toshlari

muayyan tartib bilan joylangan (9.5-rasm) bo'ladi. Tarozi toshlarini tarozi pallasiga qo'yish, undan olib qutichaga joylash uchun uchlariga muguz yopishtirilgan qisqich ishlatiladi. Toshlarni qisqich bilan ushlaganda qattiq qismaslik kerak. Qutidagi toshlar ko'pincha 0,01 -100 g massali bo'ladi. Milligramm massali toshlar yelkasiga joylashtirilgan tarozilarining toshlari qutisida 1-100 g massali toshlar bo'ladi. Toshlar zanglamasligi, ustiga chang va namlik o'tirmasligi kerak. Toshlarga tasodifan reaktiv, suv yoki boshqa biror modda tegsa, darhol ulardan tozalanishi, artilishi, zarur hollarda yuvilishi kerak. Toshlar zanglamasligi uchun ularning sirti zanglamas qatlam bilan qoplanadi. Toshlarning qutidagi o'rirlari qat'iy bir xil bo'lganligi uchun modda massasini toshlarning qutidagi bo'sh o'rirlariga qarab ham yozish mumkin. Toshlarni qutichaga joylayotganda yozuvning to'g'riligi tekshiriladi.

Analitik tarozilarda tortish qoidalari.

Analitik tarozi aniq fizik asbob bo'lib, unda tortganda juda ehtiyot bo'lish talab etiladi. Tarozining ishdan chiqmasligi va aniq tortish natijasini olish uchun qator qoidalarga rioya qilishga to'g'ri keladi:

1. Tortishga kirishishdan oldin tarozi pallalaridagi changni yumshoq mato yoki cho'tka yordamida ehtiyotlik bilan tozalang va tarozining nolinchi nuqtasini toping. Agar tarozini tekshirayotganda biror noaniqlikni kuzatsangiz, darhol mas'ul laborantga bu haqda ma'lum qiling.

2. Tarozining pallasiga tortiladigan buyum va toshlarni qo'yishdan awal uning arretirlanganligiga ishonch hosil qiling. Agar tarozi reyterli bo'lsa, reyterni o'rnatayotganda yoki siljitayotganda ham tarozi arretirlangan bo'lishi kerakligini unutmang. Arretir diskini sekin va ehtiyotlik bilan burang.

3. Tarozida belgilangan miqdor moddadan ortiqcha moddani tortmang, aks holda tarozi buziladi.

4. Biror idishdagi moddaning (yoki bo'sh idishni) og'irligi noma'lum bo'lsa, uni texnik tarozida tortib, uning taxminiy massasini aniqlang. So'ngra uni analitik tarozining chap pallasiga joylashtiring va tarozining derazachasini yoping. Tarozining pallasiga kimyoviy moddani bevosita yoki qog'ozga solib tortmang, balki soat oynasi, byuks, tigel, probirka va hokazolarga solib torting. Tarozining o'ng pallasiga toshchalar texnik tarozida o'lchangan massa analitik tarozining o'ng pallasiga qo'yib, tarozining derazachasini yoping va tarozini arretirdan sekin bo'shating.

5. Issiq yoki sovuq moddalarni tortishdan oldin ularning haroratini tarozi haroratiga keltiring. Buning uchun uni eksikatorda tarozixonada kamida 20-25 daqiqa saqlang.

6. Tarozining pallasiga nam, iflos va ho'l moddalarni qo'ymang. Tarozi joylashtirilgan qutiga reaktiv, suyuq modda to'kmang.

7. Namni yutadigan moddalar, suyuqliklar, uchuvchan va o'yuvchi moddalarni faqat yopiq idishlarda (byuks) torting.

8. Tarozining o'lchash bilan bog'liq joylari (pallasi, shayini, strelkasi va boshqa), toshlar va reyterga qo'l tegizmang. Qo'lingizdagi namlik, yog' va boshqalar ularda qoladi. Toshlarni faqat qisqich bilan ushlang. Agar reyter tasodifan tushib qolsa, uni qisqich yordamida o'z o'mniga joylashtiring.

9. Tortish vaqtida tarozining derazachalari yopiq bo'lishi kerakligini unutmang.


10. Bir ishni bajarish davomida faqat bitta tarozi va toshlar majmuasidan foydalaning.

11. Tarozi o'rnatilgan stolga suyanmang. Tarozini joyidan aslo qo'zg'atmang.

12. Tarozixonaga behuda kirmang, ishlayotganlarga xalaqit bermang, ular fikrini chalg'itmang, tarozixonada qattiq ovoz bilan so'zlashmang, chopib yurmang.

Mavzu: $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tarkibidagi kristalizatsiya suvi miqdorini aniqlash

Aniqlash quyidagi reaksiyaga asoslangan:



Aniqlash tartibi: a) *tortim olish*. Tozalab yuvilgan va quritilgan byuks 120-125 $^{\circ}\text{C}$ haroratdagi qurish shkafiga qo'yiladi (byuksning qopqog'ini to'la bekitmasdan), 30-40 daqiqadan keyin byuks sovutish uchun eksikatorga qo'yiladi.

Sovuganidan so'ng analitik tarozida tortiladi va natijasi daftarga yoziladi. So'ngra byuks yana tarozida tortiladi va keyingi ikki tortish orasidagi farq 0,0002 g dan kam bo'lganda to'xtatiladi. Qayta kristallash yo'li bilan tozalangan va havoda quritilgan (tarkibida gigroskopik suvi bo'lgan) bariy xloriddan texnik-kimyoviy tarozida 2 g tortib olib, aniq massali byuksga solinadi, byuksning qopqog'i bekitiladi va analitik tarozida tortiladi.

b) quritish. $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tortimi solingen byuksning qopqog'ini olib, qirrasi bilan byuks og'ziga qo'yiladi. Shunday holatda byuks 120-125 °C haroratda quritish shkafiga 25-30 daqiqa davomida quritiladi, bundan yuqori haroratda tuz qisman parchalanishi va uchib ketishi, pastroq haroratda esa kristalizatsiya suvining bir qismi haydalmasdan qolishi mumkin. So'ngra byuks va qopqog'i eksikatorga joylanadi. 15-20 daqiqa o'tgach, moddaning harorati tarozili xona harorati bilan bir xil bo'lganda byuksning qopqog'i bekitiladi va tarozida tortiladi.

v) hisoblash. Analitik tarozida tortish natijalari va tahlil bajarilganligi tartibi laboratoriya jurnaliga yoziladi, so'ngra ular asosida hisoblashlar qilinadi. Ish jurnaliga hisobot yozish namunasi:

1. $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tortimini olish. Byuksning massasi

1- tortish 12,2165 g

2- tortish 12,2164 g

3- tortish 12,2162 g

Byuksning doimiy massasi 12,2162 g

Byuksning $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ bilan massasi 14,5602 g

$\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tortimi massasi 2,3440 g

2. $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tortimini quritish. Bariy xloridli byuksning quritishdan keyingi massasi

1- tortish 14,2107 g

2- tortish 14,2103 g

3- tortish 14,2102 g

$\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ li byuksning doimiy massasi 14,2102 g

3. Kristallizatsiya suvining massasini hisoblash:

$$14,5602 - 14,2102 = 0,3500 \text{ g H}_2\text{O}$$

4. Kristalizatsiya suvning miqdorini (% da) hisoblash

$$2,3440 \text{ g BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} — 100\%$$

$$0,3550 \text{ g BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} — x \%$$

$$x = \frac{0,3500 \cdot 100}{2,3440} = 14,93\%$$

5. Analiz xatosini aniqlash. Kristallogidrat formulasiga kirgan suvning massasi nazariy miqdori bo'lib, proporsiya orqali quyidagicha hisoblanadi.

$$244,3 \text{ g BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} — 36 \text{ g H}_2\text{O saqlaydi}$$

$$100 \text{ g BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} — x \text{ g H}_2\text{O saqlaydi}$$

$$x = \frac{36 \cdot 100}{244,3} = 14,75\%$$

Absolyut xato analiz natijasida topilgan miqdor bilan nazariy miqdor orasidagi farqni ifodalaydi: $14,75 - 14,93 = (-0,18) = 0,18\%$

Nisbiy xato absolyut xatoning qiymatini analiz natijasida olinish zarur bo'lgan qiymatga nisbati bilan aniqlanadi. Olingan natijani 100 ga ko'paytirib, nisbiy xato (% larda) ifodalanadi:

$$\frac{0,18 \cdot 100}{1,475} = 1,22\%$$

LABORATORIYA ISHI № 16

Titrimetrik (hajmiy) tahlil usullari

Aniqlanadigan moddaning berilgan miqdori va konsentratsiyasi aniq bo'lgan reaktivning reaksiyasiga kirishuvchi hajmini o'lchashga asoslangan miqdoriy tahlil usuliga titrimetrik (hajmiy) tahlil deb ataladi.

Aniqlanadigan modda miqdoriga reaktiv ekvivalent bo'lgan holat ekvivalent nuqta deb ataladi. Ekvivalent nuqta maxsus asboblar yoki indikatorlar yordamida aniqlanadi. Indikator rangining o'zgarish holatiga titrlashning oxirgi nuqtasi deyiladi. Aniqlanadigan modda eritmasiga unga teng miqdorda sekinlik bilan aniq konsentrasiyalı reaktivdan tomchilatib qo'shish jarayoniga titrlash deyiladi. Konsentratsiyasi aniq bo'lgan eritma titrlangan standart ishchi eritma yoki titrant deb ataladi.

Tahlil qilinadigan modda miqdorini aniqlashda ishlataladigan asosiy reaksiyalarning xarakteriga qarab titrimetrik tahlil usullarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

Usullar guruhlari	Usullar guruhchalari	Alovida usullar	Titrantlar	To'g'ri titrlash bilan aniqladigan moddalar
Kislota-asosli titrlash usuli	Asidometriya		HCl H ₂ SO ₄ H ₂ C ₂ O ₄	Ishqorlar
	Alkalimetriya		NaOH	Kislotalar
Oksidlanish-qaytarilishli titrlash usuli, redoksimetriya	Oksidimetriya	Permanganatometriya Yodometriya Xromatometriya Bromatometriya Yodatometriya Serimetriya Vanadatometriya	KMnO ₄ J ₂ K ₂ Cr ₂ O ₇ KBrO ₃ KJO ₃ Ce(SO ₄) ₂ NH ₄ VO ₃	Qaytaruvchilar
	Redoksimetriya	Titanometriya Xromometriya	TiCl ₂ CrCl ₂	Oksidlovchilar
Kompleksometrik titrlash usuli, kompleksometriya		Merkurimetriya	Hg(NO ₃) ₂	Galogenidlar
		Sianidometriya	KCN	Ni ²⁺ , Co ²⁺ , Al ³⁺ , Th ⁴⁺ ionlari
Xelatometriya	Kompleksonometriya	Kompleks-son (III)		Metall ionlari
Cho'ktirish usuli, sedimetriya		Argentometriya	AgNO ₃	Galogenidlar
		Merkurometriya	Hg(NO ₃) ₂	Xloridlar

Hajmiy tahlilning to'g'ri bajarishning shartlari: 1.Eritmalarning hajmini to'g'ri o'lchash; 2.Standart eritmalar konsentratsiyasining juda aniq bo'lishi; 3.Reaksiya- ning tugash paytini aniqlash (indikatorni to'g'ri tanlash).

3- ish. Hajmni o'lchash asboblari bilan ishslashni o'rganish (suvda)

Titrimetrik tahlilda eritma hajmini aniq belgilash uchun o'lchov idishlari: byuretkalar, pipetkalar, o'lchov silindrлari va o'lchov kolbalari ishlataladi. Suv bilan o'tkaziladigan tajribada ulardan to'g'ri foydalanishni o'rganish lozim, chunki titrimetrik usul bilan tahlil olib borishda asosiy xatolik eritmalar hajmini noto'g'ri belgilash oqibatida kelib chiqadi.

1. Pipetkadan foydalanishni o'rganish.

1-vazifa: Pipetkani distillangan suv bilan to'ldirib «nol» nuqtasini aniqlash.

2. Silindrдан foydalanishni o'rganish.

2-vazifa: Silindrni distillangan suv bilan to'ldirib «nol» nuqtasini aniqlash.

3. Byuretkadan foydalanishni o'rganish.

3-vazifa: Byuretkani distillangan suv bilan to'ldirib «nol» nuqtasini aniqlash.

4-vazifa: a) 4,80 ml b) 8,80 ml o'lchab olish (3 marta takrorlansin).

5-vazifa: 1 tomchi suvning hajmini aniqlash.

1 tomchi suvning hajmini aniqlash uchun byuretka suv bilan to'ldiriladi va nol nuqta aniqlanadi, keyin suvdan 50 tomchi sanab olinadi. Tajriba 2 marta takrorlanadi, olingan qiymat jadvalga yoziladi va 50 tomchi suvning o'rtacha hajmi hisoblanib, 1 tomchi suvning hajmi aniqlanadi.

Bir tomchi suvning hajmini aniqlash


Nº	Tomchining soni, dona	Suvning hajmi, ml	50 tomchi suvning o'rtacha hajmi, ml
1.	50	2,13	$\bar{V} = \frac{2,13 + 2,14 + 2,15}{3} = 2,14 \text{ ml}$
2.	50	2,14	
3.	50	2,15	
	50	$\bar{V} = 2,14$	

$$1 \text{ tomchi suvning hajmi} = \frac{2,14}{50} = 0,04 \text{ ml.}$$

LABORATORIYA ISHI № 16

Kislota-asosli titrlash usuli (neytrallash usuli)

Neytrallash usulining asosini gidroksoniy (yoki vodorod ioni) va gidroksil ionlarining o'zaro ta'siri natijasida kam ionlanuvchi suv molekulاسining hosil bo'lishi tashkil etadi:



Neytrallash usulidan foydalanib kislotalarni ishqorning titrlangan eritmasi yordamida va asoslarni kislotaning titrlangan eritmasi yordamida hamda kislota va asoslar bilan stexiometrik nisbatda reaksiyaga kirishuvchi boshqa moddalar miqdorini aniqlash mumkin.

Titrlashning maxsus usularini qo'llab neytrallash usullari yordamida suvsiz eritmalarda kuchli, kuchsiz va juda kuchsiz kislotalar aralashmasini hamda asoslar va tuzlar aralashmasini differensial (alohida-alohida) titrlash mumkin.

Ekvivalent nuqtani o'rnatish hamda titrimetrik tahlil usullaridagi kabi neytrallash usullarida ham katta ahamiyatga ega. Amalda ekvivalent nuqta titrlanadigan eritmaga qo'shilgan indikator (1-2 tomchi) rangning o'zgarishi bo'yicha topiladi. Agar titrlanadigan eritmalar kuchli rangli va tiniqmas bo'lsa, indikatorlardan foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun ko'pincha bunday hollarda ekvivalent nuqtani o'rnatishning fizik-kimyoviy usullaridan foydalaniladi. Titrlash jarayonida eritma rangining o'zgarishiga emas, balki unda ayrim elektrokimyoviy ko'rsatkichlarning elektr o'tkazuvchanlikning (konduktometrik titrlash), oksidlanish-qaytarilish potensialining (potensiometrik titrlash) o'zgarishiga e'tibor beriladi. Ekvivalent nuqtani aniqlashda vizual kuzatishdan emas, balki turli asboblardan foydalaniladi. Istalgan hajmiy tahlilda quyidagi operatsiyalar bajariladi:

1. Standart eritmalar tayyorlash
2. Indikator tanlash.
3. Standart eritmaning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlash.
4. Standart eritma bilan aniqlanadigan modda eritmasini titrlash.
5. Analiz natijalarini hisoblash.

4-ish Standart eritmalar tayyorlash

Reaktivlar: konsentrangan HCl; Na₂B₄O₇·10H₂O; metiloranj (indikator)

1. Xlorid kislotaning 0,1 n eritmasini tayyorlash. Xlorid kislotaning ishchi eritmasi laboratoriya da konsentrangan (x.t. – ximiyaviy toza) kislotaga kerakli miqdorda suv qo'shib suyultirish yo'li bilan tayyorlanadi. 250 ml 0,1 molyar ekvivalent konsentratsiyali eritma tayyorlash kerak. Buning uchun eritmadagi HCl ning massasini quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$m_{\text{HCl}} = \frac{C(\frac{1}{Z} \text{HCl}) \cdot M(\frac{1}{Z} \text{HCl}) \cdot V}{1000} = \frac{0,1 \cdot 36,46 \cdot 250}{1000} = 0,9115 \text{ g}$$

Keyingi bajariladigan ishlar uchun ishlatiladigan konsentrasiyalangan xlorid kislotaning zichligi aniqlanadi. Buning uchun uzun silindrga xlorid kislota quyiladi va areometr yordamida uning zichligi aniqlanadi. Aytaylik, kislotaning zichligi 1,179 g/sm³ ga teng bo'lsin. Spravochnikdagi jadvaldan shu zichlikni xlorid kislotada necha foiz HCl borligi topiladi. U 36% ga teng. So'ngra 250 ml 0,1n HCl eritmasi tayyorlash uchun konsentrangan xlorid kislotadan qancha olish kerakligi hisoblab topiladi.

$$\begin{aligned} 100 \text{ g } 36\% \text{ li HCl da} &= 36 \text{ g HCl bor} \\ x \text{ g } 36\% \text{ li HCl da} &= 0,9115 \text{ g HCl bor} \\ x &= \frac{100 \cdot 0,9115}{36} = 2,53 \text{ g} \end{aligned}$$


Suyuqlikni tarozida tortish noqulay bo'lganligi uchun kislotaning massasi hajmga aylantiriladi:

$$V = \frac{m}{\rho} = \frac{2,53}{1,179} = 2,14 \text{ ml}$$

Pipetkada 2,14 ml 36% li xlorid kislota o'lchab olinadi, uni hajmi 250 ml bo'lgan kolbaga solib, belgisiga qadar distillangan suv to'ldiriladi.

Tayyorlangan eritma yaxshilab aralashtiriladi.

2. Bura eritmasini tayyorlash va uning konsentrasiyasini aniqlash. Bura xlorid kislota bilan quyidagicha reaksiyaga kirishadi:



Reaksiya tenglamasidan ko'rinib turibdiki bir mol bura ikki mol HCl bilan reaksiyaga kirishadi. Shuning uchun buraning ekvivalent molyar massasi:

$$M(1/2\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) = \frac{381,42}{2} = 190,71 \text{ g}$$

250 ml ekvivalent molyar konsentrasiyasi 0,1 mol/l bo'lgan eritma tayyorlash uchun zarur bo'lgan bura massasini hisoblaymiz.

$$\begin{aligned}m_{(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O})} &= \frac{C(1/2\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) \cdot M(1/2\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) \cdot V}{1000} = \\ &= \frac{0,1 \cdot 190,71 \cdot 250}{1000} = 4,76775 \text{ g}\end{aligned}$$

Hisoblanganiga juda yaqin qilib texnokimiyoviy tarozida 4,76775 g bura tortiladi, so'ngra u quruq toza byuksga solinadi va analistik tarozida tortiladi. Byuks bilan tortimning birgalikdagi massasi ish daftariga yoziladi.

Bura 250 ml hajmli o'lchov kolbasiga quruq voronka orqali ehtiyyotlik bilan solinadi. Shundan so'ng byuks unda qolgan bura zarrachalari bilan yana analistik tarozida tortiladi. Birinchi va ikkinchi tortishdagi farqdan kolbadagi buraning miqdori hisoblab topiladi.

Voronkadagi hamma bura yuvgichdan yuborilayotgan distillangan suv oqimi bilan yuvib kolbaga tushiriladi. So'ngra kolbaga distillangan issiq suv (kolbaning hajmini 2/3 qismiga qadar) qo'shiladi va voronka olinadi.

Aylanma harakat bilan aralashmani chayqatib, kolba ichidagi bura batamom eritiladi. Kolbadagi eritma xona haroratigacha sovitiladi va uning belgisigacha qadar distillangan suv quyiladi. Kolbaning og'zi tiqin bilan berkitiladi va eritma yaxshilab aralashtiriladi. Tayyorlangan eritmaning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini hisoblang.

3. Xlorid kislota eritmasi konsentratsiyasini aniqlash. Byuretka yaxshilab yuviladi va standartlangan xlorid kislota eritmasi bilan chayiladi. Voronka orqali byuretkaga xlorid kislota eritmasi nol nuqtadan yuqoriroqgacha solinadi (byuretkaning oxirgi uchida havo pufakchalari qolmasligini nazorat qiling). Voronkani olib nol nuqtani toping 10 ml li pipetkani natriy tetraborat eritmasi bilan chaying. Toza konussimon titrlash kolbasiga pipetka bilan Na₂B₄O₇ ning standartlangan eritmasidan 10,00 ml o'lchab solinadi va 1-2 tomchi metiloranj indikatori eritmasidan qo'shiladi.

Titrlash uchun kolbani byuretka ostiga shunday qo'yish kerakki uning oxirgi uchi kolbaga kirib tursin va natriy tetraborat eritmasini xlorid kislota eritmasi bilan aralashtirib turgan holda tomchilatib sariqdan och pushti rangga o'zgarguncha titrlanadi.

Titrlashni yana 2 marta takrorlang, bir-biriga yaqin natijalarining o'rtacha arifmetik qiymatini olib, xlorid kislota eritmasining titrini hisoblang.

4. HCl eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlash

Titrlash	V(Na ₂ B ₄ O ₇), ml	C (1/2Na ₂ B ₄ O ₇), mol/l	Indikator metiloranj	V (HCl), mol/l	C(HCl), mol/l	T(HCl), g/ml
1.	10,00	0,1	1-2			
2.	10,00	0,1	1-2			
3.	10,00	0,1	1-2			
				$\bar{V} =$		

Hisoblarni quyidagi formulalar bo'yicha bajaring:

$$V(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) \cdot C(1/2\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) = \bar{V}(\text{HCl}) \cdot C(\text{HCl})$$

$$C(\text{HCl}) = \frac{V(1/2\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) \cdot C(1/2\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7)}{V(\text{HCl})}, \text{ mol/l}$$

$$T(\text{HCl}) = \frac{C(\text{HCl}) \cdot M(\text{HCl})}{1000}, \text{ g/ml} \quad K = \frac{C(\text{HCl})_{\text{amal}}}{C(\text{HCl})_{\text{nazar}}}$$


$$C(\text{HCl})_{\text{amal}} = K \cdot C(\text{HCl})_{\text{nazar}}$$

LABORATORIYA ISHI № 17


Kompleksonometriya

Kompleksonometriya hajmiy analiz usuli bo'lib, aniqlanadigan kationlar bilan kompleksonlarning o'zaro ta'siridan barqaror kompleks birikma hosil qilish reaksiyalariga asoslangan.


Kompleksonlar organik birikmalar bo'lib, ular aminopolikarbon kislotalarning hosilalaridir, kopleksonlarning eng birinchi vakili iminodisirka kislotadir:




Titrimetrik analizda eng ko'p qo'llaniladigan kompleksonlarga:
aminotrisirka kislota, ya'ni komplekson I




etilendiaminotetrasirka kislota, yoki kompleks II



dinatriy etilendiaminotetraatsetat (EDTA) ya'ni kompleks III




Oddiyroq bo'lsin uchun ba'zan trilon B yoki qisqacha $\text{Na}_2\text{H}_2\text{Tr}$ deb ataladi. Bu kuchsiz kislota xossalariiga ega, suvda oson eriydigan va organik erituvchilarda erimaydigan oq kristall modda. EDTA ko'p kationlar bilan barqaror ichki kompleks birikmalar (xelatlar) hosil qiladi:



bunda Me^{2+} – aniqlanadigan metall kationi.

EDTA ning qisqacha formulasidan foydalanib Me^{2+} ionlari bilan kompleks hosil bo'lish reaksiyasini quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkin.




Muvozanatni kompleks birikma hosil bo'lish tomoniga siljитish uchun eritmaga ammiakli bufer aralashma qo'shiladi.


EDTA ishqoriy-yer metallarining ionlari (Ca^{2+} , Mg^{2+} , Ba^{2+}) bilan ichki komplekslar hosil qiladiki, bu kationlarni boshqa usullar bilan kompleks birikmalar holatiga o'tkazish qiyin. Ca^{2+} , Mg^{2+} , Ba^{2+} ionlarining eritmalarini EDTA ishchi eritmasi bilan titrlab, ularning miqdorini aniqlash mumkin. Titrlash vaqtida ekvivalent nuqtani aniqlashda indikatorlardan foydalaniladi. Ana shu maqsadda mureksid yoki boshqa maxsus indikator "qora erioxrom T" dan foydalaniladi. Bunday indikatorlar metall indikatorlar deb ataladi. Ular organik bo'yoqlar bo'lib, aniqlanadigan kationlar bilan kompleks birikmalar hosil qiladi, bu kompleks birikmalar EDTA bilan hosil

qilingan kompleks birikmalarga nisbatan beqaror bo'ladi. Masalan, "qora erioxrom T" Ca^{2+} , Mg^{2+} va boshqa bir qancha metallarning ionlari bilan olcha qizil rang ichki kompleks birikmalar hosil qiladi. Indikator eritmalarda ko'k rangli bo'ladi. Tekshirilayotgan eritma EDTA eritmasi bilan titrlanayotgan metall ionlari indikatorlardan ajraladi va EDTA ga birikadi.

Shunday qilib, erkin indikator ajralib chiqsa boshlaydi. Natijada ekvivalent nuqtada eritmaning qizil rangi ko'k rang bilan almashinadi. Qora erioxrom T indikatorning eritmadi anioni HInd^{2-} bilan belgilansa, uning ikki valentli metall ioni Me^{2+} bilan ta'sirlashishi quyidagicha bo'ladi:



Hosil bo'lgan MeInd^- ning beqaror kompleksi EDTA ta'sirida parchalanadi:



Indikator rangining o'zgarishi, xususan ishqoriy muhitda $\text{pH} = 10$ da seziluvchan bo'ladi. Shuning uchun titrlanayotgan eritmaga ammiakli bufer aralashma ($\text{NH}_4\text{Cl} + \text{NH}_4\text{OH}$) qo'shiladi (qo'shilgan bufer aralashma kompleks birikma hosil bo'lish reaksiyasi davomida hosil bo'luvchi vodorod ionlarini ham neytrallaydi).

Kompleks III (trilon B) ning standart eritmasini tayyorlash

Reaktivlar: Trilon B; qora erioxrom T; NaCl ; $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ yoki MgCl_2 (MgO , KOH , HCl); konsentrangan NH_4OH ; NH_4Cl

1. EDTAning standart eritmasini tayyorlash. EDTA ikki molekula suv bilan rkristallanadi, empirik formulasi $\text{Na}_2\text{C}_{10}\text{H}_{14}\text{O}_8\text{N}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$. Agar u $120-140$ °C da qizdirilsa, ikki molekula suvni yo'qoladi. Standart eritma tayyorlash uchun ham suvsiz tuz va ham kristallogidratdan foydalanish mumkin. Reaksiyalarda kationlar bilan ikkita vodorod ioni H^+ almashinishi mumkin, shuning uchun

$$\begin{aligned} M(1/2\text{Na}_2\text{C}_{10}\text{H}_{14}\text{O}_8\text{N}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}) &= \frac{M}{2} = \frac{372,25}{2} = 186,13 \text{ g} \\ M(1/2\text{Na}_2\text{C}_{10}\text{H}_{14}\text{O}_8\text{N}_2) &= \frac{M}{2} = 168,11 \text{ g} \end{aligned}$$

250,00 ml 0,1 n EDTA eritmasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan kristallogidrat tortimining massasi:

$$m(\text{ЭДТА}) = \frac{186,13 \cdot 0,1 \cdot 250}{1000} = 4,65 \text{ g}$$

Suvsiz tuz uchun esa:

$$m(\text{ЭДТА}) = \frac{168,11 \cdot 250}{1000} = 4,20 \text{ g}$$

Texnokimiyoviy tarozida hisoblanganiga yaqin tortim o'lchab olinadi. Tortim 250 ml sig'imli o'lchov kolbasiga solinadi va kolba ikki marta distillangan (bidistillat) suv bilan belgisigacha to'ldirib eritiladi (distillangan suv tarkibida Ca^{2+} , Mg^{2+} kationlari bo'lmasligi kerak).

Bu usulda aniq konsentratsiyali eritma tayyorlash qiyin, shuning uchun amalda EDTA ning taxminiy konsentratsiyali eritmasi tayyorlanadi. So'ngra uning titri va

ekvivalent molyar konsentratsiyasi $MgCl_2$ ($MgSO_4$) yoki kalsiy sulfatning fiksanaldan tayyorlangan standart eritmasi yordamida ammiakli muhitda qora erioxrom T indikatori ishtirokida aniqlanadi.


2. $MgCl_2$ ning standart eritmasini tayyorlash. EDTA molekulalari va kationlar orasidagi hamma reaksiyalar 1:1 nisbatda boradi, shuning uchun $MgCl_2$ ning ekvivalent molyar massasi uning molyar massasiga teng. Binobarin, EDTA bo'yicha 0,1 n $MgCl_2$, vodorod bo'yicha 0,2 n bo'ladi.

EDTA eritmasining titrini aniqlash uchun 100 ml 0,2 n $MgCl_2$ tayyorlash yetarli $M(1/2MgCl_2) = 47,61$ g.

100 ml 0,2 n eritma tayyorlash uchun zarur bo'lgan $MgCl_2$ ning massasi:

$$m(MgCl_2) = \frac{C(1/2MgCl_2) \cdot M(1/2MgCl_2) \cdot V(ml)}{1000} = \frac{0,2 \cdot 47,61 \cdot 100}{1000} = 0,9520 \text{ g}$$

Reaksiya tenglamasi bo'yicha 0,9520 g $MgCl_2$ olish uchun kerak bo'ladigan MgO ning massasini aniqlaymiz:



Analitik tarozida hisoblanganiga yaqin miqdorda MgO tortimi olinadi. Olingan tortimning hammasi 100 ml sig'imli o'lchov kolbasiga solinadi va 1-1,5 ml konsentrangan ($\rho = 1,19$ g/ml) HCl da eritiladi so'ngra bidistillangan suv bilan eritmaning hajmi o'lchov kolbasining belgisiga qadar suyultiriladi va probka bilan berkitib, yaxshi aralashtiriladi.

3. Magniy sulfat tuzining titrlangan eritmasini tayyorlash. Magniy sulfat tuzining titrlangan eritmasi fiksanaldan tayyorlanadi, buning uchun ampula ichidagi tuz bidistillangan suvda eritiladi va eritmaning hajmi 1 l ga yetkaziladi. Agar fiksanal ham bo'lmasa u holda kimyoviy toza magniy sulfat $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ dan foydalaniladi.

$$M(1/2 MgSO_4 \cdot 7H_2O) = 246/2 = 123 \text{ g}$$

100 ml 0,2 n li eritma tayyorlash uchun zarur bo'lgan $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ ning massasini hisoblaymiz:

$$m(MgSO_4 \cdot 7H_2O) = \frac{0,2 \cdot 123 \cdot 100}{1000} = 2,46 \text{ g}$$

Analitik tarozida aniq tortim olinadi va u o'lchov kolbasiga solinadi, bidistillangan suvda eritiladi, eritmaning hajmi o'lchov kolbasining 100 ml li belgisiga qadar suyultiriladi. So'ngra 0,2 n eritma uchun tuzatma va tayyorlangan eritmaning titri hisoblab topiladi.

4. Ammoniyli bufer eritma tayyorlash. 1 litr sig'imli o'lchov kolbasiga 67,5 g NH_4Cl solinadi, 200 ml distillangan suv quyiladi va tuz erib ketguncha yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra 570 ml konsentrangan NH_4OH eritmasi qo'shiladi eritma hajmi kolbaning belgisiga etguncha distillangan suv to'ldiriladi va aralashtiriladi. Olingan bufer eritmada pH = 10 bo'ladi.

5. Qora erioxrom T eritmasini tayyorlash. Indikatordan 0,5 grammi 10 ml ammiakli bufer eritmada va sig'imi 10 ml li o'lchov kolbasining belgisigacha etil spirt qo'shiladi.

Tayyorlangan bu eritma uncha barqaror emas, saqlanish muddati 10 sutkagacha. Agar 1 g qora erioxrom T va 100 g NaCl yoki KCl (kimyoviy toza) indifferent to'ldiruvchi sifatida chinni havonchada aralashtirilsa, indikatorning saqlanish muddati uzayadi. Titrlashni boshlashdan oldin titrlanuvchi eritmaga indikatorning quruq aralashmasidan shpatel yordamida 20- 30 mg qo'shiladi. Qora erioxrom T ni «maxsus qora xromogen ET-00» deb ham yuritiladi.

6. EDTA ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlash. Byuretka EDTA eritmasi bilan to'ldiriladi. Pipetka tayyorlangan MgCl₂ eritmasi bilan chayiladi va titrlash kolbasiga pipetka yordamida 10,00 ml eritma solinadi, uning ustiga o'lchov silindri yordamida 5,00 ml ammoniyli bufer eritma solinadi va yaxshilab aralashtiriladi. Shpatel bilan 20-30 mg quruq indikatorli aralashma qo'shiladi. Eritma qizil rangga bo'yaladi. Konussimon kolbadagi aralashmaning rangi qizildan ko'kishbinafsha tusga o'zgarguncha byuretkadagi EDTA eritmasi bilan titrlanadi. Titrlash uch marta takrorlanadi va hisoblash uchun EDTA eritmasi hajmining o'rtacha qiymati olinadi. Natijalar va hisoblashlar 25-ish oxiridagi namunadagidek yoziladi.

LABORATORIYA ISHI № 17


Suvning umumiy qattiqligini kompleksometrik usulda aniqlash

Reaktivlar: standart eritma – 0,1 n EDTA; 0,2 n MgCl₂; ammiakli bufer eritma; indikator – qora erioxrom T.


Tabiiy suvning umumiy qattiqligi 1 l suvdagi kalsiy va magniy ionlarining milligramm ekvivalentlar soni yig'indisiga teng:

$$K_{\text{um}} = \frac{[\text{Ca}^{2+}]}{20,04} + \frac{[\text{Mg}^{2+}]}{12,16} \text{ mg/l}$$

Tekshirilayotgan suvga ammoniyli bufer eritma qo'shish bilan uning muhiti pH ≈ 10 ga etkaziladi. Indikator vazifasini qora erioxrom T bajaradi, u Ca²⁺ va Mg²⁺ ionlari bilan to'q qizil rangli suvda eruvchan komplekslar hosil qiladi:



Hosil bo'lgan kalsiyli kompleks birikmaning beqarorlik konstantasi $3,0 \cdot 10^{-6}$, magniyniki $1 \cdot 10^{-7}$. EDTA bilan Ca²⁺ va Mg²⁺ ionlari hosil qiladigan komplekslarning beqarorlik konstantasi nisbatan kichik (kalsiyli kompleks uchun $2,7 \cdot 10^{-11}$, magniyli uchun $2 \cdot 10^{-9}$). Ana shu sababli bu metall ionlar bilan indikator orasida hosil bo'lgan kompleks birikma EDTA ta'sirida parchalanadi va beqaror komplekslar o'rniga nisbatan barqaror komplekslar hosil bo'ladi.



Ekvivalent nuqtada eritmaning to'q qizil rangi eritmada indikator anionlarning to'planishi natijasida ko'k- binafsha tusga o'zgaradi.

Aniqlash tartibi: Suvning umumiy qattiqligini aniqlash uchun o'lchov kolbasiga tabiiy, 100 ml o'lchab olib, konussimon kolbaga solinadi, ustiga 5 ml ammoniyli bufer eritma o'lchov silindri bilan o'lchab solinadi va aralashtiriladi. Shpatel bilan indikator "qora erioxrom T" ning quruq aralashmasidan 20-30 mg qo'shiladi. Aralashmani to'q qizil rangdan binafsha rang orqali ko'k zangori rangga o'tguncha doimo aralashtirib turgan holda byuretkadagi 0,1 n EDTA eritmasini bir tomchisidan ko'k rangga o'tganda titrlash tugatiladi. Ekvivalent nuqtaga yaqinlashgan sari EDTA dan asta sekin tomizish zarur. Titrlash 3 marta takrorlanadi va hisoblash uchun EDTA eritmasi hajmining o'rtacha qiymati olinadi. Natijalar ish jurnaliga namunadagidek yoziladi.

Suvning umumiy qattiqligini kompleksometrik usulda aniqlash hisoboti

1. 100 ml 0,2 n li $MgCl_2$ eritmasini tayyorlash.

Soat oynasining MgO bilan massasi	12,6787 g
Soat oynasining massasi	12,2756 g
MgO tortimi	0,4131 g

2. Hosil bo'lgan $MgCl_2$ massasini hisoblash:

$$\begin{aligned} MgO + 2HCl &= MgCl_2 + H_2O \\ 40,13 \text{ g} &\quad\quad\quad 95,22 \text{ g} \\ 0,4131 \text{ g} &\quad\quad\quad x \text{ g} \\ x = \frac{0,4131 \cdot 95,22}{40,31} &= 0,9522 \text{ g} \end{aligned}$$

3. $MgCl_2$ eritmasining titrini hisoblash:

$$T(MgCl_2) = \frac{MgCl_2(\text{tortim})}{V(\text{kolba})} = \frac{0,9522}{100} = 0,009522 \text{ g/ml}$$

4. $MgCl_2$ eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasini hisoblash:

$$C(1/2MgCl_2) = \frac{T(MgCl_2) \cdot 1000}{M(1/2MgCl_2)} = \frac{0,009522 \cdot 1000}{47,6} = 0,2000 \text{ mol/l}$$

5. Tuzatma koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$K = \frac{C(MgCl_2)_{\text{amal}}}{C(1/2MgCl_2)_{\text{nazar}}} = \frac{0,2}{0,2} = 1$$

$$C(1/2MgCl_2)_{\text{amal}} = C(1/2MgCl_2)_{\text{nazar}} \cdot K = 0,2 \cdot 1 = 0,2$$

$MgCl_2$ o'rniga $MgSO_4 \cdot 5H_2O$ olinganida ham yuqoridagidek hisoblashlar o'tkaziladi.

5. EDTA eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasini hisoblash

Titr-lash	$V(MgCl_2)$ ml	$C(1/2MgCl_2)$ mol/l	$V(EDTA)$ ml	$C(1/2EDTA)$ mol/l	$T(EDTA)$ g/ml	Indikator qora erioxrom T, mg
1.	10,00	0,2				20-30
2.	10,00	0,2				20-30
3.	10,00	0,2				20-30
		$\bar{V} = 20,16$				

$$C(1/2EDTA) = \frac{V(MgCl_2) \cdot C(MgCl_2)}{M(EDTA)} = \frac{10,00 \cdot 0,2}{20,16} = 0,09920 \text{ mol/l}$$

$$K = \frac{C(1/2\text{EDTA})_{\text{amal}}}{C(1/2\text{EDTA})_{\text{nazar}}} = \frac{0,09920}{0,1} = 0,992;$$

$$C(1/2\text{EDTA})_{\text{amal}} = C(1/2\text{EDTA})_{\text{nazar}} \cdot K = 0,09920 \cdot 0,992 = 0,0984064 \text{ mol/l}$$

$$T(\text{EDTA/MgCl}_2) \cdot \frac{M(\text{MgCl}_2) \cdot C(1/2\text{EDTA})}{1000} = \frac{0,0984064 \cdot 47,6}{1000} = 0,0046841 \text{ g/ml}$$

7. Suvning umumiy qattiqligini aniqlash

Titr-lash	$V(H_2O)$ ml	$C(1/2\text{EDTA})$ mol/l	$V(\text{EDTA})$ ml	Indikator qora erioxrom T, mg	$V(NH_4OH + NH_4Cl)$ ml	Suvning umumiy qattiqligi, mg-ekv/l
1.	100,0	0,0984064		20-30	5,00	
2.	100,0	0,0984064		20-30	5,00	
3.	100,0	0,0984064		20-30	5,00	
$\bar{V} = 12,60$						

Suvning umumiy qattiqligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K = \frac{\bar{V}(\text{EDTA}) \cdot C(1/2\text{EDTA})}{V(H_2O)} \cdot 1000 \frac{\text{mg - ekv}}{1}$$

$$K = \frac{12,60 \cdot 0,0984064}{100} \cdot 1000 = 12,3992 \frac{\text{mg - ekv}}{1}.$$

LABORATORIYA ISHI № 18 FOTOMETRIK ANALIZ METODI

Metodning moxiyatি. Fotometrik metod eritmaning aniqlanadigan komponentini dastlab rangli birikmaga aylantirib so‘ngra shu ma’lum qalinlikga ega bo‘lagan rangli eritma qavatining optik zichligi (nur yutilishi) ni o‘lchashga asoslangan. Kimyoviy bosqich, asosan metodning analitik imkoniyatlarini, aniqlikni, sezgirlikni, tanlab ta’sir etishini va analizni bajarish uchun sarflanadigan vaqtini aniqlaydi. Agar optik zichlikni o‘lchashda ma’lum to‘lqin uzunlikga ega nurdan foydalanilsa, u holda bu metodni spektrofometrik metod deyiladi. Agar optik zichlikni o‘lchashda ma’lum to‘lqin uzunliklarga ega bo‘lgan (taxminan monoxromatik) nurdan foydalanilsa bu metodni fotokolorimetrik metod deyiladi. Spektrofotometrik metod fotokolorimetrik metodga qaraganda aniqroq va selektivroq hisoblanadi, lekin murakkab va qimmatbaho asboblarni talab qiladi. Fotokolorimetrik metod hamma analitik parametrlar bo‘yicha spektrofotometrik metoddan orqada turadi, lekin u asboblarning juda oddiyligi va arzonligi bilan afzaldir. Hamma fotometrik metodlar asosida Lamberg-Buger-Berning nuring yutilishi qonuni yotadi. Bu qonunning matematik ifodasi quyidagicha:

$$A = E \cdot C \cdot l$$

Bu erda C -rangli eritma konsentratsiyasi, mol/l larda; l - eritmaning nurni yutadigan qatlami qalinligi.santimetrlarda (sm), E - nur yutilishining molyar so‘ndirish koefitsienti va A - optik zichlik, optik zichlik -o‘lchovsiz kattalik bo‘lib, u eritma qatlamiga tushayotgan nur intensivligining eritma qatlamidan o‘tgan nur intensivligiga nisbatanining o‘nli logarifmiga teng

$$A = l \lg (J_0/J_t)$$

Nur yutilishining asosiy qonuni quyidagi sharoitlardagina etarlicha va qat'iy amal qiladi: 1) eritmaga tushayotgan nur qat'iy monoxromatik; 2) rangli eritma etarlicha kuchli suyultirilgan; 3) eritmaning aniqlanadigan komponenti to'la barqaror tarkibli rangli birikmaga aylantirilgan; 4) eritmaning barcha begona komponentlari konsentratsiyasi va tabiatи hamma hollarda deyarli o'zgarmaydi.

Molyar so'ndirish koefitsienti eritma qatlaming qalinligi 1 sm va undagi rangli birikmaning konsentratsiyasi 1 mol/l bo'lgandagi optik zichlikni xarakterlovchi katgalikdir. Bu koefitsient shu rangli mahsulotning ma'lum to'lqin uzunlikga ega bo'lgan nurni yutish qobiliyatini ko'rsatuvchi asosiy tavsifidir. Uning kattaligi foydalilanayotgan monoxromatik nurning to'lqin uzunligiga bog'liq. Bunday bog'lanishning grafik ko'rinishi ushbu rangli birikmaning yutilish spektri deyiladi. E qanchalik katga bo'lsa, rangli birik-mani qo'llashga asoslangan fotometrik metodning sezgirlingi ham shunchalik katta bo'ladi. Eng yuqori aniklash sezgirlingini ta'minlash uchun foydalilanadigan monoxromatik nurning shunday to'lqin uzunlikga ega bo'lgani tanlanadiki, bunda koefitsient E maksimal bo'lib eritmaning qolgan barcha komponentlari va aniqlanadigan komponentni rangli birikmaga aylantiradigan reagentning ortiqcha miqdori bunday to'lqin uzunlikga ega bo'lgan nurni yutmasligi kerak. CHegaralangan miqdorda yorug'lik filtrlari bo'lganda yoki ular o'tkazadigan yorug'lik nurining to'lqin uzunliklari intervali noma'lum bo'lganda, va shu bilan birga aniqlanayotgan rangli eritma eng ko'p yutadigan nuring to'lqin uzunligi noma'lum bo'lganda, albatta yorug'lik filtrlari tajriba yo'li bilan tanlanadi. Buning uchun har bir yorug'lik filtri bilan rangli eritmaning optik zichligi o'lchanadi, so'ngra eng katta optik zichlik qayd qilingan yorug'lik filtri optimal sifatida tanlanadi.

Optik zichlikning o'lchanagan qiymati bilan aniqlanadigan komponent konsentratsiyasini aniqlash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi.

1) bir yoki ikki standart bilan solishtirish usuli; 2) darajalangan grafik usuli; 3) qo'shimcha qo'shish usuli.

Bir yoki ikkita standart eritma bilan solishtirish usulining mohiyati quyidagicha: bir vaqtning o'zida aniqlanadigan muddaning alikvot qismidan rangli eritma tayyorlash bilan bir qatorda, xuddi shunday sharoitda standart eritma alikvot qismidan rangli eritma shunday hisob bilan tayyorlanadiki, bunda ikkala eritmada ham aniqlanadigan komponent miqdori bir-biriga yaqin bo'ladi. Har bir eritmaning optik zichligi o'lchanadi, so'ngra anliz qilinadigan eritmaning alikvot qismidan tayyorlangan rangli eritmadiagi aniqlanadigan komponentni noma'lum C_x konsentratsiyasi quyidagi proporsiyadan topiladi:

$$C_{st} : C_x = A_{st} : A_x$$

Bunda C_{st} - standart eritmadiagi aniqlanadigan komponentning ma'lum konsentratsiyasi, A_x va A_{st} - analiz qilinadigan va standart eritmalaridan tayyorlangan eritmalar optik zichliklari. Agar A_x A_{st} dan keskin farq qilsa, u holda yangi rangli standart eritmani shunday tayyorlash kerakki, bunda uning optik zichligi deyarli A_x bilan bir xil bo'lsin. Bir standart bilan tenglashtirish usulini bitta komponent mikdorini aniqlash uchun chegaralangan sondagi analzlarni ba-jarishda qo'llash qulaydir.

Darajalangan grafik usulini har bir komponentning turli namunalardagi miqdorini aniqlash uchun ko'p sonli analiz-larni bajarishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Uning mohiyati quyidagicha; aniqlanadigan komponentning ortib boruvchi

konsentratsiyalari asosida 5-10 ta rangli standart eritmalar tayyorlanadi va ularning optik zichliklari o‘lchanadi. Olingan natijalar asosida grafik chiziladi, abssissa o‘qiga aniqlanadigan komponent konsentratsiyasi, or-dinata o‘qiga esa, tegishli optik zichliklar qiymati tushiri-ladi. Hamma tayyorlangan konsentratsiyalar oralig‘ida Lambert-Buger-Ber qonunidan chetlanish bo‘lmasa, u holda grafikga tushirilgan nuqtalar bir to‘g‘ri chiziqda va koordinata boshidan o‘tadi. Aks holdi yuqori konsentratsiyali eritmarda koordi-nata boshidan o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziqdan, chetlanish bo‘ladi. SHu tariqa darajalangan grafik tuzish nur yutilishi asosiy qonunning bajarilishini tekshirish usuli hamdir. Tajriba topilgan hamma nuqtalarning koordinata boshidan o‘tadigan bir to‘g‘ri chiziqda yotishiga ishonch hosil qilingach bu to‘g‘ri chiziqning tenglamasi eng kichik kvadratlar usuli bilan hisoblanadi:

$$A = k \cdot C_{st}$$

Bu tenglama bilan standart rangli eritmalar tayyorlangan sharoitda analiz qilinadigan eritma qismidan tayyorlangan rangli eritmadagi aniqlanadigan komponentning konsentratsiyasi hisoblanadi. “K” ning qiymatini eng kichik kvadratusuli bilan quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$k = \frac{\sum_{i=1}^n CiAi}{\sum_{i=1}^n Ci^2}$$

unda A_i va C_i tegishli i-nchi standart eritma optik zichligi (nur yutilishi) va konsentratsiyasi, mg/ml larda, n-standart eritmalar soni.


Standart qo‘sishmcha usuli quyidagicha bajariladi. Ikkita bir xil o‘lchov kolbalariga pietka yordamida analiz qilinadigan eritmadan bir xil hajmda olinadi. So‘ngra ikkinchi kolbaga pipetka yordamida ma’lum hajmdagi aniqlanadigan komponentning standart eritmasi qo‘siladi. So‘ngra har bir kol-baga aniqlanadigan komponentni rangli birikmaga aylantiradigan bir xil miqdordagi hamma zarur reagentlar va chizig‘igacha distillangan suv qo‘siladi. Ikkala eritma ham aralashtiriladi va ularning optik zichliklari o‘lchanadi. Analiz qilinadigan eritmadagi aniqlanadigan noma’lum konsentratsiyasi olingan natijalar asosida quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$C_x = \frac{V_{cm} \cdot C_{cm}}{\left(\frac{A_1}{A_2} \right) \cdot V_x}, \text{ iā / iē}$$


bu erda V -rangli eritma tayyorlash uchun olingan analiz qilinadigan eritma hajmi; V_{cm} -ikkinchi kolbaga qo‘silgan aniqlanadigan komponent standart eritmasining hajmi; C_{sm} -aniqlanadigan komponentning standart eritmadagi konsentratsiyasi; A_1 -birinchi rangli eritma optik zichligi; A_2 -ikkinchi rangli eritma optik zichligi.

Optik zichlikni o‘lhash metodikasi

Optik zichlikni o‘lhash uchun spektrofotometrlar va foto-kolorimetrlarning turli markalaridan foydalilanildi. Ushbu metodik qo‘llanmada FEK - 56 M yordamida optik zichlikni o‘lhash metodikasi keltirilgan.



10-rasm. Fotokolorimetr FEK - 56 M ning optik sxemasi. 1-nur manbai; 2-yorug‘lik filtri; 3-prizma; 4-linzalar; 5-yassi oynalar; 6-shisha kyuvetalar; 7-diafragmalar; 8-fotoelementlar.




11-rasm FEK-56 M asbobidagi boshqaruvchi dastaklar joylashuvi; 4-tok manbaini ulash moslamasi 5-chap baraban dastagi; 6-asbobning "nulelektrini" to‘g‘rilash dastagi; 7-yorug‘lik filkflarini almashtirish dastagi.

1-Asbob transformator orqali tok manbaiga ulangach uning "nulelektri" to‘g‘rulanadi. Buning uchun dastak 3 yordamida chap va o‘ng yorug‘lik oqimlarining yo‘li maxsus parda bilan berkitiladi va dastak 6 yordamida galvanometr strelkasi o‘ita-dagi qalin chiziqga (nolga) keltiriladi. So‘ngra yana dastak 3 ni burab, maxsus parda (shtorka) ochiladi.

2- chap kyuveta ushlagichga solishtirma eritma yoki suv solingan kyuveta butun ish davomida olinmasdan qo‘yib qo‘yiladi. O‘ng kyuveta ushlagichlariga aniqlanadigan rangli eritmali yuoveta va solishtirma eritmali yoki suvli kyuvetalar qo‘yiladi. Tegishli. 2-dastakni burash bilan eritmali kyuvetaning o‘ng tomondagi nur oqimi yo‘liga qo‘yiladi. O‘ng barabanni 100 % li nur o‘tkazuvchanligiga yoki optik zichligi nol bo‘lgan holatga qo‘yiladi jadval asosida nur oqimlari yo‘liga tegishli yorug‘lik filtrlari qo‘yiladi, 3-chap baraban dastagini 5marta burash bilan galvanometr strelkasi nolga keltiriladi. 4-dastak 2ni burash orqali o‘ng nur oqimiga solishtirma eritmali kyuveta qo‘yiladi.bunda galvanometr strelkasi yana og‘adi 5-o‘ng barabani dastagi 1 ni burab galvanometr strelkasi nolga yana keltiriladi. 6-optik zichlik qiymatini o‘ng barabanning qizil shkalasidan olinadi. O‘lchashni 2-3 marta takrorlanadi va hisoblash uchun o‘rtacha qiymat olinadi.

Kislotali muhitda Fe(III) ni sulfosalitsil kislota bilan kompleks ko‘rinishda fotometrik aniqlash

Metodning mohiyati: Ushbu metod pH 1,8-2,5 bo‘lgan Fe(III) ning binafsha rangli monosulfosalitsilat kompleksini hosil bo‘lishiga asoslangan.



Kompleks birikma to‘lqin uzunligi $\lambda=510$ nm bo‘lgan nurni maksimal yutish qobiliyatiga ega. Bu to‘lqin uzunligida molyar so‘ndirish koeffitsienti $1,8 \cdot 10^3$ ga teng.

Kerakli asboblar, idishlar va reagentlar:

- 1) Fotokolorimetр FEK-56 M yoki KFK-2;
- 2) 6 ta 50 ml hajmli o‘lchov kolbalari;
- 3) 1 ta 10 ml hajmli mikropipetka;
- 4) 1 ta 10-25 ml hajmli o‘lchovssilindri;
- 5) yuvgich;
- 6) Fe(III) ning 0,1 mg/li li standart eritmasi;
- 7) 10% -li sulfosalitsil kislotasi eritmasi;
- 8) 2 n sulfat kislota eritmasi.

Analiz darajalangan grafik usuli bo‘yicha bajariladi.

100 ml li o‘lchov kolbasiga 20 ml 0,1 mg/ml li Fe(III) ning standart eritmasidan pipetka yoki byuretka yordamida olinadi va chizig‘igacha suyultiriladi. Bunda Fe(III)ning titri 0,02 mg/ml li standart tuzi eritmasi hosil bo‘ladi. 50 ml li o‘lchov kolbalariga pipetka yordamida 1,5; 3,0; 4,5; 6,0; 7,5; ml Fe(III) standart eritmasi (0,02 mg/ml) dan olinadi. Hamma kolbalarga 1 ml dan H₂SO₄ va 5 ml dan 10 %- li sulfosalitsil kislotasi qo‘shiladi, chizig‘igacha distillangan suv solinib yaxshilab aralashtiriladi. So‘ngra tayyorlangan rangli eritmalarining optik zichliklari ko‘k barg rangli, yorug‘lik filtri ($\lambda=510$ nm) va qalinligi $\ell=5,0$ bo‘lgan kyuveta yordamida FEK-56 yoki KFK-2 da suvgaga nisbatan o‘lchanadi. Olingan natijalar bo‘yicha darajalangan grafik chiziladi. Bunda masshtabni shunday tanlash kerakki, grafik 15x15 sm li millimetrlı qog‘ozga joylashsin.

Fe(III) ni sulfosalitsil kislota bilan kompleks ko‘rinishda fotometrik aniqlash natijalari

6-jadval


Nº	Olingan standart eritma V, ml	C _i Fe mg	Eritma optik zichligi A _i	C _i A _i	C _i ²	A ning hisoblangan qiymatlari
1	1,5	0,03				
2	3,0	0,06				
3	4,5	0,09				
4	6,0	0,12				
5	7,5	0,15				

$$\sum_{t=1}^5 C_i A_i$$

K koefitsienti hisoblash: 1-usuli

$$K = \frac{\sum_{t=1}^5 C_i^2}{\sum_{t=1}^5 C_i}$$

II-usuli $\text{tg}\alpha = \frac{a}{\epsilon} \quad \exists = \frac{\text{ордината масштабу}}{\text{абсцисса масштабу}} \quad k = \text{tg}\alpha \cdot \exists$



Berilgan kontrol eritmani chizig‘igacha distillangan suv solib aralashtiriladi. So‘ngra undan 50 ml li uchta kolbaga bir xil alikvot qismlar olinadi (qancha alikvot qism olish kerakligini o‘qituvchi aytadi), va har birining ustiga 1,0 ml 2 n H₂SO₄; 5,0 ml 10% - li sulbfosalitsil kislota qo‘shiladi. CHizig‘igacha distillangan suv solinib aralashtiriladi va suvgaga nisbatan optik zichliklari o‘lchanadi.

Noma’lum modda miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Cx = \frac{Ax}{K} \quad Ax - \text{kontrol eritmaning optik zichligi} \quad Sx (\text{mg}) \text{ alikvot (ml)} \quad X_{\text{mg}} - 100 \text{ mg}$$

$$X_{\text{мм}} = \frac{Cx \cdot 100 \text{ мл}}{\text{аликвот кисм (мл)}} = \dots \text{ мг}$$

X_{mg} - kontrol eritmadi Fe (III) ning umumiyl miqdori

Fe ning haqiqiy miqdori ...

Absolyut va nisbiy xatolari aniqlanadi.

ORGANIK KIMYO LABORATORIYA ISH № 19

ORGANIK KIMYO LABORATORIYASIDA ISHLASH QOIDALARI

1. Laboratoriyaada ish boshlashdan oldin xalat kiyish, suv, elektr gaz borligini, mo`rili shkafning ishslash-ishlamasligini ko`zdan kechirish, so`ngra xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak.
2. Har bir talaba, iloji boricha, o`zi uchun ajratilgan joyda ishlashi kerak.
3. O`tkaziladigan tajribaning tavsifi, unda ishlatiladigan asbob va reaktivlar talabaning ish daftarida to`liq yozilgan bo`lishi lozim. Tajriba materialini talaba to`liq o`zlashtirganiga o`qituvchi iqror bo`lganidan keyingina ishni bajarishga ruxsat etadi.
4. Tajriba o`tkazilayotganda ozodalikka va saranjom - sarishtalikka rioya qilish kerak.
5. Ish vaqtida gaz yoki vodoprovod jo`mraklari va shunga o`xshashlar elektr asboblari, tarozilar ishlamay qolsa, tezda laborantga murojaat qilish kerak.
6. Tajriba tugagach gaz gorelkasi, suv jo`mraklarini berkitish, elektr asboblarini o`chirish va tajriba natijalarini laboratoriya daftariga yozish kerak.
7. Talaba ishlatib bo`lgan reaktivlarni joyiga qo`yishi, o`zi sintez qilgan moddani laborantga topshirishi lozim. Ishlatgan idishlarni va asboblarni tozalab, shkaflarga qo`yib ish joyini toza qoldirishi lozim.
8. Laboratoriya darsini qoldirgan talabaning o`qituvchisiz yoki katta laborantsiz tajriba o`tkazishi ruxsat etilmaydi.

LABORATORIYADA RIOYA QILISH KERAK BO`LGAN XAVFSIZLIK TEXNIKASI QOIDALARI

Laboratoriyaada ko`ngilsiz xodisalar sodir bo`lmasligi uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Laboratoriyaada o`t o`chirgich jun material va yashikda qum bo`lishi kerak.
2. Natriy va kaliy metallarini kerosinda, benzolda yoki toluolda saqlash lozim. Ular qisqich bilan olinib, filtr qog'oz ustida skalpel yordamida mayda bo`laklarga bo`linadi. Filtr qogoz ustida qolgan natriy yoki kaliy metallarining mayda bo`laklarini tashlab yuborish man etiladi. Ularni maxsus idishlarga solish yoki spirtda eritib yuborish kerak.
3. Oson uchuvchan yoki tez yonuvchan organik erituvchilar (benzol, toluol, benzin, etil spirti va x.k) saqlanadigan idish og'zini ochiq holda alanga yoki elektr plitkalari oldida qoldirish man etiladi. Bunday eritmalarni laboratoriyaada bir litrdan ko`p saqlash mumkin emas. Tajriba o`tkazilayotganda asbobning germetik ulanganligini kuzatish kerak. Oson uchuvchan va tez yonuvchan organik moddalarni ochiq alanga yordamida qizdirish man etiladi.
4. Tajriba o`tkazilayotgan vaqtida ish joyini tashlab ketish qat'iyman etiladi.
5. Kislota eritmasi tayyorlanayotganda suvni kislotaga emas, balki kislotani suvgaga oz - oz miqdorda solib tayyorlash lozim.
6. Organik moddalarni hidlash, mazasini ta'tib ko`rish va ularni og`zi ochiq idishda qoldirish mumkin emas.
7. Tajriba tugatilgach, gaz, suv va elektr asboblarini o`chirish va ish joyini navbatchi laborantga topshirish lozim.

KO`NGILSIZ HODISALAR RO`Y BERGANDA BIRINCHI YORDAM KO`RSATISH

1. Laboratoriyada aptechka bo`lishi shart, uning qaerda joylashganligi va undan qanday foydalanishni talabalar bilishi lozim.
2. Issiqlik ta'sirida kuygan joyga tezda spirt yoki kaliy permanganat eritmasi bilan ho`llangan paxta qo`yiladi.
3. Ko`zga yoki badanning biror joyiga kislota sachrasa, o`sha erni dastlab yaxshilab suv bilan, so`ngra sodaning 3 % li eritmasi bilan yuviladi.
4. Ishqor sachraganda esa dastlab suv bilan, so`ngra sirkalari kislotaning 1%li eritmasi bilan yuviladi.
5. Shisha kesgan joy dastlab shisha siniqlaridan tozalanadi, so`ngra yodning 3% li eritmasi surtiladi va sterillangan bint bog'lanadi.
6. Gazlar ta'sirida zaharlanganda tezda novshadil spirt hidlatib ochiq havoga olib chiqiladi.
7. Fenol ta'sirida kuyganda zaharlangan joyni spirt bilan artish kerak.
8. Brom ta'sirida kuygan joyni spirt yoki suyultirilgan ishqor eritmasi bilan yuvib, keyin yana spirt bilan artiladi.
9. Brom hidi bilan zaharlanganda spirt bug'idan chuqur nafas olib, sut ichib ochiq havoga chiqarish kerak.
10. Agar suvda erimaydigan organik modda teriga to`kilib kuydirsa, kuygan joy shu modda eriydigan erituvchi bilan yuviladi.

KIMYOVIY IDISHLAR

Shisha idishlarga qo'yiladigan asosiy talab ularning kimyoviy va termik barqarorligidir. Kimyoviy barqarorlik - shishaning ishqor, kislota va boshqa moddalarning eritmalarini parchalash ta'siriga qarshi tura olish xossasidir. Termik barqarorlik - idishning temperaturaning tez o'zgarishiga chidamliligidir.


Eng yaxshi shisha pireks hisoblanadi. U kimyoviy va termik barqarorlikka ega, uning kengayish koefitsiyenti kichik. Pireks shishasida 80% kremniy (IV) oksidi bor. Uning erish temperaturasi +620°S. Bundan yuqori temperaturalarda tajriba olib borish uchun kvars shishasidan yasalgan idishlardan foydalaniladi. Kvars shisha tarkibida 99,95% kremniy (IV) oksid bo'lib +1650°Sda eriydi.

Laboratoriya idishlari asosan TU (termik barqaror), XU-1 va XU-2 (kimyoviy barqaror) markali shishalardan tayyorланади.

2-15 rasmlarda laboratoriya amaliyotida qo'llaniladigan shisha idishlar keltirilgan.

Oddiy va kalibrovka qilingan probirkalar (1-rasm) oz miqdordagi reaktivlar bilan ishlashda qo'llaniladi. Reaktivning egallagan hajmi probirka hajmining yarmidan ortmasligi kerak.


Laboratoriya stakanlari (2-rasm) turli olchamlarda chiqariladi (burunli yoki burunsiz, oddiy yoki o'lchamli belgilari bilan). Stakanlar turli laboratoriya ishlarini bajarishga mo'ljallangan.




1-rasm.

Probirkalar: a-oddiy; b-kalibrovka qilingan.

Laboratoriya amaliyotlarida turli o'lcham va shakldagi kolbalar keng qo'llaniladi (tubi yassi, tubi yumaloq va konussimon) (3-rasm).




2-rasm. Kimyoviy stakanlar: a-burunchali; b-burunchasiz; v - kalibrovka qilingan.




3-rasm. Kolbalar: a - tagi yassi; b - tagi dumaloq; v – konussimon

Vyurs kolbasi $60-80^{\circ}$ burchakda egilgan shisha trubkali tubi yumaloq kolba (4-rasm). Undan gaz olishda, atmosfera bosimida suyuqlıklarni haydashda foydalilanildi. Yumaloq tubli kolbalar har hil: keng va tor bo`g`izli, uzun va kalta bo`g`izli, bir, ikki, uch va to`rt bo`g`izli bo`ladi. Nay chiqarilgan, deflegmator o`rnatilgan, nasadka o`rnatilgan, yumaloq tubli kolbalar haydashning turli hollarida ishlatiladi.




4-rasm. Haydash kolbalar: a-Vurs kolbalari; b-Klyayzen kolbalari; v - Favorskiy kolbasi.

Voronkalar (5-rasm). Kimyoviy voronkalar suyuqlıklarni filtrlashda, bir idishdan ikkinchi idishga quyishda ishlatiladi. Suyuqlıklarni reaksiyon aralashmaga oz-oz miqdorda qo'shish uchun uzun nayi bor har hil shakldagi tomizgich voronkalar ishlatiladi. Ajratgich voronkalar qalin shishadan tayyorlanadi. Ularning suyuqlik quyiladigan naychasi tomizgich voronkaning nayiga nisbatan qisqaroq bo`ladi. Bu voronkalar aralashmaydigan suyuqlıklarni bir-biridan ajratishda, moddalarni ekstraksiya qilishda ishlatiladi.




5-rasm. Voronkalar: a-kimyoviy; b-tomizgich; v-ajratkich

Deflegmatorlar (6-rasm) suyuqliklar aralashmasini haydash, yani ikki suyuqliknin bir-biridan to`la ajratish uchun ishlataladi. Deflegmator ichidagi nay sirti har hil usullar bilan kengaytiriladi. Sirtni kengaytirish naydagi konussimon egiklar hisobiga amalga oshiriladi. Egiklar shunday joylashganki deflegmatorlar ichida huddi spiral joylashganligi o`hshaydi. Natijada modda bug`larining o`tish yo`li uzayadi. Deflegmatorlar sifatida shisha munchoq yoki shisha halqachalar to`ldirilgan shisha kolonkadan foydalanish mumkin.



6-rasm. Deflegmatorlar: a-sharikli: b-archasimon: v-nasadkali.

Organik reaksiyalarning ko`pi qizdirilganda ko`pincha reagentlar qaynatilganda boradi. Shuning uchun aralashmadagi komponentlar bug`lanib chiqib ketmasligi uchun reaksiyon aralashma solingan idishga qaytarma sovutkich ulanadi. Laborotoriya praktikasida shisha sovutkich ishlataladi. Bug` kondensasiyalanib, reaksiyon aralashmaga qaytib tushishi uchun sovutkich idishga qaytarma qilib ulanadi. Oddiy qaytarma sovutkich havo sovutkichi bo`lib, u oddiy uzun shisha naydan yasaladi. Bunday sovutkich qaynash temperaturasi 1500 °C dan yuqori bo`lgan moddalar bug`ini suyuqlikka aylantirish uchun ishlataladi (7-rasm).




7-rasm. Sovutkichlar: a-havosovutkichi: b-Libihsovutkichi: v-sharikli sovutkichi:

g-ichki nayi spiral shakldagi sovutkichi: d-Dimrot sovutkichi.

Hozirgi vaqtida laboratoriya ishlari uchun standart shlifli shisha idishlar ishlataladi. Shlif asbobni germetik berkitib turadi. Shlifli asboblarda

ishlanganda olingan moddalar probkalar bilan ishlaganda olingan moddalarga nisbatan ancha toza bo`ladi. Chunki shliflar temperatura va har hil reagentlar tasiriga chidamli. Shliflar bir necha hil: yassi, konussimon va shar shaklda bo`ladi. Ko`p idishlarning shliflari konussimon shaklda tayyorlanadi (8, 9-rasm).



8-rasm. Shlifli kolba va sovutkichlar.



9-rasm. Shlifli nasadkalar, tomizgich voronkalar va shlifli alonj.

ORGANIK MODDALARNI TOZALASH USULLARI

Biror modda sintez qilinayotganda reaksiyon aralashmada asosiy mahsulotlardan tashqari qo'shimcha moddalar (dastlabki moddalarning reaksiyaga kirishmay qolgan qismi, reaksiya uchun ishlatalgan erituvchi, reaksiyada hosil bo'ladigan oraliq va qo'shimcha mahsulotlar) xam birgalikda bo'ladi. Shuning uchun olinayotgan xar qanday organik moddani tekshirishdan oldin uni aralashmalardan ajratish, yaxshilab tozalash zarur.

Reaksiya maxsulotlaridan toza organik birikmalarni ajratib olish va tozalashda filtrlash, qayta kristallantirish, sublimatlash, qaynash temperaturasiga qarab haydash, ekstraktsiya va xromatografiya usullaridan foydalaniladi.

Qayta kristallantirish

Qayta kristallantirish - qattiq moddalarni tozalashning muhim usulidir. Buning uchun boshqa qo'shimchalar bilan ifloslangan moddani qizdirganda eriydigan erituvchidan to'yingan eritmasi tayyorlanib, eritmani isitganda filtrlab, erimaydigan qo'shimchalardan ajratiladi. Natijada moddaning toza kristallari cho'kmasi hosil bo'ladi, so'ngra u filtrlanadi va quritiladi.

Qayta kristallantirishga erituvchi tanlash

1. Erituvchi erigan moddalar bilan kemyoviy ta'sirlashmasligi kerak.
2. Modda tanlangan erituvchida sovitlganda yomon eriydigan, qizdirganda esa yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Moddaga aralashgan qo'shimchalar esa erituvchida yana xam yaxshi erishi kerak.

Noma'lum moddani qayta kristallantirish uchun, dastlab oz miqdor modda bilan probirkada erituvchi tanlash kerak. Erituvchi tanlashda erituvchiga moddaning sinfi, tuzilishi hamda kemyoviy yaqinligi muximdir, chunki modda shunday erituvchilarda qayta kristallanadi.

Bunda quyidagi sxemadan foydalanish kerak:

Birikmalar sinfi	Gidrofoblik xossasi	Quyidagi erituvchilarda yaxshi eriydi
Uglevodorodlar		Uglevodorodlarda, efirda, uglevodorodlarni galogenli xosilalarida
Uglevodorodlarni galogenli xosilalari		
Oddiy efirlar		
Aminlar		Murakkab efirlarda
Murakkab efirlar		
Nitrobirkimlar		
Nitrillar		
Ketonlar		Spirtda, dioksanda, sirka kislotada
Aldegidlar		
Fenollar		
Aminlar		
Spirtlar		Spirtda, suvda
Karbon kislotalar		
Sulfokislotalar		
Tuzlar		Suvda

Gidrofillik xossasi

Ba'zi hollarda qayta kristallantirish uchun eritmalar aralashmasi (masalan, suv - spirt, suv - dioksan, xloroform - petroleyni efiri) ishlataladi, buning uchun ularning o'zaro nisbati oldindan tanlab olinadi.

Benzoy kislotani qayta kristallah usuli bilan tozalash

100 ml sig'imli stakan yoki kolbaga 1g benzoy kislotasi 40 ml suv va 0,05-0,1g kukun xoldagi aktivlangan ko'mir solib, suv hammomida qizdiriladi. Aralashma 10-15 minut davomida qaynagandan so'ng eritma tezda burma filtr orqali filtrlanadi. Filtrat (muz solingan xolda) suvda sovutilib, idish devorlari shisha tayoqcha bilan ishqalanganda benzoy kislotaning kristallari ajrala boshlaydi. Hosil bo'lgan kristallarni Byuxner voronkasi yordamida ajratib olinadi va filtr qog'ozini olib siqiladi. So'ngra idishga solinib, quritish shkafida quritiladi. Kristallar qurigach, uning suyuqlanish temperaturasi aniqlanadi.

$t_s=121-122^{\circ}\text{C}$. Agar benzoy kislotasi juda toza bo'lmasa, suvda yana bir marta qayta kristallanadi.

SUYUQ ARALASHMALARINI AJRATISH VA TOZALASH

Haydash- suyuqliklarni bir-biridan ajratish va tozalashning eng qulay usuli hisoblanadi. Oddiy haydash usulida suyuqlik qaynash temperaturasiga qizdiriladi, natijada hosil bo'lgan suyuqlik bug'lari Sovutkichda qayta suyklikka aylantiriladi va boshqa idishga yig'ib olinadi. Bu usulda suyuqlik bug'ga aylanadi, u esa Sovutkich yordamida yana suyklikka aylanadi. Buni to'g'ri oqimli haydash deyiladi. Agar suyuqlik bug'larining Sovugan qismi yangi hosil bo'layotgan suyuqlik bug'lari bilan uchrashib, haydash kolbasiga tushib tursa, bu jarayon qarama - qarshi oqimli haydash deyiladi. Bu usul rektifikatsiya kolonkalarida amalga oshiriladi. Haydash usulidan


suyuq moddani erituvchidan, xar xil qaynash temperaturasiga ega bo'lgan reaksiya maxsulotlarini bir-biridan xamda qo'shimchalardan ajratishda foydalaniladi. Haydashni amalga oshirish usuliga qarab 4 turga bo'lismumkin:

1. Oddiy sharoitda haydash
2. Fraktsiyalarga bo'lib haydash
3. Vakuumda haydash
4. Suv bug'i bilan haydash

Oddiy sharoitda haydash

Agar biror suyuklik o'zining qaynash xaroratida parchalanmasa atmosfera bosimida oddiy haydashusulidan foydalaniladi. Biror suyuklikni oddiy sharoitda haydashuchun, termometr bilan jixozlangan Vyurs kolbasini shtativga o'rnatib, probka yordamida sovutkichga ulanadi (*13 - rasm*).

Past haroratda qaynaydigan suyuqliklarni haydash uchun Libix sovutkichi ishlataladi. Bunda kolbaning naychasi sovutkichning ichiga 4-5 sm kirib turishi kerak. Qaynash harorati yuqori (130°C dan yuqori) bo'lgan suyuqliklar xaydalayotganda Libix sovutkichidan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki haroratning keskin o'zgarishi natijasida u darz ketishi mumkin. Bu xolda ichki diametri 12-16 mm li shisha naydan iborat xavoli sovutkichdan foydalaniladi. Haydalayotgan suyuqlikning qaynash haroratiga qarab suv xammomida (agar modda 80°C gacha qaynasa), asbestos setkasida - gaz alangasida yoki elektr plitkalarida (80°C dan yuqori xaroratda qaynaydigan moddalar) qizdiriladi. Ba'zan yuqori haroratda qaynaydigan moddalar qum yoki moy hammomi yordamida xam haydaladi. Oddiy haydashusuli bilan qaynash harorati bir necha o'n gradusga farq qiladigan moddalarnigina bir-biridan ajratib olish mumkin.



13-rasm. Suyuqliklarni oddiy haydash qurilmasi.

1 - haydash kolbasi, 2-sovutkich, 3-allonj, 4-yig'gich kolba

Etil spirtini oddiy haydash yo'li bilan tozalash

Ifloslangan spirt (suv, atseton, piridin va boshqa qo'shimchalar) oddiy haydash yo'li bilan tozalanadi. Buning uchun Vyurs kolbasi olinib, unga ifloslangan spirtdan 30 ml va 2-3 bo'lak qaynatgich solinadi. So'ngra alonj orqali yig'gich kolbaga tutashtiriladi. Suvli sovutkich ishlatalgandan keyin gaz gorelkasi yordamida suv hammomida Vyurs kolbasi qizdiriladi. Toza spirt 78°C da haydala boshlaydi. Spirt idishga yig'ib olinadi va xajmi o'lchanadi. Dastlabki olingan aralashmaning xajmiga qarab spirtning aralashmadagi (%) miqdori topiladi.

SUBLIMATLASH


Qattiq organik moddalarni tozalashda sublimatlash usulidan foydalaniladi.

Qattiq moddaning suyuqlanmay turib bug' xolatiga o'tishi va sovitilganda yana qaytadan kristallanishi - sublimatlanish (vozgonka) deyiladi. Bug'inining bosimi odatdag'i haroratda ancha yuqori bo'lgan moddalar (xinon, benzoy kislota, naftalin) sublimatlanadi. Qayta kristallantirish yo'li bilan tozalanishi qiyin bo'lgan moddalarni, odatda sublimatlash yo'li bilan tozalanadi. Ko'p xollarda uchuvchan moddalarni, ulardagi uchishi qiyin bo'lgan aralashmalardan tozalash uchun, qiyin va uzoq davom etadigan qayta kristallantirish o'miga sublimatlanish usuli qo'llaniladi. Bunda tozalanayotgan moddaning miqdori xam qayta kristallantirish usulidagiga qaraganda ko'proq bo'ladi. Yana shuni aytish kerakki sublimatlash usuli bilan olingan modda juda toza bo'ladi. Qattiq moddalarni sublimatlash asbobi 18 - rasmda ko'rsatilgan.

Naftalinni sublimatsiya usuli bilan tozalash

Kerakli asboblar: chinni kosacha, voronka, filtr qog'oz, naftalin va reaktiv.


Chinni kosachaga 1gr texnik naftalin solinib, uning ustiga teshikli filtr qog'oz joylashtiriladi. Filtr qog'ozni uchi paxta bilan berkitilgan voronka bilan yopib qum xammomida sekin qizdiriladi. Qizdirish natijasida naftalin sublimatlanib, voronkaning yuqori sovuq qismida kristallar xolida kondensatlanadi. Sublimatlash protsessi tugagandan so'ng kosacha sovitiladi va voronkaning ichki sirtidagi naftalin kristallari skalpel yordamida kichkina idishga solinadi. So'ngra moddaning suyuqlanish temperaturasi aniqlanadi. Toza naftalining suyuqlanish temperaturasi 80°C .



18-rasm. Qattiq moddalarni sublimatlash qurilmasi

1- paxta tiqin, sublimatlanadigan modda, 3-alanganing yuqori qismidan kosanining tubigacha bo'lgan masofa, 4- konus voronka, 5- chinni kosacha, 6- filtr qog'oz, uning diametri kosacha diametridan bir necha millimetrga kattadir.

LABORATORIYA ISH №20 ETIL BROMID SINTEZI



Reaktivlar: 30 ml etil spirt (95 foizli), 25 g kaliy bromid, sulfat kislota ($d=1,84$)

Sig'imi 250 ml bo'lgan tubi yumaloq kolbaga 30 ml konsentrangan sulfat kislota quyiladi va unga tezlik bilan aralashtirib turib 30 ml etil spirt qo'shiladi. Aralashma

xona temperaturasigacha sovutiladi va ehtiyotlik bilan unga 20 ml muzli suv (tashqaridan doimo kolbani sovitib turgan holda), keyin 25 g maydalangan kaliy bromid qo'shiladi. Reaksiyon aralashmali kolba egik shisha nay yordamida yahshi ishlaydigan, alonj o'rnatilgan sovutkichga ulanadi. Alonjning uchi yig'gich kolbadagi muzli suvning ichiga 1-1,5 sm tushiraladi. Yig'gich kolba esa muzli hammomda sovitib turiladi (*25-rasm*). Reaksiyon aralashma qum yoki havo hammomidayig'gich kolba tubiga yog'simon modda yig'ila boshlanguncha kuchli alangada qizdiriladi. Agar kolbadagi reaksiyon aralashma ko'piklashsa, qizdirish qisqa vaqtga sekinlashtiriladi. Haydash jarayonida yig'gich-kolbadagi suv alonjga ko'tarilishi mumkin. U vaqtida alonjning uchi bir oz suyuqlikka tegib turadigan yoki alonjni bir tomonga bursa bo'ladicidan qilib yig'gich-kolba bir oz pastga tushiriladi.

Reaksiya tamom bo'lgandan keyin yig'gich-kolbadagi modda ajratgich voronkaga quyiladi va etil bromid (pastki qavat) 100 ml hajmli konussimon kolbaga ajratib olinadi. Kolba muzli suv (yaxshisi tuzli qor) bilan sovutiladi va idish tubida alohida qavat hosil bo'lib ajralguncha etil bromidga ehtiyotlik bilan tomizgich voronka orqali konsentrangan sulfat kislota tomiziladi. Etil bromid tarkibidagi dietilefir va etanolni yo'qotish va uni quritish uchun unga sulfat kislota qo'shiladi, bu vaqtida etil bromid quriydi. Bu jarayonda issiqlik ajralib chiqadi. Shuning uchun oson uchuvchan etil bromidni yo'qotmaslik maqsadida etil bromidga sovitib turgan holda sulfat kislota qo'shiladi. Aralashma quruq ajratgich voronkada ajratiladi va kichik alanga bilan qizdiriladigan suv hammomida etil bromid haydaladi. Yig'gich-kolba muzli suvda sovitiladi. Etil bromid $35-40^{\circ}\text{C}$ harorat intervalida haydaladi, asosiy massa $38-39^{\circ}\text{C}$ da haydaladi. Tozalanmagan etil bromid tarkibida brom (qo'shimcha modda) qo'shilmasi bo'lgani uchun u sariq rangli bo'ladi. Etil bromidning unumi 20 g.

Toza etil bromid o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik. Spirt, efir, xloroform bilan aralashadi, qaynash xarorati past, shuning uchun u qalin devorli, shliflangan probkali sklyankada sarg'ayadi, chunki parchalanib, brom ajratib chiqaradi. Molekulyar massasi 109; qaynash harorati $38,4^{\circ}\text{S}$; d=1,4555

Organik sintez bo'yicha ish jurnalini tutish


Talaba laboratoriya ishlarini bajarishda ishning asosiy usullari, reaksiya uchun ishlatiladigan organik birikmalar, sintez qilingan moddalarni ajratib olish, tozalash hamda ularning konstantalarini aniqlash usullari bilan tanishadi. Talaba ishni tushungan holda bajarishi kerak: reaksiya sharoitlarini tanlash nimaga asoslanganligini, asbob tanlashni, o'tkazilgan tajribani to'g'ri va aniq yoza bilishi kerak.



Bajarilgan ishni yozish uchun laboratoriya jurnalni tutiladi. Hamma yozmalar jurnalning o'ng betida bo'lishi kerak. Jurnalning chap betiga asboblarining rasmi chiziladi. Jadval uchun hisoblashlar qilinadi (behato bir yo'la asliga yozish kerak) va maxsulotning unumi hisoblanadi. Bundan tashqari, o'qituvchi sintez to'grisidagi tanqid va mulohazalarini ham jurnalning chap betiga yozadi.

ETIL BROMID SINTEZI MISOLIDA ISH JURNALI YURITISHNI KELTIRIB O'TAMIZ. ETIL BROMID SINTEZI

Asosiy reaksiya.

Oraliq reaksiyalarining tenglamalari:





Reaksiyaning umumiy tenglamasi (etil bromidning unumini hisoblash uchun):





ETIL BROMID SINTEZINING HISOBI

Reaktivning nomi va formulasi	Molekulyar massasi	Spravochnikdan olingan konstantalar	Kontsentrat-siyasi	Moddalarning kerakli miqdori			Ortiqcha	
				Ko`rsatmada berilgani mol	Gramm		Tenglamaga ko`ra mol	mol
					100 %	Berilgan kontsentratsiya		
Etanol $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$	46	Qaynash tem. $78,3^{\circ}\text{C}$ $d = 0,8$	95,5 %	0,54	24,8 (33 ml) 26,07	(33 ml) 60,7	1 (0,25)	0,29 11 6
Sulfat kislota H_2SO_4	98	$d = 1,84$	98 %	0,6	59,5	(33 ml) 60,7	1 (0,25)	0,36 13 6
Kaliy bromid KBr	119	-	-	0,25	30,0	-	1 (0,25)	- -

QO`SHIMCHA REAKSIYALAR VA ULARNING TENGЛАМАЛАРИ:

1) Dietil efirming hosil bo`lishi:



2) Vodorod bromidning sulfat kislota bilan oksidlanishi:



ETIL BROMID SINTEZ QILISH REJASI:

I. Kerakli reaktivlar tayyorlash va asbob yig'ish

1. Asbob yig'ish. (Ish jurnalining chap betiga etil bromid sintez qilish asbobining sxemasi chiziladi. 25 - rasm)

2. Reaksion kolbaga 33 ml kontsentrlangan sulfat kislota quyiladi va aralashtirib turgan holda tezlik bilan unga 33 ml etil spirt qo`shiladi. Aralashma xona temperaturasigacha sovitiladi.(1 eritma)

3. 1 eritmaga extiyotlik bilan (tashqarisidan suv bilan sovitib turib) 20 ml muzli suv qo`shiladi. (2-eritma)

4.30 g kaliy bromid hovonchada maydalanadi.

II. Reaksiyani o`tkazish

1.2 eritmaga 30 g kaliy bromid qo`shiladi. Reaksion aralashma qum hammomida etil bromid haydalib bo`lgunicha qizdiriladi. Etil bromid yig'gich kolba tubiga moysimon og'ir modda holida yig'iladi.

III. Olingan moddani qo`shimcha moddalardan tozalash


1. Yig'gich kolbadagi ortiqcha suv dekantatsiya yo`li bilan stakanga quyiladi.
2. Etil bromid (pastki qavat) ajratgich voronkada yuqoridagi qavatidan ajratiladi.

3. Etil bromid solingan kolba muzli suvgaga quyiladi va extiyotlik bilan idish tubida alohida qavat hosil qilib yig'lguncha tomizgich voronka yordamida kontsentrlangan sulfat kislota qo'shiladi.

4. Etil bromid (yuqoridagi qavat) kichkina quruq ajratgich voronkada sulfat islotadan ajratiladi.

IV. Moddani tozalash

1. Quruq etil bromid haydaladi. $37 - 40^{\circ}\text{C}$ intervalidagi fraksiya yig'ib olinadi. Qaynash temperaturasi $38,45^{\circ}\text{C}$. Metodikadagi unumi 22 gr. Amaldagi unumi 20 gr deb olsak. Sintez qilingan modda unumi quyidagicha hisoblanadi. Dastlab kam miqdorda olingan KBr bo'yicha etil bromidning nazariy chiqishi hisoblab topiladi:



$$30 \text{ gr} \quad x \quad x = 27,48 \text{ gr.}$$

Nazariyaga nisbatan unumi:

$$27,48 \text{ gr} \quad 100 \%$$

$$20 \text{ gr} \quad x \% \quad x = 72,78 \%$$

Metodikada berilganiga nisbatan unumi:


$$22 \text{ gr} \quad 100 \%$$

$$20 \text{ gr} \quad x \% \quad x = 90,91 \%$$

Hisobot oxirida sintez qilingan moddaning miqdori va konstantalari jadvalga yozish bo'yicha namuna keltiramiz:

Sintez qilingan moddaning nomi va formulasi	Moddaning konstantalari		Moddaning miqdori		
	Amalda topilgani $t_{qaynash}$	Adabiyotda berilgani $t_{qaynash}$	gr	Nazariyaga nisbatan %	Ko'rsatmadagiga nisbatan %
Etilbromid $\text{C}_2\text{H}_5\text{Br}$	$38,1^{\circ}\text{C}$	$38,4^{\circ}\text{C}$	20	72,78	90,91

3.




25- rasm. Etilbromid olish qurilmasi

1-qum hammomi; 2- tubi yumaloq kolba; 3- sovutkich; 4- allonj;
5- yig'gich kolba; 6- muzli hammom

LABORATORIYA ISH № 21

2,4,6, - Tribromanilin sintezi

Asosiy reaksiya:



Reaktivlar: 250 ml li keng og`zi yassi kolba, 2,5 ml anilin, 2,5 ml konsentrangan xlorid kislota, 9 gr kaliy bromid, 4,8 ml brom, tomizgich voronka, Byuxner voronkasi, distillangan suv.


Ishni bajarish tartibi: Ish mo`rili shkaf tagida bajariladi.

Keng og`zi yassi 250 ml hajmli kolbada 2,5 ml anilin, 2,5 ml konsentrangan xlorid kislota va 75 ml distirlangan suvda eritiladi. Boshqa stakanda 50 ml distirlangan suvda 9 gr kaliy bromid va 4,8 ml brom aralashtiriladi. Hosil qilingan tiniq eritma tomizgich voronkaga solinadi va 30 minut davomida aralashtirib turgan holatda reaksiyon aralashmaga tomiziladi. Reaksiya uy haroratida olib boriladi. Reaksiya tugagandan so`ng brom rangi yo`qoladi va tribromalin cho`kmaga tushadi. Uni Byuxner voronkasi yordamida filtrlanadi, filtr ustida 10 foizli ishqor eritmasi, so`ngra distirlangan suv bilan yuviladi va havoda quritiladi. Unumi 7 gr (77% nazariyaga nisbatan), $t_s = 119 - 120^{\circ}\text{C}$.


LABORATORIYA ISH № 22

ETILATSETAT SINTEZI

Asosiy reaksiya:



Qo`shimcha reaksiya:



Reaktivlar; 20 ml muz sirka kislota, 22,5 ml etil spirt, sulfat kislota ($d = 1,84$), natriy karbonat, kaltsiy xlarid, 100 ml sig`imli Vyurs kolbasi.

Ishning bajarilishi: Vyurs kolbasiga 2,5 ml etil quyib, ustiga extiyotlik bilan aralashtirib turib 2,5 ml konsentrangan sulfat kislota qo`shiladi. Shundan keyin kolba oqimi pastga qiya qilib, suvli sovutkich ulanadi. Tomizgich voronkali probilka bilan kolba og`zini berkitib, kolbagaga moy hammomida 140°C gacha qizdiriladi. (termometr hammom ichiga tushib turishi kerak.) qizdirilgan suyuqlikga asta – sekin voronka orqali 20 ml etil spirt, 20 ml muz sirka kislota aralashmasi 2 soat davomida qo`shiladi va 140°C da hosil bo`layotgan etilasetat haydaladi. (yuqori temperaturada qo`shimcha modda dietil efirining hosil bo`lishi ko`payadi) reaksiya tamom bo`lgandan keyin tarkibida sirka kislota qo`shimchasi bor distilyat natriy karbonatning konsentrangan eritmasi bilan neytrallanadi. Natriy

karbonat eritmasi asta – sekin shisha tayoqcha bilan suyiqlikni aralashtirib turib qo`shiladi (CO gazining ajralib chiqishi natijasida aralashma ko`piradi) aralashmaning efir qisimiga tushirilgan ko`k laksus qog`oz qizarguncha soda eritmasi qo`shiladi. Sirkaetil efir pastgi suv qavatdan ajratgich voronka yordamida ajratiladi va u kaltsiy xloridning to`yingan eritmasi (8 ml suvda 8 gr kalsiy xlorid eriydi) bilan chayqatib aralashtiriladi. Efirni ajratib kaltsiy xlorid bilan quritiladi va suv hammomida haydaladi. 71 – 75 $^{\circ}\text{C}$ da sirkal etil efir, etanol va suvdan iborat azeotrop aralashma haydaladi. 75 – 78 $^{\circ}\text{C}$ da toza sirkaetil efir haydaladi. Uning unumi 20 g. sirkaetil efir xushbo`y hidli, rangsiz suyuqlik. Efir, etanol, xloroform, benzol bilan aralashadi, suvda kam eriydi. Molekulyar massasi 88,10; suyuqlanish temperaturasi – 83,6 $^{\circ}\text{C}$; qaynash temperaturasi – 77,15 $^{\circ}\text{C}$ d 0,901; n 1,372.


Dastlabki moddalar				Moddalarning kerakli miqdori				Ortiqcha	
Reaktivning nomi va formulasi	Molekulyar massasi	Spravochnikdan oltingan konstantalar	Kontsentra-tsiyasi	Ko`rsatmadaberilgani		Teng-lamaga ko`ra mol	mol	%	
				mol	gramm				
				100 %	Beril-gan kont-sent ratsiya				
CH_3COOH									
$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$									

Sintez qilingan moddaning miqdori va konstantalari

Sintez qilingan moddaning nomi va formulasi	Moddaning konstantalari		Moddaning miqdori		
	Amalda topilgani T_{qaynash}	Adabiyotda berilgani T_{qaynash}	gr	Nazariyaga nisbatan %	Ko`rsatmadagiga nisbatan %
$\text{CH}_3-\overset{\text{O}}{\underset{\text{OC}_2\text{H}_5}{\text{C}}}-$					

LABORATORIYA ISH № 23

β – naftoloranj sintezi



Reaktivlar: β - naftol 1 gr (0,007 mol); sulfanil kislota $2\text{H}_2\text{O}$ 1,5 gr (0,007 mol); natriy nitrit 0,5 gr (0,007 mol); osh tuzi 3,5 gr; 10 % li o'yuvchi natriy eritmasi 13 ml; 2 n xlorid kislota eritmasi 12 ml.

Stakanda 10 ml 10 % li o'yuvchi natriyning eritmasidan 1 gr β - naftol qizdirib eritiladi (eritma № 1).

Boshqa stakanda 1,5 gr sulfanil kislota (yoki 1,24 gr suvsiz quruq kislota) 3 ml 10 % li o'yuvchi natriy eritmasida qizdirib eritiladi. Bu ishq oriy eritmaga 0,5 gr natriy nitritning 6 ml suvdagi eritmasi quyiladi. Eritma sovitilgandan so'ng, aralashtirib turilgan xolda, muz bilansovutilgan 12 ml 2 n xlorid kislota eritmasiga asta – sekin quyiladi (eritma № 2). So'ngra eritma № 2 ga muz bilansovutilgan eritma № 1 ni quyib, 30 minut aralashtirib turiladi va unga 3,5 gr osh tuzining to'yingan eritmasi solinadi.

β - naftoloranj to'q sariq kristall xolidagi cho'kmaga tushadi. U filtrlanib, sovuq suv bilan yuvilib, filtr qogozlari orasida quritiladi. Miqdori 2 gr atrofida.

LABORATORIYA ISH № 24 **Kolloid eritmalarining olinishi**

Ishning maqsadi.

A) Kondensatsion va disperslash usullari yordamida kolloid eritmalar hosil qilish.

B) Kolloid eritmalar hosil bo'lismalarini va reaksiya tenglamalarini yozish.

A. Kondensatsion usul

Ish uchun kerak bo'ladijan asbob va reaktivlar

100 ml li o'lchov silindri, ikkita tagi yassi kolba, kanifolning etil spirtidagi 2% li eritmasi, oltingugurtning etil spirtdagi to'yingan eritmasi, distillangan suv, temir xloridning 2% li eritmasi, 0,05 n li kaliy yodid, 0,05 n li kumush nitrat eritmalar; kristallik natriy tiosulfat, oltingugurt kukuni.

Ishning bajarilishi


1-tajriba. Oltingugurt va kanifol gidrozollarining olinishi

Distillangan suvni chayqatib turib, unga oltingugurtning absolyut etil spirtdagi to'yingan eritmasi tomchilab quyiladi. Sutdek oppoq shaffof zol olinadi. 100 ml li distillangan suvni qattiq chayqab turib, unga kanifolning spirtdagi 2% li eritmasidan tomchilab 5 – 10 ml qo'shiladi. Sutdek oppoq va ancha barqaror zol hosil bo'ladi.


2-tajriba. Gidroliz yo'li bilan temir (III) zolini hosil qilish

100 ml distillangan suv qaynaguncha isitiladi. So'ngra qaynab turgan suvga temir (III) xloridning 2% li eritmasidan tomchilab, 5- 10 ml qo'shiladi. Natijada tiniq qizil – qo'ng'ir rangli temir (III) gidroksid kolloid eritmasi hosil bo'ladi.


Temir (III) gidroksid kolloid eritmasini olish reaksiya sxemasi quyidagi tarzda yoziladi:



Agregatning sirtqi molekulalari bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadi.



temir (III) gidroksid misellani quydagicha ifodalash mumkin:



B. Disperslash usuli

Ish uchun kerak bo'ladijan asbob va reaktivlar.

30 ml li ikkita stakan, uch oyokli o'choq, asbestlangan to'r, shtativga o'rnatilgan oltita probirka, tomizgich, pipetka, shishi tayoqcha, 100 ml li kolba, 100 ml li o'lchov silindri, mayda ulushlarga bo'lingan pipetka.

Eritmalar: 1 n li qalay (IV) xlorid, 1 n li o'yuvchi natriy 0,1 n li xlorid kislota, 0,1 n li xlorid kislota, 0,1 n li kumush nitrat, ammoniy xloridning 1% li eritmalar, ammiakning suvdagi 5 - 10% li eritmasi.

Benzol, pista moyi, sovunning spirtdag'i 2% li eritmasi, kristallik bura.


Ishning bajarilishi

1-tajriba. Ishqor yoki kislota yordamida peptizlab, stannat kislota hamda alyuminiy (III) gidroksid zoli hosil qilish


200 ml qaynab turgan suvgaga qalay (IV) xlorid eritmasi tomchilab qo'shiladi. Hosil bo'lган cho'kma distillangan qaynoq suv yordamida to xlor ionlari batamom yuvilgunicha dekantatsiya qilinadi. Bunda xlor ionlarining bor yoki yo'qligi kumush nitrat eritmasi yordamida tekshiriladi.

Yuvilgan cho'kmaga bir necha tomchi natriy gidroksid yoki xlorid kislota qo'shiladi. So'ngra ko'p suv qo'shib suyultiriladi va chayqatiladi. Natijada stannat kislota zoli hosil bo'ladi.


Qalay (IV) xlorid suvli eritmalarida quyidagi tenglamaga muvofiq gidrolizlanadi:




Cho'kma ya'ni stannat kislota ishqor yoki kislota ta'sirida kolloid eritmaga o'tishi mumkin. Agar cho'kmaga natriy gidroksid eritmasi qo'shilsa, quyidagi tenglamaga muvofiq m - natriy stannat tuzi hosil bo'ladi.



Stannat kislota kislotalar tasirida (masalan, xlorid kislota) ham stannat kislota tuzi hosil bo'ladi.



Mitsellaning umumiyo ko'rinishi, quyidagicha bo'ladi:



Kolloid eritma disperslash usulida tayyorlanadigan bo'lsa, qattiq moddaga stabilizator qo'shib hovonchada yaxshilab maydalanadi. Iviq yoki g'ovak cho'kmalarga tegishli moddalar ta'sir ettirish yo'li bilan zollar hosil qilish jarayoni **peptizasiya** deb ataladi; bunday moddalar kolloid zarrachalar sirtiga yaxshi adsorblanadi va zarrachalarning zolga o'tishiga yordam beradi.

Ammo yuqorida aytib o'tilgan usullarning har qaysisida ham kolloid sistema hosil bo'lishi uchun dispersion faza dispersion muhitda juda kam eruvchan bo'lishi shart. Aks holda molekulyar eritmalar hosil bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, zarrachalar bilan muhit o'rtasida o'zaro bog'lanish bo'lib, bu bog'lanish zarrachalar bir-biri bilan qo'shilib ketishga qo'ymay turish zarur.

Zollarni tozalash

Ishning maqsadi: Zollarni tozalash usuli, hidrofob va hidrofil kolloid eritmalar qanday dializ qilinishi bilan tanishish.

Ish uchun kerak bo'ladigan asbob va reaktivkar: FeCl₃-2%li, AgNO₃-1N, K₂SO₄-1N, BaCl₂-2% li eritmalari, tannin-1%, jelatin-1% zollar; iod eritmasi, kraxmall kukuni, HCl-0,1N eritmasi, temir (III)-gidroksid zoli.

1-tajriba. Jelatina zolini dializ qilish.

Kollodiydan tayyorlangan xaltachaga jelatinaning 1% li eritmasi quyiladi, unga ozgina natriy xlorid qo'shiladi va distillangan suvga botirib quyiladi. Oradan ikki soat o'tgandan keyin tozalovchi suvdan ozgina namuna olib tekshiriladi, bunda xlor ionini bor-yo'qligi esa taninning 2% li eritmasi yordamida sinab ko'rildi. Tanin bilan jelatina aralashmasi o'ziga xos rang beradi. So'ngra yarim soatdan keyin namuna olib sinab ko'rildi va tajriba natijalari yozib boriladi.

2-tajriba. Kraxmal zolini dializ qilish.

Texnik tarozida 2g kraxmall tortib olinib chinni kosachaga solinadi, 5-10ml suv qo'shib shisha tayoqcha yordamida yaxshilab aralashtiriladi.

Suvga kraxmallni aralashtirib turib, qaynab turgan 100ml distillangan suvga tez quyiladi. Hosil qilingan tiniq kraxmall zoliga 1 N li kaliy sulfat erutmasidan ozgina qo'shiladi va aralashmaning hammasi suvli dializatorgabotirib qo'yilgan kollodiy xaltachaga quyiladi. Har yarimsoat o'tgandan keyin dializatordan suyuqlikdan namuna olinib, unda sul'fat ioni va kraxmall bor-yo'qligi sifat reaksiyasi yordamida tahlil qilinadi.

3-tajriba. Temir (III) gidroksid zolini dializ qilish.

Temir (III) gidroksidning kolloid eritmasi dializatorga yoki kollodiydan tayyorlangan xaltachaga quyiladi va distillangan suvli idish ichiga botirib quyiladi. Xaltachaga botirilgan suyuqlikdan har yarim soatda namuna olib, xlor ioni bor-yo'qligi sinab ko'rildi. Eritmada xlor ionlari miqdori (sifat jihatdan) kamayib borishi va xaltachadagi kolloid eritma o'zgarishi kuzatib boriladi.

LABORATORIYA ISHI № 25

Kompensatsiyalash usulida elektrokimyoviy zanjirlarning elektr yurituvchi kuchini o'lchash

Ishning maqsadi:

- Yakobi-Daniel elementining EYuK ni aniqlash;
- mis va rux elektrodlarining elektrod potensiallarini aniqlash;
- bufer eritmaning vodorod ko'rsatkichini aniqlash.

Topshiriqlar:

1. Yakobi-Daniel elementining EYuK ni o'lchang;
2. Galvanik elementning muvozanat konstantasini isoblang;
3. Kalomel elektrodi yordamida mis va rux elektrodlarining potensiallarini o'lchang;
4. Aktivlik koeffitsientlarini hisobga olib mis va rux elektrodlari potensiallarini nazariy hisoblang;
5. Alovida o'lchanigan va nazariy hisoblangan potensiallardan Yakobi-Daniel elementining EYuK ni hisoblang va bevosita o'lchanigan EYuK bilan solishtiring.
6. Bufer eritmaning pH ini potensiometr yordamida kompensatsiyalash usulida aniqlang va ionselektiv shisha membrana elektrodli pH-metrda o'lchang.

Usulning mohiyati: Galvanik elementning EYuK termodinamik kattalik bo'lganligi sababli uni zanjirda elektr toki yo'q bo'lganda o'lhash kerak.

Amaliyotda muvozanat holatini sezilarli siljitmaydigan darajadagi kichik toklar bo‘lgan sharoitlarda o‘lchovlar o‘tkaziladi. Kompensatsiyalash usulida bunday toklar galvanometr (nol asbob) ning sezgirligi bilan belgilanadi. Kompensatsiyalash nuqtasida tashqi kuchlanish galvanik elementning o‘lchanayotgan kuchlanishini kompensatsiyalaydi va zanjirda tok bo‘lmaydi.

Hisoblash formulalari:

Yakobi-Daniel elementining EYuK ni quyidagi tenglamalardan hisoblanadi:

$$E_{naz} = \pi_{Cu}^0 - \pi_{Zn}^0 \quad (1); \quad E_{xisob} = \pi_{Cu(o'lch.)} - \pi_{Zn(o'lch.)} \quad (2);$$

$$E_{taj} = \pi_{Cu} - \pi_{Zn} \quad (3); \quad \Delta E_1 = E_{taj} - E_{naz} \quad (4); \quad \Delta E_2 = E_{taj} - E_{xisob} \quad (5).$$

Muvozanat konstantasini topish tenglamalari:

$$\Delta G^0 = -RT \ln K_a \quad (6); \quad \Delta G^0 = -zFE^0 \quad (7); \quad \lg K_a = zFE_{taj}/2,303RT \quad (8).$$

Elektrod potensiallarini aniqlash tenglamalari:

$$E_{taj} = \pi_{Cu} - \pi_{n.k.e.} \quad (9); \quad \pi_{Cu} = E_{taj} + \pi_{n.k.e.} \quad (10); \quad E_{taj} = \pi_{n.k.e.} + \pi_{Zn} \quad (11);$$

$$\pi_{Zn} = \pi_{n.k.e.} - E_{taj} \quad (12).$$

Bufer eritmaning pH ni Nernst tenglamasidan hisoblanadi:

$$E_{taj} = \pi_{x.g}^0 + 0,0591 \lg a_{H^+} - \pi_{H.K.3.}^0 \quad (13)$$

$$E_{maxc} = E_{H_{23}} + 0,0591 \lg a_{H^+} = E_{H_{23}} - 0,0591pH \quad (14),$$

$$\text{bu yerda } E_{H_{23}} = \pi_{x.e.}^0 - \pi_{H.K.3.}^0; \quad \lg a_{H^+} = \frac{E_{maxc} - E_{H_{23}}}{0,0591} \quad (15);$$

$$pH_{xuc.} = \frac{E_{H_{23}} - E_{maxc}}{0,0591} \quad (16), \text{ bu yerda } T=298 \text{ K da } 2,303RT/F=0,0591.$$

Elektrod potensiallarini ionlarning o‘rtacha aktivlik koeffitsientlari orqali hisoblash:

$$a_{\pm} = \gamma_{\pm} m \quad (17); \quad E(Cu^{2+}, Cu) = E_{Cu}^0 + \frac{2,303RT}{zF} \lg(a_{Cu^{2+}} / a_{Cu}) \quad (18);$$

$$E(Zn^{2+}, Zn) = E_{Zn}^0 + \frac{2,303RT}{zF} \lg(a_{Zn^{2+}} / a_{Zn}) \quad (19).$$

Galvanik elementlarning EYuK va elektrod potensialarining nazariy qiymatlari:

$$E_{ya-d} = 1,10 \text{ V}; \quad E_N = 1,0183 \text{ B}; \quad \pi_{Cu^{+}/Cu}^0 = 0,521 \text{ B};$$

$$\pi_{Cu^{+}/Cu} = 0,337 \text{ B}; \quad \pi_{Zn^{2+}/Zn}^0 = -0,763 \text{ B}; \quad \pi_{x.e.}^0 = 0,699 \text{ V};$$

$$\pi_{n.k.e.} = 0,2415 \text{ V (to‘yingan eritma)}; \quad \pi_{n.k.e.} = 0,2812 \text{ V (1,0 M eritma)};$$

$$\pi_{n.k.e.} = 0,3341 \text{ V (0,1 M eritma)}.$$

Ishning bajarilishi:

Yakobi-Daniel elementining EYuK ni aniqlash tartibi o‘quv qo‘llanmada amaliy mashg‘ulotlarga bag‘ishlangan darslikda batafsil bayon etilgan.

(1)-(5) tenglamalardan Yakobi-Daniel elementining EYuK hisoblangandan so‘ng (6)-(8) tenglamalardan galvanik elementdagi termodinamik muvozanat konstantasi hisoblanadi va jarayonning kimyoviy qaytar yoki qaytmasligi haqida fikr yuritiladi (1-jadval).

Alohidada elektrodning potensialini aniqlash uchun solishtirish elektrodi (vodorod, kalomel, kumush xlorid yoki boshqa qutblanmaydigan standart elektrod) va o‘rganilayotgan elektroddan iborat galvanik element tuziladi (1-jadval) va (9)- (12) tenglamalardan elektrodning potensiali hisoblanadi.

Bufer eritmaning pH ini aniqlayotganda standart elektrodlardan iborat (xingidron va kalomel) zanjir tuziladi va ushbu galvanik elementning EYuK E_{taj} o‘lchanadi (1-jadval). So‘ngra zanjir EYuK ning nazariy qiymati E_{naz} ni bilgan holda bufer eritmadi vodorod ionlarining konsentratsiyasi pH_{xis} (13)-(16) tenglamalardan hisoblanadi. Bufer eritmadi vodorod ionlarining konsentratsiyasini tajribada pH_{taj} ham pH-metrdan foydalanib o‘lchanadi va olingan natijalar solishtiriladi.

Elektrolitlarning suvli eritmalaridagi ionlarning o‘rtacha aktivlik koeffitsientlari orqali ham mis va rux elektrodlarining potensiallari (17)-(19) tenglamalardan nazariy hisoblanadi va 2-jadvalga yoziladi.

1-jadval.

Yakobi-Daniel elementining EYuK va termodinamik muvozanat konstantasi, alohida elektrodlarning potensiallari va bufer eritmaning vodorod ko‘rsatkichi.

$t = -^0C$

Element zanjiri	E_{taj}	E_{his}	E_{naz}	$\Delta E_1 = E_{taj} - E_{naz}$	$\Delta E_2 = E_{his} - E_{naz}$	$\lg K_a$	K_a	$\pi_{Cu_{taj}}$	$\pi_{Zn_{taj}}$	$E_{Cu_{his}}^0$	$E_{Zn_{his}}^0$	pH	
												his	taj
(+)Cu/CuSO ₄ //ZnSO ₄ /Zn ⁽⁻⁾													
(+)Cu/CuSO ₄ //KCl/Hg ₂ Cl ₂ /Hg ⁽⁺⁾													
(+)Hg/HG ₂ Cl ₂ //KCl//ZnSO ₄ /Zn ⁽⁻⁾													
(+)Pt/[H ⁺]kg//KCl/Hg ₂ Cl ₂ /Hg ⁽⁻⁾													

2-jadval.

Elektrolitlarning suvli eritmalaridagi ionlari o‘rtacha aktivlik koeffitsientlari orqali hisoblangan elektrod potensiallari ($t=25^0C$).

Elektrod	m, mol/1000g H ₂ O	γ_{\pm}	a_{\pm}	E^0	E_{taj}	E_{naz}
Cu ²⁺ /Cu Zn ²⁺ /Zn						

LABORATORIYA ISHI № 26

Eritmalarning elektr o‘tkazuvchanligini aniqlash.

Ma’lumki o‘tkazgichlar birinchi va ikkinchi turdagи o‘tkazgichlarga ajratiladi. Birinchi turdagи o‘tkazgichlarga metall va ularning kotishmalari, grafit, ba’zi kiyin suyuklanuvchan oksidlar va boshka materiallar kiradi. Ikkinci turdagи o‘tkazgichlarga esa kislota, ishkor va tuzlarning eritmalar, tuzlarning suyuklanmalari va ba’zi qattiq tuzlar (masalan, natriy xlorid va kaliy xlorid) kiradi.

Birinchi turdagи o‘tkazgichlarda elektr tokini elektronlar tashisa, ikkinchi turdagи o‘tkazgichlarda qarama-qarshi elektrodlarga tomon tartibli harakatlanadigan ionlar tashiydi. Ionlar elektrodlar sirtida zaryadsizlanadi.

Elektr o‘tkazuvchanlik – elektr toki o‘tishiga bo‘lgan qarshilikga teskari proparsional bo‘lgan kattalikdir. O‘tkazgichning tok o‘tishiga qarshiligi

$$R = p \frac{l}{S} \text{ formula orqali ifodalanadi.}$$

Bu yerda R- tok o'tishiga bo'lgan qarshilik, p- solishtirma qarshilik, l-o'tkazgichning uzunligi, S- o'tkazgichning ko'ndalang kesimi yuzasi.

Elektr o'tkazuvchanlik quyidagi formula orqali ifodalanadi

$$L = \lambda_c \frac{S}{l}$$

Bu yerda L - elektr utkazuvchanlik.

$$\lambda_c = \frac{1}{p} - \text{solishtirma elektr utkazuvchanlik}$$

Solishtirma elektr utkazuvchanlik bu bir-biridan 1sm oralikda joylashgan sirt yuzasi 1sm^2 teng bulgan ikkita elektrod orasidagi 1 ml xajmli eritmaning elektr utkazuvchanligidir.

Shundan kelib chikkan xolda ekvivalent elektr utkazuvchanlik tarkibida 1 gr. ekvivalent erigan modda tutgan suyultirilgan eritmaning millilitrlar sonini solishtirma elektr utkazuvchanlikga kupaytmasiga teng bulgan kattalik deyish mumkin:

$$\lambda_v = \frac{\lambda_c \cdot 1000}{C} = 1000 \cdot \lambda_c \cdot V \quad (2)$$

Bu yerda λ_v - ekvivalent elektr utkazuvchanlik; λ_c - solishtirma elektr utkazuvchanlik; C - 1 l eritmadi moddaning gr -ekvivalentlar soni; V - 1 gr - ekvivalent modda erigan eritmaning xajmi.

Eritmalarning ekvivalent elektr utkazuvchanligi eritma suyultirilganda ionlar sonining kupayishi sababli ortadi. Shunga muvofik berilgan elektrolit eritmasining ekvivalent elektr utkazuvchanligining ortishi elektrolitning dissotsilanish darajasi orkali aniklanishi mumkin. Shu bilan birga elektrolit eritmasi suyultirilgan sayin uning ekvivalent elektr utkazuvchanligi ma'lum chegaragacha ortib boradi keyin esa doimiyligicha koladi. Elektr utkazuvchanlikning bu chegaraviy kiymati cheksiz suyultirilgandagi elektr utkazuvchanlik deb ataladi va λ_∞ bilan ifodalanadi. Elektr utkazuvchanlik xodisasini urganish tufayli turli elektrolitlarning cheksiz suyultirilgan eritmalarining xammasida dissotsilanish darajasi 1ga teng bulganda xam ularning ekvivalent elektr utkazuvchanlik kiymati turlicha ekanligi aniklangan. Buning sababini tok tashuvchi ionlarning xarakatchanliklari turlicha ekanligi bilan boglash orkali tushintirish mumkin. Cheksiz suyultirilgandagi elektr utkazuvchanlik ionlarning xarakatchanliklari yig'indisiga teng buladi.

Eritmaning ekvivalent elektr utkazuvchanligi va ionlarning xarakatchanliklari kiymatini aniklash orkali

$$\alpha = \frac{\lambda_v}{\lambda_\infty} \quad (3)$$

formuladan elektrolitning dissotsilanish darajasini xisoblab topish mumkin.

Kuchsiz elektrolitlarning eritmasida dissotsilanmagan molekulalar xamda molekulalarning bir kismi dissotsilanishdan xosil bulgan kation va anionlar buladi. Eritmada ular orasida dinamik muvozanat karor topadi va uni berilgan temperatura va elektrolitlarning umumiyl konsentratsiyasi uchun doimiy bulgan kattalik- elektrolitning dissotsilanish konstantasi orkali ifodalash mumkin. Uni massalar ta'siri konuniga asoslanib xisoblab topish mumkin.

Ikkita ion xosil kilib dissotsilanuvchi molekulalar uchun

$$\frac{Ck * Ca}{Cak} = K$$

Bu yerda K - elektrolitning dissotsilanish konstantasi; S_K - kationlar konsentratsiyasi; S_A - anionlarning konsentratsiyasi; S_{AK} - dissotsilanmagan molekulalar konsentratsiyasi.

Agar xajmi V ga teng bulgan elektrolit konsentratsiyasini S deb olsak, u xolda

$$C_k = C_a = \alpha \cdot C = \frac{\alpha}{V} \text{ buladi}$$

Bu yerda α - elektrolitning dissotsilanish darajasi; V - xajm (suyultirish) Elektrolitning dissotsilanmagan molekulalari konsentratsiyasi

$$S_{AK} = (1 - \alpha) C = \frac{1 - \alpha}{V}$$

Shunga muvofiq

$$K = \frac{\alpha^2 \cdot V}{V^2(1 - \alpha)} = \frac{\alpha^2}{V(1 - \alpha)}$$

Bunda $\frac{1}{V} = C$ ekanligini hisobga olsak

$$K = \frac{\alpha^2 \cdot C}{(1 - \alpha)} \quad (4)$$

Agar (4) formulaga α ning (3) dagi qiymatini keltirib qo'ysak

$$K = \frac{\left(\frac{\lambda_v}{\lambda_\infty}\right)^2 \cdot C}{1 - \frac{\lambda_v}{\lambda_\infty}} = \frac{\lambda_v^2 \cdot C}{(\lambda_\infty - \lambda_v) \cdot \lambda_\infty} \quad (5) \quad \text{kelib chiqadi.}$$

Shu tariqa umumiy konsentratsiya C ga teng bo'lgan elektrolitning dissotsilanish konsentratsiyasi uning eritmasini elektr o'tkazuvchanligini o'lchash natijalari orqali hisoblab topiladi.

Shuningdek elektr o'tkazuvchanlik - qarshilikka teskari proporsional kattalik bo'lganligi sababli uni o'lchash uchun eritmaning qarshiligi ma'lum qarshilik bilan taqqoslanadi. Bu maqsadda Uitston ko'prigidan foydalaniladi.

- Ishning maqsadi:**
 - kuchli elektrolitning solishtirma va ekvivalent elektr o'tkazuvchanliklarini hamda elektr o'tkazuvchanlik koefitsientini aniqlash;
 - kuchsiz elektrolitning solishtirma va ekvivalent elektr o'tkazuvchanligini aniqlash;
 - kuchsiz elektrolitning dissotsilanish darajasini va disotsilanish konstantasini aniqlash;
 - qiyin eruvchan tuzning konsentratsiyasini va eruvchanlik ko'paytmasini aniqlash.

$$\text{Hisoblash formulalari: } R_M / R_x = R_1 / R_2 = \frac{l_1}{l_2} \quad (1); \quad R_x = R_M \cdot \frac{l_2}{l_1} \quad (2);$$

$$j = kw = k / R_x = \frac{k}{R_M} \cdot \frac{l_1}{l_2} \quad (3); \quad k = j_{H_2O} R_{KCl} = j_{H_2O} \cdot \frac{l_2}{l_1} \cdot R_M \quad (4);$$


$$\lambda = 1000 \text{ æ/s} \quad (5); \quad f_\lambda = \lambda / \lambda_\infty \quad (6); \quad \lambda_\infty = \lambda_+ + \lambda_- \quad (7);$$

$$\alpha = \lambda / \lambda_\infty \quad (8); \quad K_{dis} = C \alpha^2 / (1 - \alpha) \quad (9);$$

$$C = 1000 (j_{eritma} - j_{H_2O}) / \lambda_\infty \quad (10); \quad L = c_m^{v+} c_A^{v-} \quad (11)$$

- Topshiriqlar:**
- kuchli va kuchsiz elektrolitlar solishtirma elektr o‘tkazuvchanliklarining konsentratsiyaga bog‘liqliklarini $\alpha=f(c)$ solishtiring;
 - kuchli elektrolitning λ_∞ ni topish uchun $\lambda=f(\sqrt{c})$ va $\lambda=f(1/C)$ grafiklarini tuzing;
 - kuchsiz elektrolitning λ_∞ chegaraviy qiymatini topish uchun $\lambda=f(\sqrt{\alpha c})$ grafigini tuzing.

Ishning bajarilishi: Elektr o‘tkazuvchanlikni aniqlash uchun Kolraush-Uitston ko‘pridan foydalaniladi.



Kolraush ko‘prigi:
 AB- reoxord;
 R_1 i R_2 - ko‘prik yelkalari;
 C- xarakatlanuvchi kontakt;
 T- nol-asbob (ossillograf);
 R_M -magazinlar qarshiligi;
 R_x -elektrolit eritmasi solingan idish.

Elektrolit konsentratsiyasini o‘zgartiruvchi va elektrodlarning qutblanishini keltirib chiqaruvchi elektroliz jarayonining oldini olish maqsadida tovush chastotasiga ega bo‘lgan generator yordamida yuqori chastotali tok ishlataladi. O‘zgaruvchan tok zanjirida aktiv qarshilik (omik qarshilik) R dan tashqari reaktiv qarshilik R_{CL} ham mavjud, u o‘z navbatida sig‘im (C) va induktiv (L) qarshiliklardan iborat. Zanjirning to‘la qarshiliqi impedans deyiladi. Ushbu holda muvozanat qarshiliklarning nisbati (1) bilan emas, balki impedanslarning nisbati bilan belgilanadi. Reaktiv qarshilikni maksimal kamaytirish uchun ulash simlarini qisqa olish, kontaktlarni yaxshilab tozalash va payvandlash, ko‘prik zanjirlarini ekranlash va ekranni yerga ulash kerak. Ammo ushbu tadbirlar elektr yachejkasining sig‘im qarshiligini batamom yo‘qota olmaydi, lekin sig‘im qarshiligi aktiv (omik) qarshilikka nisbatan juda kichik bo‘lganligi sababli, hisoblashlarda (3) tenglamadan foydalaniladi. Sig‘im qarshiligini batamom yo‘qotish mumkin bo‘lmagani uchun ossillograf ekranidagi sinusoidning

minimal amplitudasiga javob beruvchi tok kuchining eng kichik qiymatini beruvchi C konstantning holati topiladi.

1. Idish doimiysini aniqlash

Yuzasi 1 sm² va orasidagi masofa 1 sm bo‘lgan ikki elektrod orasidagi ionlarning o‘tkazuvchanligi solishtirma elektr o‘tkazuvchanlik deyiladi. Lekin aslida elektrodlarning atrofidagi ionlar ham elektr tokini o‘tkazishda qatnashgani uchun elektr o‘tkazuvchanlik ω solishtirma elektr o‘tkazuvchanlikka teng bo‘lmasada, unga proporsional bo‘ladi. (3) tenglamadagi proporsionallik koeffitsienti k idish doimiysi deyiladi, uning qiymati ℓ /s nisbatga bog‘liq. Idish doimiysini topish uchun solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi aniq bo‘lgan standart elektrolit eritmalarining (KSl, NaCl) bir necha konsentratsiyadagi qarshiliklari o‘lchanadi va k ning qiymati (4) tenglamadan hisoblanadi. Idish doimiysini topish uchun eritmalar 0,02 N li KCl eritmasini ketma-ket suyultirish 0,01; 0,005; 0,001 bilan tayyorlanadi. Barcha tajribalarda idishdagi eritmaning hajmi bir xil bo‘lishi shart. Idish distillangan suvda, keyin 2-3 marta o‘rganilayotgan konsentratsiyali eritmada chayiladi. So‘ngra idishga 20 ml 0,02 N li KCl eritmasi pipetka yordamida quyiladi, bunda elektrodlar eritmaga to‘liq botirilganligiga iqror bo‘lish lozim. Eritma solingan idish o‘lhash sxemasiga ulanadi, 10-15 min. davomida termostatlangandan so‘ng o‘lhashlar boshlanadi.

Harakatchan kontaktni reoxordning o‘rtasiga qo‘yib, magazinlar qarshiligi yordamida CD diagonalidan minimal tok o‘tishiga erishiladi. Bu sharoitda (2) tenglamaga muvofiq R_M ning qiymati R_x ga teng bo‘ladi, chunki $l_2/l_1=1$. So‘ngra R_M ning qiymatini 10-15% ga kamaytirib yoki ko‘paytirib, harakatchan kontakt yordamida CD diagonalidagi tok kuchining minimal holati topiladi. Bunday o‘lhashlar tajriba xatosining kam bo‘lishini ta’minlaydi. Elektr o‘tkazuvchanlikni hisoblash uchun R_x ning o‘rtacha qiymatidan foydalaniladi. Juda kichik konsentratsiyalarda elektrolitning elektr o‘tkazuvchanligi suv ($\alpha \approx 5 \cdot 10^{-6} \text{Sm} \cdot \text{sm}^{-1}$) bilan solishtirarli bo‘lib qolgani

$_{H_2O}$
uchun, hisoblarda buni e’tiborga olish zarur:

$$\alpha_0 = \alpha_{\text{eritma}} - \alpha_{H_2O}.$$

Tajriba natijalari 1-jadvalga yoziladi.

1-jadval.

Idish doimiysini aniqlash natijalari

T, K	C, g·ekv/l	R _M , Om	l ₁ , mm	l ₂ , mm	R _{KCl} , Om	\bar{R}_{KCl} , Om	j·10 ³ Sm/sm	k, sm ⁻¹	k _{cp} , sm ⁻¹
298	0,02						2,7670		
	0,01						1,4130		
	0,005						0,7177		
	0,001						0,1469		

2. Kuchli elektrolitning j, λ , λ_∞ va f _{λ} qiymatlarini aniqlash

Xuddi idish doimiysini aniqlagandagi kabi, kuchli elektrolitning qarshiligi R_x ni 0,1 dan 0,0001 g-ekv/l gacha bo‘lgan konsentratsiyalar oralig‘ida o‘lchanadi. Buning uchun elektrod va stakanlar 2-3 marta distillangan suvda, so‘ngra o‘rganilayotgan

konsentratsiyali eritmada chayiladi, shundan keyin 20 ml kuchli elektrolit solinadi va eritmaning qarshiligi o'lchanadi. (3) va (5) tenglamalardan j va λ lar hisoblanadi (suvning elektr o'tkazuvchanligi $C=0,001$ g-ekv/l va past konsentratsiyalarda hisobga olinadi. $\lambda=f(\sqrt{c})$ yoki $\lambda=f(1/C)$ bog'liqliklardan ordinatadagi kesma bo'yicha yoki elektr o'tkazuvchanlikning cheksiz suyultirishdagi maksimal qiymati bo'yicha λ_∞ va (6) tenglamadan barcha konsentratsiyalar uchun elektr o'tkazuvchanlik koeffitsientlari hisoblanadi. Natijalar 2-jadvalga yoziladi.

Kuchli elektrolitning α , λ , λ_∞ va f_λ qiymatlari

$k_{idish}=$	$t=25^\circ C$;									
$C, g \cdot ekv/l$	R_M, Om	l_1, mm	l_2, mm	R_x, Om	\bar{R}_x, Om	$j_{er}, Sm/sm$	$j_{er} - j_{H_2O}, Sm/sm$	$\lambda, Sm \cdot Cm^2 / g \cdot ekv$	λ_∞	f_λ
0,10										
0,05										
0,01										
0,005										
0,001										
0,0001										

$$j = f(C); \quad \lambda = f(\sqrt{c}); \quad \lambda = f(1/C) \text{ grafiklari tuziladi.}$$

3. Kuchsiz elektrolitning j , λ , λ_∞ , α va K_{dis} qiymatlarini aniqlash

Kuchsiz elektrolitning 0,5 dan 0,001 g-ekv/l gacha bo'lgan konsentratsiyalari uchun R_x qiymatlari o'lchanadi. (3), (5), (7), (8) va (9) tenglamalardan kuchsiz elektrolitning α , λ , λ_∞ , α va K_{dis} qiymatlari hisoblanadi va 4-jadvalga yoziladi. $\alpha=f(c)$, $\lambda=f(s)$ va $\lambda=f(\sqrt{\alpha c})$ grafiklari chiziladi. Ionlarning elektr o'tkazuvchanliklari [1;2] lardan topiladi.

3-jadval.

Ayrim elektrolitlarning $25^\circ C$ dagi K_{dis} va λ_∞ qiymatlari

Elektrolit lar		Sirka kislotasi CH_3COOH	Limon kislotasi $C_3H_4OH(COOH)_3$	Chumoli kislotasi $HCOOH$	Propion kislotasi C_2H_5COOH	Qaxrabo kislotasi $CH_2(COOH)_2$
K_{dis}		$1,75 \cdot 10^{-5}$	$8,7 \cdot 10^{-4}$ $1,8 \cdot 10^{-5}$ $4,0 \cdot 10^{-6}$	$1,77 \cdot 10^{-4}$	$1,34 \cdot 10^{-5}$	$6,4 \cdot 10^{-5}$ $2,9 \cdot 10^{-5}$
$\lambda_\infty, Sm \cdot sm^2 / g \cdot ekv$		391	383	404	386	381

LABORATORIYA ISH № 27 ADSORBSIYA

Ishning maqsadi.

- Suyuq va qattiq fazalarda adsorbsiyani kuzatish.
- Adsorbsiya izotermasini tuzish.
- Freyndlix tenglamasidagi a va n qiymatlarini topish.

Ish uchun kerak bo'ladigan asbob va reaktivlar

Og'zi po'kak bilan berkitilgan 250 ml li kolba 150 ml li oltita konussimon kolba, 50 ml li pipetka, 20 ml li pipetka, 10 ml li pipetka, 5 ml li pipetka, 0,1 ml ulushlarga bo'lingan 50 ml li byuretka, filrlash uchun 6 ta voronka, filtr qog'oz, hayvon suyagi ko'miri. Eritmalar: 2 n li sirkas kislota, 0,1 n li o'yuvchi natriy, fenolftalein eritmalar

Ishning bajarilishi

1- tajriba. Sirkas kislotaning hayvon suyagi ko'miri sirtiga qanday adsorbsiyalanishini o'lchash.

Sirkas kislotaning 2 n li eritmasini suyultirib, oltita kolbada taxminat tubandagicha konsentrasiyalı eritmalaridan shu ko'rsatilgan miqdorda tayyorlanadi.

1 - jadval

Kolbalar raqami	1	2	3	4	5	6
Eritma miqdori, ml hisobida	150	150	150	125	110	105
Normal konsentrasiya hisobida	0,012	0,025	0,05	0,1	0,2	0,4

Eritmada bo'ladigan sirkas kislotaning miqdori natriy gidroksidning 0,1 n li eritmasi yordamida titrlanib topiladi. Buning uchun 1, 2 va 3- kolbalardan 50 ml dan, 4 kolbadan 25 ml, 5 kolbadan 10 ml va 6 kolbadan esa 5 ml eritma pipetka bilan o'lchab olinadi. Kolbaning har biridan 100 ml eritma qoladi. Har qaysi kolbaga 3 g dan hayvonot suyagi ko'miri solinib, 10 minut davomida yaxshi chayqatiladi. Har qaysi kolbadagi aralashma alohida - alohida qog'oz filtr orqali filtirlanadi. Filtratning har qaysidan pipetka bilan avval olingancha miqdorda namuna olib titrlanadi va unda har qaysi sirkas kislota bor ekanligi topiladi. Titrlashdan chiqqan natijalar 100 ml eritmaga hisoblanib, keyin ular orasidagi farq topiladi.

Sirkas kislota eritmasi ko'mir qo'shilmasidan oldin titrlanib, uning dastlabki konsentrasiyasi C va filtrat titrlanib, uning adsorbilangandan keyingi konsentrasiyasi C_1 topiladi, yani: $X = C - C_1$

Chiqqan natijalaridan foydalanim grafik chiziladi. Buning uchun C_1 ning qiymatlari absissa o'qiga x/m ning qiymatlari esa ordinata o'qiga qo'yib chiqiladi. Hosil qilingan egri chiziq adsorbsiya izotermasi bo'ladi: a bilan n qiymatlarini grafik tuzish yo'li bilan topish uchun yuqorida ko'rsatilgan kabi $\lg C_1$ ning qiymatlari absissa o'qiga $\lg x/m$ ning qiymatlari esa ordinata o'qiga qo'yib chiqiladi. Shu yo'l bilan topilgan nuqtalar bir to'g'ri chiziqda yotishi kerak; **m** – erituvchining og'irligi.

Topilgan to'g'ri chiziqning absissa o'qiga nisbatan qiyaligi burchagini tangenisi o'lchanadi, bu n qiymatni beradi; to'g'ri chiziq ordinata o'qi bilan kesishgan nuqtadan to kordinata boshigacha bo'lgan masofa lga ning qiymatiga to'g'ri keladi.

Kuzatish natijalarini yozish tartibi

2 - jadval

Kolba raqamlari	Taxminiy konsentrasiya	C	C_1	$C - C_1 = X$	x/m	$\lg C_1$	$\lg x/m$
1							
2							
3							
4							
5							
6							

LABORATORIYA ISHI № 28

Polimerlarning molekular massasini viskozimetrik usul bilan aniqlash


Ishning maqsadi: Turli xil konsentratsiyali polimer eritmalar qovushqoqligini aniqlab, molekular massani hisoblash.

Reaktivlar: poliakrilamid, polivinilpirrolidon, polistirol, polimetilmekatrilat yoki boshqa polimerlar (o‘qituvchi tomonidan beriladi) ni 0,2 g/100 ml konsentratsiyali eritmalar.

Jihozlar: termostat, modifikatsiyalangan Ubbelode viskozimetri (rasm 5.5), sekundomer, pipetka, (10 ml li), rezina naycha, rezina nok.

Ishning bajarilishi: Ishning bajarilishi uchun polimer, erituvchi va xarorat kitobning ilova qismida keltirilgan jadvalga asosan tanlanadi. Bu jadvalda tajriba sharoiti uchun

Mark-Kun-Xauvink tenglamasining K va α qiymatlari ham keltirilgan.



Rasm-5.5. Viskozimetr.

Avvalo toza quritilgan viskozimetrga (1) erituvchi quyiladi va 4 sharchaning yuqori qismigacha, 3 naycha berkitilib turgan xolda, rezina nok bilan ko‘tariladi. 3-naychaning og‘zi ochilganda erituvchi sharchadan viskozimetring pastki qismiga oqib tusha boshlaydi. Sharchaning tepasiga qo‘yilgan belgidan to kapillyarning yuqori qismidan oqib o‘tish vaqtiga 3-4 marta sekundomer yordamida o‘lchanadi. Shundan so‘ng toza, quritilgan viskozimetrga birinchi eritma quyiladi. Eritmaning hajmi (odatda 7-8 ml) viskozimetring kapillyar, yuqori va pastki sharchalarining to‘lishiga yetarli bo‘lishi kerak. Polimer eritmasi pipetka orqali aniq o‘lchanishi lozim.

Birinchi quyilgan eritmani ham xuddi erituvchi bilan ishlangan tartibda viskozimetr sharchasidan o‘tish davri o‘lchanadi. Polimer eritmalarini suyultirish shu viskozimetring o‘zida bajariladi. Buning uchun dastlab olingan eritmaning ustiga teng hajmda pipetka orqali erituvchi quyiladi, 15-20 daqiqa eritmani muvozanatga kelguncha va uning xarorati termostat xaroratiga tenglashguncha kutib turiladi. Eritmani suyultirish kamida 3 marta amalga oshiriladi. Eritmaning har bir konsentratsiyasida bajariladigan ishlar xuddi yuqorida bayon etilganidek bajariladi. Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Jadval

	Eritmaning konsentrasiysi	toza erituvchi ning oqish vaqtি, sek, τ_0	eritmaning oqish vaqtি, sek, τ_1	$\eta_{\text{нисб}} = \frac{\tau_1}{\tau_0}$	$\eta_{\text{сол}} = \frac{\tau_1}{\tau_0} - 1$	$\eta_{\text{кељ}} = \frac{\eta_{\text{сол}}}{C}$

Topshiriq: Olingan natijalardan $\eta_{\text{keл}}$ qovushqoqlikning konsentratsiyaga bog‘liqlik grafigi chiziladi. Grafikdan xarakteristik qovushqoqlik topiladi va Mark-Kun-Xauvink tenglamasi $[\eta] = KM^\alpha$ dan foydalanib polimerning molekular massasi xisoblanadi. K va α larning qiymatlari ilovada keltirilgan jadvaldan olinadi.

LABORATORIYA ISHI № 29

Jelatinaning suvli eritmalarda bo‘kishi

Reaktivlar va asboblar: Bo‘kish darajasini topish uchun asbob; 25 ml li pipetka; analitik tarozi; metalik simob; asbob o‘lchamiga to‘g‘ri keladigan jelatina doiralari. 0,1 n. natriy xlorid eritmasi; distillangan suv.

Asbobning tavsifi

Bo'kishni o'lhash uchun ishlatiladigan asbob 32-rasmida sxema tarzida ko'rsatilgan. Bu asbob tagi g'ovak shisha tigeldan iborat bo'lib, voronka (2) ga o'rnatiladi, bunda asbob hamda voronkaning bir-biriga tegib turadigan joyi silliqlangan bo'lgani uchun ular zinch tegib turadi; voronka esa qalin rezina nay yordamida byuretka (3) bilan tutashtirilgan.


Tajriba. Doira shaklida yasalgan jelatina plastinkasi (o'qituvchidan olinib) quritish shkafida 105°C temperaturada o'zgarmas og'irlikka kelguncha quritiladi.

Asboddagi voronka (2) ga simob quyiladi, bunda simob tigelning g'ovak tagining past tomoniga tegib turishi kerak; bu vaqtida byuretkadagi simob meniski shkalanling nol belgisi ustida yoki undan sal yuqoriroqda (byuretkaning nol belgisi shkalanling pastida) bo'ladi. Simobning ana shu holati belgilab olinadi. Shundan keyin byuretka past tushiriladi, tigel (1) chiqarib olinadi, doira shaklidagi jelatina plastinkasi simob ustiga qo'yiladi, tigel yana voronkaga joylanadi va byuretkani yuqoriga ko'tarib, jelatina plastinkasi tigelning g'ovak tagiga siqiladi. Byuretkadagi simob meniski qaysi joyda turgani yozib olinadi; plastinkaning hajmi har ikki marta o'lchanganda olingan qiymat farqiga teng bo'ladi.

Shundan keyin tigel (1) ga 25-30 ml erituvchi (suv yoki 0,1 n. natriy xlorid eritmasi) quyiladi. Byuretka pastga tushiriladi va erituvchining bir qismi voronkaga o'tkaziladi; shu vaqtida tajriba boshlandi deb hisoblanadi.

Ma'lum vaqt (masalan, 24 soat) o'tgandan keyin bo'kkан iviqning hajmi byuretka yordami bilan o'lchanadi va bo'kish darajasi hisoblab chiqariladi. Tajriba vaqtida tigel (1) va voronka (2) sira qimir-lamasligi zarur.

Asbob qimirlab ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun, biror ustunchaga mahkamlanadi. Tigel (1) ning yuqori tomoniga (76-rasmga qarang) yog'och yoki ebonit doira (4) qo'yiladi, doiraning chetida aylana bo'ylab ariqchasi bor, u tigelning qirrasiga tushib turadi.



32-rasm. Bo'kishni o'lhash uchun ishlatiladigan asbob:

1-osti g'ovak shishadan yasalgan tigel; 2-voronka; 3-byuretka; 4-ebonit doira; 5-teshikli doira; 6-temir bolt; a-tigel hamda voronkani bir-biriga jipslab mahkamlash sxemasi.

O'rtasi teshik ikkinchi doira (5) esa voronka (2) ning past tomonidan kiydiriladi. Doira (5) bilan voronka oraligiga rezina probka yoki po'kak probkadan qistirma qo'yiladi. Yuqorigi va pastki disklar 76-rasm, a da sxema tarzida ko'rsatilgandek, temir boltlar yordamida tortib mahkamlanadi.

